

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**



**SAN’AT VA MADANIYAT MASALALARI
YOSHLAR NIGOHIDA**

**Institut magistrantlarining V an’anaviy ilmiy-nazariy
konferensiyasi**

M A T E R I A L L A R I

TOSHKENT – 2017

UDK 7(575.1)
KBK 85(50')ya1
71(50')ya1

Mazkur to'plamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olayotgan magistrantlarning ilmiy-tadqiqot izlanishlari natijasi bo'lgan ishlari o'rin olgan. Mazkur maqolalarda o'zbek san'ati va madaniyatining bugungi ahvoli, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, o'zbek teatrining istiqboli, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, madaniyat muassasalarining ijtimoiy hayotdagi o'rni va xalq og'zaki ijodi kabi turli masalalar yosh olimlar tomonidan tahliliy va kreativ mazmunda yoritilgan.

Mas'ul muharrir:

Hamdam Ismoilov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Oltinoy Tojiboyeva – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Omonulla Rizayev – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Konferensiya materiallari institut Kengashida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan (Kengashning 2017-yil 2-apreldagi 9-sonli bayonnomasi)

To'plamda keltirilgan ma'lumotlarning xolisligiga mualliflar hamda ilmiy rahbarlar javobgardir.

ISBN 978-9943-381-04-9

© «Navro'z» nashriyoti, 2017

So‘z boshi

Yurt kelajagi yoshlar qo‘lida ekan, avvalo, ta’lim-tarbiya sohasiga alohida e’tibor qaratish birlamchi vazifalardan bo‘lib qolaveradi. Ayniqsa, malakali kadrlar tayyorlash, xususan, ilm ostonasidagi magistrantlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ertangi kun istiqboli uchun mustahkam asosdir. Chunki oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar safi aynan magistranlar hisobiga kengayib boradi, davlatimiz ilmiy salohiyatini jahonga tanitishda ham turli mutaxassisliklar bo‘yicha bugun mustaqil tadqiqotlarga kirishgan magistrantlar hal qiluvchi o‘ringa ega, bir so‘z bilan ularni hamkasblar deb atasak, sira mubolag‘a emas.

Institutimizda har yili an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “San’at va madaniyat masalalari yoshlar nigohida” nomli ilmiy-nazariy konferensiya ham magistrantlarning bir-birlari bilan fikr almashishi, izlanishlar natijasini keng doirada muhokama qilishi, soha bo‘yicha yechimi kutilayotgan masalalarga oid taklif va mulohazalarini bildirishlari uchun yaxshi imkoniyat. E’tiborli jihat, munozara uchun tanlangan mavzular ilmiy asoslangani, yosh tadqiqotchilarning muammoga oid qarashlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jarayonlar rivoji uchun turtki bo‘larli shaklda olib chiqishlari bilan ahamiyatlidir.

Konferensiyaning yana bir ijobiy tomoni, magistrantlarni minbarga chiqqunga qadar ma’lum izlanishlar kursidan olib o‘tishidir. Xususan, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha aniq bir muammoli masalani belgilab olishdan to ilmiy rahbar bilan shu mavzu doirasida ish yuritish, uni tegishli talablar asosida maqola sifatida yoritish, bunda yozuv malakasini shakllantirish va manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilish mobaynida kechadigan jarayonlar magistrantlar uchun ertangi katta ilmiy davrlar va yakuniy himoyalar uchun fundamental tajriba vazifasini o‘tashi, shubhasiz.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2017-yil 20-aprel) hamda

“2017-2018 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida”gi (2017-yil 5-may) huquqiy hujjatlari yoshlarning yanada puxtarok bilim egallashlari va pirovardida yetuk kadrlar bo‘lib yetishishiga zamin hozirlashi aniq. Qarorda ta‘kidlanganidek, har bir oliy ta‘lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta‘lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o‘quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o‘tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta‘lim muassasalaridan yuqori malakali o‘qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta‘lim muassasalari magistrant, yosh o‘qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o‘tashlarini, professor-o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, magistratura ilmiy-ta‘lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish, oliy ta‘lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta‘limda ilm-fanni bundanda rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga keng jalb etish masalalari birlamchi vazifalar sifatida belgilangan. Bu kabi chora-tadbirlar yoshlar salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik maqsadlar ijrosini ta‘minlashda muhim asos bo‘lib, xususan, magistratura kursini samarali tashkillashtirishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Shunga binoan, institutimizda o‘tkazib kelinayotgan ilmiy konferetsiyalar ham o‘zining dolzarbligi va yuqori saviyasi bilan ajralib turmog‘i zarur. Chunki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va eng muhimi, ma‘naviy hayotiga ta‘sir ko‘rsatishda san‘at va madaniyat sohalari oldingi o‘rinda turadi. Unda kechayotgan jarayonlarga nazariy jihatdan yondashib, mavjud muammo va kamchiliklarni tadqiq va tahlil etish bo‘lajak mutaxassislar zimmasidagi eng asosiy vazifalardan

biri hisoblanadi. Shu bois konferensiyaga shunchaki rasmiy tadbir sifatida emas, balki jiddiy bahs-munozaralar kechadigan ilm maydoni deb qarash o‘rinlidir. Bunga tashkiliy guruh a‘zolaridan tortib, pedagog va talabalargacha – barchasi birdek mas’uldirlar.

Mazkur to‘plam ham magistrantlar qatori bakalavr yo‘nalishidagi talaba yoshlar hamda sohaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun yaxshigina qo‘llanma bo‘lib qoladi, degan umiddamiz.

Baxtiyor Sayfullayev

O‘zDSMI rektori, professor

TELESERIALLARDA TARIXIY SHAXSLARNI AKS ETTIRISHNING AHAMIYATI



Abdumannonov Sardor

“Kino va televideniye rejissyorligi”

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

*Ilmiy rahbar: O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan madaniyat xodimi B. Odilov*

*“O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi
kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”¹.*

I.A.Karimov

Bugungi kunda san‘atning har bir turi – teatr, musiqa, raqs, adabiyot, kino va tasviriy san‘at ijodkorlari o‘z asarlarida umuminsoniy g‘oyalar bilan bir qatorda eng ulug‘ ne‘matimiz – mustaqillikning o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilmagani, bu yo‘lda necha-necha ajdodlarimiz qon kechib, jon berganligini o‘z asarlarida haqqoniy aks ettirishlari talab etiladi. Ayniqsa, millatimiz faxri bo‘lgan buyuk siymolar, ulug‘ ajdodlarimiz qiyofasini yana-da jonli aks ettirish, ularning bosib o‘tgan hayot yo‘li va faoliyatini yoritishda san‘atning ko‘pgina turlari muhim o‘rin tutadi. Biroq mahorat bilan chizilgan portret yoki kitobdan olingan taassurot insonga ekran san‘atidagidek jonli ta’sir ko‘rsata olmaydi.

O‘tgan asrda tarixiy mavzu va tarixiy shaxslar hayoti, faoliyati asosida “Ajal minorasi” (ovozsiz film, 1924), “Tohir va Zuhra” (Sharq afsonasi asosida, 1945), “Alisher Navoiy” (1947), “Amirlikning yemirilishi” (1955), “Abu Ali ibn Sino” (1956), “Furqat” (1959), “Hamza” (1960), “Osiyo ustida bo‘ron” (1964), “Ulug‘bek yulduzi” (1964), “O‘tkan kunlar” (1969), “Abu Rayhon Beruniy” (1974), “Dahoning yoshligi” (1982), mustaqillikdan so‘ng esa “Buyuk Amir Temur” (1998), “Alpomish” (xalq dostoni asosida, 2000) kabi filmlar suratga olindi va aksariyati muvaffaqiyat qozondi. Sababi, o‘tmish manzaralari har doim tomoshabinni qiziqtirib, diqqat markazida bo‘lib kelgan hamda film ijodkorlari –

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

rejissor, aktyor, operator, rassom va boshqalar o'z vazifasini yetarli darajada ado etishgan.

Tomoshabin ushbu filmlarni zavq bilan tomosha qiladi. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, tarix cheksiz, hayoti va faoliyati tasmaga muhrlangan allomalar amalga oshirgan ishlarning salmog'i ham shunga yarasha. Rejissor o'rtacha bir-bir yarim soat davom etadigan badiiy filmda barcha tarixiy hodisalarni to'liq qamrab ololmaydi. Ularni ixchamlashtirishga, qisqartirishga majbur bo'ladi. Bu jarayonda esa istaymizmi, yo'qmi filmning ham ta'sir kuchi ham u beradigan xronologik ma'lumotlar sezilarli darajada ozayadi.

XX asrning oxirlarida ayni shu masala o'zbek kinoijodkorlari uchun yangi bir yo'nalishda ijod qilish haqida o'ylab ko'rishni taqazo etdi. Avvalgi yirik bir voqelikni qisqa reglamentga² "sig'dirish" muammosi yechilgandek edi. Muallif-rejissor o'z g'oyasini endi salmoqdor va batafsilroq tarzda tomoshabinga yetkazib berish uchun filmni ko'p qismli (serial) shaklda suratga ola boshladi.

Serial [*ingl.* serial < *lot.* series – qator] ko'p seriyali, ko'p qismli davomli film (ko'pincha uncha talabchan bo'lmagan tomoshabinlarga mo'ljallanadi, shuning uchun badiiy jihati pastroq bo'ladi).³

Ammo endi boshqa bir muammo yuzaga keldi. Tomoshabinda har kuni bir vaqtda serialning davomini kinoteatrda borib, ko'rib kelish imkoniyati yo'q edi. Shu tariqa kino o'z mahsulotini televideniye taqdim etdi va shundan boshlab seriallar televideniye orqali uzatilib, televideniye uchun maxsus (televizion serial yoki qisqacha - teleserial) suratga olinib boshlandi. Teleseriallar uzoq vaqt davom etganligi bois, uni bir xil hajmda (masalan: 30 daqiqa), bir xil vaqtda (masalan: har kuni soat 20:00 da), uzluksiz ravishda efirga uzatish odat tusiga aylandi.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrdan bugungi kungacha "Shaytanat", "Ko'ngil ko'chalari", "Charhpalak", "Ostona", "Bir kam dunyo", "Qaytar dunyo", "Tutash taqdirlar", "Bog'", "Lafz", "Iymon", "Opa-singillar", "Mehmonjonlardan

² Reglament – chegaralangan vaqt.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati 3-jild. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 485-bet.

aylanay”, “Qirq tog‘oraning qirq nog‘orasi”, “Umidingni so‘ndirma”, “Serjantlar”, “Mehmonxona”, “Hayot jilg‘alari”, “Oltin davrim”, “Imtixon”, “Zurriyot” va boshqa o‘nlab turli mavzu va yo‘nalishlardagi teleseriallar namoyish etib kelinmoqda. Biroq og‘riqli nuqtamiz shundaki, “Alisher Navoiy” telespektakli, “Amir Temur”, “Yulduzli tunlar”, “Ulug‘bek xazinasini” kabi ko‘p qismli videofilmlarini hisobga olmaganda, bugungi kungacha tarixiy mavzuda biror-bir ko‘zga ko‘rinarli milliy teleserial suratga olinmagan. Yuqoridagi sanoqli ekran asarlarining sifat darajasi ham havas qilarlik emas.

O‘zbek teleserial muhlislari milliy telekanallar orqali xorijiy mamlakatlarning o‘tmishi, tarixiy qahramonlari haqidagi seriallarni maroq bilan tomosha qilib, e’tirof etishmoqda. Jumladan, hind xalq eposlari asosida suratga olingan “Ramayana”, “Mahabhorat”, yapon teleserial ijodkorlarining “Oshin”, Koreaning “Dengiz hukmdori”, “Saroy javohiri”, “Jumong”, “Sheryurak”, “Imperator ayol”, “Saroy shamoli” kabi teleseriallari tomoshabinni ekran qarshisiga “mixlab” qo‘ydi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ulardagi aktyorlar ijrosi, davrga mos libos va grimlar, bino va manzaralar, qurol-aslahalar yaxlit mutanosiblikda suratga olinganligini, aktyorlar ijrosi, rejissyor, operator, rassom va bastakorlarning mahorat bilan ishlaganini kuzatish mumkin.

Aytish joizki, mahoratli o‘zbek ijodkorlari ham bu kabi teleseriallarni suratga olishga qodir. Buning uchun ijodiy ishning moliyaviy jihatidan tashqari boshqa masalalarga ham jiddiy e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Jahon teleserial yaratish tajribalaridan kelib chiqqan holda masalaning yechimini quyidagicha belgilash mumkin:

- Avvalo, teleserial, umuman, ekran san’atining asosi bo‘lgan senariyni har jihatdan mukammal va puxta yaratishda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi (tarixchi), O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi (yozuvchi - ssenarist), “O‘zbekkino” milliy agentligi (rejissyor) o‘rtasida munosib hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- Tashkiliy va ijodiy guruhni shakllantirishda o‘z sohasi bo‘yicha ko‘plab yutuqlarga erishgan, qobiliyatli, salohiyatli mutaxassislarni jalb etish;
- Serial uchun aktyorlarni tanlov-kasting orqali sinovdan o‘tkazib, rol taqsimlash kabilar.

Yuqoridagi kabi taklif va mulohazalar chegara bilmaydi. Endi oldimizdagi ko‘ndalang vazifa esa, masalaga jiddiy e‘tibor qaratilib, uning turfa yechimlarini amalda sinab ko‘rishdir. Zero, mamlakatimizda ilmiy-ijodiy kashfiyotlar uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan va bu imkoniyatlarimizni tarannum etuvchi, butun jahonga fahr bilan ko‘z-ko‘z qilishga arzigulik boy tariximiz, ulug‘ ajdodlarimiz, bebaho madaniy merosimiz bor.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi;
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008;
3. Aliyev M. – Kino asoslari;
4. O‘tayev O‘. – Televideniye – davr ko‘zgusi;
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 3-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.

СОВРЕМЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА УЗБЕКСКОГО НАРОДА



Абдуллаев Абдурауф

Специальность «Культурология»

магистрант 1-го курса ,

Научный руководитель: И.Абдурахмонов

Формирование современных взглядов на традиционные формы жизни и длительные природные явления в тоже время регулярно продолжающийся сложный процесс. Здесь само время требует развития экологической культуры не смотря на профессию и общественное положение народа. Соответствие активности, цели и пользы с сохранением окружающей среды-свидетельство в какой степени развита экологическая культура общества. Экологическая культура определенно говоря, это сохранение и изучения природных закономерностей не причиняя вреда окружающей среде. Прогресс экологической культуры связан с передачей данного развития экологического сознания людей с усилением пропаганды. Поэтому, в основе экологической культуры лежит экологическое воспитание. Надо особо отметить, что понятие экологической культуры можно понимать в широком и узком значении. В широком значении экологическая культура – это охрана окружающей среды и система деятельности, направленная на целевую охрану окружающей среды. Если изъяснять, точнее экологическая культура в широком смысле это комплекс материальных и духовных ценностей в процессе общественно-исторической практики народа, направленная на защиту окружающей среды. А в узком значении-это практическая и теоретическая деятельность людей как культура, направленная на защиту окружающей среды.

За годы независимости накопился определённый опыт по ликвидации экологических проблем и их негативных последствий. Но задача решения

масштаба и объёма оздоровительной проблемы окружающей среды в нашей стране потребовали объединения усилий государственных органов, общественных организаций и народа. В настоящее время одна из самых главных проблем является обращение внимания широкой общественности на проблемы сохранения окружающей среды и её защиты. Поэтому, повышение культуры народа по защите окружающей среды должно быть в центре внимания у государственного управления и духовно-просветительских организаций.

В Узбекистане на всех этапах образования преподаётся предмет экология. Этот предмет изучает условия жизни живых организмов и их взаимо-сложные связи с окружающей средой, а также возникающие при этом закономерности. В настоящее время в результате влияния технологического процесса на окружающую среду постепенно расширяется понятие “экологической культуры”. Мы часто используем в повседневной жизни понятия сохранение “экологии” и “защита природы”. Значит, какие сходства и различие существуют между этими понятиями?

Когда речь идёт о “Защите природы” мы понимаем природу вообще или защиту некоторых её компонентов, как земля, воздух, растительный мир, животный мир. “Экология” тоже берёт на себя эту задачу. Но, она входит в состав естественных наук, изучающих жизненную среду всех живых организмов, их взаимных отношений.

Значит, экология - это, учение, направленное на устойчивую безопасность природы и человечества.

В воспитании экологического сознания общественности важно объяснить о единой общности природы, взаимосвязи явлений и процессов в целом, изменений отношений к окружающей среде, учении о биосфере, об эволюции органического мира и что основу всех природных явлений составляет единство химических, биологических и физических процессов. Несомненно, в этом отношении, в воспитании молодого поколения

экологическая культура занимает большое место, учащиеся школ и студенты высших учебных заведений изучают причины возникновения экологических проблем, их сущность, роль экологического равновесия в жизни живых организмов, их охрану и использования природных ресурсов, свойств, связанных с сохранением равновесия экосистемы в природе.

Хотя понятие этноэкологическая культура с древних времён в какой-то мере была в жизни всех народов, но в науке, как отдельное направление оно было выдвинуто западными учёными во второй половине XX века⁴.

В начале 50-х годов XX века по географическим размещением народов и их особенностями расселения появилась наука - этногеография.

Этногеография - отдельное научное направление служило фундаментом и для этнической экологии. И так, понятие «Этническая экология» в начале 80-годов вошло в научное обращение⁵.

На формирование этнической экологии, как науки, значительно подействовало книга американской учёной - антрополога Джулиан Стюард концепция «Культурная экология», а также, появившаяся в США этноэкологическая школа и направления⁶.

В развитии этнической экологии важную роль сыграли исследования В.П. Алексеева. Результаты своих исследований В.П. Алексеев обосновал в концепции, «антропогеоциноз» основывался на неё антропогеоциноз рассматривается как коллектив, создающий хозяйство и освоенная им единая территория⁷.

Главные особенности антропогеоциноза, следующие: коллективное хозяйство, производственная деятельность, традиционное место обитания, продукты и одежда населения, живущих в различных географических регионах, взаимообмен опытом труда играют важную роль в жизни этноса.

⁴ Orlov B. C. Ecological anthropology // Annual Rev. of Anthropol.-1980. Vol. 9. Pp. 235–273.

⁵ Козлов В. И. Многоаспектность этнической экологии. Этноэкологические исследования.-Сборник статей к 80-летию со дня рождения В.И. Козлова. – М.: Старый Сад, 2004. – С. 8–9.

⁶ Садохин А. П. Этнология. – М.: Гардарики, 2008. – С. 76–78.

⁷ Алексеев В. П. Антропогеоценозы – сущность, типология динамика // Природа. 1975. № 7. – С. 20.; Алексеев В. П. Очерки экологии человека. – М., 1993. – 191 с.

Нужно отметить, что национальные традиции также помогают приспособливаться к жизненной (природной и культурной) среде этноса.

Например, если хозяйственный быт коллектива основывается на охотничьем промысле, то их жизнь непосредственно связана с богатством профессий и ремёсел, в местах обитания, а в противном случае для существования этноса появляются опасности и сложности. В общем жизнь и деятельность этноса и окружающее её природная и культурная среда составляет экологическую систему.

В настоящее время формируется понятие «этноэкосистема». Группу людей, которые живут от других групп в отдельных условиях удовлетворения жизненно – важных потребностей, связанных традициями и стилями, называют экосистема.

В кругу этноэкосистемы, демографическая ситуация – это способность снова восстанавливать равновесие, нарушенное между ростом и снижением населения. Это в основном выполняется через миграции, а также осваивания условий коллективного быта, ускорения использования природных ресурсов. А это в основном связано с приспособлением этноса в социально-культурных условиях проживания региона. По этой причине требуется сознательном образом привести в порядок демографический процесс.

Прогресс науки и техники, развитие знаний по защите окружающей среды, а также взаимное обострение между природной и общественной системой привело к тому, что экология отделилась от одной части биологии, и стала формироваться в качестве отдельной науки. Экология войдя во все сферы естественных наук, охватила являющиеся важными сферами общества значительные поприща политических, экономической, культурной, общественных наук.

Несмотря на политическое направление экологического движения Узбекистана, созданного 2008 года 2 августа, касающихся всех по защите окружающей среды, улучшение экологического положения,

государственного решения по отношению к проблемам защиты здоровья людей, мобилизация действий юридических и физических лиц.

15 депутатов Олий Мажлиса Республики Узбекистан избираются исходя из административно-регионального установленным экологическим движением Узбекистана. Территориальное деление даёт понять насколько огромное внимание уделяется в государственной политике экологическим вопросам.

Насколько развивается материальная и духовная культура народа, настолько глубоко изучается её история. Жизненные условия, обряды и традиции каждого народа формируются на протяжении его исторического развития. В частности это характерно, для одного из исторических этнографических регионов в Ферганской долине, несмотря на многовековые экономические, политические изменения, они сохранили национальные особенности на протяжении многих веков.

Экологическая культура в качестве сложного и многогранного явления касается всех сфер общественной жизни. В свою очередь нельзя поднять любую сферу в жизни без развития экологической культуры. Это состояние указывает на общественные особенности экологической культуры, её установленное общественное развитие. Итак это даёт возможность правильно понять её сущность и присоединит её к конкретной исторической экологической культуре.

Задачу регулирования экологической культуры можно наглядно увидеть в обрядах и обычаях. Конечно, если каждая норма культуры превратится во внутреннюю веру человека, то она может выступит в качестве налаживающего фактора его действий. И поэтому мы можем узнать в какой мере население освоило нормы экологической культуры через то как они ведут себя в различных ситуациях. Итак, деятельность людей, налаживание отношений, формирование бытовых условий, подчинение определённым

нормам общественных отношений считается одним из важных особенностей культуры.

Если экологи, географы, этнологи, социологи и правоведы все вместе в рамках менталитета народа, разработали экологический правовой кодекс, то достигнули бы намечаемой цели. К тому же освещение теоретических знаний в данных сферах через средства массовой информации с помощью спец программы позволяет достигнут прогресса экологической культуры народа.

Растительный и животный мир не только наше бесценное богатство, но и будущего поколения, которым они должны будут пользоваться.

В итоге из этого следует, что ведущие научные специалисты, экологи, географы, этнологи, социологи и правоведы должны усилить пропагандистскую работу для развития современной экологической культуры из-за потребности поднять народную современную экологическую культуру на новую ступень. Следовательно, имея в виду актуальность этой проблемы для общественной жизни республики нужно обратить и серьезное внимание на его научно-практическую значимость.

Резюме

В статье на основе историко-этнографического материала проанализированы экологические взгляды разных этносов, которые являются создателями своеобразной культуры, также концепции, связанные с системой внедрения в жизнь, влияние окружающей среды на жизненный образ этноса, формирование экосистем и закономерности их существования.

BADIIY MADANIYATNING ESTETIK OMILLARI



Alijanova Nargiza
“Madaniyatshunoslik”
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent Sh.Qo'ldoshev

Bugungi rivojlanayotgan jamiyat insonlardan ma'naviy, estetik, axloqiylikni, bir so'z bilan aytganda intellektual tafakkurni talab etmoqda. Binobarin, jamiyatning komillik darajasi nafaqat yetuk intellektuallik bilan, balki yuksak madaniyatlilik bilan hamohangdir. Glaballashuv sharoitida yuz berayotgan turli xildagi ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan ma'naviy ehtiyojni axloqiy va estetik tarbiya orqali to'ldirish mumkin.

Estetika inson bilan dunyo o'rtasidagi qadriyat munosabatlarining o'ziga xos tomonlarini va kishilarning badiiy faoliyati sohasini o'rganuvchi fan. Estetikaning sinonimi sifatida go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanilib kelingan.

Estetik tarbiya ma'naviy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, hozirga qadar adabiyotlarda “estetika” fani go'zallik, nafosat va badiiy ijod namunasi sifatida chegaralanib kelgan. Lekin ba'zi olimlar esa estetikani inson va olam uyg'unligi munosabati bo'yicha belgilamoqdalar. Bunga misol tariqasida esa taniqli rus nafosatshunosi V.V.Bichkov shunday yozadi: “Estetika – bu insonning Unversum (lot.universalum – umumiy, olam, koinot) bilan bo'lgan uyg'unligi, ma'naviy gedonizm (yunon. Hedone – rohatlanish) haqidagi fandir”⁸, deb tariflaydi. G'oyalar ma'naviy rohatlanish orqali inson qalbidan chuqur o'rin egallaydi, hayoti faoliyatining ichki mazmuni, motivga aylanadi.

“Ma'lumki, jamiyat hayotining ma'naviy yangilanishi silliq, bir tekisda kechadigan jarayon emas, unga ma'naviy kemptiklik va aksilma'naviyatning rang-barang hodisalari salbiy ta'sir etishi mumkin. Ma'naviyatsizlikni o'ta salbiy

⁸ Bichkov V.V. Estetika. Kratkiy kurs. M

ko'rinishini ifodalovchi "aksilma'naviyat" tushunchasi esa turmush tarzini tuban manfaat va maqsadlarga, g'ayri insoniy tamoillarga boysundirish, yovuzlik va pastkashlikni targ'ib qilish va shu asosida faoliyat ko'rsatishini bildiradi. Bu falsafiy-estetik ma'nodagi pastkashlik va hunuklik bo'lib, uni bartaraf etmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi".⁹

Hozirgi estetik tarbiyaning vazifasi faqat o'ziga xos xususiyati bilan emas, balki milliy mustaqillik mafkurasini vositasi vazifasini o'tashligi – milliy g'oyani jamiyat a'zolarining ma'naviy ehtiyoji, hayotiy faoliyatining motivga aylantirish maqsadi bilan belgilanadi.

Badiiy estetik qadriyatlar insonning ruhiy – psixologik olami, milliy ongi va hayot tajribasi bilan uzviy bog'langanligi bois uning ma'naviy kamolotida, his tuyg'ular tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Nemis faylasufi Gegel yozganidek "Estetik hissiyotga ega bo'lmay turib, biror sohada ma'naviy yuksaklikka erishib bo'lmaydi".¹⁰

Insonni ma'naviy boyligini, dunyoqarashini, uning ruhiy olami go'zalligini dunyoni estetik anglash tashkil etar ekan, badiiy madaniyat – jamiyat ma'naviy hayotining asosiy qismi bo'lib qoladi. Badiiy madaniyat shaxsning estetik didini va xulq madaniyatini belgilaydi, uning axloqini shakllanishiga ta'sir qiladi. Oqibatda, badiiy madaniyat adabiyot, kino, musiqa, teatr, tasviriy va amaliy san'at vositalari orqali ijtimoiy munosabatlarni shakllanishiga, omma ongiga milliy istiqlool g'oyasini singdirishga ta'sir qiladi. Bundan kelib chiqib shuni aytish lozimki, badiiy madaniyatning asosiy o'zagini san'at tashkil etadi.

Ammo bu bilan badiiy madaniyatni san'at bilan chegaralab qo'yish ham to'g'ri emas. Chunki badiiy madaniyat badiiy qadriyatlar majmuini ham o'z ichiga oladi. "Badiiy madaniyat jamiyat ma'naviy hayotining badiiy-estetik sohalari taraqqiyoti, badiiy qadriyatlarni saqlab qolish va yangi badiiy shakillarni vujudga

⁹ Sobirova Z. "jamiyat ma'naviy hayoti yangilanishining badiiy-estetik omillari" f.f.n. diss.. 2004

¹⁰ Gegel G.-V – F raboti raznix let-M.: 1970

keltirishi san'at janr turlarining bir-biriga o'zaro ta'siri orqali boyishi bilan ham bevosita bog'liqdir.”¹¹

Yuqorida badiiy madaniyat san'atning barcha turlarini o'z ichiga oladi deya takidlandi, demak san'atning ijtimoiy-badiiy tarbiyaviy funksiyalari xalq hayotini ma'naviy jihatdan farovonlashtirishga qaratilgandir. Shuning uchun ham san'at hayotni anglashga, uni uyg'unlashgan holda takomillashtirishga va kishilarni badiiy-estetik tarbiyalashga xizmat qiladi. Zotan, san'atgina, boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqli ravishda, ma'naviy rohatlanish jarayoni bilan kechadigan ko'p vazifani bajarishlik tabiatiga ega estetik fenomendir.

Yaratilgan haqiqiy san'at asari hamma vaqt hayot bilan hamohang bo'lsagina xalq e'tiboriga, uning olqishiga sazovor bo'ladi. Jamiyatda insonlardagi mavjud barcha salbiy illatlarni san'at mohirona ko'rsatib beradi hamda insonparvarlik g'oyalarini ham zavq va shavq bilan targ'ib etadi va kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Insonning ma'naviy faolligini oshiradi va kuchli iroda ato etadi. Bu haqda Naim G'oyibov shunday deydi: “Yuzaki qaraganda, mavhum ko'ringan moddiy dunyodan uzilib, “yuqorilashib” ketgandek sezilgan san'at asari ham bari – bir hayotga tayanadi, hayot taftisiz u quruq (ritorikaga) sarobga o'xshaydi”.¹²

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, san'at ilm-fan sohalariga qaraganda o'zining falsafiy tabiatiga ko'ra kishiga yaqinroq va shuning uchun ham ko'proq ma'naviy hamda ijtimoiy tajriba beradi va aynan shu jihati bilan san'at pedagogikadan farqlanadi. Uning inson idroki va qalbiga o'tkazuvchi ta'siri to'g'ridan-to'g'ri didaktik va rasmiy xarakterdan istisno ekanligidadir. Zero, pand-nasihat o'gitlarga qaraganda jonli badiiy tasvirlar ta'siri jozibali va samarodirligidadir. “San'at estetik qarashlarni shakllantirish jarayonida aql bilan anglangan, qalb bilan his etilgan insoniy haqiqatni royobga chiqaradi”.¹³ Shu bilan

¹¹ Agzamxojaeva Shahnoza. “O'zbekiston ma'naviy yangilanishda badiiy madaniyatning o'rni” f.f.n diss.– Toshkent:2005

¹² G'oyibov N. Ijtimoiy xayot va san'at. – T.: “O'zbekiston” 1987. 128 - bet

¹³ Agzamxojaeva Shahnoza. “O'zbekiston ma'naviy yangilanishda badiiy madaniyatning o'rni” f.f.n diss.– Toshkent:2005

birga san'at kishining axloqiy tarbiyasida, unda axloqiy prinsiplarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U kishiga namuna uchun, taqlid qilish uchun eng yahshi misollar beradi.

Adabiyotlar:

1. G'oyibov N. Ijtimoiy xayot va san'at. – T.: “O'zbekiston” 1987. 128 – bet
2. Agzamxojaeva Shahnoza. “O'zbekiston ma'naviy yangilanishda badiiy madaniyatning o'rni” f.f.n diss.– Toshkent:2005
3. Bichkov V.V. Estetika. Kratkiy kurs. M
4. Sobirova Z. “jamiyat ma'naviy hayoti yangilanishining badiiy-estetik omillari” f.f.n. diss.. 2004
5. Gegel G.-V – F raboti raznix let-M.: 1970

KINOOPERATOR IZLANISHLARI MUAMMOLARI



Atabayev Xasan

“Kinooperatorlik” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s. f. n., professor v.b A. Ubaydullayev

Kino san'ati umuman, o'zbek kinosi san'ati boshqa san'at turlari orasida eng yoshi bo'lishi bilan birga, qisqa davr mobaynida dunyo ahli uchun eng xalqchil va nufuzli ijod sohasiga aylandi. Bugungi kunda butun dunyo aholisi kinofilmlarni tomosha qiladi. Kinoga nisbatan qiziqish va talabning ortishi uning jadal rivojlanishiga, ayni paytda g'oyaviy-badiiy yo'nalish va janr jihatidan yangilanishiga sabab bo'ldi. Kino taraqqiyoti davrlari bevosita texnika kashfiyotlari bilan uyg'unlikda kamol topdi. Kino o'zining shakllanish kurslarida bir-biriga yaqin san'atlarni o'zida mujassamlashtirib, mustaqil va chinakam san'atga aylanib bordi.

Kino san'ati paydo bo'lishi bilanoq, o'z-o'zidan kinooperatorlik san'ati ham vujudga keldi va takomillashdi. Kino, kinooperatorlik san'ati tezlik bilan rivojlanishi va har jihatdan mukammallashuviga texnik kashfiyotlar jiddiy ta'sir

o'tkazgani ma'lum. Texnikaviy ixtirolar natijasida kino san'atiga ilk tamal toshi qo'yildi.

Lekin shuni ham holisona aytish kerakki, yoshlarning tarbiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy qahramon obrazi kino ekranlarimizda hali yaratilganicha yo'q. Suratga olinayotgan aksariyat filmlarda kinoijodkorlar bugungi kunning haqiqiy manzarasi, uning o'tkir maummolarini chuqur his eta olmasligi, oddiy odamlar hayotidan uzoqlashib qolgani sezilib turadi. Bu kamchilik ma'lum darajada kinooperatorlarning zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Chunki kino rejissorning ijodiy maqsadini amalga oshiruvchilardan birlamchisi kinooperator hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish joizki, bu sohada o'z yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Avvalroq ta'kilanganidek, doimiy ravishda rivojlanib kelayotgan kino san'atida operatorning roli nihoyatda kengayib, u senariy muallifi va rejissorning hammuallifi, talqinchisi va ularning ijodiy jarayonining ishtirokchisiga aylandi. Yorug'lik, harakat, rang singari ta'sir vositalari bilan operator ekranda ham emotsional, ham falsafiy ma'noga ega plastik obraz, qahramonlarning holati, maqsadi va harakatini aks ettiruvchi o'ziga xos olam, betakror muhit, kayfiyat, bir so'z bilan aytganda, filmni san'at asari darajasiga yetkazuvchi barcha jihatlarni yaratadi. Ammo, badiiy ijodning aynan shu jabhasi zamonaviy kinoshunoslikda hozirgacha juda kam o'rganilgan soha hisoblanadi. Kinooperator ishlarining batafsil tahlili san'atga oid nashrlar sahifalarida hali-hanuz juda kam ko'rinadigan hodisadir. Kinooperatorlik san'atida kechayotgan jarayonlar va ijodiy izlanishlarni yaratilgan badiiy filmlar misolida ko'rish mumkin. Ular zamonaviy o'zbek kinosining ijodkorlari qiyofasi haqida muayyan tasavvur uyg'otadi. Ayniqsa filmning asosiy mualliflaridan biri bo'lmish kinooperator ijodiy izlanishi va uslubiy topilmalari u yaratgan mahsulotlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, professor Abdurahim Ismoilovning "Kinooperatorskiye masterstvo"

nomli darsligida operatorlik mahorati masalalari atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Kinoteleoperatorlik mahorati" kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan bir qator o'quv qo'llanmalari chop etildi. Ularda kinooperatorlik kasbiga oid bo'lgan turli jihatlar yoritildi. Bularning barchasi kinooperatorlik san'ati sohasidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Ana shu manbalardan kinooperatorlar sohasiga oid bo'lgan muhim jihatlar, yangilik va izlanishlar haqida atroflicha ma'lumotlar olishlari mumkin.

So'nggi yillarda o'zbek kinooperatorligi san'ati sohasida yaratilayotgan badiiy filmlarning tasviriy yechimi, kinooperatorlarning o'ziga xos uslubiy izlanishlari, kompozitsiya, rang-tasvir, rakurs va kino yoritish singari unsurlardan foydalanayotganligi, xususan, kinooperatorlar A.Ismoilov, R.Murodov, A.Ganiyev, A.Orziqulov, I.Meliqo'ziyev ijodiy faoliyati bo'lsa, bu san'at rivojiga katta hissa bo'lib qo'shilayapti. Bugungi kunda nafaqat kinomuxlislar va mutaxassislar, balki keng jamoatchilik rejissyor Z.Musoqovning "Vatan", "Qo'rg'oshin", rejissor A.Shaxobiddinovning "O'tov", "Kechikkan hayot", rejissor Y.To'ychiyevning "Orzu ortida", "Afg'on", J.Ahmedovning "Qora ko'z", "Baxt ortidan" singari filmlarini e'tirof etishmoqda. Albatta, bu filmlarning dunyo yuzini ko'rishida kinooperatorlarning ham hissasi ulkan bo'lmoqda.

Uzluksiz kashf etilayotgan va shiddat bilan o'zbek kinosiga kirib kelayotgan texnik vositalardan foydalanishning imkoniyatini shakllantirish, shu bilan birga professional darajadagi badiiy va g'oyaviy yaxlit kinofilmlarni yaratishdagi ijodiy izlanishlar tahsinga loyiq. Kinooperator mahoratini va iste'dodini to'liq ta'minlash uchun zarur bo'lgan yordamchi ta'sir ifodalarini atroflicha o'rganish ularning ijod mahsullarini kengroq yoritishga xizmat qilmoqda. Sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish esa bu san'at oldida turgan jiddiy muammolarni tezroq hal qilish, kinooperator ishini ilmiy asosga qo'yish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda o'zbek kinooperatorlik san'atida e'tirof etilgan badiiy filmlar va ijodkorlarning, xususan operatorlar faoliyatini, o'ziga xos uslubini ilmiy asosda

o'rganish soha mutaxassisligi bo'yicha yetishib kelayotgan yosh operator mutaxassislar uchun qo'llanma vazifasini o'tamoqda.

Umuman olganda kinooperator mahoratining o'rni va ahamiyatini o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish hamda tavsiyalar berish ularning ijodiy mahsulotlarini yanada yaxshilash imkonini bermoqda.

Adabiyotlar:

1. Akbarov X. Kinoteledramaturgiya: nazariya va amaliyot. –T.: Ilm-ziyo, 2009;
2. Abulqosimova X. Kinoteleradio tarixi va nazariyasi. –T.: TDSI, 2008.

MANA'VIY-MARIFIY FAOLIYAT MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI ISHINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA



Azimov Davron

*“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: sots.f.d., professor M.Bekmurodov*

Tarixning boyligi va buyukligi, avvalo, xalqning yuksak ma'naviyati va ma'rifati bilan bog'liqdir. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz insoniyat taraqqiyotiga, xususan, ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifatning yuksalishiga ulkan hissa qo'shganlar. Temuriylar, Boburiylar tomonidan yaratilgan buyuk saltanatlar, ular rahnamoligida barpo etilgan muhtasham tarixiy obidalar bugun ham xalqimiz dahosining yorqin namunalari sifatida dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda.

Inson kamoloti va yuksak ma'naviyati haqida gap ketganda, ijtimoiy muhit haqida ham fikr yuritish joiz. Chunki qadimda ota-bobolarimiz o'z farzandlari tarbiyasi masalasiga katta mas'uliyat, jiddiy e'tibor bilan yondashganlar. Masalan, bola tarbiyasi bilan, asosan, diniy-dunyoviy ilm sohasida oqila enagalar yoki ilm-

ma'rifatda katta obro'-e'tiborga ega ustoz-murabbiylar shug'ullangan. Dono xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan ibratli so'zlar bejiz aytilmagan. Ya'ni, har bir shaxsning o'sib kamol topishida u yashagan oila muhiti, ustozlari va mavjud ijtimoiy sharoitlar muhim o'rin tutadi.

Mustaqil mamlakatimizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyaning 12-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas", deb belgilab qo'yilganini eslash maqsadga muvofiqdir. Bosh qomusimiz inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to'la mos holda, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab berdi. Insonning ma'naviy kamol topishi va har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi¹⁴.

Bugungi kunda olib borilayotgan ma'naviy targ'ibot-tashviqot jarayoni zahirida yurtimizdagi turli millat, ijtimoiy toifa, kasbu korga mansub bo'lgan kishilarni ma'naviy tajovuzlardan asrash, ularni ogohlikka chorlash, mavjud xavf va tahdidlarning oqibatlarini anglab yetish, ular haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, eng muhimi, milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan tizimli va aniq maqsadli amaliy harakatlar mujassamdir.

Chunki maqsadimiz oddiy va hayotiy – odamlarimiz qalbi va ongida yuqorida zikr etilgan insoniy tuyg'ular qaror topishi, jamiyatimizda olijanob fazilatlar ustuvor bo'lishiga erishishdir. Tabiiyki, bunda yurtdoshlarimizning nafaqat bilimini oshirish, balki ular qalbida mustaqilligimizni mustahkamlash bilan bog'liq yangicha tafakkur, yangi g'oyalarni kamol toptirish, ularni yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlash yo'lida ezgu ishlarga rag'batlantirish, odamlar ongu shuurida hayotimizning turli sohalarida olib

¹⁴ Mirziyoyev Sh.M.. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida so'zlagan ma'ruzasidan

borilayotgan keng qamrovli islohotlarga daxldorlik, bunyodkorlik, kelajakka ishonch va shukronalik tuyg'ularini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yanada yaxshilash, ming yillar mobaynida sayqallanib kelayotgan ibratli an'ana va qadriyatlarni targ'ib etish borasida ko'plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, joylarda qiziqarli ko'rik-tanlovlar, ko'rgazmalar, uchrashuv, muloqot va davra suhbatlari uyushtirilmoqda, ilmiy risolalar chop etilmoqda, ommaviy axborot vositalarida rang-barang materiallar e'lon qilinmoqda. Bularning barchasi yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, odamlarning ma'naviy kamolotini yuksaltirish, ajdodlarimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan bebaho madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklashga, eng asosiysi, o'zligimizni anglashga katta ta'sir ko'rsatdi. Xalqimizning buyuk bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qildi. Muhimi, jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri – sog'lom ma'naviy-ma'rifiy muhit yanada mustahkamlandi.

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish ekan, bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi, har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlolning 25 yillik shonli tarixi davomida yurtimizda amalga oshirilgan ma'naviy islohotlarning butun qamrovini ko'rsatish, ma'naviy sohadagi o'zgarishlar samaralarining mustaqil taraqqiyotimizda tutgan o'rni va ahamiyatini, qolaversa, istiqboldagi vazifalarimizning mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish oson ish emas. Ma'naviyat – uzluksiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doim o'zgarish va yangilanishda bo'ladi.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu vaqt va makondagi darajasi ko'p jihatdan fuqarolar ma'naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma'naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog'liqdir.

Mustaqillik davrigacha va undan keyingi o'tgan tarixan qisqa muddat ichida ro'y bergan holatlar, jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy-mafkuraviy sohasidagi o'zgarishlar bizga sho'rolar mustabid tuzumi hamda istiqlol yillarida O'zbekistonning real hayotida xolisona javob izlashga va unga erishishga imkon beradi.

Xususan, eng avvalo, ma'naviy-ma'rifiy omillarga nisbatan munosabat shakllandi. Jumladan, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustivor yo'nalishi, deb hisoblandi. Joylarda ma'naviyat bilan bog'liq shularning amalga oshirilishi uchun butun ma'suliyatni hokimlar, vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning birinchi rahbarlari zimmalariga yuklatilishi juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, ma'naviyati yuksak millat va davlatnigina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr shakllana boshlandi.

Uchinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatni poklantiruvchi kuch ekanligi e'tirof etilmoqda, zero sho'rolar mustabid tizimi davridan qolgan yaramas «ma'naviy» merosdan poklanmasdan turib istiqlolga xizmat qiladigan, fuqarolik qalbi va ongini yangilashga qodir ma'naviyatni shakllantirish mumkin emas. To'rtinchidan, istiqlol davri O'zbekiston jamiyati ma'naviyatining eng muqaddas maqsadlaridan biri-o'tmish tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlariga sho'ro davrida tarkib topgan munosabat «illat» sifatida emas, aksincha, jamiyatni poklantiruvchi va kelajakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil asnosida qarashdan iborat jamoatchilik fikri shakllandi.

Ma'naviyatning har qanday siyosiy hukmron mafkuralardan holiligi, muhimi, shakllanayotgan milliy mafkuraning ma'naviyat bilan uyg'unligi ta'minlandi. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek, mustaqillik davrida bajarilishi lozim bo'lgan eng ustivor vazifa "xalqimiz orasida katta ma'rifiy-amaliy ishlarni olib borish, milliy mafkuramizga kuch-kuvvat beradigan, keng ommaga ta'sir o'tkazishga, xalqni o'ziga tarafdor etishga xizmat

qiladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manbalarni to'g'ri belgilab olishdir".

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi;
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida so'zlagan ma'ruzasidan.

TELEVIZION PAVILIONLARDA YORUG'LIKNING AHAMIYATI

Bekmurotov Bekzod

"Teleoperator" mutaxassisligi

1-kurs magistranti

*Ilmiy rahbar: O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi X.Xasanov*



Mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalash, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirishda mustaqil ommaviy axborot vositalarini, eng avvalo, alohida ahamiyatga ega bo'lgan teleradioeshittirish faoliyatini rivojlantirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Bugungi kunda teleradioeshittirish sohasida ko'plab telestudiya, radiostatsiya, kabelli televideniye studiyalaridan iborat davlat va nodavlat elektron ommaviy axborot vositalarini o'ziga qamrab olgan.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi respublikadagi teleradioeshittirish tizimining eng yirik subekti bo'lib, unda hozir olti ming nafarga yaqin jurnalist, boshqa ijodiy va texnik xodimlar mehnat qilmoqda. Kompaniya o'z ko'rsatuv va eshittirishlarini bir nechta tele va radiokanal orqali respublika hududining deyarli barcha qismiga tarqatadi, ko'rsatuv va eshittirishlarning o'rtacha bir kunlik hajmi ham kundan-kunda ortib bormoqda.

Keyingi yillarda ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida teleradioeshittirish tizimi mukammal va zamonaviy ishlab chiqarish-texnika bazasiga ega bo'ldi. Eng

yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda teleradio dasturlarini tarqatish tarmog'ining qabul qilish-uzatish tizimlarini rekonstruksiya qilish ishlari nihoyasiga yetkazilmoqda. Teleradio ko'rsatuvlari va eshittirishlarini ishlab chiqarish hamda shakllantirish jarayoni zamonaviy raqamli uskunalar va mediatexnologiyalar asosida tadbiq etilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining faoliyati zamonaviy talab va andozalarga to'la javob beradi.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasini boshqarishning mavjud tizimi, boshqaruv tuzilmalari teleradioindustriya bozorini rivojlantirishga, g'oya va dasturlarning ijobiy raqobatiga yordam bermoqda. Moliyalashtirish tizimining markazlashtirilgani, teleradioeshittirish sohasi mutaxassislarining ijodiy va texnik xizmatlariga yangi dastur va loyihalarni amalga oshirishga jamoalar qo'shgan aniq hissasini hisobga olmay turib, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi jurnalistlari va boshqa xodimlarining yuqori unum bilan, ijodiy tashabbus va faollik ko'rsatib mehnat qilishiga yo'l bermoqda.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, avvalo, uning hududiy bo'linmalari ko'rsatuv hamda eshittirishlarining professional darajasi, g'oyaviy-badiiy saviyasi va sifati yildan-yilga ko'tarilib bormoqda.

Mavjud shart-sharoitlar teleradiojurnalistlarning mamlakatda va jahonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o'z vaqtida va tezkorlik bilan e'tibor qaratish borasidagi faoliyati yanada rivojlanmoqda.

Mustaqil teleradiokanallarini yanada rivojlantirish va isloh qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, aholi hamda jamiyatning har tomonlama va xolis axborotga bo'lgan talab-ehtiyojlarini qondirishda mamlakatimizning elektron ommaviy axborot vositalari rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Televideniye sohasida bir qancha farmonlar qabul qilinganligi ham televideniya sohasini aholining hayot tarzidagi o'rni nechog'lik yuqoriligini anglatib turibdi.

Shu qarorlar asosida poytaxt markazida soha mutaxxasislari uchun maxsus milliy televizion filmlar va seriallar yaratish, shuningdek, televideniye uchun konsert va boshqa dasturlarni uyushtirish hamda yozib olishni ta'minlashga imkon beradigan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining zamonaviy mediamarkazini tashkil etildi va 2009 yilning II choragida u zamonaviy multimedia texnik uskunalari bilan jihozlandi.

Ma'lumki, XXI asr fan-texnika va axborot texnologiyalari o'zaro uyg'unlikda shiddat bilan rivojlanayotgan davrdir.

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: "Yorug'likni boshqarish qurilmalari nima uchun kerak?" Javob aniq: yoritish ustalarining ishini yengillashtirish va ularning mehnati unumdorligini oshirish uchun. "Yorug'likni boshqarish tizimi" tushunchasi o'z-o'zicha tizimda yoritish ustalari ishlashi uchun eng qulay joyda o'rnatilgan masofadan turib boshqarish pulti, birlashtirish kabellari, maxsus ajratilgan joyda o'rnatilgan, masofadan turib boshqariladigan rostlagich va nihoyat, yoritish asboblari ishga tushirish mexanizmlarining mavjudligini nazarda tutadi".¹⁵

Ilgari yorug'likni boshqarish qanday amalga oshirilgan? Avvalambor, yorug'likni rostlash qurilmalari haqida qisqacha to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Dastavval yorug'likni boshqarish qurilmalari teatr sahnasida yaratilgan va shu asosda rivojlangan. Teatrda elektr yoritgichlar o'rnatilganidan (1890-yillar) keyin muayyan yorug'lik manbasining quvvatini masofadan turib o'zgartirishga ehtiyoj paydo bo'lgan. Bu vazifa darhol hal etilmagan. Avvaliga ulab-uzgichlar va almashlab ulagichlar (rubilniklar va kommutatorlar) ixtiro qilingan, lekin ular boshqarish organlariga ega bo'lmagan. Iste'molchilarning elektr yuklamasini taqsimlaydigan va yoritish kanallari quvvatini boshqaradigan qurilmalar ancha keyin paydo bo'lgan.

Hozirgi kunda Televizion pavilionlarda, asosan, Galogen va metallogalogen lampalar ishlatilmoqda. Ular haqida qisqacha to'xtalamiz. Galogenli cho'g'lam

¹⁵.Xidirova K., M.Azimov "Kitasvir texnologiyasi"o'.q*

lampalarda yorug‘lik berishi 26 lm/Vt, yaroqlilik muddati 4000 soatni tashkil etadi. Ularning ish mexanizmida asosiy vazifani kolba devorlarida paydo bo‘luvchi volfram-galogenidi bajaradi. U (kolba devorida) parlanib, cho‘lg‘am tanasida ajralib unga parlangan volfram atomlarini qaytaradi. Galogen lampalar kolbasi kvardsdan tayyorganligi lampaning yaroqlilik muddati, lampa hajmini kichikligi, termochidamlilik ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Cho‘g‘lam tanasida galogen qo‘shimcha kimyoviy jarayon tashkil etadi. Studiyaning yoritish asbob-uskunalarini nafaqat real vaqt rejimida, balki kiritilgan dastur asosida avtomatik usulda ham boshqarish mumkin. Bunda dasturlashtirilgan barcha amallarni ko‘p karra aniq takrorlash ta‘minlanadi. Masalan, pozitsiyalashtirish millimetrgacha aniqlik bilan bajarilishi mumkin. Pult Totmannswitch joystiki bilan jihozlangan bo‘lib, uning yordamida yoritish asboblarini pozitsiyalashtirish motorlashtirilgan qurilmalarini boshqarish amalga oshiriladi. Sonlar bilan tamg‘alangan klavishlar seksiyasi ham mavjud bo‘lib, u ayrim asboblarni tez tanlash uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy televizion pavilionlarda yoritgichlarni boshqarish kompyuterlashtirilgan bo‘lib, ular yordamida har bir yoritkichni masofadan turib boshqarsa, rang xaroratini, yorqinligini o‘zgartirish imkoniyati mavjud. Bu bilan siz kerakli bo‘lgan yoritgichni kerakli burchakka masofadan turib burishingiz, hattoki, sizga kerakli bo‘lgan rang haroratdagi yorug‘lik olishingiz mumkin. Bu albatta, ijobiy natijadir. Negaki, yoritgichlarni qo‘l bilan boshqarish juda katta vaqt va juda katta jismoniy mehnat talab etadi.

Yorug‘likni kompyuter orqali boshqarish tizimining roli va ularni loyihlashtirishga yondashuvlar keskin o‘zgardi. Ularning asosiy vazifasi qabul qilishni ta‘minlashdan iborat bo‘lib qoldi. Kino va televideniye sohasida ham tasvirni yaratish jarayoni maxsus yoritish texnologiyasini egallagan mutaxassisi va kinoteleoperator bilan birgalikda maxsus yoritish uskunalari kinotelekameralari hamda tavsvirga olish prinsiplari orqali yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Ismailov A. Кинотелеоператорское мастерство, darslik. T. 2010.
2. Xidirova K., Azimov M. Kinotasvir texnologiyasi, o'quv qo'llanma. T. 2015.

RAHMATJON TURSUNOV IJOD YO'LI



Elov Mirshod

“Ashula va raqs” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: professor J. Shukurov

Bu tezoqar umr daryosi har daqiqada ming-minglab insonlarni bu dunyoga olib kelsa yana ming-minglab insonlarni yer yuzidan olib ketadi. Inson umri har qancha uzoq bo'lmasin, u umr charxpalagi oldida ko'z ochib yumguncha o'tadi ketadi. Lekin shu inson uchun ulug' ne'mat sifatida in'om qilingan umrni hamma ham risoladagidek yashab o'ta olmaydi albatta. Umrni havas qilgudek yashay olib, o'zidan xayrli amallar, yaxshi nom qoldira olish bu juda katta saodatdir.

Hozirgi kunda hayotimizni musiqasiz tasavvur qilishimiz qiyin. Odatda qo'shiq yoki kuyni tinglaganda asosiy olqishlar uning ijrochisiga bo'lishi bu tabiiy holat. Lekin bu asarning yaratuvchisi kim?, qanday buyuk qalb, qanday buyuk tuyg'u shu asarning juda ko'plab ko'ngillarga manzur bo'larli darajada yaratdi?, degan ko'plab savollar aksariyat qo'shtirnoq ichidagi musiqa shinavandalarimizning e'tiborlaridan chetda qolib ketadi.

O'zbek milliy musiqasining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan atoqli bastakor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, professor Rahmatjon Tursunovni ham ana shunday o'z diltordar ijod namunalari bilan bir qancha insonlarni “El suygan san'atkor” bo'lib tanilishida juda katta xissa

qo'shgan buyuk bastakor , ijodkor, noyob qalb sohibi, mehribon ustoz sifatida eslashadi.

Rahmatjon Tursunov Qashqadaryo vohasi vakili bo'lib uning yaratgan asarlari natijasi o'laroq O'zbek an'anaviy ijrochiligining Qashqadaryo vohasidagi yana bir rivojlanish kursini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bastakor ijodi na'munasi bo'lgan Fuzuliy g'azali bilan ijro etilgan "G'amzasin sevding ko'ngul" ashulasini mukammal ijro etib o'zining o'zgacha ijro maktabini yaratgan el suygan san'atkor Tojiddin Murodovning ijro yo'li ham bir qancha o'zgacha yangi maktab desak mubolag'a bo'lmaydi albatta. Bu ikkala ijodkor Qashqadaryo vohasi Ananaviy ijrochiligida yana bir o'ziga xos reneseans qildi desak bo'ladi.

"Rahmatjon Tursunov bastakorlar uyushmasining a'zosi bo'lib, o'zidan 100ga yaqin bir-biridan go'zal kuy va qo'shiqlar xazinasini meros qilib qoldirishga muvaffaq bo'ldi. "G'amzasin sevding ko'ngul" (Fuzuliy g'azali), "O'rtadi" (A Navoiy g'azali), "Oshkor o'lsun" (Samad Vurg'un g'azali), "Bo'ylaringga" (Maxtumquli g'azali), "Visoling bo'lmasa" (Atoiy g'azali), "Mubtalo qilursen"(Lutfiy g'azali), "Bulbul" (A Oripov she'ri), "Nur bo'lib dunyoga kelgansan" (Erkin Vohidov she'ri), "Furqat nidosi" (A Oripov g'azali), "Madhingni kuylay"(T To'la she'ri), "Shahlo" (Raqs kuyi), "Arzi hol" (kuy) kabi juda ko'plab diltortar kuy va qo'shiqlari Respublika teleradiokompaniyasi dasturlari orqali elga taniqli san'atgorlar ijrolarida yangragan va hali hamon yangrashda davom etmoqda"¹⁶.

Professor o'zining bir necha yillik mehnat faoliyati davrida bir qancha musiqiy, ilmiy ommabop risolalar yaratishga ham ulgurgan. "Cho'ldan esgan sabolar" 4-qismli syuita: Bastakor bu asarni ona yurti Qarshining orombaxsh quyoshli issiq taftini sog'inib shunday nomlagan bo'lsa ajabmas, "Qalbmida o'zing borsan", "G'amzasin sevding ko'ngil" nomli qo'shiqlar to'plamlari, "Havaskorlik ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti", "Xalq kuylarini notalashtirish",

¹⁶ R Tursunov. Xavaskorlik ashula va raqs ansambllari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent.: 89 b.

“Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti”, “Ananaviy qo’shiq ijrochiligi uslubiyoti”, “O’zbekistonda musiqa xavaskorligi” singari ilmiy risolalari shular jumlasidandir.

“Rahmatjon Tursunov o’zining ilmiy risolalari bilan Respublikamizdagi badiiy jamoalar bilan ishlash metodlarini aniq va ravshan ifodalab mukammal o’quv qo’llanma sifatida biz yosh kadrlarga qoldirib ketdi”¹⁷.

Rahmatjon Tursunov tashabbusi bilan 1987-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutida (2011-yilgacha shunday nomlangan) “Xalq musiqasi” kafedrasini ochilib, deyarli umrining oxirgi yillariga qadar shu kafedrada kafedra mudiri hamda professor lavozimida faoliyat yuritib, shu yo’nalishdagi malakali kadrlarni yetishtirib chiqarib ta’lim yo’nalishining barcha o’quv uslubiy qo’llanmalarini shakllantirishga ulgurgan. Hozirgi kunda bu kafedra “Milliy qo’shiqchilik” nomi bilan o’zgartirilib unda bir nechta Rahmatjon Tursunovning shogirdlari faoliyat yuritmoqda.

O’zbekiston Xalq xofizi Orolmirzo Safarov shunday xotirlaydi “Ustozim Rahmatjon Tursunov bir vaqtning o’zida ham ustoz, ham mehribon inson, buyuk qalb sohibi, bilimli pedagog, qattiqqo’l rahbar, ham serqirra ijodkor edi”. Rahmatjon Tursunov umrining so’nggi yillariga qadar Institutda shogirdlar qurshovida faoliyat yuritib o’zidan o’chmas iz qoldirdi. Ustoz yaratgan buyuk ijod na’munalari ming yillar davomida tinglanib, qalblarga ezgulik va milliylik tuyg’ularini taratib turishiga ishonamiz.

Adabiyotlar:

1. Tursunov R. Xavaskorlik ashula va raqs ansambllari bilan ishlash uslubiyoti. T.: 89 b;
2. Internet. Ziyo.net.

¹⁷ Internet. Ziyo.net

YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA JAMOAT TASHKILOTLARINING O‘RNI



Ergasheva Saida

*“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: p.f.n., professor B. Sayfullayev*

Ma’lumki, har bir davlatning kelajagi, ertangi kuni uning yosh avlodi, o’sib kelayotgan yoshlari qo’lida. Ularni bu borada yetuk va malakali kadr, jismoniy va ruhiy barkamol qilib tarbiyalash bevosita jamoattashkilotlari faoliyatiga ham bog’liqdir, zero u davlat siyosati ustuvor yo’nalilaridan biridir. Ma’lumki, O‘zbekiston aholisining 60% dan ortiqrog‘i yoshlardan iborat. Yoshlarning ijtimoiy pozitiv harakati va faoliyati katta-katta o‘zgarishlarni amalga oshirish va bunyod etishga qodir kuchdir.

Mamlakatimizni jadal rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi darajasidagi islohotlar xususan, ijtimoiy sohadagi aniq yo‘naltirilgan rejalarni amalga oshirishda yoshlarga qudratli tayanch kuch sifatida qaralmoqda. Davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bunday ishlar haqida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: “Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil qiladigan yoshlarimizning hayotini, manfaatlarini ta’minlash – bu ularning ta’lim-tarbiya olishi, zarur kasb- hunarlarini egallashi, ish o‘rniga ega bo‘lishi, o‘z qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun imkoniyat yaratish, yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash, oyoqqa turishiga ko‘maklashish, umuman yoshlarni barkamol avlod qilib shakllantirish masalalarining barchasi biz uchun eng muhim ustuvor vazifa bo‘lib qolaveradi”.¹⁸

Davlat ustivor siyosati darajasida yoshlar faoliyatini tizimli tashkil etish obyektiv ehtiyoj va real shart-sharoitlarni hisobga olishni ham taqazo etadi, va bu

¹⁸ Qarang: Karimov I. “Inson manfaatlarini ta’minlash ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish ustivor vazifamizdir”. “Xalq so‘zi”. 2006. 8 dekabr.

jarayonlar ko'p jihatdan islohotlar samaradorligi va sur'atlarini, ijtimoiy va milliy taraqqiyotning jo'shqinlashuv va barqarorlashuv holatlarini, aholining ijtimoiy-siyosiy faollashuv darajasini belgilab beradi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan mazkur jamoat tashkilotlari o'z oldilariga qo'ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda yoshlarning u yoki bu ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishda o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda.

Jumladan, "Mahalla" xayriya jamg'armasi va uning joylardagi bo'limlari mahalla hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlar orasida turli ma'naviy –ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish orqali ularning ma'nan yetuk inson qilib tarbiyalash va kam ta'minlangan oila farzandlarini qo'llab-quvvatlashda, "Sog'lom avlod uchun" xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi bolalar va yoshlarni sog'lom turmush tarzi talablari asosida tarbiyalashda, mahallalar faolroq xizmat qilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy an'analarni, ma'naviy qadriyatlarni tiklashdagi roli kattadir.

Mahalla tuzilmalari mohiyatiga ko'ra azal-azaldan jomoaviylik asosida yashab kelayotgan o'zbek xalqi tarixiy o'tmishi va aqliy tafakkurining mahsulidir. Shu boisdan ham, mahalla tuzilmalari mamlakatimizda amal qilib kelayotgan tarbiya ta'sir jarayonlaridagi shaxs- jamiyat-davlat tizimining samarali ishlashiga qulay shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Hozirgi kunda olib borilayotgan demokratik siyosat, umuminsoniy manfaatlarga to'liq javob berishi bilan joylarda ko'pgina xayrli ishlar qilinayotganligini ko'ramiz. Masalan, mahallalarda ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, tozalash, ko'chatlar ekish masalalari ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tuzilmalarida, ayniqsa, yorqin namoyon bo'layotganini yaqqol ko'rish mumkin. Joylarda bunday ishlarni olib borilishi, nafaqat mahallalarda, balki butun jamiyat umumdaniy saviyasining yuksalishiga ham ijobiy ta'sir etadi. Shu boisdan ham, ilmiy jamoatchilik kelajagimiz timsoli bo'lgan yoshlarning ong va tafakkuri o'zgarishlariga keng jamoatchilik e'tiborining qaratilishi favqulodda muhim zaruratdir. Yoshlar tafakkuriga samarali pozitiv ta'sir o'tkazish

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirish, ularni xalq pedagogikasi asosida tarbiyalash va bu borada mahalla, maktab hamda oilaning ishtiroki samarali bo'lishi zarur.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, hozirgi yoshlarning milliy urf-odatlarimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizni, udumlarimizni yetarli darajada yaxshi bilmasligi muammosiga jamiyat e'tiborni kuchaytirishimiz zarur... Yoshlarni har tomonlama kamol toptirish uchun barcha mahallalar qoshidagi oila, maktab va jamoatchilik kengashlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonodondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lk edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi qahramonlarning o'zaro muomila va muloqatlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham "siz"lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor berganiga ishonch hosil qilaman".¹⁹

Shu jihatdan bugungi kunda yoshlarni chinakam tayanchi va suyanchi bo'lib borayotgan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati yoshlarni ham moddiy, ham ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalari, olib borayotgan faoliyatini misol sifatida keltirish mumkin. Dastlab yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlovchi jamg'arma sifatida tashkil etilgan ushbu tashkilot bugungi kunda yoshlar bilan bog'liq barcha jabhalarni kompleks qamrab olganligini alohida qayd etish mumkin. Harakat tashkil etilganda Harakatning asosiy vazifasi-yoshlarning birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rin egallashga ko'maklashishdan, ularni manfaatlarini har tomonlama himoya qilishdan iborat bo'lishi darkor deb belgilangan edi.

Ta'kidlash lozimki, yoshlarning ijtimoiy himoyalashga qaratilgan amaliy faoliyatning asosi sifatida mamlakatimizda yaratilgan siyosiy-huquqiy bazaning

¹⁹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent, 2008, 55-bet

mustahkamligiga e'tibor qaratish joiz. Yoshlar manfaatini ifoda etuvchi har bir normativ hujjatlar, asosiy qomusimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan tortib qabul qilinayotgan ko'plab qonun, qaror farmon va farmoyishlarning aksariyatining mazmun-mohiyati ifoda etilayotganligi ham fikrimizning isbotidir.

Xullosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, yosh avlodni ijtimoiy faoliyatlarini va ularning Xarakatlar Strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishda bunyodkor kuch sifatida shakillantirish ishlari mamlakatimizda kursma-kurs amalga oshirilayotgan islohatlar majmuasidagi muhim vazifa sifatida ado etilib kelinayotgan ekan, yoshlar fidoiylik va ma'suliyatli mehnatlari orqali bunga munosib javob qaytarishlari shubhasizdir.

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYAT YURITISHINING O'ZIGA XOSLIKLARI



Fayzullayeva Xurshida

“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”

Mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: sots.f.d., professor A.Umarov

Bozor iqtisodiyoti talabi, madaniyat xodimlaridan halol mehnat qilishga, tadbirkorlik bilan ish yuritishga, tejamkorlikka, ijodkorlikka o'rgatish, hozirgi zamon iqtisodiyot qonuniyatlarini idrok etishga, uddaburonlik bilan faoliyat ko'rsatishga o'rganishni talab etayotir. Aktyor rolni yaxshi ijro etishi, rejissor asarlarni sahnalashtirishi, musiqa xodimlari ijrochilik mahoratlarini egallashi bilan bir qatorda ular bu faoliyat iqtisodiy masalalar ko'lamini bilishni taqozo etadi.

Shu o'rinda madaniyat bozorining umumiy bozor bilan qanday mushtarak va farqli tomonlari bor, degan o'rinli savol tug'iladi. Bozor birinchi galda, ayirboshlash munosabati; ikkinchidan, oldi-sotdi amalga oshiriladigan joy;

uchinchidan, kishilardan, ma'lum tarzda o'zini tutishni talab etadigan ijtimoiy institutdir. Bozor iqtisodiyoti esa ma'lum tamoyillarga, eng asosiysi iqtisodiy faoliyat erkinligiga asoslangan turli-tuman iqtisodiy munosabatlar: ishlab chiqarish, taqsimot, is'temol qilish munosabatlari tizimini ifodalaydi. Madaniyat bozorida ham bu munosabatlar o'z ifodasini topgani holda, sohada iqtisodiy jarayonni amalga oshirishda o'ziga xoslik tomonlari mavjuddir. Ana shulardan kelib chiqib madaniyat bozoriga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Madaniyat bozori — ijodkor xodimlar bilan iste'molchilar o'rtasidagi ixtiyoriy, kelishilgan, tovar-pul muomalasi qonunlariga asoslangan moddiy va ma'naviy munosabatlardir.²⁰ Bu yerda asosiy maqsad aholining turli xil madaniy-badiiy iste'mol mollari va xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish hisoblanadi.

Madaniyat bozorining negizini madaniy-iqtisodiy aloqa tashkil qiladi. Bu aloqa vositasi iste'molchi oladigan madaniy boylik va undan keladigan moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Bunda hal qiluvchi mezon — iste'molchining ehtiyoji bo'ladi. Madaniyat bozorini boshqarishda iqtisodiy, tashkiliy, ma'muriy va nihoyat psixologik usullar qo'llaniladi. Madaniyat va san'at soha bozor negizida rivojlana olmaydi. U davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga olinib, byudjet tomonidan mablag' bilan ta'minlanishi lozim. Madaniyat va san'at soha mehnati natijasida real tovar mahsuloti yaratilmaydi. Bu jarayonda iqtisodiy munosabatlar asosan, qandaydir bir buyum shaklida gavdalanmasdan, balki faoliyat (xizmat) shaklida namoyon bo'ladi. Madaniyatda mehnat ta'sir qiladigan obekt tabiatdagi narsalar, buyumlar bo'lmasdan, balki insonning o'zidir. Umumiy bozorda tabiiyki moddiy boylikning xaridori ko'proq bo'ladi. Madaniy boylik yaratuvchilar soni sanoqli bo'lganidek, ular mahsuloti qadrini o'rniga qo'yadigan xaridorlar ham hisobli bo'ladi. Va nihoyat, madaniyatda malakali mehnat hissasining yuksakligi bilan izohlanib, unda "mehnat quroli" ijodiy qobiliyat va bilimdir. Shu bilan ham madaniyat bozori umumiy bozordan farq qiladi. Madaniyat va san'at, bozor iqtisodiyotining tamoyillarini ifodalovchi soha sifatida quyidagi — siyosiy,

²⁰ Ro'zmetov A. Madaniyatda menejment va iqtisodiyot asoslari. – T.: O'qituvchi. 1998-y. 40-b.

iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etishni taqozo etadi. Madaniyat sohasida bozor munosabatlarining tarkib topishi, shubhasiz san'at ahlining tadbirkorligi, tashkilotchilik faolligiga, malakasiga, bilim va qobiliyatiga bog'liq ekanini unutmasligimiz lozim.

Bozor iqtisodiyotida madaniyat va san'at soha faoliyatining natijasi tomoshabin tomonidan qay darajada qabul qilib olishi bilan o'lchanadi. Qaysi bir madaniyat va san'at muassasasi, iste'molchi istak talablaridan kelib chiqib o'z mehnatini tashkil etsa, shunchalik ko'p daromad oladi. Boshqacha aytganda madaniyat va san'at muassasalariga kelayotgan barcha daromadlar o'z mulki bo'lib, ularga bunga egalik qilish va uni tasarruf etish huquqi beriladi. Bozor iqtisodi har bir madaniyat va san'at muassasasini va ijodkorni yanada samaraliroq, sifatliroq ishlashga da'vat etadi. Eng muhimi, ular o'z iste'dodlarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini ishga solish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada madaniyat va san'at jabhasida o'zaro sog'lom iqtisodiy va ijodiy raqobat yuzaga keladi. Umuman, madaniyat va san'at muassasalari say-harakatlari tinglovchi va tomoshabin talabiga bo'ysundirishi kerak bo'ladi. Bu holda madaniyat va san'at muassasalari tadbirlar soni bilan emas, balki tamoshabinlar soni bilan o'lchanadi. Ma'lumki, bozor munosabatlariga o'tish davri, iqtisodiy vositalar bilangina xo'jalik yuritish mumkin bo'lgan davrdir. "Madaniyat va san'at muassasalari qaysi xo'jalik hisobida ishlashidan qat'iy nazar ularda to'la xo'jalik hisobida ishlovchi uyushmalar tuzish mumkin".²¹ Buning ma'nosi shuki, birinchi galda, madaniyat xodimlari eski iqtisodiy tafakkurdan voz kechib, yangi iqtisodiy tizimga o'tish bo'lsa, ikkinchi galda, madaniyat va san'at muassasalarining moliyaviy ahvolini yaxshilash, moliya ta'minotiga yangi sifat berish, barqaror o'sish sur'atlarini baxsh etish bilan uzviy bog'liqdir. Madaniyat muassasalarining moliyaviy faoliyati o'z xarakteriga asosan murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga egadir. U ham bo'lsa, bozor munosabatlarida madaniyat sohalarining moliyaviy ta'minotida davlat homiyligining obektiv zaruriyatga aylanishidir. Shuni alohida ta'kidlash joizki,

²¹ Xalq so'zi, 1998, 21-mart; Turkiston, 1998, 23-mart.

madaniyat soha mehnati aql-zakovat va ijodiy mahsulot natijasidir. Bu masalaga ijodkorlar manfaati tomonidan turib yondoshsak, ayrim paytlarda yaratilgan madaniy mahsulot uchun sarflangan xarajatlar tomoshabin qabul qilmasligi tufayli iqtisodiy samarasiz bo‘ladi. Bunday paytda ijodkor xodimning ko‘rgan zararini qoplamaslik jamoaning tang iqtisodiy ahvolga tushib qolishiga olib keladi. Tabiiyki, bu holat madaniyat va san’at sohasining moliya ta’minotiga davlat homiyligi zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, erkin bozor sharoitida ham madaniyat va san’at maskanlari jamiyat uchun nihoyatda zarurdir. Demak, bozor iqtisodiyoti munosabatlarida davlatning madaniyat iqtisodiyotiga aralashuvini cheklash emas, balki faollashtirish zarur. Xulosa qilib aytish mumkinki, bozor munosabatlari sharoitida madaniyat va san’at muassasalari davlat tomonidan mablag’ bilan ta’minlanadigan xo‘jalik hisobida ish olib boradigan korxona sifatida shakllanmog’i lozim.

Adabiyotlar:

1. Ro‘zmetov A. Madaniyatda menejment va iqtisodiyot asoslari. – T.: O‘qituvchi. 1998-y. 40-b.
2. Xalq so‘zi, 1998, 21-mart; Turkiston, 1998, 23-mart.

“ALPOMISH” DOSTONINING O‘RGANILISH MASALALARI



Isayev Kamoliddin

“Folklor va etnografiya” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: fil.f.n., dotsent O.M.Axmedova

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, xalq ruhining ob’yektiv holatini davrlar aro ifodalab, mazmun va shakl jihatdan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan-avlodlarga og‘zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig‘iga o‘ralgan qahramonlik voqealarining o‘ziga xos badiiy ifodasidir.

“Alpomish” dostoni milliy versiya va variantlarining fanda aniqlanishi va yozib olinishi bir vaqtda, bir xil davrda ro‘y bergan emas. Masalan, dostonning qozoq va qoraqalpoq variantlari o‘tgan asrning oxirlari va XX asrning boshlarida yozib olinib, nashr etila boshlagan bo‘lsa, o‘zbek variantlari ancha kech, 20-yillarning boshlarida aniqlangan. Oltoy versiyasi esa, ikki variantda 1939 va 1957 yillarda yozib olingan. Yoki tojik versiyasi 1956-1957 yillarda to‘rt variantda yozib olib, 1959 yilda nashr etilgan bo‘lsa, arabcha ertakni I.N.Vinnikov Qashqadaryo viloyati Jenov qishlog‘ida 1938 yilda yozib olgan.

“Alpomish” dostonini eng ko‘p yozib olingan variantlari qoraqalpoq va o‘zbek versiyalaridir. Qoraqalpoq versiyasi sakkiz variantda, o‘zbek versiyasi esa, o‘ttizdan ortiq xalq dostonchisidan to‘la holda, parcha, bayoni tarzida o‘ttiz besh marta yozib olingan. Bu hisob dostonning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor arxivida saqlanayotgan notamom, parcha yoki bayoni tarzidagi variantlari ham mavjud. “Alpomish” dostoni 1926 yildan boshlab yetakchi xalq baxshilaridan to‘la ravishta yozib olinib boshlandi. Dastlab shoir Abdulla Alaviy Toshkent viloyati Evalak qishloqlik Berdi baxshidan dostonning bir variantini yozib oldi. Bu variantdan bir parcha Fitratning yuqorida tilga olingan xrestomatiyasida (40-43betlar), uning kattagina qismi Miyonbuzruk Silohov tomonidan 1935-yilda “Oktyabrgacha bo‘lgan o‘zbek og‘zaki adabiyoti (folklor)” to‘plamida nashr etildi. (86-145 betlar) Bu nushani to‘la ravishta ushbu satrlar muallifi so‘z boshi bilan nashrga tayyorladi va 1969 yilda bosilib chiqdi. 1926 yilda mashhur folklor to‘plovchisi Muhammadisa Ernazar o‘g‘li atoqli xalq shoiri Po‘lkan variantini yozib oldi. Hodi Zarifning ma’lumotiga qaraganda bu variantning yozib olinish jarayoniga atoqli xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ishtirok etgan va uning ayrim o‘rinlari uning og‘zidan yozib olingan. Shu kunlarda mazkur satr muallifi folklorshunos Z. Husainova bilan hamkorlikda ushbu nushani to‘la ravishda nashrga tayyorladi. Shuningdek,

A.K.Borovkov 1928 yilda O‘ratepa tumani Qayerma qishlog‘ida yashovchi Mavlon Pirmat o‘g‘lidan dostonning mazmunini yozib oldi va uni 1956 yilda “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi axborotlari”ning 11-sonida o‘zbek va rus tillarida nashr etildi.

Dostonning badiiy jihatdan eng mukammal varianti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 1928 yilda Mahmud Zaripov tomonidan yozib olingan nusxasi hisoblanadi. Uning birinchi qismi qisqartirilgan holda 1939 yilda Hodi Zarifning “O‘zbek folklori” xrestomatiyasi nashr etildi. Xuddi shu paytdan boshlab Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantidan parchalab maktab xrestomamatiyalari, o‘quv qo‘llanmalari, turli to‘plamlarda muntazam nashr etilib kelinmoqda. Shuningdek, shu yili jiddiy qisqartirilgan holdagi Hamid Olimjon nashri ham yuzaga keldi. Shoir Hamid Olimjon dostoni nashrga tayyorlashda uni qariyb yarmiga qisqargan. Ammo bu qisqartirish shu darajada bilim va san’atkorlik bilan amalga oshirilganidek, bu holat dostonning yaxlitligiga putur yetkazmagan. Shoir doston matniga biron-bir so‘z qo‘shmagan, doston tilini tahrir qilmagan, balki undagi mavjud imkoniyatlardan mirishkorlik bilan foydalangan, ya’ni uzundan-uzoq manolog va diologlardan iborat she’riy matndagi badiiy zaif misralarni qisqartirish bilan doston syujeti voqealarini to‘la saqlagan. Nashrga tayyorlovchi olti ming misraga yaqin matnni qisqartirgan bo‘lsada, dostonni o‘qish davomida bu narsa deyarli sezilmaydi. Shuningdek, shoir nashrga kattagina so‘z boshi yozib, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil etdi. Dostonning yaratilganligiga 1000 yil to‘lganligi haqidagi dastlabki mulohazalar ham Hamid Olimjonga tegishlidir. Shuning uchun ham bu nashr madaniyatimiz tarixida katta voqea bo‘ldi va xalq dostonlarini nashr etishdagi ijobiy tajriba sifatida o‘z ahamiyatini hanuz yo‘qotgan emas.

“Alpomish” dostonining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida” (1998 yil 13 yanvar) Qarorda “Alpomish” dostonining to‘la, akademik, tanlanma, xorijiy tillardagi nashrlarini amalga oshirish, uning syujeti va motivlari asosida teatr spektakllari, adabiy-badiiy kompozitsiyalar, hujjatli, multiplikatsion,

badiiy, video, telefilmlar yaratish, folklor-etnografik ko'rgazmalar, zamonaviy dam olish inshootlari va kichik sport maydonlariga ega bo'lgan "Alpomish" bog'larini tashkil etish, pochta markalari, otkritkalar, konvertlar turkumini chiqarish, folklor asarlari ijrochilarining ko'rik-tanlovlarini, milliy sport targ'ibotiga qaratilgan "Alpomish o'yinlari" festivalini o'tkazish kabi turli-tuman tadbirlar belgilangan"ini alohida ko'rsatib o'tadi. Ya'ni qarorda "Alpomish" dostonini, umuman, o'zbek folklorini ijtimoiy, falsafiy, estetik tomondan har taraflama o'rganish va o'zlashtirish va ularning ikkinchi umri ham mukammal davom etishi nazarda tutilganiga urg'u beradi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, folklor obrazlari hozirgi san'atning barcha turlarida ma'naviy asos sifatida namoyon bo'lishi va yuzaga chiqishi hayot qonunidir. "Alpomish" dostonining katta to'yi munosabati bilan "Alpomish" badiiy va hujjatli filmlari, spektakl, radiofilm va boshqa asarlar paydo bo'lgani qarorning hayotbaxsh ruhini namoyon qiladi.

Dostonlar gultoji atalmish "Alpomish" dostoni orqali milliy ma'naviyatimizning yuksalganligi, xalqimizning bir-birlari bilan totuvligi, qolaversa, diniy bag'rikengligining belgisidir. Bu esa, yurtimiz tinchligi dostonlarimizning umrboqiyiligining nishonasidir.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – 1999. – 9-noyabr.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.: "Mumtoz so'z", 2010
4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. - B. 169-173.

“ALPOMISH” DOSTONI MILLIY MA’NAVIYATIMIZNING ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA

Isayev Kamoliddin

“Folklor va etnografiya” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: fil.f.n., dotsent O.M.Axmedova

Ma’naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o‘rmini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma’naviy qashshoq kimsa hayotda ro‘y berayotgan voqealarga loqayd bo‘ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib keladi. Ma’naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma’naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo‘shiqlari, latifalari, maqollari va boshqa o‘nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma’naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta’minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O‘tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o‘quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televideniye, internet kabi ta’lim, ma’rifat tizimi bo‘lmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og‘zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og‘zaki ijodi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan. Ushbu meroslarni asrab-avaylash va ularni kelgusi avlodlarga yetkazish bizning ulkan vazifamizdir.

Ushbu vazifani amalga oshirish yuzasidan yurtimizda bir-qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalq og‘zaki badiiy ijodini rivojlantirish sohasida 1999-yil 13-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida"gi tarixiy qarori, "O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi faxriy unvonini belgilash to‘g‘risida"gi 2000-yil 14-martdagi Farmoni, "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch" kitobidagi fikr-mulohazalar, yo‘l-yo‘riqlar, ayniqsa yurtboshimizning "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini

muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi" oldimizga ulkan vazifalarni qo'ydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Prezidentimiz rahnamoligi ostida yoshlarning ma'naviyatini boyitishda ularni estetik jihatdan tarbiyalashda kamolat sari yetaklashda tarbiyaning boshqa vositalari qatori xalq og'zaki ijodiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Folklor san'ati o'zining betakror sehri bilan yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilib kuy va ohang ta'sirida kishida hissiyot olamining oshishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezigulikka intilish kurtaklarining barg yozishi, go'zallikni sevish, ona tabiatni asrash jonajon vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagining tobora ortib borishi hech birimizga sir emas.

Xaqiqatdan ham xalqning zukko dahosi bilan yaratilib, millatning ezgu umidlarini, armonlarini intilishlarini jasorati va mardligini tom ma'noda o'zida mujassam etgan "Alpomish" dostoni bugungi avlodni vatanparvarlik, millatga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Chunki bu dostonida kuylangan xalq qahramoni timsoli yoshlar qalbiga ilhombaxsh nur beradi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov "Xalqimizning yengilmas bahodiri-Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz-bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz. Ishonamizki, har bir avlod mana shu qahramonlikni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini ko'ylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi" – deb bildirgan fikrlari barchamiz uchun dasturamaldir.

Dostonlarimizda fe'l-atvori shakllangan, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan inson bilan uchrashamiz. Xalq og'zaki ijodidagi har bir janr, xususan, dostonlar bevosita yoki bilvosita yosh avlodni tarbiyalash maqsadini amalga oshiradi. Xalq og'zaki an'anasi asosida tarbiyalangan shaxs odamlar bilan munosabatda bo'lishni, o'zidan kattalarni hurmat qilishni, kichiklarga mehr

berishni, himmatli, olijanob bo‘lishni singdirgan. Shuning uchun ham biz xalqimiz og‘zaki ijodini xalq pedagogikasining asosiy omillaridan biri sifatida o‘rganamiz, imkon qadar yoshlarga yetkazishga, bu ijodga nisbatan qiziqish uyg‘otishga harakat qilamiz.

O‘zbek xalq dostonlarida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, inson kamolotiga to‘sqinlik qiluvchi illatlar shunchaki pand-nashat bilan emas, balki jonli, ta’sirli voqea-hodisalar, nozik detallar orqali yetkazilishiga guvoh bo‘lamiz. Bir necha misol.

“Alpomish” dostonining bir variantida ustoz huzuriga ta’lim olish uchun yo‘lda ketayotgan yosh Alpomish bir qushni quvadi. Qush bir devor kovagiga kirib ketadi. Qushni tutolmagan Alpomish o‘sha kovakni loy bilan suvab tashlaydi. Ma’lumki, oradan bir necha muddat o‘tgach, Alpomish zindonga tushadi va u yerda yetti yil yotadi. Zukko o‘quvchi bu detaldan “Hatto bir qushga yetkazilgan ozor albatta jazosiz qolmas ekan...” degan xulosa chiqaradi.

Dostondagi hikmatli so‘zlar, ibratli fikrlar, axloq-odobga doir qarashlar ot egarlash jarayonida ishlatiladi:

Yomon odam mudom qilar g‘ovurdi.

Lof aytganda botmondan ham ovirdi(r),

Bismillo deb soldi otning ustiga.

Sochog‘i zumratdan zarli davirdi,

Gana-gana bandalaring joyildi(r)(johildir),

Xudo qilgan ishga banda qoyildi(r).

Dostonning badiiyligini ta’minlab turuvchi “... o‘z davrining axloq kodeksi sifatida jaranglovchi bunday misralarni doston mundarijasidan sira ham ajratish mumkin emas” (To‘ra Mirzayev. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent; 1968.-B. 123).

O‘zbek xalq dostonlarida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizga doir o‘rinlarni ko‘plab uchratish mumkin. Bu o‘rinlarni tahlil, talqin qilish va keng ommaga

yetkazish yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi va ularning bu ma'naviy merosimizga nisbatan qiziqishini orttiradi.

O'zbek xalqining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'i yoshlarga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Doston xaqgo'y va adolatli bo'lishga, o'z maskanimizni, yurtimizni, oilamizni, uyimizni, farzandimizni, yoru do'stimizni, or-nomusimizni himoya qilishga o'rgatadi.

Zero, biz milliy qadriyatlarimizni, demak, o'ziga xos an'analarimizni betakror urf-odatlarimizni, beqiyos udumlarimizni tiklamay ularda aks etgan ma'no-mazmunni yoshlar ongiga yetkazmay turib, ma'naviyatni shakllantira olmaymiz. Inson ma'naviyati esa milliy qadriyatlarga samimiy hurmat uyg'otilgandagina, ijobiy samarasini beradi. Shu ma'noda olib qaraganda, xalqona ohanglarda yaratilgan "Alpomish" dostoni nafaqat o'zbek xalqining, umuminsoniy qadriyatlarini ham baralla tarannum etuvchi og'zaki ijod namunasidir. Bu doston asrlar sinovidan o'tib kelayotganligining qanchadan- qancha davr va zamonlar osha odamlarga kuchli ruhiy madad ham ma'naviy mador bag'ishlab kelayotganligining sababi ham shunda.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – 1999. – 9-noyabr.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.: "Mumtoz so'z", 2010
4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. - B. 169-173.

“MAYSARANING ISHI” ASARINING SPEKTAKLGA AYLANISH JARAYONI (BAHODIR YO‘LDOSHEV SINTEZDAN QANDAY FOYDALANDI VA BU AKTYORLARGA NIMA BERDI?)



Ismatullayeva Robiya

“San’at nazariyasi va tarixi” (Kinoshunos)

mutaxassislik 1-kurs magistri

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor T. Bayandiyev

Bu dunyoda hamma o‘g‘ri,
Hamma gapning kaliti kalla.
(“Maysaraning ishi” filmidan)

Inson yaralibdiki, uning qalbi doimo go‘zallikka intiladi. Bu intiqlik sabab bir necha ming yilliklar ilgari tomosha san’ati, ya’ni teatr yuzaga keldi. Teatr sahnasi ko‘pgina asarlarni ko‘zgu misolida tomoshabinlar e’tiboriga havola etib kelmoqda. Misol tariqasida Hamza Hakimzoda Niyoziyning asarlarini olishimiz mumkin. Aytish joizki, Hamza shaxsiyati har davrda so‘roq hamda tazyiq ostida bo‘lgan. Ilk bora “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” unvoniga sazovor bo‘lgan adib bir olqishlanib, bir qoralangan. Shunga qaramay, O‘zbekiston xalq artisti, atoqli teatr rejissyori Bahodir Yo‘ldoshev Hamza dramaturgiyasiga qayta-qayta murojaat qilgan. Negaki, rejissyor hamda dramaturg tandemi aynan shu ijodkorlarda yorqin hamda sermahsul tarzda namoyon bo‘lgan. Fikrimizning isboti sifatida Bahodir Yo‘ldoshevning suhbatlaridan birida Hamza shaxsiyati va ijodiga bergan ta’rifidan bilib olishimiz mumkin: “Hozir ham o‘zbek teatrini Hamza qutqaryapti. U juda zamonaviy dramaturg. Hali unga yana ko‘p marta qaytamiz”. Buning uchun, Hamza dramaturgiyasini qaytadan o‘rganish, tahlil qilish natijasida asl mohiyatga intilib, jadid teatri va dramaturgiyasi degan ulkan dunyoni o‘zimiz uchun qayta kashf qilishga muyassar bo‘lamiz. Hamza jadid dramaturgiyasining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lib, Bahodir Yo‘ldoshev 1926 yilda yozilgan “Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi” satirik komediyasini 1985 yilda sahnalashtirdi. Asar O‘zbek Davlat drama teatri sahnasida tomoshabinlar e’tiboriga havola etildi. Aytish joizki, spektakl original tarzda sahnalashtirilgan. Negaki, asar xalq

hayotidan bir lavha bo'lganligi sababli an'anaviy teart, ya'ni qiziqchilik hamda masxarabozlik san'ati elementlaridan va maydon tomoshalari unsurlaridan mohirona foydalanilgan. Teatr o'zi sintetik san'at turi hisoblanadi. Shunday ekan, spektakl sahnalashtirish jarayonida tomoshaviyligi hamda ta'sir kuchini orttirish maqsadida yordamchi unsurlardan foydalanish nur ustiga a'lo nurdir. "Maysaraning ishi" spektakli boshlanishi zahoti sahnadan doira tovushlari, o'zbek xalq og'zaki ijodi unsurlari ko'zga tashlanadi. Shu bilan bir qatorda, sahnada bo'ladigan har bir voqea, xatti-harakat, vaziyat doira jo'rliigi bilan hamohang bo'ladi. Bularning barchasi o'zbek an'anaviy maydon tomoshalari ifoda vositalari bo'lib, spektaklning tomoshaviyligi, xalqchilligi estetik zavqi va ta'sir kuchini oshirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Pesaning o'zida ham laparlar, ashulalar ijrosi kuzatiladi, biroq spektaklda ba'zida tashqi shovqin ustuvorlik qilib qolganday, nazarimda. Maydon tomoshalaridagidek doirachilar, laparchilar, ommaning shovqin suronlari asar qahramonlarining sahnadagi vaziyatga munosabatini eslatadi. Aytish joizki, Bahodir Yo'ldoshev rollar taqsimotida personajlar xarakteriga xos va mos aktyorlar ijodidan barakali foydalangan. Negaki, aktyorlar Hamzaning asar qatnashchilariga bergan ta'rifi doirasida tanlangan. Misol uchun Hidoyatxon timsolini Hoshim Arslonov mohirona gavdalandirgan. Ta'rif bo'yicha Hidoyatxon echki soqol, axloqsiz yosh yigit, shuningdek, yumshoq tabiat bir qaynova ichida, ko'rsa qizar er kishi sifatida yozilgan. Nazarimda, aynan "shariat peshvosi hamda himoyachisi" bo'lmish Qozining o'g'li bo'lganligi sababli Hidoyatxon padaribuzrukvorining gunohlari mahsuli sifatida yumshoq tabiat, axloqsiz, nafsi buzuk inson sifatida yaratilgan. Albatta, sahnadagi Hidoyatxon ham xuddi shu fazilatlar bilan tomoshabin yodidan alohida o'rin egallagan. Ta'kidlash joizki, Hamza "so'zga hasis" yozuvchi bo'lgan. Bunday deyishimizga sabab, birgina Mulla Do'st obrazining o'zida muallif so'zni naqadar ustamollik bilan ishlata olish mahoratini namoyon qilgan. Misol tariqasida Mulla Do'stning quyida aytgan so'zlarini keltirishimiz mumkin: "Bu bizning peshonamizga xotin yozishga kelganda yo qalami qudratdi siyohi ado bo'lib

qolgan, yo bu murodning tuprog'ini tuz konining chuqur joyidan olib, loyfurushiga hojilar aytgan sho'r daryoning sernamakob joyidan olib qo'shgan – qo'ygan – da!" Shundan ma'lum bo'ladiki, Mulla Do'st sho'x tabiat va ko'ngilchan kishi ekanligi. Bo'lmasa, ikki kam o'ttiz yil Qozi janoblari xizmatida bo'lib, bitta yaxtak orttirmagani, bir ayolni "xudo ko'p ko'rga"niga indamay yurarmidi?! Spektaklda ham Mulla Do'stni xuddi shunday sho'x tabiat, o'ynoqi, gapga ustasi farang sifatida gavdalantirilgan.

Mulla Ro'zi a'lam ham qorin qo'ygan, muxlis kishi, ya'ni lavozimparast, sho'x tabiat, nafs buzuvchi inson sifatida sahnaga olib chiqilgan.

Yurtning Qozi kaloni ham "Payg'ambar yoshiga" yetganiga qaramay, hali-hanuz Mulla Do'stning tili bilan aytganda: "Yoshi oltmish uchda, soqoli oq eshakning dumiga qor yuqqandek; og'zini uch kun otliq axtarsang, oziq tishi tugul, eshak bog'laydigan qoziq tish ham topilmaydi", bir so'z bilan aytganda, bir oyog'i yerda bo'lsa, ikkinchisi go'rda bo'lib turgan bir paytda, nafsining quli bo'lib yurgan choldir. Sahnada ham badnafs insonni ko'ramiz. El – yurtning qozi – kalon, a'lam – mulozimlarini bir narsa, o'z xirs – nafsining quli ekanligi birlashtiradi. Xalq orasida bir gap yuradi: "Nafsim mening balodir, qay ko'ylarga solodir". "Maysaraning ishi" asarida ham shunday vaziyatni uchratamiz. Ushbu vaziyat spektaklda ham rejissyorning o'ta nozik didi bilan ko'rsatiladi, kulgi ostiga olinadi. Yuqoridagi sintez masalasiga qaytadigan bo'lsak, Bahodir Yo'ldoshev foydalangan elementlar aktyorlarga yanada erkinlik bergan. Negaki, ijroda improvizatsiyaning kuchliligi kuzatiladi. Aktyorlarda o'zlari tomonidan so'zlar qo'shib gapirish, nojo'ya xatti-harakatlar qilish vaziyatlari ham uchrab turdi. Bu o'z navbatida asarning jiddiyligiga ta'sir qilmay qolmadi. Yana bir jihatni kuzatdikki, aynan Maysaraning uyiga visol maqsadida tashrif buyurgan Hidoyatxon, Mulla Ro'zi hamda Qozi janoblarining birma – bir kelishi hamda eshik taqqillagandagi qo'rquvi doiraning zarbalari bilan hamrohlikda tasvirlandi. Shu sababli shovqin ko'payib ketgan. Asarda Maysaraga visol ishtiyoqmandlarini "yashirishga" Nodira yordam beradi. Tomoshada esa doirachilar hamda laparchilar

ko‘maklashadilar. Bu ham o‘ziga yarasha o‘zgartirishlar hamda tajriba, asarni yangicha o‘qish, yangicha yondashish va komediyani bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib sahnalashtirishdir.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, dramaturg hamda rejissyor dueti juda yaxshi ishlay olgan. Negaki, asarning tub ma’nosidagi, kosa tagidagi nim kosani mohirona bayon etgan adib hamda buni to‘g‘ri talqin qila olgan rejissyor hamkorligi tomoshaga yanada fayz bahsh etibgina qolmay, ta’sir kuchini oshirgan. To‘g‘ri, ba’zi sahnalarda sintezdan foydalanish “oltin o‘rtadan” birozgina oshib ketgan, biroq bu umumiy manzarani buzmagani, faqatgina bo‘yoqdorligi hamda jilodorligini to‘qroq palitralarda aks ettirgan, xolos. Shuningdek, rejissyorning o‘ziga xos xusnixati Hamza ijodi bilan unison bo‘lishga xizmat qilgan. Bu jihatni “Paranji sirlari” hamda "Maysaraning ishi" spektakllari isbotlaydi. Sababi, Bahodir Yo‘ldoshevni rejissurada originallik masalasiga yaqqol misol keltira olamiz. Adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayevning so‘zlari bilan aytganda: “Bahodir Yo‘ldoshev odam - teatr”.

MAVSUMIY MAROSIMLAR VA NAVRO‘Z



Ismoyilov Nodir

“Folklor va etnografiya” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.d., professor A.Ashirov

O‘zbek milliy folklor san’ati merosi o‘zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyligi bilan boshqa san’at turlaridan ajralib turadi. U millat qalbida ezgu niyat va ulug‘ maqsadlarga intilish, e’tiqod va orzu-armonlarini, iymonu-e’tiqodini, jamiyatning ezgu niyatlari aks etgan qadimiy an’analarni o‘zida jamuljam etib, kishilar hayotiga qat’iy singib ketganligi bilan ardoqlidir. O‘zbek xalqining paydo bo‘lishi tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy urf-odatlarini,

marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizlarga ega. Ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib shakllanib, sayqallanib, o'z mazmunida xalqning orzu va istaklari turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi.

Marosimlar milliy mentalitetimizning o'ziga xos jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bebaho va nodir ma'naviy meros sanaladi. Marosim – bu faqat musiqa, raqs, xalq oyinlari jamlangan tantanali tadbir yoki xursandchilik emas, balki boy an'anaga ega bo'lgan xalqning tarixi va madaniyatini aks etib turgan ko'zgudir. Asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelingan an'ana va marosimlarda Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, ota-onaga va qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'nini saqlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yodga olish kabi ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan qadriyatlar mujassamlashgan.

O'zbek xalq marosimlari orasida eng keng tarqalgan, o'zida xalqning milliy urf-odat va qadriyatlarini jamlagan mavsumiy marosimlar alohida ahamiyatga egadir. Xalq marosimlari orasida yil fasllari bilan bog'liq marosimlar muhim madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimiz mavsumiy marosimlarni bahor faslidan boshlaganlari bejiz emas, chunki bu faslda dov-daraxt va o'simliklar quyosh taftidan sekin asta uyg'ona boshlaydi, hayot jonlanadi bu esa mavsum hayotning yangidan tug'ulishi, yilning boshlanishi sifatida odamlarda o'zgacha taassurot uyg'otadi. Bahorda "Loy tutish", "Shox moylar", "Navro'z", "Sust xotin" marosimlari o'tkazilgan. Loy tutishda ariqlar tozalangan, butun aholi bu ishda faol ishtirok etgan. Bevosita ariq tozalash ishini bajarayotganlar, ularning yonidan o'tib kelayotgan odamga ketmon yoki belkurakda loy tutishgan. Yo'lovchi o'ziga loy tutilgandan so'ng yo biron qo'shiq, yo boshqa hunarini ko'rsatib, ishlayotganlarni mamnun qilishi lozim hisoblangan. Aks holda u ham odamlar bilan ariq tozalashga majbur qilingan. Ariq tozalash ishlarining tugashi odatda maxsus uyushtirilgan sayil, holi baqudrat tayyorlangan ziyofat bilan nihoyasiga yetgan. Shoh moylar esa bahorda birinchi yer haydash ishlarining boshlanishi bilan o'tkazilgan. Bo'lajak hosilning mo'l bo'lishiga niyat

qilib, qo'shga qo'shilgan ho'kiz shoxi yog' bilan moylangan va dastlab piri badavlat, uvali-juvali bobo dehqon qo'sh haydab bergan. Keyinchalik ishni yoshlar davom ettirgan. Bu marosim ham gavjum to'plangan odamlar ishtirokida sayil o'tkazish, xursandchilik bilan amalga oshirilgan. Bahor quruq kelgan kezlarda "Sust xotin" marosimi tayyorlangan. Bu marosimda mahalla, qishloq ayollari yig'ilib mo'la (poliz qo'riqchisiga o'xshagan qo'g'irchoq) yasashgan va uning ustidan suv sepib, qo'shiq aytishgan. Mavsumiy marosimlarning asosiy maqsadi hayot kechirish uchun tinimsiz harakat qilayotgan insonlar, tabiat, mavjudot, o'simliklar dunyosi va iqlimning tartibli ravishda o'zgarishi munosabatlari bilan maydonga keladi.

O'zbek xalqi mavsumiy marosimlari ichida eng buyugi "Navro'z" xalq bayramidir. Navro'z bayrami haqidagi dastlabki ma'lumot Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida uchraydi. Bu bayramning bahor faslida o'tkazilish sabablari bor. Ota-bobolarimiz kun bilan tunning tenglashgan kunini "Navro'z", "Nav" – yangi, "ro'z" – kun ya'ni "Yangi kun" deya tariflashgan. Bu kun odamlar tomonidan juda katta tantana sifatida nishonlanib, qishning sovuq kunlari yer yuzidan chekinib, hayotga issiqlik orqali go'zallik kirib kelishi, tabiatning yangilanishini bayram sifatida nishonlaganlar. Navro'z diniy emas, balki, dehqonchilik bog'dorchilik ishlarining qizg'in pallaga kirishi bilan aloqador alohida bayramdir.

Bayram ikki qismdan iborat bo'lib, tashkiliy jarayon ya'ni qozonlarga sumalaklar solinishi, turli bahor ko'katlaridan pishirilgan taomlar tayyorlanishi, odamlar to'planadigan maydon va guzarlarga chorlovchilarning chaqiriqlari karnay-surnay sadolari ostida ijro etilgan, dorbozlar dorlarini qurishgan. Mahalla yoki jamoa oqsoqollarining duo-fotihalaridan so'ng bayramning ikkinchi qismi boshlangan, ya'ni Navro'z sayli uyushtirilgan. Shu kuni odamlar bir-birlarini bayram bilan qutlashgan, nizolashganlar yarashishgan, bir-birlariga eng yaxshi tilaklar tilashib, sovg'a salomlar ulashishgan. Yosh yigit-qizlar varrak uchirishgan. Halinchaklar uchishgan, uloq-ko'pkari oynashgan, kurash tushishgan, xo'roz,

bedana, qo'chqor urishtirishgan. Bayram sayilining yakuni sumalak bazmi va turli taomlarni bir-biriga tortiq qilish bilan yakunlangan.

Bu bayram marosim tantanasi bo'lishga qaramay, o'zida eng bebaho inson ma'naviyati bilan bog'liq qadriyatlarni o'zida jamlagan. Bular birinchidan, ko'pchilik hamjihat bo'lib, ko'p muhitni shakillantirish, yoshlarga ma'naviy-axloqiy fazilatlarni yetkazish, go'zal tabiatni e'zozlash va undan bahramand bo'lish, xalq ijodiyoti namunalarini jamoa o'rtasida namoyish etish, odamlarda yashayotgan ona vatanga, xalqqa, yer yuziga nisbatan chuqur hurmat tuyg'usini uyg'otishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, mavsum marosimlari xalqimizning yil fasllari bilan bog'liq yig'inlardan iborat. Xalq qadriyatlariga munosabat yomonlashgan zamonlar ta'sirida bu marosimlarning ko'pchiligi yo'qolib ketdi. Mustaqillik sharofati bilan ularni qaytadan tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. Ma'lumki, Navro'z keng omma tomonidan nishonlanadigan umumxalq bayramidir. Shu bois bu bayramning ko'p qo'shiqlari ommaviy ijrochilikka mo'ljallangan. Navro'z bilan bog'liq qo'shiqlarda yurt ozodligi, ma'naviy qadriyatlarimizning elga qaytish g'oyasi tarannum etilmoqda. Navro'z bayrami qo'shiqlarida mehr-oqibat, qut barakaga bo'lgan buyuk ishonch, mo'l hosil olish g'oyasi, el-yurt xotirjamligi badiiy talqin qilinadi.

Bu marosimlar bir tomandan, o'zbek xalqi qadriyatlarini tarkibining boyligini, qadimiyligini dalillasa, ikkinchi tomondan, o'zbeklarning qadim zamonlardan uyushgan millat ekanini isbotlaydi. Biz yoshlar xalqimiz hayotida o'tmish ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan milliy qadriyatlarimizni tiklash, davom ettirish, zamonaviy madaniyat va san'at shakillari orqali ularni xalqning o'ziga, qolaversa o'sib kelayotgan yosh avlodlar ma'naviy olamiga singdirish vazifasini bajarishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. T-2010;
2. Yo'ldosheva S., Nomoddiy madaniy meros va folklor ijrochilik san'ati. T-2016.
3. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. T-2008.

JADID DRAMATURGIYASIDA ZIYOLILAR OBRAZI



Jovliyev Javlonbek

“San’at nazariyasi va tarixi”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s. f. n., dotsent O.Rizayev

XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragida yurtimizda yangi ma’rifatparvarlik harakati vujudga keldi. Bu milliy harakat xalqni ma’rifat orqali nurlil kunlarga yetkazish, Turkiston xalqini taraqqiy etgan davlatlar safiga qo’shishni niyat qilardi. Shu maqsadda, ta’lim, madaniyat, texnika, iqtisodiyot, adabiyot, matbuot sohalariga yangi nafas olib kirib, yurtni rivoj toptirishga intildilar. Bu yangilanishlarini keng targ’ib qilish uchun jadidlar teatrqa katta kuch sifatida ishonishadi. Xalqni ma’rifatli, mustaqil davlat qilish, uning har sohasda bo’y ko’rsatishida teatrning o’rni katta ekanligini anglagan bir guruh ziyolilar yurtimizga teatrning kirib kelishini katta voqea sifatida kutib oldilar. Mahmudxo’ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasining 1914 yil fevralida Toshkent va Samarqand sahnalarida ilk bor namoyish etilishini yurtimizda professional teatrqa asos solinganligini ko’rsatadi. Jumladan, teatrshunos Sirojiddin Ahmedov yurtimizda teatr poydevorini qurishda katta xizmat qilgan Munavvarqori Abdurashidxonov haqida yozar ekan Turkistonda teatr paydo bo’lishi bilan bog’liq haqiqatni quyidagicha izohlaydi. “U (Munavvarqori Abdurashidxonov – tadqiqotchi J. J)o’z atrofidagi tengdoshlari va yoshlarni uyushtirib “Turon” madaniy-ma’rifiy, qolaversa, siyosiy tashkilot tuzadi. U rasmiy ravishda ravishda “Toshkent shahridagi “Turon” musulmonlar drama san’ati havaskorlar jamiyati deb, nomlangan. Bu jamiyat o’zining rasmiy programmasi, ustavi va ko’krak nishoniga ega bo’lgan milliy jamiyat bo’lib, atrofiga yangi usuldagi maktab o’qituvchilari havaskor artistlarni uyishtirgan. Jamiyat nizomi ukrain va yahudiy teatr nizomlarini tanqidiy o’rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish yo’sinda

tayyorlangan. U 73 moddadan iborat bo‘lgan”.²² Bu kabi omillar o‘zbek ziyolilari asos solgan teatr naqadar mustahkam, ishonchli poydevor asosiga qurilganligini ko‘rsatadi. Bu kabi yondoshuv teatrning qonuniy tomondan ham tan olinganligini isbotlardir. Buning ustiga rasmiy hujjatlar orqali himoyalaniş jadid teatrlariga bo‘lgan past nazardan va siyosiy qarashlardan asrardi. “Taraqqiy qilgan millatlar – deb yozgan edi Behbudiy – teatrionalarni ulug‘lar uchun maktabi adab va ibrat ataydur. Taraqqiy qilmoqning eng birinchi sababi va boislaridan biri teatrlardur, deyirlar. Teatrlarning yaxshi va yomon odatlarini sarrof va munaqqidi derlar. Umumiy odatlarni na’fi va zararidan paydo bo‘laturg‘on natijalarni teatrionada yaynan ko‘rsataturkiki, har kim mundin ta’sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg‘a sabab bo‘lur”²³. Yoki bo‘lmasa, Munavvaqori Abdurashidxonov yurtimizda o‘sha paytdagi ahvoldan kuyinib shunday fikrlarni bildiradi: “Turkiston tilida hanuz bir teatr uynolmog‘onligi barchangizga ma’lumdir. Shul sababdin ba’zi kishilarimiz teatrga ehtimolki, o‘yinbozlik yohud masharabozlik ko‘zlari ila boqurlar. Holbuki, teatrning ma’nosi “ibratxona” “ulug‘lar maktabi” degan so‘zdir. Teatr sahnasi har tarafi oinaband qiling‘on bir uyga o‘xshardurki, unga har kim kirsam, o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib ibrat olur”²⁴. Teatrga muqaddas maskan, tarbiya o‘chog‘i, ko‘ngil tabibi sifatida qaragan ma’rifatparvarlar undan ko‘plab ezguliklarni kutib qoldi. Teatr ularga birlikni ta’min etuvchi, ozod va farovon yashashi uchun qalblarni birlashtiradigan maskanga aylanishini niyat qildilar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatdilar. Ular birin-ketini sahna asarlarni namoyish etib, xalq orasida teatrning ommalashishi uchun matbuotda paydar-pay maqolalar ham chop etib turdilar. Ma’rifatga intilgan ziyoli bobolarimiz bu chigal vaziyatlardan ilm-fan, taraqqiyot orqali qutilish mumkin ekanliklarini yaxshi anglardilar. Shuning uchun ilk sahna asarlaridan boshlab ziyoli obraziga jiddiy e’tibor bera boshlashdi. Ular ma’rifatli inson obrazini, johil, faqat qorin g‘amida, nafs o‘tida yonadigan nusxalarga qarshi

²² Sirojiddin A. Munavvar etdi olamni // Teatr, 1 son, 2007. 24 bet.

²³ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Ma’naviyat, 1999. – B. 174

²⁴ Munavvar qori Abdurashidxonov. Toshkentda sart tilida birinchi tomosha// Turkiston tuzem gazet. 18 son. 1914 yil 2 mart.

qo'yish orqali, o'z orzularidagi ziyoli insonlarni ko'paytirishni niyat qilgandilar. Buni istalgan jadid bobomiz hayoti, ularning qoldirgan merosini o'rganish orqali ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, bu haqda Sirojiddin Ahmedov shunday fikrlarni bayon etadi: "Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asarni malakali ravishda elga taqdim qilishda jonbozlik ko'rsatdi. Bu uning dunyo qarashi nihoyatda kengligidan, bilimning nihoyatda ko'lamdorligidan, tafakkurning terandorligidan dolalatdir. Jumladan u kuyunib shu fikrlarni bildirgandi: "Bizim Turkiston mamlakati suv, tufrog', havo jihatidan eng boy mamlakatlardan bo'la turib, na uchun o'zimiz bundan foydalana olmaymiz. Mana, ketma ket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonlik va olamdan bexabarlik demakdin boshqa chora yo'qdir. Bu nodonlik va olamdan bexabarlikdan balosidan qutulmak uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqligini bilmak va o'rganmak kerakdir"²⁵. Bu buzg'un va illat aylangan odatlarni yo'qotmoq uchun teatrning o'rni juda katta edi. Behbudiyni aytganidek: "Teatr hayotni haqqoniy aks eutuvchi ko'zgu, u adabiyot olamining eng yaxshi bir qismidir. Teatr – o'liklarni tiriltiradigan, chanqoqlarga suv, uyatsizlarga uyat beradigan, tarbiyasizlarni tarbiyalaydigan, vijdotsizlarga vijdon ulashadigan joy"²⁶. Shunday ekan bu teatrning katta kuchini ko'rsatish uchun xalqqa ma'rifatli, ziyoli siymolar kerak edi. Ularning soni ortgan sayin teatrning ta'siri ortar va o'z navbatida xalqning taraqqiyoti yuksalib, uning qaddi tiklanardi. Biz ziyoli obrazlariga bo'lgan intilishni ilk sahna asarlaridayoq ko'rishimiz mumkin. Jumladan, akademik Mamajon Rahmonov ham ta'kidlaganidek: "Jadid teatri harakati "Padarkush"dan boshlandi, uni yozgan Behbudiyni esa jadid teatrining tashkilotchisi va asoschisi deb baholash kerak."²⁷ Obrazda biroz didaktik yondoshuv, spektakl qahramonlari va tomoshabinga ibratli gapni yetkazish maqsad qilingan bo'lsa-da, bu ziyoli obrazi orqali Behbudiyni o'zining qalbidagi gaplarni to'kib solgandi. U nafaqat Behbudiyni balki butun jadidlar qalbini o'rtagan so'zlar edi. Asarda, ziyoli qahramon

²⁵ Sirojiddin A. Munavvar etdi olamni // Teatr, 1 son, 2007. 25 bet.

²⁶ Behbudiyni M. Teatr nadur?// "Oina" j. 1914 yil.,29-son,550-553 betlar

²⁷ Rahmonov M. Hamza va o'zbek tayetri. T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – 1959. – 77-bet.

Mirzo tilidan quyidagicha soʻlar aytiladi: “Mirzo: (taassuf ila xalqqa qarab) Oh! Voy! Biz, Turkiston musulmonlari bu nodonlik balosidan qachon qutilar ekanmiz. Bizlarni ilmsizlik sharobxoʻr qildi, juvonboz qildi, ahmoq va isrofkor qildi. Mana, oxir bebroʻ va xonavayron qildi. Boshqa millatlar topgan pullarini ilm va maoruf, din va millat yoʻliga sarf qilub, kundan kun taraqqiy topsalar, bizlar jaholat va nodonligimiz sababidan topgan molimizni hatto bogʻ va hovlilarimizni sotub, toʻy va aza, bazm va koʻbkari yoʻligʻa harajat qilub, oʻzgalarning bir parcha nonigʻa muhtoj va xoru zor boʻlmakdamiz. Agar biz, musulmonlar, ushbu fursatlarni gʻanimat bilub, toʻy va azada, urf va rasm boʻlgan isroflarga barham bermasak, ozgina vaqtda hozirgi mulk molimizdan ham ayrilub, oʻzimiz darbadar boʻlurmiz. Ollo taollo jumla musulmon birodarimizgʻa ibrat koʻzi bersun!”. Ha, bu ibrat XX asarning birinchi choragida xalq dardi bilan yashagan ziyolilarning olovli soʻzlari edi. Bu soʻzlar barcha ziyolilarning yuragidan qaynagan nido edi. Ulugʻ maʼrifatparvar, atoqli pedagog, shoir, dramaturg Abdulla Avloniy oʻz “Oʻz tarjimai holi”da shunday fikrlarni bayon qilgan: “1913 yildan boshlab xalqning koʻzini ochmoq, madaniyatga yaqinlashtirmoq uchun teatrga kirishib, teatr ishlarini yoʻlga qoʻyuvchilarning boshlugʻu boʻlib, Turkistoning bir necha shaharlariga borib oʻzbeklar orasida teatrga yoʻl ochdim. “Turon” ismli jamiyat yuzaga chiqardik”. Shundan ham koʻrinadiki, teatrga katta umid bogʻlagan ijodkorlar, teatr xalqimiz ertasida bebaho xizmat koʻrsatishiga ishonishgan.

ZAMONAVIY QO'G'IRCHOQ TEATRIDA DRAMATURGIYA MUAMMOLARI



Jo'rayeva Hulkar

"Teatr san'ati"

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar" s.f.n., dotsent G.Xoliqulova

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlar albatta, kelajak avlodning farovon turmush kechirishi, har tomonlama yetuk, barkamol shaxs bo'lishlariga qaratilgan. Bunday yuksak e'tiborga oqlash, munosib javob qaytarish, bildirilgan ishonchni oqlash nafaqat yosh avlodning balki soha hodimlarining ham hal qilish lozim bo'lgan dolzarb vazifasidir.

"2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda Qarori soha hodimlariga ham qaratilgan. Bu o'rinda albatta, tarbiya maskani bo'lgan qo'g'irchoq teatrlarining o'rni beqiyos. Yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish, estetik-badiiy didini shakllantirishda qo'g'irchoq teatrlarida sahanalashtirilayotgan spektakllarning ahamiyati nechog'lik muhimligi bugun hammaga ayon bo'ldi. Shu o'rinda qo'g'irchoq teatrlarida sahanalashtirilayotgan spektakllar to'g'risida to'xtalib o'tsak. Albatta, qo'g'irchoq teatri bolalar va yoshlar qalbida umuminsoniy va ezgu g'oyalarni uyg'otishi orqali fikralashga, bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildirishga chorlaydi.

Jajji tomoshabinlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda O'zbekiston Davlat qo'g'irchoq teatri (avvalgi Respublika qo'g'irchoq teatri)ning o'rni beqiyos. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, 2016 yil Vazirlar Mahkamasining 68-son Bayoniga muvofiq, (Respublika qo'g'irchoq teatri) O'zbekiston Davlat qo'g'irchoq teatriga aylantirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy qo'g'irchoq teatrini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish, badiiy asosini mustahkamlashdan iborat. Teatrning badiiy asosi boy hamda

rang-barang bo'lsagina, bolalar va yoshlarda teatrga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Albatta, bu dramaturgiya bilan bog'liq. **“Dramaturgiyaga tayanib ijod qiladigan teatr-hayotni bilish maktabi, kuchli taassurotlar, yorqin badiiy fikrlar jamlangan o'z davrining oynasi va ehtirolarga boy, kechinmalarga to'yingan, maqsadi aniq, jonli harakterlar san'atidir”.**²⁸ Dramaturg tomonidan yaratilayotgan sahna asarlari teatrning barcha imkoniyatlarini, sahna san'atining qonun-qoidalariga mos tarzda yaratish talab etiladi. Sahnalashtirilgan har bir pesa sahnada g'oyani ifodalashga xizmat qiladi. Dramaturgning boy dunyoqarashi asarning g'oyasini tasvirlashda ko'rinadi. Aynan qo'g'irchoq teatrida ham dramaturgiya teatrning qon-tomiri hisoblanadi. **“Qanday asar qo'g'irchoq teatri uchun mos va mukammal sanaladi? Tanlangan asarning g'oyasi yorqin, syujeti ixcham, tushunarli va xatto kattalar uchun ham juda qiziq bo'lishi shart. G'oya va syujet nutqiy to'qnashuvlar orqali emas, balki voqeaviy xatti-harakatlarga asoslangan o'tkir konfliktlarda hal etilmog'i lozim. Boshqacha aytganda qo'g'irchoq teatri so'zamollikni ko'tarmaydi, g'oyani ochuvchi qiziq voqealar tomoshabin ko'z o'ngida sodir bo'lishini yoqtiradi. Umuman barcha teatrlar tabiati shunday, qo'g'irchoq teatrida esa bu xislat o'n chandon kuchli Spektakl atayin bolalarga bag'ishlangani ma'qul. Zero, bolalar bugungi kunda qo'g'irchoq teatrining sadoqatli va eng minnatdor tomoshabinlaridir”.**² Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin. Yosh tomoshabinlarga badiiy jihatdan mustahkam asarlar qo'g'irchoq teatri uchun yaratilmayotgani eng og'riqli nuqtamizdir.²⁹ Qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasini yaratish, professional ijodkorlarni kashf etish, ularni nazariya va amaliyotni birgalikda davom ettirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Ijodiy tajribalar almashish, festivallar, ko'rik-tanlovlar, seminar-treninglar muntazam o'tkazilishi sohadagi izchillikni mustahkamlaydi. Bugungi kun talabidan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, qo'g'irchoq teatri sohasidagi bilim va ko'nikmalarni maktab ta'limi davridan boshlash lozim. Oliy o'quv yurtida, har

²⁸ . M.Umarov, T.Yuldoshev. “Rejissyorlik va aktyorlik san'ati asoslari”, T-2016 yil 6-bet.

²⁹ T.I.Yuldoshev, H.I.Ikromov, I.A.Muhtorov, M.S.Muxtorova, “Teatr va yosh avlod”. T-2012 y, 84-bet.

bitta talaba qo'g'irchoqni yasashdan emas, balki uni sahnaviy talqinlarini yaratish, sahnalashtirish, asarlarni tahlilidan boshlansa, to'rt yil davomida qo'g'irchoq teatrining yetuk aktyori, rejissiyori bo'lib yetishishiga zamin hozirlanadi. Ammo, bu muammo hali o'z yechimini topgani yo'q. Kadrlar tayyorlashda qo'g'irchoq teatrining barcha komponentlari talaba o'qishga qabul qilingandan boshlab, qo'g'irchoq yaratish, uni yasash texnologiyasi xususida olib boriladi. Bugungi kun tomoshabini juda zukko. Spektaklning badiiy va ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, tashrif buyuradi. Hoh mifologik spektakl bo'lsin, hoh fantastik. Bu qo'g'irchoq teatri dramaturgning zimmasiga ulkan vazifa yuklaydi. Dramaturgiya va bolalar dramaturgiyasi xali o'rganilmagan va o'rganishni talab etadi. Dramaturg yozuvchi emas, ijodkor bo'lishi lozim. Zamon qahramonini yaratish kabi masalalarni yoritish kerak emasmi? Qo'g'irchoq teatrida zamon qahramoni. Bular kimlar? Qaysi sohani olmang yosh zamon qahramonini ko'rasiz. Musiqa maktablari o'quvchilarining iqtidorlari jahonni larzaga solmoqda. Uni yozish va yaratish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bu kabi sahna asarlaridan bolalar undan o'rnak oladi, vatanparvarlik tuyg'usida shakllanadi, u kabi bo'lishga intiladi. Lekin, yuqorida keltirilgan fikrlar hali ijrosini kutayotgan muammolar edi. Xususan, O'zbekiston Davlat San'at va madaniyat institutida dramaturgiya sohasiga e'tibor qaratilganini "Dramaturgiya" mutaxassisligida tayyorlanayotgan kadrlarda ko'rishimiz mumkin. Yosh kadrlarga bolalar dramaturgiyasiga ixtisoslashgan tarzda ta'lim berilsa, sohadagi bu muammolar o'z yechimini topgan bo'lar edi. Teatr repertuariga nazar tashlaylik, bir xil janrdagi spektakllarni ko'ramiz. Buguni kunda zamonaviy qo'g'irchoq teatrlari janrlari ko'payish o'rniga, aksini ko'rsatmoqda. Aksariyat spektakllar yosh, jajji bolajonlar uchun tor doiradagi tomoshabinlar uchun mo'lajallangan. 5-12 yoshdagi bolalar uchun spektakllar tomoshabin talabiga javob bermaydi. Negaki, uni spektakl qiziqтира olmayapti. Har bitta spektakl xususida so'rovnomalar olib borilishi lozim. Natijalar spektaklning nechog'lik muvafaqqiyati va kamchiligini asoslab beradi. **"Zero, har bir spektaklga, har bir, boringki, eng kichik rolga ham yuksak ma'suliyat**

bilan yondashishni odat tusiga kiritish zarur. Buni zamon, qolaversa, bilimi, saviyasi, idrok etish salohiyati keskin ortib borayotgan tomoshabinlar talab etmoqda....o‘qish uchun mo‘ljallangan badiiy shakl hamma vaqt ham teatr uchun qo‘l kelavermaydi. Unga sahnaviylik, tomoshaviylikni ta‘minlovchi usullar va unsurlar kerak”.³⁰

KINODA OPERATORNING IJODIY IZLANISHLARI



Qalandarov Izzat

“Kinooperatorlik” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.n., professor v.b. A.Ubaydullayev

Tarixdan ma‘lumki, kino dastlab texnik kashfiyot sifatida maydonga keldi, qiziqish uyg‘otdi va “harakatlanuvchi tasvir” deb ham nom qozondi. Bu sohada faoliyat yurituvchi har bir kasb egasining mehnati alohida e‘tiborga loyiq. U rejissyor, operator yoki rassom bo‘ladimi filmning muvafaqqiyatli chiqishini ta‘minlaydigan, bir so‘z bilan aytganda, javobgar shaxs hisoblanadi. Shu o‘rinda keng olamni kichik bir kameraga joylay oladigan kinooperatorlik san‘ati suratga olish apparati bilan vujudga kelgan desak, xato bo‘lmaydi.

Mashhur operatorlardan biri V.Chumak shunday deb yozadi: “Tomoshabinga voqea ishtirokchisi sifatida qarash, uni dunyoqarash va bilim doirasini hisobga olish-bu kino san‘atining rivojlanish yo‘lidagi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Agar tomoshabinga fikrlash imkoni berilsagina, u film voqealarini aniq tahlil qila oladi”.³¹ Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda aytish mumkinki, kino san‘atining inson ongi va tafakkuriga, jamiyat hayotiga ta‘siri katta. Ekrandagi qahramonlar va ular tomonidan sodir etilayotgan hatti-harakat, filmda ko‘tarilgan mavzu, muammolar har bir tomoshabinga ta‘sir etmay qolmaydi.

³⁰ H.Ikromov. “Davr va teatr”// “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.T-2009, 38-39 betlar.

³¹ Abulqosimova X. Kino san‘ati asoslari – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.53 b.

O'tgan asrning 40-yillariga kelib o'zbek kinematografiyasi o'zining ilk rivojlanish kurslarini boshdan kechirdi, rivojlandi va san'at sifatida shakllandi. Aynan mana shu davrga kelib o'zbek kinosida operatorlik maktabi shakllana boshladi va bu maktabga kinooperatorlar D.Demutskiy, V.Simbirsev, M.Krasnyanskiy va boshqa iste'dodli ijodkorlar asos soldilar.

II Jahon Urushi davrida o'zbek kinoijodkorlari halqning vatanparvarlik ruhini ko'tarish maqsadida milliy mumtoz asarlarga, doston va rivoyatlarga asoslangan "Nasriddin Buxoroda" (rejissor Y.Protazanov, operator D.Demutskiy) va "Tohir va Zuxra" (rejissor N.G'aniyev, operator D.Demutskiy, rassom V.Yeremyan) filmlarni yaratishga kirishdilar. Bu filmlar urushning so'nggi yillarida kino ekranlarga chiqarildi.³²

Operator bevosita tasvir yaratuvchi san'atkordir. U o'z kamerasi yordamida ma'lum holatga kirgan aktyorni "nishonga oladi", ziyraklik bilan kuzatadi, nur xazinasi, rang boyliklari uning xizmatida bo'ladi. Badiiy filmlarda qo'llaniladigan tasviriy vositalar yordamida gavdalangan tasviriy obrazlarni, yaxlit qilib aytganda umumiy jarayonni ko'z oldimizga keltirsak, kartinani suratga olish maydonida kinooperatorning o'rne nihoyatda katta va muhim ekanligini bilishimiz mumkin. Operatorlik san'atining o'ziga xosligi shundaki, u ekranda narsalarning nafaqat shakl, rang, hajmini, suratga olish joyining manzara va masofasini to'g'ri, butun boricha tasvirlash san'atini ko'rsatishga, balki harakat tezligi, surati va yo'nalishiga imkoniyat yaratadi.

Operatorlik kasbida belgilangan meyoriy planlar bilan ishlay olish mahorati, rakurslar, nur-soya o'yinlari ham muhim jihatlardan biri. Bundan tashqari kinooperator film syujetini qurilishida obrazlar talqini va rejissyor stilistikasini ko'zda tutgan holda, bosh mavzuni ochishga yordam beradigan uslub tanlashi hamda kadrlar kompozitsiyasi tus-tonalligi, ranglar dinamikasi orqali

³² Fayziyev X. Ovozsiz kinematografiyadagi operatorlik san'ati tarixidan –T.: O'zDSMI nashriyoti, 2009 y. 124-b.

tomoshabinlarga fikrini yetkazib berishi lozim. Demak, suratga olish vaqtida kinooperator tomoshabin bilan o'ziga xos obrazli tilda suhbatlashadi.

Hozirgi kunda kinoda operatorning o'rnini qanchalik muhim? Yoki operatorlar o'z mavqelarini yo'qotib shunchaki kameraning qizil tugmachasini bosib turadigan texnikka aylanib qoldimi?

Bu o'rinda operatorlarning o'z pozitsiyalarini, kasblarining asl mohiyatini, mas'uliyatini, qudratini to'laligicha anglab ola olmayotgan ba'zi bir operatorlarning "ijodiy" faoliyatlari kinoning badiiy saviyasini tushirib yubormoqda.

Achinarlisi shundaki, hozirgi kinoimizda ishlayotgan operatorlarning aksariyati havaskorlar emas, ular oliy ma'lumotga ega bo'lgan ijodkorlar. Aytish kerakki, bu hol muammoning yanada achinarliroq ekanligini bildiradi. "Professional" deb yuritilayotgan operatorlarki o'zbo'larchilik bilan ishlayotgan bo'lishsa boshqalardan sifatni talab qilishda mantiq ko'rinmaydi. Taassufki bugun yosh operatorlar orasida o'z uslubiga ega bo'lganlari yo'qligidir. Filmlarni ko'rar ekansiz deyarli hammasini xuddi bitta operator tasvirga olganga o'xshaydi. Filmlarda operatorlik ishlarini faqatgina biror operatorlik texnikasidan ko'proq foydalanishidan ajratish mumkin.

Insonni o'ylatadigan masalalardan yana biri 5-6 ta filmni tasvirga olib o'z nomiga ega bo'lib qolgan ba'zi bir operatorlarning so'nggi paytlarda ijodiy yuksalish o'rniga tobora qashshoqlashib borayotganidir. O'zining ilk filmni tasvirga olayotgan operator bo'lganida tushunish mumkin edi. Biroq ozmi-ko'pmi muvaffaqiyatga erishgan ayrim yosh operatorlarning filmlarni "shtamp" qilib yuborayotganini, yoki bo'lmasa, "bo'laveradi-da..." qabilida ish olib borayotganliklarini tushunish qiyin.

Atoqli ustoz operatorlardan biri professor Abdurahim Ismoilov o'z ma'ruzalarida shunday degan edilar: "...operatorning tasvirga olgan har bir kadri bevosita uning biografiyasiga yoziladi. Ertaga kelajak avlod shu tasvirlar orqali bu operatorga baho beradilar. Uning bu tasvirlarni qanday muammolar iskanjasida olganining tomoshabiniga zarracha ahamiyati yo'q. Shuning uchun ham operator

har bir kadrni olishda kamera tugmasini bosishdan oldin yetti o'lchab bir kesishi lozim..." degan edilar.³³

Ustoz Abdurahim Ismoilov darslarida talabalarga "...Kameraning tasvirga oluvchi tugmasi bejiz qizil rangda emas, bu har bir tasvirga olayotgan kadr uchun faqat sen va bir umr javobgar ekanligingdan ogohlantirib turadi" deb ko'p aytib turadilar.

Operator aslida ko'p qirrali ijodkordir, u rassom, u tasviriy san'at asarini yaratadi. Kino asarda kompozitsiya, kolorit, muayyan maktab xususiyatlari, nur, soya, qo'yinki barcha rangtasvir elementlari mavjud. Operator bu rejissyor, chunki, u har bir kadri orqali muayyan bir ma'no-mantiqqa ega bo'ladi va hox u xarakatda, hox u tinch bo'lsin, o'z rivoji va yechimiga ega bo'ladi va operator aynan shu kadr yoki kadrlar ketma-ketligi orqali tomoshabinga fikr beradi. Operator bu kompozitor, chunki u tasvirlarning ritmini his qiladi va belgilaydi. Tasvirlar orqali musiqa yaratadi. Operator bu montajchi, chunki u har bir kadrning keyingi yoki oldingi kadrlar bilan qay tarzda ulanishi va qanday ma'no tashishini chuqur anglagani va his qilgani holda tasvirga olish nuqtalarini, uslublarini belgilaydi.

Xo'sh, operatorlik sohasida bugun uchrayotgan mavjud muammolarning asl mohiyati nimada, nega aynan sanab o'tilgan muammolar paydo bo'lmoqda? Bunga bir necha sabablar bo'lishi mumkin.

Birinchidan, kasbga, ijodga bo'lgan mehrning yo'qligi. Chunki o'z kasbini, san'atni sidqidildan sevgan inson uchun hech qachon moddiy manfaatdorlik birinchi o'rinda turmaydi. Bunga ko'plab el suygan ustoz san'atkorlar xayotini misol qilib keltirishning o'zi kifoya.

Ikkinchidan, o'z kasbining asl mohiyatini to'liq anglab yetmaslik va kasbiy g'ururning shakllanmaganligi. Ya'ni, dunyoqarash, ijodkor sifatida o'z shaxsiy fikri yo'qligi, o'z asarga nisbatan o'z nuqtai nazarining, munosabatning, ijodiy

³³ Professor Abdurahim Ismoilov bilan suhbatdan. 02.03.2017 y.

yondashuvning yo‘qligi yoki o‘ta sustligi. Asarga nisbatan munosabat har doim yangilik yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Uchinchi, yosh operatorlarda nazariy bilimlarning kamligi yoki umuman yo‘qligi. Ya’ni, faqatgina amaliy ishlash jarayonida orttirilgan ozgina tajribaga suyanib ish ko‘rish. Olinayotgan tasvirning dramaturgik kuchi, uning texnik talablari, ijrosi, qo‘llanilayotgan muayyan usulning tasviriy ta’sir kuchini va qo‘llash o‘rnini bilmaslik va bilishga intilmaslik. Kuchli nazariy bilimga ega bo‘lgan inson xech bo‘lmaganda muayyan usuldan foydalanishning o‘rnini va meyorlarini biladi va asarning umumiy ritmi va kompozitsiyasini xis etadi.

To‘rtinchi, erinchoqlik, ya’ni nazariy bilimlarga ega bo‘lib ham ularni amalda qo‘llashdan erinish, o‘zbo‘larchilikka tashlab qo‘yish yoki “bo‘laveradida” qabilida ish ko‘rish va xokazolar.

Ushbu muammoni hal qilish, yoshlar o‘rtasida operatorlik ksabiga qiziqishni kuchaytirish, yosh operatorlarning tasviriy-ifodaviy ijod mahoratlarini oshirish uchun avvalo:

Birinchidan, yosh avlodni tarbiyalashda maktabdan tashqari ta’lim muassasalaridagi “Yosh texniklar”, “Foto xavaskorlik” kabi texnik to‘garaklar faoliyatini qog‘ozda emas, haqiqatda qayta tashkil qilish va isloh qilish. Bundan tashqari shu mutaxassisliklar tayyorlanadigan kollej, institutlarda moddiy texnik bazani rivojlantirish hisobiga bilim berish sifatini oshirishga erishish lozim;

Ikkinchi, operatorlarning badiiy didlarini, dunyoqarashlarini, kasbiy g‘urur-larini tarbiyalash yo‘lida yetuk mutahassis ustozlar tajribasidan foydalanish, “Ustoz-shogird” an‘analari ruhida yosh operatorlar ishini har tomonlama nazorat qilib turish. Mashxur ustoz operatorlar bilan ijodiy uchrashuvlar o‘tkazib borish va shu yo‘l bilan operatorlarning kasbga nisbatan dunyoqarashlarini orttirish;

Uchinchi, “O‘zbekkino” DUK va Kinochilar uyi qoshidagi hozirda mavjud bo‘lgan Badiiy Kengash tarkibida aynan filmdagi operatorlik san’ati sifatiga, uning badiiylilik va texnik xususiyatlariga e’tibor qaratadigan

mutaxassislarni jalb etish va shu yo‘l bilan operatorlar o‘rtasida sifat uchun kurash yo‘lida sog‘lom raqobatni rivojlantirish;

To‘rtinchidan, badiiy filmlar yaratayotgan studiyalar va mutaxassis operatorlar o‘rtasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish lozim. Ya’ni o‘zaro sog‘lom ijodiy raqobat natijasida o‘sish jadallashadi va yangi zamonaviy texnik vositalardan foydalanish malakasiga erishishga intilish sohaning yanada rivojlanishini ta’minlaydi. Bu jarayonni rag‘batlantirish uchun davlat miqyosidagi kinofestivallarda “Eng yaxshi operatorlik ishi”, “Yilning eng yaxshi film tasviriy yechimi” kabi nominatsiyalar kiritish va rag‘batlantirishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Kino san’atidek mas’uliyatli sohada ijod qilayotgan xar bir inson san’at, vatan va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatlarini unutmasa bas.

Adabiyotlar:

1. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.53 b;
2. Fayziyev X. Ovozsiz kinematografiyadagi operatorlik san’ati tarixidan –T.: O‘zDSMI nashriyoti, 2009 y. 124-b;
3. Professor Abdurahim Ismoilov bilan suhbatdan. 02.03.2017 y.

TEATR AKTYORLARINI O‘QITISHDA JAHON MUMTOZ ASARLARINING AHAMIYATI



Karayeva Feruza

“Drama teatri va kino aktyorligi san’ati”

Mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: v.b professor X.Sadiyev

Teatr deganda, kishining ko‘z o‘ngida avvalo, obrazli liboslar va ajib grimlarda hayotning turfa vaziyatlarida turfa xil maqsadlar yo‘lida goh quvonib, goh dard chekib hayot kechirayotgan odamlarni ko‘rsatib beruvchi aktyorlar gavdalanadi. Tomoshabinga teatr nima ekanligini tushuntiruvchi ham va bu xizmatlari evaziga ularning olqishiga sazovor bo‘luvchilar ham aktyorlardir. “Aktyor sahnaning yagona egasi”, “Aktyor sahna qiroli” kabi ko‘plab e’tirof va ta’riflarning barchasida teatr san’atida aktyorlarning vazifasi va mavqeyi

qanchalar yuqori o‘rin tutishini nazarda tutilgan. Bu san‘at paydo bo‘libdiki, butun dunyo olimlari ular haqida bahs yuritadilar, kitoblar yozadilar. Didro, Stanislavskiy, Meyerxold, Gratonvskiy, Mixayl Chexov va boshqa shu kabi buyuklar bu san‘at sohasining mohiyatiga yetishga, aktyor kim ekanligini o‘rganishga umr sarflagan. Hozirgi kunda ham bu san‘atning asl siri, oxir poyoni qayerda ekanligini hech kim butkul anglab yetgan emas. Shuning uchun ham uni o‘rganish, anglash yo‘lidagi izlanishlar davom etaveradi. Ana shunday boshqalar uchun havasli va sirli tuyuladigan san‘at sohiblari aktyorlar qanday shakllanadi? Balki oddiydir, balki murakkab, buni faqat sohaning chinakam ustalarigina va aktyorlarning o‘zigina biladi. Albatta, aktyor shunchaki paydo bo‘lib qolmaydi. Mana shunday yuksak san‘atni egallashda o‘z qobiliyati ustida tinimsiz ishlash, uni boyitish yo‘lida izlanish, o‘qish, umuman, katta va davomli mehnat talab qiladi. Har qanday ta’limni o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi tomonlar tashkil etadi. Har qanday sohani o‘zlashtirishning esa ikki tomoni bor, ya’ni kasbiy bilim va amaliyot. Aktyorlik uchun fantaziya va dunyoqarashning kengligi, inson va hayot, kasbi haqida yetarlicha bilim kerak. Amaliyot esa shular negizida yuzaga chiqadi. Bo‘lajak aktyor san‘atning barcha turlarini tushunishi, ayniqsa, jahon adabiyotining mumtoz namunalarini bilishi katta ahamiyatga ega. Bunda esa pedagog san‘atkorning tajribasi va maqsadga to‘g‘ri olib bora olishi muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak aktyorning jahon dramaturgiyasi namunalari, umuman, mumtoz asarlarda rollar ustida ishlashi unga nima berishi mumkin? O‘zbek va dunyo teatrlari tajribalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, jahon klassik asarlarida ishlab ko‘rgan yosh aktyorda ijodiy daraja shakllanadi. Masalan, dunyo dramaturgiyasining cho‘qqisi bo‘lgan Shekspir tragediyalarida qahramonni o‘ynagan aktyorda maqsadli ijodiy daraja paydo qiladi. Davrni va shu davr va millatga xos ruhni his qilish paydo bo‘ladi. Chunki bu asarlar aktyorga ijroda uslub bo‘lishini, janrni tushunishni, xarakter yaratishda individuallik topishni o‘rgatadi. Shuning uchun har bir aktyor hamisha bunday asarlarda rol ijro etishni orzu qiladi.

Bu bilan o'z ijodiy darajasini sinab ko'rishni, o'z mahorat qirralarini kashf qilinishini istaydi. Umuman, shunday yuksak rollarga loyiq bo'lishni maqsad qiladi.

Shu sababdan teatr aktyorlarini o'qitishda jahon klassik asarlariga murojaat qilish ularning katta sahnalarda har qanday rolni ijro eta olishiga zamin yaratadi.

Ma'lumki, yurtimizda aktyorlik san'ati bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliygoh, ya'ni san'at va madaniyat instituti boshqa oliy o'quv yurtlaridan farqli ravishda teatr san'ati bo'yicha rejissyor va aktyorlarni o'qitadigan ijodiy yo'nalishdagi maskan hisoblanadi. Unda ko'pgina malakali pedagog ijodkorlar yosh aktyorlarni tarbiyalab kelmoqda. Aktyorlarni o'qitishda kurslararo kursma kurs tizim bo'lib, dastavval kichik sahnaviy parchalardan, etyudlardan, milliy ruhdagi spektakllarga va jahon klassik asarlariga o'tiladi. Sofokl, Yevriped kabi antik davr dramaturgiyasidan tortib, to Shekspir, Moler, Gotssi, Galdoni kabi o'rta asrlar va uyg'onish davri klassitsizmi, Brext, Ostrovskiy, Chexov, Tolstoy, Gogol kabi realizm davri vakillari sahna asarlariga murojaat qilinishi bo'lajak aktyorlar mahorat darajasining ko'tarilishiga xizmat qiladi.

O'quv jarayonlarida turli aktyorlik kurslarida sahnalashtirilgan "Olchazor", "O'lik jonlar", "Medeya", "Otello", "Romeo va Juletta", "Gamlet", "Kavkazning bo'r doirasi" singari ko'plab spektakllar talabalarning aktyorlik mahorati va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqishiga, shuningdek sinovdan o'tishiga keng maydon yaratgan. O'quv jarayonidagi spektakllardayoq mutaxassislar e'tiboriga tushish yosh aktyorlarga katta sahnalarga yo'l ochilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jahon mumtoz asarlari professional teatr aktyorlari qirralarining ochilishida ham hamisha katta ahamiyat kasb etib kelgan. Birgina, yaqindagina O'zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan ingliz mumtoz dramaturglaridan biri Molerning "Tartyuf" spektakli misolida ham ko'rish mumkin. Ushbu spektakl yosh yoki tajribali ekanligidan qat'iy nazar ko'pgina aktyorlarning kasbiy mahorat darajasini namoyon qildi. Ayniqsa, bosh qahramon Tartyufni jonlantirgan aktyor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Tohir Saidov va aktrisa Muyassar

Berdiqulovalarning mahoratining yanada charxlanganligi namoyon bo'ldi. Shu bilan birga Gulnora Jumanazarova, Asad Nabiyeu, Maxfuza Bobotillaeva, Gavhar Zokirova, Ixtiyor Atajonov, Nigina Anorboyeva kabi qator teatrning yosh aktyorlarining o'z iqtidorlarini ko'rsatishlari uchun imkoniyat bo'ldi.

Bugungi kunda teatr san'atida kuzatilayotgan muammolar haqida ko'p gapirilyapti. Shu jumladan, aktyorlik san'ati, ayniqsa, yosh teatr aktyorlarining mahorati masalasi sohaning og'riqli nuqtalaridan biri sifatida ko'tarilmoqda. Bundan ko'rinadiki, san'at sohasida kadrlar tayyorlashda bugungi kunda uchrayotgan muammolardan kelib chiqqan holda vaqt sinovidan o'tgan mavjud metodlarni yana ham mustamlash, aktyorlarni yangicha ijodiy o'qitish usullarini joriy etish zarurati sezilyapti. Bundan shunday xulosaga kelinadiki, nafaqat o'quv jarayonlarida, balki teatrlarning o'zida ham jahon mumtoz asarlarini ko'proq sahnalashtirish aktyorlarning mahorat darajalarini yuqoriroq ushlab turishga jiddiy ko'mak beradi.

TARIXIY SAHNA ASARLARINING INSON MA'NAVIYATIGA TA'SIRI



Karimov Jahongir
“Teatr san’ati” mutaxassisligi
1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: s.f.n, dotsent G. Xoliqulova

Yosh avlodni xalqimiz tarixi, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularga tarixni o'rgatishdek jarayonga jalb etish hozirgi kunning dolzarb talabidir. Mustaqillik yillarida buyuk davlat arboblari, mutaffakirlar, allomalar va shoirlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan qator tarixiy dramalar yozildi va sahnalashtirildi. Tarixni adolatli yoritish, buyuk ajdodlarimiz merosiga, qadimiy shaharlarimiz

o'tmishiga e'tibor keskin o'zgardi. Haqqoniy asarlar bilan halqimizning dunyoqarashi kengaydi.

Tarixiy drama janrining paydo bo'lishi tabiiy va qonuniy bo'lib, uning ildizlari xalqning qadimgi san'ati, adabiyoti, an'anaviy teatri, xalq madaniyati, ruhiyatiga borib taqaladi.

Tarixiy mavzuda asar yaratishni maqsad qilgan dramaturg avvalo tarixni mukammal o'rganish bilan birga, o'z asariga qaxramon qilib olmoqchi bo'lgan tarixiy shaxsni hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishib, aniq manbalarga tayangan holda qalam tebratadi. San'atshunos olim D.Rahmatullayeva "Dramaturglar tarixiy mavzuga murojaat etar ekanlar, tarixiy voqealarni emas, ko'proq tarixiy shaxslar, inson harakterining butun murakkabligi bilan tasvirlashga intilayotganliklari ko'zga tashlanadi. Aksar yaratilayotgan asarlardagi qahramonlar o'zining haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Asarlarda ko'proq qahramon psixologiyasini ochishga, tarixiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, tarixda shaxsning o'rni masalasini badiiy tadqiq qilishga intilish seziladi. Tarixiylikka intilish, voqea va hodisalarni bo'rttirib, umumlashtirib tasvirlash hamda psixologik tasvirga e'tibor bu davrda yaratilgan tarixiy dramalarning ko'pchiligiga hosdir"³⁴, degan fikrlari mavzumizning mazmun mohiyatini ochishga turtki bo'ladi.

Tarixiy mavzulardagi asarlarda avvalo, ta'lim-tarbiya masalalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, davlat boshqaruvi masalalari dramaturg yaratgan obrazlar tilida aytilgan so'zlar davr ruhiyatiga mos aks ettiriladi. Shuning uchun obraz taqdiri, uning o'y fikrlari va tuyg'ulari tomashabin ruhiyatiga tez ta'sir qiladi. Bunda dramaturgning rang-barang tarzda ifodalagan voqea va hodisalari qahramonlar hayotining ta'sirchanligi mahorat masalasi bilan baholanadi.

2016 yilda teatr sahnalarida tarixiy asarlar (Milliy akademik drama teatri) "Alisher Navoiy", "Mirzo Ulug'bek"(Muqimiy nomidagi musiqiy teatr) "Layli va Majnun", (Alisher Navoiy nomidagi katta teatr) "Sadoqat" milliy operasi va

³⁴ Rahmatullayeva D. "Istiqlol va milliy teatr". (To'plam) //Tarixiy dramalarning uyg'onish davri// "Yangi asar avlodi" – T., 2002 y. 186 - b.

“To‘maris” baleti hamda viloyat teatrlaridan (Samarqand viloyat musiqiy teatri) “Mirzo Ulug‘bek”, (Buxoro viloyat musiqiy teatri) “Sohibqironning so‘nggi tushi”, (Farg‘ona viloyat musiqiy teatri) “Ahmad Farg‘oniy” singari tarixiy asarlarning sahnalashtirildi, tomoshabinlar e‘tiboriga qayta-qayta havola etilishining boisi ham shunda. Bu spektakllarning muvaffaqiyati ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalar bilan birga dramaturg istedodi darajasining yuksakligida edi. Nafaqat tarix xaqidagi fikrlarni, balki diqqatini charxladi, ogoh bo‘lish hissini kuchaytirdi.

Masalan, “Alisher Navoiy” spektakli (rej. Rustam Hamidov) so‘z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning siymosi mahorat bilan yaratilgan sahna asarini olaylik. Asardagi voqealarni teran anglagan tomoshabin o‘sha davrdagi makkorlik, adolatsizlikdan ta’sirlanib, bugungi kunda uchraydigan ba’zi Vatan hoinlarining xatti-harakati bilan bimalol taqqoslab anglashi mumkin. Alisher Navoiy ijodi va Husayn Boyqaro atrofida sodir bo‘ladigan qing‘ir ishlarning turli bo‘yoqlardagi sahna ko‘rinishlari tomoshabinni chuqur fikrlashga undaydi. Navoiyning turli kimsalar orasida voqealar girdobida o‘zini yo‘qotmasdan mardlarcha, aqlli yo‘l tutishi, uning muomalasi, xalqni tinchlantirishi, goh vazir, goh shoir va goh hamdard oddiy inson bo‘lishi esa, uning uzoqni ko‘zlab oqil ish yurgizishidan darak beradi.

Alisher Navoiy roli B.Muhammadkarimov talqinida spektaklning haqiqiy ixtirosiga aylangan. Spektakldagi oqil siymoda gavdalanishi tomoshabinlar xotirasida qoladi. Aktyor har bir sahnaga alohida e‘tibor berib, Navoiyni yuksak tarbiyali, hissiyotga berilmay aql bilan ish tutadigan inson siymosida gavdalandirishga harakat qiladi. Aktyor ijrosida tomoshabin Navoiyni saltanatda yuz berayotgan muammolarni yechimini topishda mas’uliyat va aql bilan ish tutayotgan davlat arbobi sifatida, ezgulik va tubanlik, adolat va fitnalar o‘rtasida ziddiyatlar avj olayotgan bir vaqtda o‘zining taqdirini xalqning taqdiri bilan chambarchas bog‘lagan daho shoirni sahnada ko‘radi.

San'atshunos T.Islomov uning mahoratiga baho berar ekan, "Alisher Navoiy shoh bilan muloqotida xalq osoyishtaligi, yurt tinchligi haqida gapirar ekan, maqsadiga olijanob shaxs sifatida odob bilan erisha biladi. Yon-atrofdagi amaldorlarning Navoiyga nisbatan g'alamisliklari, yetkazayotgan dil jarohatlarini tomoshabin bilib turadi, Yaratgandan Navoiyga madad so'raydi. Ayniqsa, Balxdan qaytgan Navoiyining dil nolalari tomoshabinga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu shubhasiz aktyor ijro mahoratining samarasidir"³⁵-deydi. Darhaqiqat, har bir aktyor qahramoni kuchli ichki dardga to'laligi ijroda sezilganligi bois, spektaklning ta'sirchanlik kuchi oshgan. Dilnoza Kubayeva ijrosidagi Guli roli esa zamonaviy o'zbek qizlarini oqila, dono va go'zal hulqli bo'lishiga undaydi. Undagi nozik ibohayo, or-nomus, ovozidagi mayinlik, aqlli javob berishi, hamma-hammasi ibrat vazifasini o'tashi tabiiy. Tarixiy asarlarning sahnalashtirilishi albatta tomoshabin uchun katta maktab, ibrat vazifasini o'taydi. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, faxrlansak arziydigan sahifalarga ega. Tarixdan so'zlovchi sahna asarlarini sahnalashtirilishi o'sib kelayotgan yoshlarga tarixdan saboq beribgina qolmay, ajdodlarimizga nisbatan faxr tuyg'usini uyg'otadi. Teatrda tashrif buyurgan tomoshabin, yoshidan qat'iy nazar buyuk ajdodlarimizdan ko'plab ibratga arzigulik fazilatlarni o'ziga singdiribgina qolmasdan, o'z hayotida shularni qo'llaydi desak adashmaymiz. Tarix- bugunning nafasi bilan yashaydi.

Farg'ona musiqiy teatrining "Ahmad Farg'oniy" tarixiy dramasiga qo'l urishi katta muvaffaqiyatga erishdi. Spektaklni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist M.Azimov sahnalashtirdi. Bosh qahramon Al-Farg'oniy rolida O'zbekiston xalq artisti Muhammadali Abduqunduzovning mohir ijrosi bilan rolning ta'sirchanligini oshirdi. Tarixiy asarlarda buyuk allomalarimizning o'tmishi bilan bog'liq ko'plab ibratli va ayanchli o'tmishi tomoshabinni chuqur mushohadaga chorlaydi. Har bir tarixiy sahna asarini tomosha qilar ekanmiz, boy merosimizning ildizlarini o'rganamiz. Yana bir bor asrlar osha bu asarlarning shu qadar durdona ekaniga ishonch hosil qilamiz.

³⁵ Toir Isломov. Tomoshadan keyin. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2016y 25 mart №13.

Asrlar, davrlar, zamonlar o'tsada boy tarixiy asarlarimiz salobati o'z ifodasini yo'qotmasligiga amin bo'lamiz. Masalan, spektakl davomida davr boshqa ammo, undagi insonlar o'rtasidagi adovat, mehr-oqibat, yolg'on, fisqu-fasot, do'stga-dushmanlik, muhabbat uchun kurash, ilm-fanning ulug'lanishi bugungi kunimizga ham chambarchas bog'liq ekanligini tomosha qilib bir-birini solishtirishga voqealardan to'g'ri xulosa chiqarishga turtki beradi. Viloyat teatrlari repertuarida yana bir tarixiy asar "Mirzo Ulug'bek" asarining Samarqand teatrida sahnalashtirishi ham mutaxassis va tomoshabinlar keng jamoatchilikni e'tiborini qozondi. Unda yana poytaxt aktyorlari bilan ijodiy hamkorlikning o'ziga xosligi teatr ijodkorlarining yutug'idir. O'zbekiston xalq artisti E.Komilov ijrosidagi Mirzo Ulug'bek roli tomosha zalidagi tomoshabinni sukut saqlab, diqqat bilan chuqur mushohada qilib tomosha qilishga undaydi. Mirzo Ulug'bek onaga mehribonligi, kitobga mehr qo'ygani, insonlarga to'g'ri baho berishi, yomonlikni yaxshilik bilan hal qilishi, yaqinlariga oqibatli bo'lishi kabi nasihatlar insonni yuksak ma'naviyatli bo'lishga undaydi.

Biz tarixiy sahna asarlari haqida gapirganimizda avvalo, tarixiy asarlarning "o'zining tomoshabini" bo'ladi, deymiz. Vaholanki, bugun kitobga bo'lgan mutolaaga bo'lgan e'tibor kuchaygan bir paytda avvalo, tariximizga qiziqishni bolalar bog'chalaridan shakllantirishimiz lozim. Nega deganda, bolalar tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tibor va mehrni o'sha joydan olib maktabga boradi. Demak, dastlabki tamal toshini bolalikdan qo'ysak, albatta tarixga hamda allomalarimizga bo'lgan qiziqish va intilishning ijobiy ta'sir kuchi o'z mevasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamiz teatrlari sahnasida tomoshabinni komil inson qilib tarbiyalashga undovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan sug'orilgan, zamon qahramonlarining fidoyiliklarini tarannum etuvchi spektakllar ko'paydi. Zero, "Tarixiy mavzuni yoritishda – bu Imom Buxoriy yoki Imom Termiziy bo'ladimi, Jaloliddin Manguberdi yoki Amir Temur siymosini yaratish bo'ladimi, olis va yaqin o'tmishimizning hali ochilmagan sahifalarini aks ettirish bo'ladimi – buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li tasvirlangan ko'plab asarlar

dunyoga kelmoqda.”³⁶ Darhaqiqat, tarixiy asarlarimizning dunyoga tarannum etilishida buyuk ijodkorlarimizning dramaturg, rejissyorlarimizning maqsadlari, izlanishlari o‘z mevasini berdi. Izlanish, tarixga nazar doimiy o‘zbek millatining sha’ni, g‘ururi va tayanchi bo‘lib qoladi. Asrlar o‘tsada ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi avlodlarga o‘zlikni anglashga yordam beradi .

Adabiyotlar:

1. KarimovI. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. KarimovI. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: O‘zbekiston. 2009.
3. Tursunov T. Sahna va zamon – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Ikromov H. Davr va teatr – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
5. Islomov T. “Tarix va sahna” //G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti//, –T., 1998 y

ZAMONAVIY KINODA IFODAVIY VOSITALAR MASALALARI



Karimov Madrahim

*“Televideniye va radio rejissorligi”
mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: s.f.n., professor v.b. A. Ubaydullayev

San’atga qisqacha qilib, «Real hayotni badiiy obrazlar orqali aks ettirish» deya ta’rif berishimiz mumkin. Kino – bu sintetik san’at. U butun bir jamoaning uyg‘unligi va tinimsiz mehnati natijasida yuzaga keladi. Unda ishlayotgan har bir mutaxassis o‘z sohasini puxta egallagan bo‘lishi talab etiladi.

San’atning eng navqiron va keng ommalashib borayotgan turlaridan bo‘lgan kino san’ati XX asrning eng g‘aroyib kashfiyotlaridan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kinematografiyaning rivojlanishi yuz yildan oshiq bo‘lgan davrni va yuqorida aytilgandek muammolarni qamrab oladi. Kinoning vujudga kelishi ham fan-

³⁶I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008. 137-bet.

texnika taraqqiyoti hamda ungacha bo'lgan san'at turlarining erishgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Buyuk kinorejissyor S. Eyzenshteynning «Kino tarixi rang tasvir tarixining bir qismidir» deya ta'kidlashlari yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida xizmat qila oladi.³⁷

Kinorejissuraning XX asrdagi va hozirgi zamonaviy holati ekran san'ati sohasida faol rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda kinematografiyaning san'at va madaniyatdagi o'rni kelajakdagi rivojlanish istiqbollarida unga bo'lgan ehtiyoj orqali ifodalanadi. Kinematograf tarixi alohida epizodlardan boshlangan. Hozirda film semkasi – turli kasbdagi o'nlab odamlar ishtirok etadigan haqiqiy san'atdir. Kinematografning boshlang'ich kashfiyotlari sodda bo'lgan va bu aniq edi, chunki o'sha paytdagi kino ijodkorlarning na yetarlicha tajribasi, na texnik vositalarning aslahaxonasi bo'lmagan. Kinematografning rivojlanishi bilan birga ifoda vositalari ham kengayib bordi. Bu ifoda vositalaridan kengroq foydalanish imkonini beribgina qolmay, ular yordamida kino ijodkorlari ekranda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni tomoshabinlarga yetkazib bera oldi. Vaqt o'tishi bilan tasvirga olingan materialni kinosan'atining haqiqiy shedevriga aylantiruvchi bir qator usullar va metodlar shakllandi.

Kinematografik plan – ifodalilikning muhim aspekti va u tomoshabinning tassurotiga ta'sir etadi. Umumiy plan juda kam holatda qo'llaniladi, chunki u detallar kamligi yoki yo'qligi bilan charchatib yuboradi. Yarimo'rta plan esa tomoshabin e'tiborini umumiy fondan qahramonga qaratishdagi o'tishda qo'llaniladi. O'rta plan detallarni ko'rish imkonini beradi – qahramonlar siymolari, predmetlar, atrof-muhit va boshqalar. Kattalashtirilgan plan mimikaga urg'u beradi va bu plan ko'pincha psixologik xarakterga ega badiiy filmlarda qahramonning tuyg'ularini ko'rsatib berish uchun qo'llaniladi. Yirik plan ham mavjud bo'lib, u hujjatli va ilmiy filmlarda ishlatiladi. Uning yordamida, masalan, hasharotni kattalashtiradigan oyna ostiga qo'yilgandek kuzatish mumkin.

³⁷ Eyzenshteyn S. M. Tanlangan maqolalari. M.: San'at, 1956 yil. 456 bet.

Kinorejissurada zamonaviy ifoda vositalaridan foydalanish amaliyoti kinoning tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Kino san’ati bu savollarga qisman javob bera oladi, xolos. Chunki bu asosan tadqiqotlar natijasida aniqlanadi. Kinematografiyaning o‘ziga xos jihatlari hayotiy va tarixiy jarayonlarning kurslari orqali kelib chiqqan. Shuning uchun, avvalo, kinoning va kinorejissuraning zamonaviy ifoda vositalaridan foydalanishni, muammo va yechimlarini tushunish uchun kinematografiyaning o‘ziga xos jihatlari, uning transformatsiyalari va kino san’atiga olib boruvchi yo‘ldagi o‘zgarishlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rinib turibdiki, bu esa o‘z navbatida kinematografiyaning tarixiy o‘zgaruvchan va rivojlanayotgan fenomen sifatida bir butunlik kasb etishini ta’minlab bera oladi.

Shubhasiz, kinorejissuraning zamonaviy ifoda vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq muammolar hozirgi vaziyatda yangicha ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy san’atning yangi ifoda vositalari, badiiy ijodkorlikning yangi texnologiyalari va talab qilinayotgan vaziyat bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘z o‘ngimizda kinematograf tasvirning “fotografizm” tamoyilidan chetlashib, sun’iy haqiqat asosida tajriba o‘tkazish yo‘li orqali voqelikni modellashtirish tamoyiliga e’tibor qaratadi. Zamonaviy ilm-fan bunday muammolarga nafaqat yangicha usul va yondashishda qarashni, balki zamonaviylikning gavjum audio-vizual oqimidagi kinematografiyaning o‘z o‘rnini anglashiga intiladi.

O‘tgan asr boshlarida kino ifoda vositalari kashf etilayotgan jarayonda xar kim o‘z xissasini qo‘shishga uringan. Jumladan, rejissyor L.Erbening ritm usuli haqidagi tushunchasi filmning ikkinchi xayotiga ta’sirini qabul qilmagan. Kinematografning ifoda vositalari yoki “tili” hali to‘la-to‘kis shakllanmagan davrda har qanday topilmalar tezda qo‘llanila boshlangan. Masalan: Griffetning kashfiyoti “Yirik plan”. Bu haqida B.Sandrarning fikricha bu uslub xech qanday ilmu-fanga aloqasi yo‘qligini ta’kidlaydi. Bir so‘z bilan aytganda kino sof bo‘lishi tarafdori bo‘lgan.

Muhit, qiyofalar, voqealar sirasi, interer va eksterer — bularning barchasini ifoda oqali tomoshabinga yetkazish imkonini qo‘lga kiritadi. Demak, mulohazalar kino va adabiyotning o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq. Umuman, integratsion jarayonning murakkab ko‘rinishlarini san’atlar munosabatida, ular bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi jarayonini kuzatib borish amaliyot uchun ham, nazariya uchun ham muhim bo‘lib qoldi. Kuni kecha adabiyotga, teatrga, tasviriy san’atga, hatto musiqaga taqlid qilib kelgan kino bugun ijodning mustaqil turiga aylanib, yozuvchi, sahna rejissyori, mo‘yqalam ustasi, bastakorning izlanish va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar:

1. Sandrar B. (Из истории Французской кино мысли). М.: Iskustvo 1988 UK. 42 betlar.
2. Sandrar B. Интервью о кино. 44 bet.

KINODA SHAXSIY FIKR ALMASHINUVI

Karimov Madrahim

“Televideniye va radio rejissorligi”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s. f. n., professor v.b A. Ubaydullayev

Kinematograf uchun fotografiya uning ifoda vositasi, siyohi yoki qog‘ozi vazifasini bajaradi, xolos, degan fikrlar va xulosalar bo‘lgan va albatta, uning isbotini turli ko‘rinishlarda bayon qilgan. Misol uchun, agarda yugurayotgan insonni tasvirga olsak, harakatdagi tasvir ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Natijada biz kinematografik obekt manba olishimiz mumkin, degan xulosaga kelamiz. Agarda uning namoyishi davrida yugurib ketayotgan oyoqlarni, tez-tez almashayotgan manzarani, charchagan, ammo maqsad sari intilayotgan inson yuzini va nihoyat, planlar almashinuvi natijasida kameraning qanchadir abstrakt elementlari orqali chopib ketayotgan yugurayotgan aktyorning tuyg‘ularini ko‘rsak, bu “fotogen obekt” yoki “fotojozibali manba” ekanligi haqidagi fikrlarni o‘rtaga tashlashimiz mumkin.

Aytish kerakki, bunday jarayonga har bir ijodkor o‘z hissasini qo‘shishga uringan. L.Benyuzev kinoning anatomiyasini o‘zicha talqin etib, birinchi galda olingan filmni yoki tasmalardagi tasvirlar ellik yoki yuzdan ko‘proq bo‘laklarga bo‘linib, so‘ngra “kadrlashtirish” orqali montaj jarayonida yig‘ilishi xaqida aytgan fikrlari bunday natija va ilmiy tavsiyalarini beradi:

- Film — bu planlar yig‘indisi
- Plan — bu tasvirlar yig‘indisi
- Tasvir — aktiv element
- Obektiv — bu ko‘z, unda xech qanday aniqlik yo‘q

Fotogeniya (fotojoziba) xaqida tushunganlarni ishlab chiqish uchun quyidagi xolni anglash lozim:

Fotogeniya obektiv + kadrlashtirish = fotografiya + plan.

Yuqoridagilarga tayangan holda, bir to‘xtamga kelishimiz mumkin. Har qanday kinematografist kinoga oid texnikaning sir-sinoatini bilsagina yutuqlarga erishishi mumkin. Ko‘p hollarda biz, afsuski, buni aksini ko‘ramiz.

Kino sanatida “ritm” vaqt va makonda voqealarning ketma-ketligi, ongga ta’sir etuvchi va namoyish qiluvchi voqealarning proporsionalligini ta’minlovchi omildir, degan fikrning o‘zida ham qandaydir mavhumlik bordek tuyuladi. Aynan shuning uchun ham e’tiborni makonga qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Bu yerda filmdagi “ritm” (usul) o‘z ichiga turli bo‘laklarni yoki qismlarni olishi xaqida fikr yuritiladi. Bu ritmlar lotin she’riyatiga o‘zining tabiati bilan yaqin turishini sezish mumkin. Birinchisi, parchalarning vaqt davomida cho‘zilishi, ikkinchisi esa sahnalarning almashib borishini harakatga keltiruvchi “solatlar” (ichki harakatlar), uchinchisi obektiv tomonidan tasvirga tushirilgan harakatlar va turishlardir. Qayd etilgan uchta faktlarning o‘zaro bog‘liq tomonlarini aniqlash murakkab ekanligini e’tirof etish ahamiyatlidir. Masalan, kadrning cho‘zilishi ritmik holati bilan tashqi harakatlariga bog‘liq bo‘lib, uning emotsional holatini baholash juda murakkab masalaga aylanadi.

Kinoda shaxsiy fikr almashinuvi borasida soʻz borar ekan, Rene Klerning qanchalik kino qoidalariga boʻysinmasligi uchun ekran fikrlashi kerak boʻlsa, hech qanday qoidalarga boʻysunmaslik uchun esa koʻpchiliklarini inkor etish va undan bahra olishi mumkinligi haqidagi soʻzlari naqadar oʻrinli ekanligi yodga keladi. Uning uchun “tasvirning” kuchi va sehri har qanday alo fikrlardan ustun boʻlib kelgan edi. Uning uchun “obektiv” — bu xayotni obektiv va subektiv ravishda oʻrganib borish va koʻp hollarda erkin fikrlay bilishga katta manba boʻlgan, kinematograf esa uning uchun bitmas-tuganmas makon boʻlgan.

Rejissyor va nazoratchi Jan Epshteynning 1935-yil eʼlon qilgan “Fotogeniya nevesomosti” oʻsha davrning soʻngi yillarigacha kino nazariyasi borasida yuqori baxolanib kelgan. Shubhasiz, bunday nozik xulosa-yu kuzatuvlarni alohida oʻrganish kerak. U ham L.Dellyuk qarashlariga qoʻshilibgina qolmay, bu nazariyani toʻldirib, xatto qaytarilmas qoidalarini kashf etgan. U “fotojoziba samo singari” degan fikrni olgʻa suradi. Jan Epshteyn shuning uchun: “Xaqiqiy kinoga hech qanday matnning keragi yoʻq. Bizga gʻayritabiiylik zarur, oʻz mohiyati bilan kino gʻayritabiiydir.”, deydi.

Kinoning asosini yirik plan tashkil etishida “fotojoziba” ning harakatidagi ifodasi kabi ham nazariy qarashlar, ham ommaviy yechimlar hal etilib, yanada keng va teran kashfiyotlar tomon katta odimlar bilan harakat qilingan. “Yirik plan” kuchaytirish qobilyatiga ega, degan xulosa ham mavjud boʻlgan. Uning taʼsir kuchi inson eʼtiborini cheklab, bir paytning oʻzida uni yoʻnaltira oladi ham. Albatta, bunda kinematografik ehtirosni yoʻnaltiruvchi kuch ham u boʻladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kinematografiya tarixi kursma-kurs yuksaklik choʻqqisini kino olimlarning oʻylab topgan kashfiyotlaridan yuksalgan deyishimiz mumkin va bu nazariy xulosalarda oʻz davrida AQSH, Fransuz va boshqa mamlakatlarning kinojarayonida yuz bergan yutuq va kamchiliklarni umumlashmasida namoyon boʻladi.

Adabiyotlar:

1. Сергей Комаров. Немое кино / История зарубежного кино. Москва: Искусство, 1965. - 416с

2. Ubaydullayev A. Oynai jahon istiqbollari. O'quv qo'llanma. — Toshkent, 1993.
3. Федерико Феллини. Делат фильм. Москва: Искусство, 1984. - 287 с.

KINODA FALSAFA

Karimov Madrahim

*“Televideniye va radio rejissorligi”
mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: s. f. n., professor v.b. A. Ubaydullayev

“Film orzu kabidir, film
musiqa kabidir. San’atning hech
bir turi filmchalik fikr-u
hayollarimizga yetib bormaydi va
yuragimizning tub-tubidagi
hislarimizni uyg‘ota olmaydi”.
Ingmar Bergman

Tarixdan ma'lumki, kino barcha insonlarning, barcha millatlarning, barcha sinflar va kasblarning xayollari va yuraklaridan joy olib kelgan hamda intellektual va kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgirdi. Kinoda falsafani uchrashi odamlarning san'atni his qilish orqali hayot va voqe'likni to'liq tushunishga bo'lgan intilishi natijasidan kelib chiqqan. Film so'zlardan adabiyot kabi, artistik ijrodan teatr kabi, sur'at va bo'yoqlardan rassomchilik kabi, ohanglardan musiqa kabi foydalanishiga qaramasdan, bulardan hech biri kino san'atining asosiy qismi sifatida voqelikni aks ettira olmaydi. Bu maqola kino va falsafa o'rtasidagi bog'liqlik bilan birga kino orqali boradigan falsafa g'oyasini ko'rib chiqadi.

Kino hayotni o'ziga xos ta'kidlovchi vositalar bilan ko'rsatib beradi. Shuning uchun, kino jamiyatning ma'naviy hayotiga ta'sir eta oladigan qobiliyati tufayli falsafa bilan chambarchas bog'liq deya olish mumkin. Falsafa kinomatografiyaning “yuragi” deb ta'riflash mumkin. Kino falsafasi XX asrning boshlarida ilm-fan, qat'iy ma'naviyat, qonun kuchi, ma'rifatli e'tiqod,

nozik ta'ning keng qamrovli bilimlaridan boshlangan, lekin keyin u voqe'likning o'zgaruvchan shakli sababli chetlashtirilgan.

Hozirda kino falsafasiga zamonaviy san'atning falsafasi sifatida qaraladi. Falsafaga zaruriyat sir bor joyda va yashirin tuyg'ularni anglash kerak bo'lganda tug'iladi. Kinomatografiya va kino yaratish imkoni bo'lmagan narsalarni ko'rish va sezish imkonini berdi. Kino faqat sur'atgina emas, balki yuqori mezonli eng talabbop ommaviy san'atdir. Har qanday kino, u drama yoki komediya bo'ladimi, u katta ijtimoiy falsafaga ega bo'lishi shart. Falsafa odamlarni ijodiy san'at orqali his qilishga o'rgatadigan kinoning tarkibiy qismidir. Boshqacha qilib aytganda, falsafa va san'at bir-biriga intiladi, shu sababli, noyob bir narsa hosil bo'ladi – na san'atga va na falsafaga tegishli bo'lgan kino, individual dunyo. Kino san'at hamda falsafani bog'lovchi o'rta mezon hisoblanadi. Shuning uchun, inson tabiati tufayli kinoni san'at deb faraz qilsak chalkashliklarga olib keladi va aksincha, kinoga falsafa sifatida qarasak, unda ham chalkashliklarga sabab bo'ladi. Odamlar uchun yoki donolik hissini tuyushlari yoki zavq-shavq olishlari muhimdir. Kino esa hozirgi zamonaviy hayotimizda ehtiros, istak va zavq kabi yo'qotilib borilayotgan his-tuyg'ularni his qilishga imkoniyatlar yaratib beradi.

Mashhur rejissyorlardan biri Zigfrid Krakaur har qanday kino falsafasining ikki vazifasi bor deya ta'kidlaydi: voqelikni ko'rsatib berish va yangi voqelikni yaratish. Biroq, kino orqali boradigan falsafa kinodan resurs sifatida foydalanish, falsafiy g'oyalarni misollar yordamida aks ettirish kabi turli jarayonlarni qamrab oladi. Falsafiy tarzda fikrlarni ilhomlantirish va bunyod etish esa hayot tajribalarimizdagi jihatlarni eslatadi.

Oddiy misol tabiatning ofatlari, tabiatning go'zalligi tasviriy yechimda falsafaning tilida gaplasha oladi aniqrog'i falsafa barcha uyg'unlikda mavjud faqat uni ko'ra olish kerak, his qila olish kerak, tushina olish kerak. Shuning uchun san'atda kino bu haqiqatni ochib bera olish kuchiga ega.

Kinodan qiziqarli falsafiy maqsadlar yo'lida foydalanish mumkin, lekin bunda falsafa kino tomonidan emas, balki kinodan foydalanayotgan ijodkor tomonidan

amalga oshirilgan bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, kino faylasuflik qila oladi deb o‘ylash xato hisoblanadi, chunki bu faqat kinoga bog‘liq bo‘lgan faylasuf o‘y-fikrlarining hosili xolos. Shu o‘rinda aytish mumkinki, kino falsafa uchun foydali resurs va san‘at turi bo‘lib xizmat qiladi. Qaysidir ma’noda, kino bilan mashg‘ul bo‘lish falsafiy jihat bo‘lib hisoblanishi mumkin, chunki kuzatuvchi turli xil kino sur‘atlari muayyan tarzda mantiqiy talqin qila olishiga to‘g‘ri keladi. Bu yerda qilinishi kerak bo‘lgan umumiy nuqta shundan iboratki, ham muallifning ham tomoshabinlarning kino haqida turli xil o‘ziga xos talqinlari mavjud bo‘ladi va bu holat falsafa borasidagi bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi. Koks va Levin (2012) bu borada shunday fikrlarni bildiradi: “Filmning o‘ziga xos hayoti va mazmuni bor va bu vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi, shu bilan birga qaysidir darajada maxsus tomoshabinlarga bog‘liq bo‘ladi”.

Filmga falsafani aks ettiruvchi obyekt yoki o‘rta mezon sifatida qaralishi mumkin. Film falsafasi film tabiatiga oid bilimlarni an’anaviy tarzda o‘z ichiga oladi. Umumiy qilib aytganda, kino orqali beriladigan falsafa adabiyot falsafasiga qaraganda “ko‘proq yangi asori-atika” dir adabiyot bizga so‘zlab beradi kino uni ko‘rsatib beradi.

Kinodagi falsafani topish va tushunish uchun uchta asosiy savolni co‘rash mumkin:

Ø Nima namoyish etilgan?

Ø Qanday namoyish etilgan?

Ø Nima uchun namoyish etilgan?

Hech kimga sir emaski, falsafa juda ko‘p, ba’zan, hattoki tushunarsiz narsalarni tashkil etadi. Shu sababli, u aynan nimalarni tashkil etishini tushinish qiyin va ko‘plab savollarni keltirib chiqaradi. Kinodagi falsafa chuqur fikrlash va yetarli bilimlar asosida tanqidiy namoyishni talab etadi. Falsafa kinoni rang-barang qilish uchun u bilan chambarchas bog‘langan. Kino falsafani unitilmas abadiy sur‘atga aylantiradi. Masalan, aka-uka Vachovskilar tomonidan 1999-yil sur‘atga olingan “Matritsa” kino kartinasi falsafiy qiziq bo‘lgan matn va film

yordamida professional tarzda namoyish etilgan falsafaga yorqin misol bo‘la oladi. Bu film boshqa filmlarga qaraganda ko‘proq falsafiy muzokaralarga sabab bo‘lgan.

Kino filosofiyasi va uning film yaratish jarayoniga bog‘liqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz film tomoshabinlarga falsafiy mavzu va savollardan foydalanish huquqini ta‘minlab berishini inkor eta olmaymiz. Kino va zamonaviy medianing odamlar hayotiga ta‘siri yildan-yilga ortib borayotganligi sabab, kino falsafasi va filmlarning falsafiy mazmun-mohiyati falsafiy tahlil uchun muhim maydon bo‘lib xizmat qilishda davom etadi. Shak-shubhasiz aytish mumkinki, falsafiy muammolarni e‘tiborga havola etish uchun foydalanilgan filmlarning keng ommali auditoriyalari falsafaning sog‘lom rivojlanishi uchun zarur muhit yaratib bera oladi.

TOLERANCE IS NECESSARY CONDITION OF THE WORLD AND SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF PEOPLE



Karimov Miralisher

*Graduate student on master's degree.,
Senior Lecturer: Sadikova Muqaddam*

Annotation

In this article a concept is examined tolerance not only as major principle of national idea of independence, but also as a necessary condition of the world and socio-economic development of all people.

Presently the state is confess the primary role of culture for a revival and maintenance of in a civilized manner-moral values, strengthening of spiritual unity of multinational people of Uzbekistan and international image as a country with the richest traditional and dynamically developing modern culture, creation of the

system of spiritual and patriotic education of citizens, development of general humanitarian and информационно-телекоммуникационной environment.

Tolerance is not only major principle but also necessary condition of the world and socio-economic development of all people. In connection with strengthening of межкультурной communication between different people, regions that far is not homogeneous, it is necessary to strengthen the spirit of tolerance and form the relations of openness, attention to each other and solidarity not only as between separate people but also in relations at the level of family, community, school, labour collective, other social educations and institutes, including at the active use of facilities of culture

In this context facilities of culture are a culture in all her displays: art, cultural heritage, religion, mass medias, science, education. Any culture exists not in itself, and in co-operating with other cultures, it is therefore necessary to see in another position, in other system of values, in a stranger culture not that hostilely to my own position, and then, that can help me in the decision of problems, that are not only my own but also by the problems of other people and other cultures, other valued and intellectual frames of reference. In this dialogue not only separate people but also cultures can change the identity.

It should be noted that the consequences of hasty socio-economic and political reforms were expressed in deformation of traditional tolerant consciousness. Today sharply educator influence of culture and art went down as major factors of forming of civil consciousness. For the last decades in society, indifference, cynicism, aggressiveness, got distribution in his mass consciousness, unworthy, valid attitude toward itself and to each other, mistrust to the state and institutes of civil society. A conflict and tension grew both in international relations and in mutual relations between generations, between all layers of population of country.

In the XXI century world community entered with Declaration of principles of the tolerance, ratified by resolution of the General conference of

UNESCO of November, 16, 1995. In Declaration of millennium tolerance is characterized as one of fundamental values of XXI century is interpreted, as "...respect, acceptance and correct understanding of rich variety of cultures of our world, our forms of self-expression and methods of displays of human individuality. She is assisted by knowledge, openness, commonunication and freedom of idea, conscience and persuasions.

Tolerance is determined as tolerance, condescension, ability without enmity to behave to stranger opinion, to the stranger way of life, to other national culture, to another family to the religious looks, language, feelings, opinions, beliefs, as a certain world view and morally-psychological setting of personality on that, in which measure to accept her or not accept different, foremost, alien ideas, customs, culture, codes of conduct, to hear and respect opinion other, unhostilely to meet opinion different from it etc. At the same time tolerance is readiness to the dialogue, mutual understanding and respect, confession of right on the display of national descriptions in behavior and expressions (if they do not conflict with the norms of moral and right for society on the whole).

Tolerance can show up as the realized position: people have a right to be different - with other looks, dispositions, habits. But, unlike the display of indifference, indifference and absence of position, tolerance is the sign of confidence in itself and consciousness of reliability of the own positions, by a sign open for all ideological flow that is not afraid of comparing to other points of view and does not avoid a spiritual competition.

Her basic essence is tolerance to " alien", "another can be inherent to not only the individual but also concrete collective, one or another task force, society on the whole. Not only the state but also self society is accountable for the that atmosphere of tolerance or интолерантности, that in him is folded.

Presently the problem of forming of tolerance costs especially sharply. It is explained by unit by the row of reasons : sharp stratification of world civilization on economic, social, mental and ethical, to other signs and the height of

intolerance, religious extremism related to it; intensifying of international relations, caused by local wars; by the problems of refugees, changing of moral paradigms etc.

List of literature :

1. Фромм Э. Психоанализ и этика. М., 1993.
2. Шефел С.В. Личност постиндустриальной эпохи как феномен социокультурного синтеза. М., 2000.
3. Уткин А.И. Глобализация // Глобалистика: Энциклопедия. Гл. ред. Мазур И.И., Чумаков А.Н. М., 2003.
4. <http://gigabaza.ru/doc/122362.html>

СТАНОВЛЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ТЕАТРА ОПЕРЕТТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Каримов Миралишер
Магистрант 2-го курса «Актерское искусство эстрады»
Научный руководитель: кандидат искусствоведения,
доцент М.Р.Юсупова

В современном процессе развития театрального искусства Узбекистана музыкальные театры занимают особое место в эстетическом, духовном, нравственном воспитании молодежи. И в этой связи Государственный театр музыкальной комедии (оперетты) Узбекистана занимает одно из основных мест в популяризации музыкально-сценического искусства республики. Он пропагандирует классическое музыкальное наследие, произведения современных авторов, узбекских драматургов и композиторов.

Необходимо подчеркнуть, театральная практика XX века, способствовала рождению спектаклей, в которых музыкальное, драматургическое, пластическое и поэтическое начала обладали равной художественной выразительностью.

Музыкальный спектакль на сцене театра представляет собой разноплановое и жанрово неоднородное явление. К числу подобных постановок можно отнести музыкальные "игроспектакли", музыкальные

комедии, оперетты, рок-оперы, зонг-оперы, музыкальные шоу, мюзиклы и т.д. Однако объединяет эти разнообразные спектакли идея синтеза искусств, равноправие музыкального, драматургического, поэтического, режиссёрского, актёрского и художественного начал.

Репертуарная политика Государственного театр музыкальной комедии (оперетты) Узбекистана со дня его основания связана с тремя основными направлениями. Первое - классика жанра - произведения, принадлежащие золотому фонду мирового музыкального театра. Спектакли классического наследия всегда пользуются большим зрительским успехом, дают огромный простор творчеству актеров. В зале возникает особая атмосфера одухотворенности, в которой музыка дарит эстетическую радость.

Второе направление - лучшие произведения современной оперетты стран Содружества (СНГ). В их числе: «Севастопольский вальс» (К.Листов), «Цирк зажигает огни», «Холопка» (Ю.Милютин), «Любовный вертеж» (Д.Ильин, В.Лукашов), «Украденная невеста», «Ханума» (Г.Канчели), «Девичий переполох» (Н.Стрельникова) и другие.

Третье направление - оригинальные произведения узбекских авторов. Успехом у зрителей пользуются музыкальные комедии «Влюбленный странник» (Э.Салихов), «Крошка» (А.Эргашев), «Тетя, я женюсь!» (А.Икрамов, В.Баграмов), «Биндюжник и король» (У.Салихов, В.Баграмов), «Однажды в Нью-Йорке» (И.Берлин), «Сердце на ладони» (спектакль, посвященный памяти Б.Закирова), «Не поверишь, жена, умру» (Исфандияр), «12 стульев» по произведению Ильфа и Петрова, «А у нас во дворе...», «The musical», «Романтики» (С.Каприелов) и другие.

Особое место в репертуаре театра занимают спектакли для детей, которые специально пишутся авторами Узбекистана для театра. Среди них: «Бременские музыканты» (Г.Гладков), «Волшебная хурма», «Сюрприз», «Мой добрый папа», «Волшебная веточка» (У.Салихов), «Волшебная лампа Аладдина» (А.Икрамов) и другие.

За последние годы, во многом благодаря художественному руководителю и главному режиссеру театра С.Каприелову, актерская труппа театра очень «помолодела». В коллектив театра влились выпускники Государственного института искусств и культуры Узбекистана, Государственной консерватории Узбекистана, учащиеся и выпускники актерской студии при театре. «Нужен ли молодежи сегодня такой жанр как оперетта? Необходим! Слово, музыка, танец, действие в своем синтезе создают зрелище уникальное. Молодому человеку, решившему связать свою творческую жизнь с этим жанром, необходимо иметь комплекс данных таких, как музыкальность, голос, пластика, дикция, актёрское дарование и режиссерское видение. Случается так, что актер приходит в музыкальный театр, оперетту и остается в ней на всю жизнь, пленившись ее поэзией, ее неординарностью, ее некоторым легкомыслием, и полюбив навек этот «легкий», но такой трудный жанр!».

Список литературы:

1. Абдурахимов Б.А. Художественная культура Узбекистана: XX век. – Т.: Узбекистан, 2000. – 180 с.
2. Алексеев А.Н., Дмитриевский В.Н. Театр и зритель. - М.: Музыка, 1973. – 375 с.
3. <http://www.ziynet.uz>

ИСКУССТВО МУЗЫКАЛЬНОГО ТЕАТРА В КОНТЕКСТЕ 45 ЛЕТНЕЙ ИСТОРИИ НЫНЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ТЕАТРА МУЗЫКАЛЬНОЙ КОМЕДИИ (ОПЕРЕТТЫ) УЗБЕКИСТАНА

Каримов Миралишер

Магистрант 2-го курса «Актерское искусство эстрады»

Научный руководитель: кандидат искусствоведения,

доцент М.Р.Юсупова

Сегодня в Узбекистане остро стоит задача формирования у молодых людей тех ценностных установок, которые связаны с выбором личностных приоритетов, определением своего места в обновленческих процессах, в

настоящей и гипотетической реальности. И в данной связи искусству как неотъемлемой составляющей современных культурно-преобразовательных процессов придается особое значение.

Тому подтверждение Указы Первого Президента Республики Узбекистан И.А.Каримова «О развитии национального танца и искусства хореографии Узбекистана», «О развитии театрального искусства Узбекистана», Постановление Кабинета Министров Республики «О дальнейшем развитии эстрадно-песенного искусства», свидетельствующие о заинтересованности государства в созидательных процессах, направленных на поддержку разных форм творчества, на духовно-нравственное совершенствование личности.

Особое значение в данной связи занимает искусство музыкального театра в контексте 45 летней истории ныне Государственного театра музыкальной комедии (оперетты) Узбекистана. В основе изучения лежит концепция взаимодействия традиционного, исторически сложившегося жанра и его современное развитие в русле общего театрально процесса на примере взаимодействия режиссёра, актёра и драматурга.

Первое, на чем останавливается наше внимание, когда мы думаем о специфике театра, - это то существенное обстоятельство, что произведение театрального искусства - спектакль - создается не одним художником, как в большинстве других искусств, а многими участниками творческого процесса.

Драматург, актер, режиссер, музыкант, декоратор, осветитель, гример, костюмер и т. д. - каждый вкладывает свою долю творческого труда в общее дело. Поэтому подлинным творцом в театральном искусстве является не отдельный человек, а коллектив, творческий ансамбль. Коллектив в целом - автор спектакля.

Творчество каждого художника, участвующего в создании спектакля, есть не что иное, как выражение идейно-творческих устремлений всего коллектива. Без объединенного, идейно сплоченного, увлеченного общими

творческими задачами коллектива не может быть полноценного спектакля. Коллектив должен обладать общностью мировоззрения, общими идейно-художественными устремлениями, единым для всех своих членов творческим методом. "Коллективное творчество, на котором основано наше искусство, - писал К. С. Станиславский, - обязательно требует ансамбля, и те, кто нарушают его, совершают преступление не только против своих товарищей, но и против самого искусства, которому они служат.

Научное осмысление творческого характера взаимоотношений режиссера, актера и драматурга в процессе работы над спектаклем требует обращения к широкому кругу научной и специальной литературы, посвященной истории и теории режиссуры, актёрского мастерства, истории и теории драмы и театрального искусства в целом.

Рассматривая различные модели взаимоотношений между режиссером, актёром и драматургом, которые сложились в режиссерском театре необходимо выделить несколько групп источников. Во-первых, *философско-эстетические* работы, которые повлияли на формирование художественных принципов, как в режиссуре и театральной эстетике, так и в драматургии. Во-вторых, многочисленные *театроведческие* труды, а так же обширный пласт *театральной критики*, так или иначе посвященных осмыслению и анализу проблем театральной режиссуры, актёрского искусства, историко-теоретических аспектов драматургии. Данные источники позволяют обнаружить не только систему художественных взаимосвязей между лидерами театра — режиссером, актёром и драматургом, но и проследить эволюционные тенденции в характере их взаимоотношений на протяжении длительного времени. В-третьих, особая роль отведена *практико-методологическим* источникам, раскрывающим специфику данной проблемы. В эту группу источников входят фундаментальные труды отдельных режиссеров, посвященные практическим и теоретическим аспектам режиссуры и теории драмы, изучение которых позволяет провести

сравнительный анализ практических опытов режиссеров с их теоретическими работами и вскрыть методологические принципы работы режиссеров с актёрами и драматургическим материалом.

Особый круг научных исследований представляют *театроведческие* труды. Здесь необходимо отметить, фундаментальные труды по зарубежному театру исследователей Т.Бачелис,³⁸ Л.И.Гительмана,³⁹ А.Н.Образцовой,⁴⁰ работы которых направлены на историко-театроведческий анализ тенденций театрального искусства определенных стран и разных хронологических периодов, подробно раскрывающих специфику театрального процесса.

Изучение данных аспектов – актуальная задача как искусствоведческой науки, так и педагогической практики, занимающейся воспитанием национальных кадров для современной эстрады.

Список литературы:

1. Бачелис Т. Шекспир и Крэг. М.:Наука,1983.
- 2.Гительман Л. Из истории французской режиссуры. Л.: ЛГИТМИК,1976.//Русская классика на французской сцене. Л.:Искусство,1978.// Идеино-творческие поиски Французской режиссуры XX века. Л.:ЛГИТМИК, 1988.
3. Образцова А. Синтез искусств и английская сцена на руб. XIX-XX вв. М.: Наука, 1984.

³⁸ Бачелис Т. Шекспир и Крэг. М.:Наука,1983.

³⁹ Гительман Л. Из истории французской режиссуры. Л.: ЛГИТМИК,1976.//Русская классика на французской сцене. Л.:Искусство,1978.// Идеино-творческие поиски Французской режиссуры XX века. Л.:ЛГИТМИК, 1988.

⁴⁰ Образцова А. Синтез искусств и английская сцена на руб. XIX-XX вв. М.: Наука, 1984.

XORAZM VOHASI MUSIQA MADANIYATINING TASHKIL TOPISH TARIXI



Kuchkarov Maxsudjon

“Ashula va raqs” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: tar. f. d., professor A. Ashirov

Xorazm vohasi xalqining hayoti, turmush tarzi bevosita Amudaryoning iqlimi bilan bog‘lanib ketadi. Xususan bu mintaqaning o‘zi Amudaryo ikki irmoqda ajralgan va bu viloyatni o‘z bag‘riga olib turadigan yirik hajmdagi deltaga joylashgan. Amudaryoning ikki irmog‘i go‘yoki uni o‘z bag‘riga olib quchoqlab turganga o‘xshaydi. Amudaryo o‘z qirg‘og‘ida behisob ko‘llar hosil qiladi. Balki shuning uchun ham bu hudud qadimdan «Xoru azim» ming ko‘l degan nom olgan. Ko‘llar atrofidagi bepoyon daraxtzorlarda minglab to‘p mevali daraxtlar bo‘lib, ular el-yurtning dasturxonini meva-chevalar bilan bezatib boradi.

Xorazm vohasi xalqining hayoti, turmush tarzi bevosita Amudaryoning iqlimi bilan bog‘lanib ketadi. Xususan bu mintaqaning o‘zi Amudaryo ikki irmoqda ajralgan va bu viloyatni o‘z bag‘riga olib turadigan yirik hajmdagi deltaga joylashgan. Amudaryoning ikki irmog‘i go‘yoki uni o‘z bag‘riga olib quchoqlab turganga o‘xshaydi. Amudaryo o‘z qirg‘og‘ida behisob ko‘llar hosil qiladi. Balki shuning uchun ham bu hudud qadimdan “Xoru azim” ming ko‘l degan nom olgan. Ko‘llar atrofidagi bepoyon daraxtzorlarda minglab to‘p mevali daraxtlar bo‘lib, ular el-yurtning dasturxonini meva-chevalar bilan bezatib boradi.

Kitobcha mualliflari Xorazm musiqasining rivojini ikki davrga bo‘lib bayon etishadi. Birinchi davrda mualliflar Xorazm musiqasining besh-olti yuz minglik davri haqidagi rivojlanishiga to‘xtalib o‘tadi.

Mo‘g‘al bosqinchilari Chingizxon boshchiligida O‘rta Osiyoga tajavvuz qilganlarigacha bo‘lgan davrda Xorazm xalqi tinch va osoyishta hayot kechirib kelganlar. Bu davrda musiqiy hayot anchagina faravon bo‘lgan, shahar qishloqlarda obodongarchilik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. Xalq orasida musiqa

bilan bevosita shug‘ullanuvchilar ham, musiqa orqali oilasini boquvchilar ham ko‘p bo‘lgan. Xususan ular cholg‘u sozlarini yasash, ta‘mirlash ishlari bilan shug‘ullanganlar. Iste‘dodli hofizlar va cholg‘uchilar o‘z san‘atini namoyish qilish orqali ham bola-chaqa boqishga muvofiq bo‘lganlar.

Tarixdan ma‘lum bo‘lishicha Sulton Muhammad Qutbiddin va Jaloliddin Xorazmshoh davrida musiqaga bo‘lgan e‘tibor anchagina yuksak bo‘lgan. Cholg‘u sozlaridan asosan dutor keng tarqalgan bo‘lib, boshqa cholg‘u sozlari haqida deyarlik ma‘lumotlar berilmagan.

Xorazm musiqasining rivojlanish davri ikkinchi tarixiy davrga to‘g‘ri keladi. Bu davr 1803-1863 yillarga to‘g‘ri keladi.

Muhammad Rahimxon I zamonidan Muhammad Rahimxon II davrigacha o‘tgan 60 yil davomida Xorazmda turkiy xalqlarning cholg‘ularidan keng foydalanish udum bo‘lgan. Shuningdek xorazm musiqasi yangicha uslublar bilan ham boyib bora boshlagan. Turkiy cholg‘ular doira, nay, g‘ijjak, chang kabilardan foydalanish udum bo‘la boshladi. Bu cholg‘u turlarining odat tusiga kirishida Xorazm musiqasiga maqom asarlarining kirib kelishi sabab bo‘lgan. Muhammad Rahimxon davrida (1805-1825 yillarda) musiqashunos olimlardan Niyozjon Xo‘ja Buxoro shahriga borib qadimgi Shoshmaqomni tanbur sozida o‘rganib keladi va uni Xorazm musiqachilariga ham o‘rgatadi. Shu tariqa maqom janri Xorazmda ham paydo bo‘ladi. Shu tariqa Xorazm maqomi shakllanib o‘ziga xos olti yarim makom turkumida paydo bo‘ladi. Shashmakom davrug‘i Xorazmda katta shov-shuvga sabab bo‘lganligi uchun uni astoydil o‘rganuvchilar soni ham ortib bordi. Niyozxon Xo‘jadan Maxsumjon Qozi, Usta Muhammadjon sandiqchi, Abdusattor Lahra, Xo‘jmu Mehzilar o‘rgangan. Bu kishilar Xorazmda katta obro‘ga ega bo‘lganligi tufayli Shashmaqomni kuylash hofizlar va musiqashunoslarning ham e‘tiborini qozona boshlagan Muhammad Rahimxon zamonida ko‘zga ko‘ringan kishilar asosan shular bo‘lgan desak xato bo‘lmaydi.

XORAZM ASHULA VA RAQS JAMOALARINING AN'ANALARI, JANRLAR, REPERTUARLAR XILMA-XILLIGIGA XOS TIPOLOGIK YO'NALISHLARI

Kuchkarov Maxsudjon

“Ashula va raqs” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: tar. f. d., professor A. Ashirov

Xorazm musiqasining hozirgi kundagi ravnaqi va uning janrlar xilma-xilligi, tipologik asoslari qadimdan shakllanib kelganligi, rivoj topib kelganligini tarixiy dalillar bilan ham isbotlab berish mumkin. Xususan, uning ravnaqida asosiy rol o'ynaganlardan biri Muhammad Rahimxon Feruz bo'lgan. Uning asli nomi Bobojon To'ra bo'lib, u Ogahiydan ta'lim olgan va yuzlab g'azallar yozgan. Uning qo'shiqlari hozirgi kunda ham yoshlar tomonidan kuylanib keladi.

Xorazm musiqasining tipologik asosini yaratgan mumtoz qo'shiqlar yozgan Feruz ijodi asosida aytish mumkinki, birinchi navbatdagi tipologik xususiyat bu she'r va qo'shiqlar yaratish bo'lib, hozirgi kundagi ijodkorlar ham she'r yozish va qo'shiqlar bastalash yosh avlod tomonidan ham davom etmoqda.

Tipologik tizimdagi muhim xususiyatlardan yana birini bu ustoz-shogirdlik an'anasi hisoblanadi. Xususan, Muhammad Raximxon Feruzning an'anasi bo'yicha u o'nlab musiqachilarga ustozlik qilgan. Matyoqub podachi, Matyoqub Devon, Abdulla Mexadik, Allabergan So'ta, Muhammad Amir Mejana, Xudoybergan Muhrjon, Bobojon do'st, Masharif To'rg'ay, Bobojon Bo'lamanchi, Otash kel, Polmi duzchi, Kurji ota, Devonbobo, Madrahim Sheroziy, Bola baxshi, Mutrab, Safo Mug'anniy va boshqalar keyingi yosh avlod musiqachilarning ataqli ustozlari hisoblanadi.

Tipologik tizimdagi navbatdagi ijrochilari bular **raqqos va raqqossalardir**. Qadimda xorazm musiqashunos va san'atkorlari orasida Qodirbergan, Xudoybergan, Rahimbergan kabi raqqoslar Xorazm raqs san'atiga asos solgan, Xorazm qo'shiq, laparlariga xos raqslari bilan xalqni xushnud qilgan raqslardir.

Tipologik tizimga mansub janrlaridan biri bu masxarabozlik bo'lib, uning dastlabki mahoratli ustozlari Xudan ko'r, Matchon Boqay, Yusuf Sharniy, Bobo

to‘q-to‘q, Vavats ota kabi masxarabozlar el orasida shuhrat qozonganlar. Ular orasida Matyoqub taroqchi, To‘xta tojik kabi qo‘g‘irchoqbozlar ham faoliyat ko‘rsatganlar.

Mazkur tipologik tizimda maqom ijrochiligiga e‘tibor ayniqsa kuchli bo‘lgan. 1882 yilda davlat rahbari Muhammad Rahimxon Soniy tomonidan qabul qilingan farmon ayniqsa e‘tiborga molikdir. «Xorazm maqomlari xalqning dahlsiz mulki deb e‘lon qilinsi» - deya farmon chiqazilgan. «Ushbu Farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan yoyinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin!»¹ – deb alohida ta’kid qilingan.

Xorazm musiqa folklor qo‘shiqlarini to‘plash, notaga olish va qayta nashr qildirishda musiqashunos olim, kompozitor Matniyoz Yusupov ham barakali ishlarni amalga oshirgan. 1981-87 yillarda Xorazm maqomlarni qayta nashr etilishi jarayonida cholg‘u yo‘llarini 115-tagacha, ashula yo‘llarini esa 176 tagacha yetkazib, uch tomdan iborat Xorazm maqomlarini qayta nashr ettirdi. Xalq og‘zaki ijodi durdonalari Xorazmda o‘tkaziladigan Navro‘z, gul bayramlari shodiyonalarida bu asarlar badiiy jamoalar tomonidan ijro etilib san’atning barcha turlari keng namoyish etilgan.

Yana shunday tipologik tizimning muhim bir qismi Xorazmda keng tarqalgan bo‘lib, u doston kuylash, baxshichilik san’atidan iboratdir. Ular o‘z faoliyatida folklor asarlaridan unumli foydalanadilar.

Baxshilarning piri Oshiq Oydan deb nomlangan. Ularning o‘ziga xos maktabi bo‘lib, bunda ham usta-shogirdlik an‘analari davom ettirilgan. Shunday nomdor baxshilardan Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyav baxshi, Otajon baxshi, Nurjon cho‘loq baxshi, Avazboli baxshi, Nafas baxshi, Jumanazar baxshi, Buva baxshi, Boli baxshi va uning farzandlari Norbek, Matyoqub, Yetmishboylar va Bola baxshining shogirdlari Qalandar baxshi Normatov, Qo‘shko‘pirlik Karim va To‘la baxshilar dostonchilikning nozik sirlarini puxta egallagan baxshilar hisoblanadi.

¹ «Xorazm maqomlari haqidagi Farmoni Oliy» - Davlat rahbari Muhammad Rahimxon Soniy – 1882 yil.

Dostonchilik, baxshichilik ayollar o'rtasida ham keng tarqalgan bo'lib, ular garmion, doira jo'rligida xalq qo'shiqlarini, laparlar, termalar, «Yor-yorlarni», dostonlardan parchalarni maroq bilan kuylaydilar. Ular qadimdan Xorazm to'ylarini, sayr, bayram va boshqa tantalarini o'tkazib, elning yaxshi kunlariga xizmat qilib kelganlar.

Xorazmda xalifachilik keng rivojlangan bo'lib, ular asosan xotin-qizlardan tashkil topgan bo'ladi.

Xorazmda xalifachilikning ham o'ziga xos maktabi mavjud bo'lib, bu maktabning yaratilishida ustoz xalifachilarning o'рни alohida ahamiyatga ega. Xususan, shunday ustozlardan biri Ojiza nomi bilan mashhur bo'lgan Onabibi Otajonova hisoblanadi.

SPEKTAKL YARATILISHIDA REJISSOR MAHORATI



Madrimov Qaxramon

“Drama teatri va kino aktyorligi san'ati”

Mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ilmiy rahbar: s.f.d., professor S.Qodirova

San'at bu ilohiy mo'jiza. San'atning barcha turlari ezgulikka, insoniylikka xizmat qiladi. Ayniqsa, inson qalbi, shuuri, ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, uning estetik didini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish, dunyoqarashini o'zgartirish qudratiga egadir. Teatr sahnasining o'zi kichkina, ammo dramaturgik asar mahoratli rejissyor qo'lga tushgandagina shu kichik o'rinda butun bir hayotni aks etdirish va ko'rish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Talabalik davrimdan poytaxt teatrlari repertuaridagi birin-ketin sahna asarlarini tomosha qilishiga, aktyorlar ijrosi va rejissyorlik ishlarini tahlili qilishga odatlangan edim. Bu borada, O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev, Turg'un Azizov hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Munavvara Abdullayevalar ijodi ayniqsa rejissuradagi izlanishlari aynan bo'lajak aktyor sifatida meni yanada izlanishga ijod qilishga undadi desam

yanglishmayman. Rejissura ijodkorni qobiliyatlarini charxlaydigan, asarni sahnalashtirishgacha bo'lgan jarayonlarda ko'plab izlanishlarga, o'qishga, hatto aktyorlar bilan "til" topishgacha bo'lgan ko'plab jarayonlardan muvaffaqiyatli o'tishiga sabab bo'ladigan buyuk kasb. Izlanishdan, talab qilishdan, pyesani tanlashdan, reja asosida ish ko'rishdan to'xtamagan ijodkor yangiliklar yarata oladigan rejissyor o'z ishining boshida doim qaddini baland ko'taradi. Ijodiy muhit qaynagan pallalarda ustozlarimni doim sinchkovlik bilan o'rganar edim. Masalan, teatrdagi ayniqsa rejissura sohasida ko'plab izlanishlar qilgan ijodkor "O'zbekcha raqs" spektakli orqali barchaga tanish rejissyor Turg'un Azizovdir. Rejissyor shu mavzuni olishda izlangani, imkon qadar mushohada qilgan holda asar tanlagani, ko'plab muhlislarning fikrlaridan bilganman. Asarda 60-yillarning ijtimoiy hayoti, xalqning turmush tarzi, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy muhit bilan chambarchas bog'langan holda namoyon bo'lishida rejissyor har bir elementga alohida e'tibor berganini ko'ramiz. Ayollarning og'ir qismati; rus millatiga mansub qizning taqdir yo'llari chiroyli bo'yoqlarda tasvirlanadi. Spektaklning badiiy takomilligi, sahnaviyligi, tomoshaviyligi va estetik zavqini ta'minlashda rejissyor rassom Baxtiyor To'rayev bilan hamfikir, hammaslakda ijod qilgani fikricha spektaklning dekoratsion obrazli yechimi yer bilan osmonni bog'lab turadigan dumaloq yer kurrasi sahnaviy bezak ko'p ko'rinishlardan tashkil topgan spektaklning dinamikasi sur'atini ta'minlagan. Undan tashqari rejissyor spektaklning tempi, harorati, tomoshaviyligi va ta'sirchanlik kuchi, tomosha zalini to'ldirib o'tirgan teatr muxlislarini bir soniyaga ham boshqa narsalarga chalg'itmasdan diqqat bilan sahnada sodir bo'layotgan voqealar girdobiga tortadigan obrazlar ustida aktyorlar bilan tinimsiz ishlangani, monolog, dialoglar ta'sir kuchini oshirilgani spektakl jarayonida o'z aksini topishida izlangani ko'zga tashlanadi. Demak, rejissyor asarning har taraflama yutuq bilan birga ta'sirchanligini oshirib, tomoshabin uchun bir lahzalik muhit yarata olgan. Bu esa rejissyor bilan teatr ijodkorlarining ijodiy jarayonlarda o'zaro samimiy hamkorlik qilgani, bir-birini tushunib ish olib borganidan dalolat beradi.

Sahnaning haqiqiy egasi bu aktyor. Shu sabab aktyor asarning ichki va tashqi ma'nolarini qunt bilan egallab olmog'i, o'zi ijro etayotgan obrazda yashamog'i lozim. Shundagina u sahnani voqea bo'layotgan joyga aylantiradi. [1. B.98.]

Dramatik spektaklning ta'sir kuchi, tomoshaviyligini, haroratini oshirishda, musiqaning ahamiyati, aktyor yaratayotgan obrazning ma'naviy dunyosi, ichki dardi va tug'yonlarini spektakl davomida tomoshabinga yetkazishi ham rejissyor talab darajasida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek teatrlari rejissyorligida rang-barang, yangicha badiiy ifoda vositalarini qildirishga intilish mavjud. Tomoshabinni lol qoldiruvchi sahna effektlari, yangi ijro vositalaridan foydalanish keng tus olib bormoqda. [2. B.328.] Bu borada, yana bir o'ziga xos mahoratli rejissyor Bahodir Yo'ldoshev ijodiga e'tibor bermaslikning iloji yo'q. Rejissyorning qaysi spektaklinitilga olmaylik, unda yangilik o'ziga yarasha yuqori saviyada tanlagani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Uning har bir spektaklini tomoshabin diqqat bilan tomosha qilishi bilan birga, aktyorlar bilan ruhan rolda o'ynaydi, his qiladi va nafas oladi desam adashmayman. Bu gal rejissyor Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" tarixiy asariga murojaat qilib, kino aktyorlar jamoasidan tuzilgan ajoyib ansamblni shakllantiradi. Bu esa albatta tomoshabin uchun yangilik bo'lishi bilan birga, rejissyor topilmalarining, qarashlarining yanada betakrorligiga tan berging keladi. Birigina, Bobur timsolida tomoshabin undagi iroda, jasorat, hayotning o'nqir-cho'nqir qiyinchiliklariga qaramay hayotga, ijodga, yaqinlari uchun kurashda mardonavor kelishi, voqeadan-voqeaga o'tishda bosh rol ijrochisi Alisher Uzoqovning Boburi mardlarcha boshini tik tutdi. Og'ir kunlar boshiga tushganida so'zsiz yig'ladi, ayrilganida dod soldi, boshidan o'tgan kunlarni eslaganda ichki tug'yonlarini to'kib-sochdi. Rejissyor har bir rol uchun aktyorlarni did bilan tanlagani, tomoshabin uchun katta tufha bo'lgan. Yangi aktyorlar ansambli spektakl salobatini yanada oshirganini ko'rish mumkin. Har bir obrazning yuki bor, unda o'ziga yarasha salobat, ma'nodor qarashlar mujassam. Rejissyor spektakl

yaratishda o'ziga yarasha betakror topilmalarga tayangan. Spektaklda qaysi soha vakili tomosha zalida o'tirmasin ularni spektakl boshidan to oxirigacha shu yerning haroratidan nafas olib aktyorlar bilan yashashga undaydi. Ularni kayfiyati, spektakl qabul qilishi yengil hazim bo'ladi. Bahodir Yo'ldoshev rejissurasi birgina shu spektakl orqali misol bo'lsada, uning Boburiylar tarixiga urg'u berishi, o'sha davr bilan yashashga, his qilishga, yana bir bor Bobur bosib o'tgan achchiq kunlarni xotiralashga o'z-o'zidan undaydi.

Bahodir Yo'ldoshev rejissurasi ham o'zining noan'anaviy topilmalarga boyligi, tomoshabin uchun yangilik yarata oladigan ijodkorligi bilan ajralib turadi. Xaqiqiy ijodkor o'zi yaratayotgan asarlarisiz, ijro etayotgan rollarisiz hayotini tasavvur etolmaydi.

Har bir rejissyor aktyor bilan ijodiy muloqotga kirishar ekan, undagi qobiliyat va iqtidorni anglashi, sezishi, aktyorga ishonishi lozim. Tanlangan asarning yutug'i o'zaro tinimsiz mehnat va izlanishga kuch va sabrga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayev.B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012. B-98.
2. To'laxo'jayeva M. Teatr tanqidchiligi. «San'at» jurnali nashriyoti, 2015. B-328.

ZAMON QAHRAMONI – DAVR TALABI



Mamatqulova Munira

“San’at nazariyasi va tarixi”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor S.Qodirova

O’zbek dramaturgiyasi paydo bo’lgan davrdan buyon talaygina o’z davrining qahramonlari yaratildi. Zamonlar o’zgarishi bilan qahramonlar ham o’zgaradi. Ular xislatlarida o’xshash va bir-biridan tubdan tafovut qiladigan jixatlar ham mavjud bo’ladi. Qahramon qiyofasi o’sha davr ijtimoiy, siyosiy muhiti ta’sirida shakllanib, ehtiyojlarga monand yaratiladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston chor Rossiyasi tomonidan zabt etilib, mustabid tuzum orqali tanazzulga yuz tutganligi, xalqning og’ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan orqada qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongdagi turg’unlik, milliy qadriyatlarning toptalganligi jadidlarni jahon tajribasidan foydalanib, tezlikda bu holatdan chiqish yo’llarini izlab topishga chorladi. Ma’rifatchilikdan boshlangan jadidchilik 1917-yilga kelib kuchli siyosiy harakatga aylandi. “Teatr bir yarim-ikki soat ichida tarix yoki zamonaviy hayotdan hikoya qilib, tomoshabin qalbida o’chmas iz qoldirishi mumkin. Asr boshida jadidlarning teatr san’atini maktab va matbuot bilan bir qatorga qo’yib, teatrni minbar, ibodatxona, ma’rifat o’chog’i, odobxona deb bilganlari bejiz emas”⁴¹ Masalan, jadid dramaturgiyasi bosh qahramonlari maqsad va intilishlariga nazar tashlansa, ular ma’rifatsizlikdan azob chekayotgan, eski maktab va madrasalarni isloh qilish haqida qayg’urayotgan, istiqlol uchun kurashayotgan shaxslar sifatida gavdalandilar. Mahmudxo’ja Behbudiyniing “Padarkush”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot”, “Ilm hidoyati”, A.Qodiriyniing “Baxtsiz kuyov”, Hoji Mo’min “Mazluma xotin”, “Eski maktab yoki yangi maktab”, “Isloh va maktab haqida kengash majlisi”, A.Avloniyniing “Advokatlik osonmi?” kabi dramalari yuqoridagi fikrimizga asos bo’ladi. To’g’ri

⁴¹ S.Qodirova. “Istiqlol, ijod, imkoniyat”. Teatr jurnali. 3-son. 2014y. 3b.

bu davrda yaratilgan sahna asarlarida qahramonlar xarakteri talab darajasida ishlanmagan, asosan va'zhonlikka tayangan holda yaratilgan bo'lsada, o'sha muhit uchun qanday qahramonlar zarur bo'lganligidan bizga darak beradi. Bu davr mualliflari tomoshabin ongiga ta'sir qilib uni ma'rifatsizlikdan qo'zg'atish uchun turli darajadagi qahramonlarni yaratdilar. Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasidagi Davronbek, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush"idagi Ziyoli, Hamzaning "Zaharli hayot"idagi Maryam obrazi kabilarni olaylik, ular o'z da'vatlarida o'sha zamon talabi va zaruriyati, qanday ishlarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlab o'tishgan. Bu harakatlar xalqni qotib qolgan muxitdan oldinga ildamlashga, yangiliklarga intilishga o'rgata boshladi. Bunday o'zgarishlar Rossiya hukumatiga ma'qul kelmadi, sababi "o'z xaqini bilgan, o'zligini anglagan xalq o'zga millatga tobelik qilmaydi" degan qarash mavjud. Shuning uchun millatimiz jadidlari birma-bir mahv etildi, ularning aziz nomlarini xalq xotirasidan o'chirishga harakat qilindi. Lekin xalq ularni unutmadi. Ularning orzu umidlari 1991-yilda amalga oshdi. Yurtimizning birinchi prezidenti Islom Karimov mustaqillikka erishilgan kundanoq istiqloq yo'lida jonini fido qilgan qahramonlar orasida jadidlar nomini alohida ehtirom bilan tilga oldi.

Jadid dramaturgiyasidan keyingi davrda tuzumning o'zgarishi, mustamlakachilik, sotsialistik g'oyalarning avjiga chiqishi, bir oz vaqtdan so'ng ikkinchi jahon urushining boshlanishi xalqqa davr ruhiyatiga monand qahramonlarni namoyon qilish kerakligi bilan kechdi. "Oradan ko'p o'tmay, chorizmning mustamlakasiga aylantirilgan, iqtisodiy-madaniy qoloq holga tushgan o'lkamiz Turkistonda feodalizmni uzil-kesil ortda qoldirmasdan, kapitalizm jamiyati qurilmay turib, demakki, proletariat sinfi to'la shakllanmagan bir sharoitda Rusiya ta'siri va ko'magida sotsiolistik inqilob g'alabasi ta'min qilindi."⁴² Bu davrda yaratilgan dramalar tarixiy revolyutsion mavzuga bag'ishlangan, yoki bo'lmasam shu kunning ijtimoiy-axloqiy masalalarini badiiy talqin qilgan. Dramaturglar o'z asarlarida adolat uchun, haqiqat uchun, ilg'or

⁴² O'zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti, 1995y. 15b.

g'oyalar, yuksak ideallar uchun, birinchi navbatda sotsiolizm g'oyalari, kommunistik e'tiqod uchun o'zini fidoyi qilgan kurashchan odamlarni tasvirlaydilar. Asosan oktyabr sotsialistik revolyutsiyasi va grajdanlar urushi davrini badiiy tahlil qilishga ishtiyoq qo'yishadi. Bu fikrimizga misol sifatida Cho'lponning "Yorqinoy" (1921y.), "Hujum"(1928y.), Fitratning "Abulfayzxon" (1924y.), "Arslon" (1926y), H.X.Niyoziy "Boy ila xizmatchi" (1918y.), "Itibdod qurbonlari" (1919y.), "Xolisxon", Abdulla Avloniyning "Biz va Siz" (1923y.), Ziyosaid hamda Mo'minjon Muhammadjonov hamkorlikda yaratgan "Qonli kun"(1926y.), Gulom Zafariy "Halima"(1926y.), Oydinning "Yangilikka qadam"(1926) kabi pyesalari qahramonlarini keltirib o'tishimiz mumkin. 1930-1941 yillardagi pyesalar uchun umumiy xususiyat shuki, dramaturglar butun e'tiborini ijtimoiy, ahloqiy masalalarga, mehnat jarayonini qamrashga, xalqning jamoa xo'jaliklariga birlashishi va xotin-qizlar ozodligi uchun kurashga aloqador muammolar Umuminsoniy muammolarga va insoniy xarakterlarga qaraganda davrning ijtimoiy ruhini aks ettirish ustun turdi. Bu albatta o'sha vaqtdagi tuzum talabi bo'lib, "asosan tashviqotchilik tamoyillari kuchaytirilgan asarlar yaratilgan" deb bemalol ayta olamiz. K.Yashinning "Ikki komunist" (1929y), "Yondiramiz" (1931y.), "Gulsara"(1934y. M.Muhamedov bilan hamkorlikda yozilgan), "Nomus va muhabbat" (1935y), "Nurxon" (1940y.), Zinnat Fatxullin "Niqob yirtildi" (1930y.), "Burgut yanchildi" (1931y.), "G'unchalar" (1933y.), "Istiqlol" (1933-34y.), "Sotqinlar" (1933y.), Usmon Nosirning "Dushman" (1931y.), "Atlas" (1934y.), Mamarasul Boboyevning "Oq oltin" (1932y.), Sotti Husaynning "G'alaba" ("Loyqalar"1932y.), Ziyosaid "To'ralik sirtmog'i" (1931y.) kabi pyesalar bu davr ijtimoiy hayoti hamda qahramonlari haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. "1917 yil bilan boshlangan tarixiy davrda san'at va adabiyotda Pavel Korchagin, Georgiy Melexev, Qo'qon batrak, Yo'lchi, Oyqiz singari qahramonlar kirib keldi. Agar bu qahramonlarning ma'lum bir qismi o'sha davr bilan o'z vazifasini o'tab bo'lgan bo'lsa, boshqalari hali ham xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari-yu go'zal insoniy fazilatlar bilan kitobxonlar yo tomoshabinlarning fikri

zikrini o'zlariga jalb etib keladilar. Shunday ekan, balki san'at va adabiyotga ikkinchi toifadagi qahramonlar ko'proq kerakdir.

Lekin gap shundaki, sovet teatri va sovet adabiyoti o'zlarining xorijiy "birodar"laridan tarbiyaviy ahamiyatga molik asarlari bilan farq qiladi. Shu asarlari va ularda yaratilgan qahramonlari bilan hayotiy jarayonga faol aralashadi. Voqelikdagi ayrim tamoyillarning avj olishiga yordam berdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Pavel Korchagin singari qahramonlar, albatta, kerak."⁴³

Qo'qisdan boshlanib qolgan fashistlar Germaniyasining yovuz urushi, eng daxshatli va shavqatsiz jang yillari, ya'ni Ulug' vatan urushi davrida maydonga kelgan pyesalarni olaylik, o'zbek dramaturglari o'zlarining sahna asarlarida Vatan urushi davrining eng muhim va dolzarb masalalarini yoritishga harakat qildilar. Ular butun diqqatini xalqni ozodlik, vatanparvarlik, qahramonlik ruhida tarbiyalashga, sabotli – matonatli qilishga qaratdilar. Buning asosiy sababi xalq urush oqibatida anchayin tushkunlikka tushib qolgan edi. Ular ruxiyatini ko'tarish, vatan uchun jon berish faxrli ish ekanligini insonlar qalbiga singdirish, vatanparvarlik hissini jonlantirish uchun bunday chora tadbirlar zarur edi. Televideniye rivojlanmagan bir davrda xalq ongiga ta'sir etuvchi birdan-bir vosita bu - teatr hisoblanardi. N.Pogodin, H.Olimjon, Uyg'un va S.Abdullalar hamkorlikda "O'zbekiston qilichi" (1942y.), Tuyg'un va Amin Umariy "Qasos", S.Abdulla va Chustiy "Qurbon Umarov", K.Yashin va S.Abdulla "Davron ota" (1942y.) birgalikda ijod qilib sahna asarlarini yaratishgan. "Bu yillarda yozilgan dramatik asarlar shundan dalolat beradiki, bizda harbiy mavzuni yoritish borasidagi an'analarning yo'q darajadaligi dastlab jamoa bo'lib, hamkorlikda ijod qilishni taqozo etdi."⁴⁴ Bundan tashqari Z.Fatxulinning "Sinov kunlarida", K.Yashinning "O'lim bosqinchilarga" (1942y.), "Oftobxon" (1944y.) kabi pyesalarni ham bu davrning tezkorlik talablari asosida yaratilgan asarlar deb olishimiz mumkin. Kundalik talab taqazosi bilan yozilgan bunday pyesalar

⁴³ Naim Karimov. Munosabat. Teatr jurnali. 1999y. 4-son. 12bet.

⁴⁴ O'zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti, 1995y. 117b.

keyinchalik uncha iz qoldirmadi. Shuni ham aytish kerakki, urush yillarida dramaturglarimiz tarixiy-inqilobiy hamda tarixiy mavzularda dramaturgiyamiz solnomasidan o'chmas o'rin olgan talay sahna asarlari ijod qilishdi. Shu ma'noda dramaturg Uyg'un hamda Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" (1941y.), Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" (1943-1944y.), H.Olimjonning "Muqanna" (1943y.), Oybekning "G'alvirchi" (1941y.), "Mahmud Tarobiy" (1941y.) asarlari dunyoga keldi. Ayniqsa Uyg'un hamda Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" tarixiy dramasi bejiz yaratilgani yo'q. Sababi pyesada talonchilik, adolatsiz urushlarning keskin qoralovchi liniyaning mavjudligi, bundan tashqari asar butun boshligicha adolat bilan zulm o'rtasidagi murosasiz kurashga, yomonlik bilan yaxshilik, ilg'or, oliy tuyg'ular, yuksak orzu-istaklar bilan jaholat, marazlik, qoloqlik, pastkashlik, ifloslik o'rtasidagi o'tkir konfliktga bag'ishlanib, tabiatning gultoji bo'lmish Inson va uning ezgu g'oyalari ulug'lanadi. Asarda Navoiy o'z davrining eng ilg'or g'oyalari uchun aktiv kurashuvchi buyuk shaxs sifatida talqin qilinadi: uning xarakteri, undagi barcha oliy fazilatlar yuksak maqsad-ideallariga g'ov bo'lgan kuchlarga qarshi kurash jarayonida namoyon bo'ladi. Ana shu qarshilikni yengishga intilgan Navoiy obrazida qahramonlik ruhining bo'rtib turushining sababi shunda.

Mualliflar Navoiy timsolida XV asrning ilg'or tendensiyasini, ijtimoiy hayotning olg'a xarakatini ifodalaydilar. Ayni choqda o'sha davrning ruhi, hayotini keng manzarasini, mohiyatini chuqur va atroflicha ko'rsatish uchun mualliflar asarga xalqning hamma toifasining vakllarini, turli kasbdagi, turli taqdirdagi odamlarni olib kiradi. Unda podshohlar, vazirlar, beklar hayotidan tortib shoirlar, rassomlar, tarixchilar, me'mor, navkarlar, oddiy mehnatkashlar hayotigacha qamrab olingan; davlat miqyosidagi masalalar va oilaviy hayot bilan bog'liq masalalar uzviy birgalikda talqin etiladi. Eng muhimi asarda yorqin tiplar yaratilgan, ular uchun o'zlariga mos qabariq xarakterlar topilib, chuqur psixologik tahlil etilgan. Lekin bularning hammasi, asarning boshidan oxirigacha betinim taranglashib borgan dramatik konflikt va rango-rang tragik kolliziyalar ham bosh

obraz, bosh g'oya uchun xizmat qiladi. Aytaylik, Guli obrazisiz na Navoiyning axloqiy olamini va na XV asrda oila – muhabbat – erk masalalariga munosabatni to'la yoritib bo'ladi. Yoki Husayn obrazini uning maslakdoshlari, uni inqiroz sari yetaklagan Majiddin, Muzaffar, Mansurlarsiz mukammal chizib bo'lmasdi. Navoiyning do'stlari va qarndoshlari obrazlari ham o'sha davrning nurli tomonlarini, ham fojialarini namoyon qilish uchun yordam beradi. Shu ma'noda asardagi manumentallik – klassik dramalarga xos fazilat hisoblanadi. "Alisher Navoiy" tarixiy dramasi haqida bunchalik ko'p uzoq mulohaza yuritishimizning sababi shundaki, bugungi kun mustaqillikga erishganimizdan so'ng ham aynan shu asarning yana qayta sahna yuzini ko'rganligidadir. Asar bosh qahramoni Navoiy obrazidagi mukammallik, insoniy fazilatlar, ahloq kategoriyalari uning yetuk insonligi tomoshabinda ana shunday buyuk shaxs avlodlari ekanligidan faxrlanish xissini uyg'otadi. Unga o'xshashga, xalq dardida yonishga, komil inson bo'lish yo'lida izlanish va intilishga undaydi. Bunday klassik asarlarda ko'tarilgan mavzu va qahramonlar barcha davrlarga xos sanaladi va hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

ZAMON QAHRAMONINI IZLAB...

Mamatqulova Munira

"San'at nazariyasi va tarixi"

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor S.Qodirova

San'at kishilarning his tuyg'ularini tarbiyalaydigan, ma'naviyatini boyitadigan vosita. Teatr esa voqelikni badiiy shaklda – harakat orqali aks ettirib, inson ruhiyatiga, uning qalbiga yo'l topa oladigan sehrli va qudratli san'at turi hisoblanadi. Chindan ham sahnada g'oyaning badiiy shaklda va harakatda ochilishi tomoshabin ongiga va qalbiga ta'sir qiladi. Jonli muloqot jarayonidagi lahzalar – sahnadagi "badiiy haqiqat" tomoshabinlarni ruhiy poklanish sari yo'naltiradi. Rejissyor

tomonidan aytilmoqchi bo'lgan fikr voqealar rivoji – harakatlar orqali ta'sir etib, ularni larzaga solish oliy maqsad qilib belgilangan bo'ladi. Bizga ijobiy ta'sir etgan sahna ustalari ya'ni asar qahramonlari estetik ideal sifatida, ilmga intilishimizga, maqsad sari harakat qilishimizga undab kelgan.

“O'zbekteatr” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi yurtimizda teatr san'ati rivojiga katta hissa qo'shdi. Teatr jamoalari o'z qobig'ida qolib rivojlana olmaydi. Shuning uchun ko'riktanlovlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega. “O'zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlasmasi har yili yangi-yangi rejissyor, dramaturglar, aktyorlarni kashf qilish uchun turli hil anjumanlar, tanlovlar, tadbirlar o'tkazib keldi. “Navro'z”, “Andijon bahori”, “Humo”, “Mustaqillik timsoli”, “Nihol”, “Sarhisob”, “37+1”, “Debyut”, “Seni kuylaymiz zamondosh” kabi nom oluvchi ko'rik festivallar ijodkorlarga birdamlikda faoliyat olib borish, o'zaro fikr almashish kabi imkoniyatlarni yaratib berdi. Shu tanlovlar natijasi o'laroq ko'plab yangi asarlar yaratildi. Turli mavzudagi, turli saviyadagi spektakllar sahna yuzini ko'rdi. Bu tanlovlarda barcha viloyat teatrlari qatnashib har xil nominatsiyalarni qo'lga kiritdilar. Har yili o'tkaziladigan bunday tanlavlarda tarixiy dramalardan tortib maishiy mavzudagi spektakllar namoyish qilib kelinadi. Chunki teatr jamoalari yaratayotgan spektakllar xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ular ongida milliy g'oya va milliy mafkura asoslarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. 2011-yilga kelib aynan Zamonaviy qahramon obrazini yaratish yo'lidagi izlanishlar jiddiy tus oldi. Buning asosiy sababi 2010 yilning 30 avgustida Buxoro viloyatida bo'lib o'tgan “Teatr sana'ti xaftaligi”da hamda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbuslari bilan bunyodga kelgan ulkan mahobat va salobatga ega yangi viloyat musiqali drama teatrining rasmiy ochilish marosimida san'atkorlar bilan suhbat qurib qimmatli fikr mulohazalarini bildirgan edi. Prezidentimizning “Teatr davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi asarlarni sahnaga olib chiqishi zarur. Farzandlarimizning ma'naviy dunyosini mustahkamlaydigan, kelajakka ishonchni oshiradigan, oriyatini

kuchaytiradigan zamonaviy qahramon obrazlarini yaratish kerak”⁴⁵ , - deya kuyunchaklik bilan aytgan gaplari sohaning barcha vakillarini yanada faol ishlashga, mukammal sahna asarlari yaratishlariga chorlovchi chaqiriq bo’ldi. Birinchi Prezidentimizning zamonaviy qahramon obrazini yaratish bo’yicha bildirgan fikr-mulohazalaridan kelib chiqadigan vazifalarni bajarish yuzasidan, O’zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, “O’zbekteatr” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan chora tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va ushbu dasturga muvofiq bir qancha tadbirlarni amalga oshirish belgilab olindi. “Sahnada zamon qahramoni” mavzuida O’zbekiston teatrlari I – Respublika ko’rik festivalining 1-kursi bo’lib o’tdi. Unda O’zbek Milliy akademik drama teatri “Ogoh bo’ling odamlar” (Usmon Azim asari, rejissyor Valijon Umarov), Muqumiy nomidagi o’zbek davlat musiqali teatri “Matonat”(U.Azim asari, rejissyorlar M.Rajabov va U.Zufarov), Respublika yosh tomoshabinlar teatri “Diskoteka” (Sh.Rizayev asari, rejissyor O.Salimov), O’zbek davlat drama teatri “Ezgulik yo’lida” (Sh.Rizayev asari, rejissyor S.Meliyev), Respublika satira teatri “Sadoqat” (O’lmas Umarbekovning “Odam bo’lish qiyin” romani asosida Erkin Usmonov tomonidan insinerovka qilingan, rejissyor X.Fayziyev) spektakllari bilan qatnashdi. Barcha sahna asarlarida bugungi kunning kishilari va ular boshidan kechirayotgan muammoli vaziyatlarini ko’rishimiz mumkin. Masalan Milliy teatrning “Ogoh bo’ling odamlar” spektakli bosh qahramonlari Akbar (sahnada A.Nabiyev) uning turmush o’rtog’i Mavjuda (sahnada Sh.To’xtayeva) odam savdosidan jabr ko’rgan oila sifatida gavdalanadilar. Bugungi kunda global muammoga aylangan odam savdosi bu spektakl qahramonlari orqali ishonarli tarzda ochib berilgan. “Ogoh bo’ling odamlar” kabi asarlar insonlarni hushyor bo’lishga chorlaydi. Umuman olganda, festivalda namoyish qilingan spektakllar haqidagi ma’lumotlarni ko’zdan kechirib, sahnada zamon qahramonini yaratishga intilish, izlanish anchayin jiddiy tus olganligiga guvoh bo’lish mumkin “Lekin shu bilan birga, ushbu tanlov bizning aosiy kamchiliklarimizni ham ro’y rost ochib berdi. Bu kamchiliklar eng avvalo,

⁴⁵ O’z.Res.birinchi Prezidenti I.A.Karmov. 2010 yil 30 avgust. Buxoro viloyat Musiqali drama teatrining yangi binosi ochilish marosimidagi nutqi.

professional dramaturgiyaning taqchilligida ko'rinib qoldi. Tanlovda qatnashgan asarlarning ko'pchiligida mavzu yuzasidan rang-barang qahramonlarni olib chiqishga xarakat bo'lsa-da, professional talqin kamomati sezilib turibdi. Modomiki professional dramaturgiya bo'lmas ekan, teatr ham, kino san'ati ham hech qachon professional rivojlana olmaydi. Bu achchiq haqiqat.”⁴⁶

2013 yilning 23-28 kunlari Toshkent shahrida “Seni kuylaymiz, zamondosh!” O'zbekiston teatrlarining ikkinchi respublika tanlovi bo'lib o'tdi. Bu tanlovda 13 teatr jamoasi o'z jamoasi bilan ishtirok etdi. Tadbirni birinchi bo'lib O'zbek milliy akademik teatrining “Oydin” (R.Muhammadjonov asari, rejissyor – V.Umarov) spektakli boshlab berdi. Aynan shu spektakl bilan Sirdaryo teatri ham ishtirok etdi. Faqat spektakl “Ayol qadri” deb nomlanib rejissyor Baxtiyor To'rayev tomonidan sahnalashtirilib, spektaklda o'zgacha rejissyorlik yondoshuv va yechimni ko'rishimiz mumkin. Yildan-yilga asarlar sifat jixatidan yaxshilanib borayotganligi ko'rinib turibdi. Teatr jamoalari bor kuch-quvvati, ijro mahoratlarini yuzaga chiqarishga intilgani, zamonaviy qahramon obraziga an'anaviy yondoshuv bilan birga yangi, noodatiy talqinlarning mavjudligi, mavzular ko'lami kengayib, umuminsoniy, global muammolarga javob izlash, yosh dramaturg, rejissyor va aktyorlarning ijodiy jarayonga faol munosabati tanlovning maqomi oshganligidan dalolat beradi. Tanlov yakunida O'zbek Milliy akademik drama teatrida “Sahnada zamondosh obrazi” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Tanlovda O'zbek Milliy akademik teatrining “Oydin” spektakli hamda Sirdaryo viloyat musiqali drama teatrining “Ayol qadri” spektakllari birinchi o'ringa loyiq topildi. Butun insoniyatni tashvishga solayotgan odam savdosi va uning mudxish illatlarini bartaraf etishga qaratilgan, asarning bosh qahramoni Oydin (sahnada Z.G'ulomova) zamonamizning zukko, ilg'or jurnalistlaridan biri. Televideniya davrimizning dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator ko'rsatuvlar tayyorlab, ko'pchilikning e'tiborini qozonadi. Bir safar odam savdosi jabrdiydalari bilan uchrashib, ularni suhbatga tortganida, umid bilan bir yostiqa bosh qo'ygan turmush o'rtog'i –

⁴⁶ O.Rizayev. “Tanlov saboqlari” Teatr jurnali. 3 son. 2011y. 4b.


Samandar (M.Qilichev)ning asl qiyofasi fosh bo'ladi. O'ta mushkul vaziyatda qolgan Oydin sevgan yori, oilaviy xalovatidan voz kechib, jinoyatni fosh qilishga qaror qiladi. Bosh qahramonning ayol kishi bo'la turib, nozik xilqatida ulkan jasoratni topa olishi tomoshabinni hayajonga soladi. Spektaklda rejissyor V.Umarov asosan yosh ijrochilar Zilola G'ulomova, Mirolim Qilichev, Aziza Sharipova, Nigina Anorboyeva ishtirokida aktyorlar ansamblini shakllantirishga xarakat qilgan. Zamon qahramoni siymosi tinimsiz izlanish, mahorat, va tajriba, kursma-kurs o'tkazilib boradigan festival va tanlovlar intihosida yuzaga chiqishi aniq.

2015-yilga kelib an'anviy tus olgan "Seni kuylaymiz, zamondosh!" O'zbekiston teatrlarining III respublika ko'rik festivali o'tkazildi. Bu galgi festivalda yangicha yondoshuvga ega bo'lgan Mulla To'ychi Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrining "Orol bobo" (E.A'zam asari, sahnalashtiruvchi rejissyor F.Jumayev) spektaklidir. Spektakl mavzusi dolzarb, bu nafaqat tabiat injiqliklari tufayli yuzaga kelgan muammo Orol dengizining qurib qolishiga qaratilgan, balki buning tubida yashiringan insoniy munosabatlar, bir parcha sahro yerni ham o'zga makondagi bog'-rog'larga alishmaydigan, umidli, kelajakka ishonuvchi otaxon va uning atrofidagi ruxiyati pok insonlar xaqida. Spektaklda Orol muammosi ramziylik kasb etib, asar muallifi hamda rejissyor tomoshabinlarga Ona yer aziz va mo'tabar, suvsiz sahroga aylangan dengizni to'ldirish, qayiqlar yasash ertangi yorug' kunimizga ishonch ekanligini ta'kidlaydi. Eng muhimi, spektakl ijodkorlarining tomoshabinga aytadigan gapi, dramatik qahramonning ichki ziddiyati, dinamikasi bor, u rivojlanishda ko'rsatiladi. Orol bobo hamda uning shogirdlari – mana bizning zomondoshlarimiz. Bu spektakl festival hay'ati a'zolari tomonidan "Eng yaxshi spektakl" nominatsiyasida I-o'ringa sazovor bo'lganligi ham fikrimizni isbotlaydi. Ma'lumki, festivalga spektakllar tanlovi jarayonida qanday mavzular olib chiqilganligi, zamondoshlarimizning qaysi soha vakillari ekanligiga e'tibor qaratilgan. Mazkur obrazlarni sahnalarda gavdalantirganda nafaqat ularning ijtimoiy faoliyatlarini, balki oilaviy muhit, insoniy munosabatlardagi holatlari aks

ettirilgan bo'lishi kerak. Chunki mana shunday munosabatlarda zamondoshimizning xarakteri nomyon bo'ladi, ichki olami ochiladi.

Salkam yigirma yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Navro'z", "Sarhisob", "37+1", "Debyut" va nihoyat "Seni kuylaymiz, zamondosh" festivallari davr talabi bilan tashkil qilinib kelingan. Bugungi kunga kelib festivallarning oliy maqsadi zamonaviy qahramon obrazini kashf qilishdan iborat. Bu yo'ldagi izlanishlar oqsoqlanishida dramaturgiya sohasining kamchiliklarida deb tushunish mumkin. Aynan ko'rik-festivallar natijasi o'laroq sahna ijodkorlariga xalq hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalash, davrning tashvishga solayotgan ijtimoiy-axloqiy muammolarga munosabat bildirish, hayotiy materiallarni umumlashtirish, zamona qahramonlarini yaratish imkonini berdi. Zamondoshlarimizning ishonarli obrazlari paydo bo'la boshladi.

THE IMPORTANCE OF ENGLISH LANGUAGE FOR SOUND ENGINEERS' EDUCATIONAL PROCESS



Master of 2-nd course

Markov Stanislav

Master's department

Sound engineering and sound producing – are both strongly connected with modern technologies. Those times, when sound engineers and producers had to know just some basics in electronics and music – are gone about thirty years ago.

Keeping in step with time – it is most important thing for all technicians, because technical world is a synonym of the global progress. If sound engineer or

sound producer doesn't follow the new trends, it means that he will be out of industry very soon.

Present days we have a huge amount of new technologies, which totally changed the whole industry. Every month, or even every week, we see that something technically new is coming out to the global World of sound.

World technical congresses, expositions and sound shows such as: "NAMM"; "Musikmesse"; "BPM Show" and many others provide the most modern technologies for sound engineers, producers and musicians.¹

News; articles; overviews; descriptions for the new software and hardware; comparing the new models of sound methodic; sound recording systems with new features – all these are our main milestones for the industry.

And most of this information written and published in English language, which became a kind of international language for communication among industrial specialists all over the World.

There are three levels of knowing the language for getting success in industry:

First one – speaking language, which is most common one. It is very important for tet-a-tet communications between specialists, and also for public conversations.

Second one – writing language, which is strongly needed for sharing your minds in electronic view. E-mails, technical tasks, detailed discussions on working process, and many other things those are important for industry.

Third one – maybe most important one. Terminology! I would compare this with mathematics. All people around the World, who do something in mathematics, speak the language of formulas and digits. It is their international language, which they all completely understand.


So, why wouldn't we start on development in English language study, as the language and terminology for sound producers and sound engineers?

This process is already begun, but unfortunately, it goes a bit slower than it is needed now. Progress in industry grows up by an exponent, and we have no choice – or we stay on the same place doing nothing, or we go forward as early adopters/innovators for all new things, that presenting us by global world of media.

Just a simple example of how English terminology studying could be helpful for specialists in sound engineering industry.

This is a term in sound engineering: “the area under the curve”. Originally it is math word, which means the area between the graph of $y = f(x)$ and the x-axis is given by the definite integral below. This formula gives a positive result for a graph above the x-axis, and a negative result for a graph below the x-axis. If the graph of $y = f(x)$ is partly above and partly below the x-axis, the formula given below generates the net area. That is, the area above the axis minus the area below the axis. ²

Formula:




$$\text{Area} = \int_a^b f(x) dx$$

So, in sound engineering terminology this term means the sound wave form during the recording process. This sound wave form could show the frequencies and amplitude of recorded sound.

Here are three visual examples for “the area under the curve”:


Example 1:

This example shows us elementary sound wave as it is.³




Example 2:

This example shows us the frequency characteristics and parameters of sound.



Example 3: An example of “the area under the curve” which located right in the sound editing software:



Main point of all these examples – there is no Russian or Uzbek term for “the area under the curve”. This is not a big problem, because we can name this term somehow by slang words. But why should we use slang, “inventing the wheel”, when we may just use proper English terminology for all our industrial process.

This could help us to understand our profession deeper; this could help us to be understandable by other specialists all over the World; and this could take us into the World of Global Media. Studying English language for sound engineers – it is the one of most important things, and the basis for the profession.

BIBLIOGRAPHY

1. The National Association of Music Merchants
2. “Revision Maths”, Revision World Networks LTD. 2004
3. “Trigonometry in Nature”, University of Minnesota, School of Mathematics.

TIJORAT FILMLARINING BADIY TARAQQIYOTI MASALASI



Muqimov Sharof

“Kino va televidenie rejissyorligi”

mutaxassisligi 2 - kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s. f. n., dotsent F.Fayziyeva

Yurtimiz mustaqilligi sharofati bilan milliy kinoda yangilanish davri boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining: “Biz bundan buyon eskicha yashamaymiz va yashashga zamonaning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi” [1.B.8] degan so‘zlari o‘zbek kinosiga ham tegishli edi. Boshqa san‘at turlari qatori kinematografiyaga ham ilgarigiga qaraganda katta e‘tibor berilmoqda.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq bozor iqtisodiyoti qonunlarining amaldagi ijrosi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochildi. Hamma sohada bo‘lgani kabi kino sohasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nishonalari paydo bo‘la boshladi.

Tijorat filmlari yuzaga kelar ekan, uning kassabopligi, tomoshaviyligini ta‘minlash maqsadida janr erkinligi ham yuzaga keldi. Uning mahsuli sifatida ko‘plab tomoshabop komediya va melodrama janrlari ekran yuzini ko‘ra boshladi. O‘tgan yillar mobaynida eng mahoratli professional rejissyor ikki-uch yilda bitta film yaratgan bo‘lsa, endi yangi davr talabiga binoan, bozor iqtisodiyoti degan tushunchaga asoslanib, hali professionallik darajasiga yetmagan, rejissyorlikka da‘vogar yoshlar ham yiliga ikki-uch filmni ekranga chiqara boshladi.

Kinematografiyada birlamchilardan bo‘lgan rejissura yangi davrning turli jarayonlari bilan to‘qnashdi. Bozor iqtisodiyoti talablarini bahona qilib, bu kasbga birin-ketin turli sohalardagi odamlar kirib kela boshladi. Ular o‘zini rejissyor deya kino san‘ati qonun-qoidalarini to‘laqonli tushunmasdan filmlar suratga ola boshlashdi. Bu kabi qobiliyati yetarli bo‘lmagan kishilarning kino san‘atiga qo‘l urishi tufayli saviyasi past filmlar yaratilmoqda. O‘tish davrida bo‘shab qolgan haqiqiy kinoning o‘rnini saviyasi past filmlar repertuari

mustahkam egallay boshladi. Bu davrning eng katta yutug'i – milliy kino olamiga yangi ijodkorlarning kirib kelishidir. Ayniqsa, yosh rejissyorlarning o'z qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratildi.

Ko'p jihatdan davlat va xususiy kinostudiyalarda yaratilgan filmlarning farqi katta bo'lgan bo'lsa, endilikda ularni qiyoslaganda farq anchagina qisqarganini ko'ramiz. Bunda eng asosiy omil ijodkorlarning davlat va nodavlat filmlariga aralashib ketishidir. Davlat buyurtmasiga binoan suratga olingan filmlardagi rejissyor, operator, aktyorlar tijorat filmlarida ham o'zini sinab, imkoniyatini namoyon qila boshladi.

Film suratga olinayotgan paytda uning ko'plab mezonlari bor. Bu badiiy mezonlar odatda tijorat filmlarida nihoyatda kam ishlatiladi. Xususiy studiya filmlarining reklamasiga jiddiyroq e'tibor berilsa, filmga tomoshabin reaksiyasi ko'p narsani oydinlashtiradi. Bu fikrdan kelib chiqib, "Demak, hamma gap reklamada ekan" degan tushuncha ham noto'g'ri. Aslida esa hamma gap filmning mukammal badiiy yaxlitligida, deyish o'rinli bo'ladi.

Debyutant rejissyor Farruh Abduvositovning "Yigit yig'lamasin" filmining ssenariysi Nurilla Abbosxon qalamiga mansub. Bosh rolni aktyor Aziz Umrzoqov, SH.Muhamedova, A.Rasulov ijro etgan. A.Umrzoqov bu filmga qadar "Men bu men" filmida ham bosh qahramon obrazini yaratgandi. Tomoshabin tabiati qiziq. Ba'zan katta mashtabdagi filmlarga hamisha ham tomoshabin kelavermaydi. Lekin o'rtacha film bo'ldi, degan filmlar ba'zan tomoshabin qalbidan joy olishi mumkin. Bu rejissyorning ilk filmi bo'lgani bois u aktyorlar bilan rollari ustida ssenariy qog'ozdaligidayoq birga o'tirib ishladi. Filmning nomiga e'tibor qaratilsa, hayotda yigitlar, erkaklar qo'rs, qo'pol, deb o'ylash mumkin. Aslida ularning qalbi, yuragi bor. Ular ham yig'lashi mumkin. Filmni tomosha qilish vaqtida "Erkak yig'lamasin ekan" degan fikr o'tishi tabiiy. Filmida erkak oilaning qalqoni sifatida ko'rsatiladi. Mardon ismiga mos hayotiy qiyinchiliklarga bardoshli, irodali, sabrli, turmushda uchraydigan to'siqlarga qaramay oldinga intiluvchan yigit. U hayotda ko'p yolg'on, sevgi,

ayriliqqa duch keladi. Lekin shunga qaramay, o'zida matonat topib, faqat oldinga intiladi. A.Rasulov yaratgan hayotda, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmagan, mayda o'g'rilik bilan shug'ullanib yuradigan, hech kimi, xatto qarindoshlari ham yo'q, lekin ko'nglida ham kiri yo'q inson. A.Rasulovni bir yoqlama emas, film davomida o'zgaradigan qahramon obrazlari qiziqtiradi. Bir so'z bilan aytganda, filmda yorqin xarakterlar bor.

Xususiy filmlarning janri va mavzusi bir biriga nihoyatda o'xshashligi, ayrim jihatlari qaytariq ekanligi filmlarni tomosha qilish va saralash paytida yaqqol ko'zga tashlandi. Xususiy kinoda o'zaro raqobat mavjud. Xususiy studiyada faoliyat yuritayotgan kinoijodkorlar aytilgan fikrlardan xulosa chiqarib mukammal badiiy asos va yaxlitlikka ega filmlar yaratishini zamonning o'zi talab etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodat. – T.: O'zbekiston, 2015.
2. Muratov S. Pristrasnaya kamera. – M., 2004.
3. Abulqosimova X. Kinodramaturgiya asoslari. – T.: STARPOLIGRAF, 2009.

TIJORAT FILMLARIDA IJTIMOIIY VA MAISHIIY MAVZULARNING YORITILISHI

Muqimov Sharof

“Kino va televidenie rejissyorligi”

mutaxassisligi 2 - kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s. f. n., dotsent F.Fayziyeva

Xususiy film ijodkorlari bachkanalik, yengil syujetli va dialoglardagi bachkana so'z o'yinlarini o'zlashtirgan ijodkorlar asta sekin ijtimoiy mavzularga qo'l ura boshlashdi. Ular orasida e'tiborga loyiq tarbiyaviy va milliylikni aks ettiradigan filmlari borligi quvonarli xol albatta. Haqiqatan ham tijorat filmlarida kishini falsafiy va mushohadaga chorlaydigan kinoasarlari

qatorida milliy, xalqona, an'ana va urf-odatlarimizni tarannum etuvchi filmlar ham birin – ketin ekran yuzini ko'ra boshladi.

Odatda tomoshabinlar ham jiddiy filmlardagi jiddiylilikni yaxshi qabul qilishardi. Shu jixatlarni inobatga olgan rejissyorlar ham xususiy filmlarda ham tarbiya, milliylikka e'tiborni kuchaytirib, davr uchun dolzarb mavzularni ham tijorat filmlari orqali tomoshabinga yetkazishni maqsad qila boshlashdi. Ana shunday harakatlarning samarasi berib ijod qiladigan rejissyorlarni topish mumkin. Xozirda xususiy kinoda ijod qiladigan rejissyorlar orasida milliy yo'nalishda ishlaydigan rejissyor Mirmaqsud Oxunovni ham tilga olish lozim. Garchi M.Oxunov to'laqonli davlat filmi yaratmagan bo'lsa –da xususiy studiyalarda tasvirga olgan filmlari milliyligimizni o'zgacha aks ettiradi. Masalan, “Shabnam” (2008) filmidagi Shabnam ismli qahramon qiz haqiqiy ma'noda o'zbek qizining iffati timsolda namoyon bo'lishi qahramon bolaning qanchalik o'zgarishiga sabab bo'lishi, filmdagi har bir kadrlarda milliylikning aks etib turishini alohida ta'kidlash o'rinli. M.Oxunovning “Janob hech qim” (2009) filmiga nazar tashlaydigan bo'lsak bosh qahramonning onasining birgina gapiga sodiq qolgan holda qarindoshlariga bo'lgan munosabati, bir oilaning kamchiliklarini yashirib qo'lidan kelguncha fidoyilik bilan jon kuydirishi faqat o'zbek yigitlari tarbiyasiga xosdir. M. Oxunovning “9 oy” (2011) filmi o'zbek oilasida juda ko'p uchraydigan xolatni yoritib bergan. Yaqin qarindoshlar bo'la turib turmush qurgan insonlar va ularning nogiron tug'ilgan farzandlari taqdiri haqida hikoya qiladigan bu film ham ko'p o'zbek oilalarining taqdiriga yaqindir. M.Oxunovning o'zgacha qarashli ijod qilishi va xususiy kinoda ishlashiga qaramay milliylikka alohida yondoshishi e'tiborga loyiqdir.

Rejissyor Ozod Shamsning “Qadamlar” filmi mamlakatimizning ichki ishlar hayoti va faoliyatidagi jarayonlarni tasvirlaydi. Unda illatlarga qarshi kurashishdek olijanob kasbni tanlagan zamondoshimiz timsolida yurtimiz yoshlarining ayrim nopok kimsalarning aldovlariga uchib aldanib qolayotgani,

yolg'on qurboni bo'lishiga qarshi ichki ishlar xodimlarining faoliyatini hamda hayotidagi taxdidli jarayonlarni jonli tarzda, kino san'atining tasviriy yechimlari yordamida ekranda o'z in'ikosini topadi.

Voqealar o'z iste'dodini chet elda namoyish etish maqsadida chiqqan bir necha qahramonlarning xatarli safari, odam savdosining qurboniga aylanib qolishi va ularning atrofidagi turfa taqdirlar asosida rivojlanib boradi. Turfa xil karakterlar, turfa obraz va turfa qiyofalar, turli shart-sharoitda katta bo'lgan qahramonlar keskin vaziyatdagi xolati, hayotiy voqealarning yuzaga kelishiga, rivojlanib borishiga zamin yaratadi.

Odam savdosiga bag'ishlangan "Uqubat" filmida zahmatkash ichki ishlar xodimlarining mashaqqatli mehnatlari, faoliyatlari yoritiladi va ularning keskin vaziyatlarda boshidan kechiruvchi sarguzasht va qizg'in voqealar filmga asos qilib olinadi. Bu fim ham tomoshabinlar tomonidan iliq qarshi olindi. Ikki sevishgan yosh turmush qurishi uchun kerakli mablag'ni topish maqsadida ikkovi ham chet elga ishlash uchun ketishadi. Ularning soddadilligidan foydalangan firibgarlar qizni foxio'axonaga sotmoqchi bo'ladi. Buni sezib qolgan qiz u yerdan qochib ketishga muvaffaq bo'ladi. Lekin uning sevgan yigiti qattol jinoyatchilarning qurboniga aylanadi. Tijorat filmlarida ana shunday ijtimoiy mavzularning dadil ko'tarilishi ham tomoshabinlarning e'tirofiga sazovor bo'la boshladi. Rejissyor Akbar Bekturdiyevning "So'nggi lavha" filmi ham o'zining hayotiyliigi va ta'sirchan ifoda vositalar topilganligi bilan ahamiyatli bo'ldi. Undagi bosh qahramon vrach yigit o'zining tuzalmas kasalga duchor bo'lgani, hayotining sanoqli kunlari qolganligiga qaramay umrining so'nggi lahzasiga o'zini kishilarning og'irini yengil qilishga intiladi.

Aslida tomoshabin uchun filmning davlat yoki nodavlat studiyalarida yaratilganligining farqi yo'q. Ular uchun sifat birlamchi.

So'nggi yillar ichida davlat va nodavlat kinosining orasida farq juda ham qisqarib qolgan. Aslida xam bu ikki yo'nalishdagi filmlar orasida farq qolmasligi kerak. YA'ni boshqacha qilib aytganda tijorat kinosi ham professionallarcha

suratga olinishi, barcha talablarga javob berishi kerak. Bu masala muammo esa barcha kinochilarning birinchi vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish - eng oliy saodat” T., O‘zbekiston. 2015 y
2. Muratov S. Pristrastnaya kamera. M. 2004 g.
3. Abulqosimova X.. “Kinodramaturgiya asoslari” STARPOLIGRAF. 2009 y

REJISSORNING IJODIY IZLANISHLARI



Najmiddinova Feruza

“Teatr san’ati” mutaxassisligi

2 - kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor M.To‘laxo‘jayeva

Teatr tomoshabin olqishlariga to‘lib ketadi. Bu olqishlarga ko‘milganlar, sahna va sahnadagilar... Dasta-dasta gulni olganlar ham ularning o‘zlari... Ammo shunday kasb borki, tomoshabin olqishini sahnada emas zimdan eshitib rohat oluvchi, spektakl sahnaga “yarashgunga” qadar necha tunni bedor o‘tkazgani-yu, bu yo‘lda o‘zi bilan ming bor kurashib ming bor yarashganini, o‘zining haqligini isbotlash uchun “sahnadagilar” bilan olishish mashaqqatini-yu, kezi kelganda bir-birini inkor qiluvchi fikrlar girdobidagi azoblarini birgina spektakl premerasidan so‘ng uni o‘z ismi bilan emas, kasbi nomi bilan chaqirishlariga almashadigan... Bu – rejissyor. Yo‘llar turli xil bo‘ladi. Tekis va ravon, toshli va toshsiz, ammo rejissyorning ijodiy yo‘lini shu yo‘llarga mengzasak unga shunday tarif berish mumkin, “rejissyorning yo‘li – alalhusus yorug‘likka olib chiquvchi, biroq notekis, toshloq yo‘ldir”. Toshxo‘ja Xo‘jayevning rejissyorlik ijodiy yo‘li ham, hatto hayoti ham xuddi shunday kechdi. U o‘z kasbining ustasi, fidoiysi sifatida nafaqat aktyorlar va teatrni, balki uning spektakllrini ko‘rish ishtiyoqida teatrga oqib

kelayotgan, qayta-qayta anshlaglar sodir yetayotgan olamonni, tomoshabinni ham “yorug‘likka olib chiqdi”. Bularni yodga olmaslikning iloji yo‘q, sababi o‘sha kezlari tomoshabin kamligi jiddiy masalaga aylanib qolgan bir davr edi. Toshxo‘ja Xo‘jayevning rejissurasi teatr zaliga yana tomoshabinni jamladi.

Bolaligidan san‘at dunyosidan suv ichib, 30-32 yoshigacha ushbu olamning sir-u, asrorlarini o‘rganish maqsadida tinmay izlanadi. San‘at – mukammallik ekaninini anglagan To‘la (zamondoshlari uni shunday atagan) Xo‘jayev umrining yarmini ilm olishga bag‘ishlagan desak adashmaymiz. Dastlab balet internatida raqs va musiqiy ohanglar ta‘limini olgan, so‘ngra sahna va rejissura borasidagi ta‘limlari umrining qolgan qismida qilgan ishlari, yaratgan spektakllari, tarbiyalagan shogirdlari misolida bo‘y ko‘rsatib keladi.

Ustozlari yosh rejissyor Toshxo‘ja Xo‘jayevda teatrning kelajagini ko‘rib uning iqtidorini ro‘yobga chiqishi uchun astoydil ko‘maklashadilar. Rejissyorlikning sir-asrorlarini yanada mukammal o‘rganish maqsadida Moskva Badiiy akademik drama teatrida amaliyot darslarini o‘tab keladi. Bu esa uning hayotidagi eng ajoyib kunlar bo‘ladi. U yerda taniqli rejissyorlar A.Lobanov, A.Popov, Y.Zavadiskiydan ta‘lim oldi. Rus teatri san‘atining darg‘alari Stanislavskiy, V.Meyerxold, Vaxtangov, Tairovlarning ijodini atroflicha o‘rgandi. 1950-yilda o‘zining birinchi rejissyorlik ishini namoyish etadi. Bundan tashqari hozirgi san‘at va madaniyat institutida aktyorlik kursi rahbari edi. Nafaqat aktyor, rejissyor, pedagog, shu bilan bir qatorda insseniroykalarining tarjimoni va muallifi sifatida ham mashhur edi.

Teatrga yangi rejissyorlar Aleksandr Ginzburg va To‘la Xo‘jayevlarning kirib kelishi bilan o‘z nomini saqlab qolgani holda bu yangi teatr bo‘lib, u o‘zining yangi taraqqiyot kursiga qadam qo‘ygan edi. Uning ijodiy vazifalari ham o‘zgardi. “Yangi davr hayoti tug‘dirgan muammolar, yangi tendensiyalar teatrning repertuar siyosati, teatrga yangi ijodiy kuchlarning kirib kelishi A.Ginzburg va

T.Xo‘jayevning o‘ziga xos ijodi, rejissyorlik uslublari kabi qator masalalar bilan bog‘liq edi.”⁴⁷

Shu o‘rinda marhum ustozimiz Toshpo‘lat Tursunovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joiz: “Har bir tarixiy davrning o‘z teatri, o‘z aktyorlari, o‘z tomoshabinlari bo‘ladi. Davr o‘tishi bilan uning teatri va artistlarining ijodiy nafasi, talqin usullari, ijro ranglari o‘zgaradi. Shunga yarasha tomoshabinlar didi-yu talablari ham...”⁴⁸ O‘sha davrda esa bu hodisalar To‘la Xo‘jayevning teatrga kelishi bilan boshlandi. Darhaqiqat, uning o‘z ustida ishlashi, aktyorlardan mukammal talabi va dramaturg bilan hamnafaslikda ishlashi o‘sha davr spektakllari saviyasini, tomoshabin didini ham o‘stira boshladi. Uning birinchi spektakllari teatr ihlosmandlari tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilingach, uning rejissyorligi ostida birin-ketin turli yillarda Abdulla Qahhorning “Shohi so‘zana”(A.Ginzburg bilan hamkorlikda), Bahrom Raxmonovning “Yurak sirlari”, A.Shteynning “Shaxsiy ish”, Odil Yohubovning “Chin muhabbat” asarlari sahna yuzini ko‘rdi. Qo‘ygan spektakllari bilan ustozlari va teatr jamoasini ishonchini qozongan Toshxo‘ja Xo‘jayev 1957 – yilda, o‘ttiz besh yoshida o‘zi mehnat qilayotgan teatrga bosh rejissyor etib tayinlanadi. U bu lavozimda 1966 –yilga qadar, qariyb o‘n yil mas’uliyat bilan ish yuritadi.

U rahbarlik qilgan davrda o‘zi sahnalashtirgan ”Yo‘lchi Yulduz”(1958) “Hurriyat”(1958), “Furqat”(1959), “Makr va muhabbat”(1959), “Sarviquomat dilbarim”(1964), “O‘g‘irlangan umr”(1965), “Monserra”(1967), “Boy ila xizmatchi”(1968) spektakllaridan tashqari, Aleksandr Ginzburgning “Hamza”(1960), “Mirzo Ulug‘bek”(1961), Sharif Qayumovning “Xatarli yo‘l”(1964), “Parvona”(1966) va Ladiginning “Hamlet”(1964), “Qirol Lir”(1966) kabi hator spektakllari dunyoga keladi va teatr repertuarining sifat darajasi va tarkibi boyiydi”⁴⁹. Toshxo‘ja Xo‘jayev rejissyor sifatida dramaturg tanlashda chin ma’nodagi nozik did sohibi edi. Izzat Sulton (“Alisher Navoiy”), Uyg‘un

⁴⁷ M.Rahmonov. “O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi”. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at”, 2001.

⁴⁸ T. Tursunov. “O‘zbek teatr tarixi monografiyasi”, -“Yangi asar avlodi” 2011- B 15

⁴⁹ M.Mahmadaminova.”Ustoz rejissyor” “Jahon adabiyoti” jurnali 2013y sentabr soni

(“Hurriyat”, “Qotil”), Odil Yoqubov (“Chin muhabbat”, “Yurak yonmog‘i kerak”), Abdulla Qahhor (“Shohi so‘zana”, “Ayajonlarim”), Sarvar Azimov (“Zamon dramasi”), Erkin Vohidov (“Oltin devor”) kabi o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalari shular jumlasidandir.

Toshxo‘ja Xo‘jayev rejissyor sifatidagi izlanishlari tufayli yuzaga kelgan spektakllari keng jamoatchilik tomonidan iliq, samimiylik bilan kutib olingan bo‘lsa-da, ba’zi asarlari o‘z davrida qarama-qarshi fikrlarga ham sabab bo‘lgan. Masalan, rejissyor tomonidan 1954-yilda sahnalashtirilgan Bahrom Rahmonovning xaromxo‘rlik, ko‘zbo‘yamachilik va poraxo‘rlik kabi yaramas illatlar shifokor – ziyolilar xatti- harakatlari misolida fosh etilgan “Yurak sirlari” spektakli bir tomondan, son-sanoqsiz tomoshabinlar oqimiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu spektakl ustida katta shov-shuv, bahs, munozaralar boshlanib ketadi. Hatto matbuotda asarni inkor etuvchi maqolalar bosilib chiqadi. Vahslar oqimi Markazgacha yetib borsa-da, ohir-oqibat asar ijodkorlari ma’nan g‘alabaga erishadilar.

Toshxo‘ja Xo‘jayev rejissyorlik faoliyati davomida spektakllar sahnalashtirishda chet el dramaturgiyasini ham o‘zbek dramaturgiyasi bilan bir qatorda, tengma-teng olib borgani ham tahsinga sazavor. Rejissyor “Shaxsiy ish” (A.Shteyn), “Qizih voqea” (K.Goldoni), “Vanya tog‘a” (A.Chexov), “Oqpadar” (E.Rannet), “Buron qo‘shi” (R.Eshmurodov), “Sarviqomat dilbarim” (CH.Aytmatov), “O‘g‘irlangan umr” (M.Kaori), “O‘limdan kuchli” (E.Robles) asarlarini o‘zbek teatri sahnasiga olib chiqish orqali, birinchidan, katta dovrug‘ qozondi; ikkinchidan o‘zbek tomoshabinini va o‘zbek teatrini horijiy davlatlar dramaturgiyasi, madaniyati bilan yaqindan tanishtirdi; uchinchidan, 50-70–yillar Milliy teatrimiz repertuarini chet el dramaturglari asarlari bilan boyitdi.

Toshxo‘ja Xo‘jayev faqat Hamza teatridagina emas, balki respublikamizning turli teatrlarida, hamda chet el mamlakatlarida ham bir necha spektakllarni sahnalashtirgan. Jumladan, Toshkent davlat rus akademik drama teatrida Nozim Hikmatning “Bayramning birinchi kuni”, Muqimiy nomidagi musiqali drama va

komediya teatrida A.Bobojonning “G‘azal fojiasi” va boshqa qator spektakllarni sahnaga qo‘ydi. Shuningdek, Toshxo‘ja Xo‘jayev Chingiz Aytmatovning “Sarviquomat dilbarim” spektaklini Tatariston akademik drama teatrida muvaffaqiyatli sahnalashtirgani uchun 1966 – yilda Abdulla To‘qay nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Toshxo‘ja Xo‘jayev ijodi davomida egallagan bilimlari va tajribalarini yosh kadrlarga ulashish maqsadida 1957 – yildan boshlab o‘zi tahsil olgan institutda 1970–yilga qadar, o‘n yildan oshiq davr mobaynida pedagog sifatida faoliyat yuritib, yosh rejissyor va aktyorlarni tarbiyalab yetishtirishga o‘z hissasini qo‘shdi. Ularga teatr san’atining nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq o‘rgatishga harakat qildi. Uning qo‘l ostida bugun el nazaridagi yuzlab san’atkorlar, aktyorlar va rejissyorlar tarbiyalandi: To‘lqin Tojiyev, Turg‘un Azizov, Tolib Karimov, Bahodir Yo‘ldoshev, Mansur Ravshanov, Turg‘un Xonto‘rayev, Rimma Ahmedova, To‘ti Yusupova, Z.Soliyeva... Bu qatorni yana qancha san’atkorlar nomi bilan davom ettirish mumkin. Ularning ko‘pchiligi bugungi kunga kelib turli teatrlarda ijod qilib, o‘zbek teatrining yuksalishiga cheksiz hissa qo‘shib kelmoqdalar. Birgina shu ma’lumotning o‘ziyoq ustoz rejissyorni pedagoglik mehnatining zoye ketmaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Toshxo‘ja Xo‘jayev pedagog sifatida bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmasdan bo‘lajak san’atkorlarni shakllanishida dasturilamal bo‘lib xizmat qilib kelayotgan teatr reformatori K.S.Stanislavskiyning “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” kitobini o‘zbek tiliga tarjima hildi.

1965-yilda teatr va rassomchilik insituti rahbaryati Toshxo‘ja Xo‘jayevni rejissyorlik kursiga rahbarlik qilishni taklif qilishadi. ”Toshxo‘ja Xo‘jayev” shogirdlari deb nomlangan bu kursdan O‘zbekiston xalq artistlari Bahodir Yo‘ldoshev, Baxtiyor Ixtiyorov, O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi, dramaturg Odilbek Dehqonov, O‘zbekiston san’at arbobi Jo‘ra Mahmudov va ko‘plab televideniya rajissyorlari yetishib chiqadilar.

1970–yildan to umrining so‘ngi yillariga qadar “O‘zbekfilm” aktyorlar studiyasida rahbarlik fazifasida ishlab, san’at sohasidagi faoliyatini davom ettirdi. Uning “Odamlar orasida yolg‘iz”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Oygul” va boshqa filmlarda yaratgan rollari orqali kino aktyorlik san’atida ham samarali ijod qilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Toshxo‘ja Xo‘jayev o‘zbek kino san’ati uchun ham o‘z bilimi, tajribasi va bor salohiyatini fidoyilik bilan sarfladi.

Buyuk san’atkor 1959 – yilda “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni, 1970 – yilda esa Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ammo bu inson uchun eng yuksak unvon xalqning yodi, yuragidagi cheksiz mehr-muhabbati, kelajak avlodlarning chuqur ehtiromidir.

Biz bilgan va bilishga intilganimiz – bu inson shunchaki Toshxo‘ja Xo‘jayev emas, o‘z rollari bilan tomoshabinlar qalbini band etgan yetuk teatr va kino aktyori, bor salohiyatini kelgusi yoshlarga beminnat ulashgan jonkuyar pedagog, eng muhimi, qolip bilmas tafakkuri va chegara bilmas tasavvuri ila yaratgan spektakllari sahnani titratgan buyuk rejissyor, o‘z kasbida ma’lum cho‘qqiga aylana olgan daho san’atkordir.

SAHNA ASARI YARATISHDA ADABIY MANBANING O‘RNI (TOSH XO‘JA XO‘JAYEVNING “YURAK SIRLARI”, “CHIN MUHABBAT”, “AYAJONLARIM” SPEKTAKLLARI MISOLIDA) REJISSYORNING IJODIY IZLANISHLARI

Najmiddinova Feruza

“Teatr san’ati” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor M.To‘laxo‘jayeva

Har bir san’at avvalo o‘z badiiyati bilan nasizlik kasb etadi. Jumladan, teatr poydevorini ham adabiy manba tashkil etadi. Shu bois teatr har doim bo‘lajak sahna asari uchun mukammal asarlar qidirgan. Dunyo teatrining eng yaxshi namunalarining asosida ham bevosita yaxshi badiiy manbalar bor. O‘zbek

teatrning dargʻalaridan biri Toshxoʻja Xoʻjayev yaratgan spektakllarga nazar solib bu oʻzgaras haqiqatga guvoh boʻlamiz. Rejissorning shoh asarlari oʻzbek adabiyotining zabardast vakillari bilan hamkorlikda yaratilgan. Quyida ularning ayrimlariga murojaat etdik.

Rejissorning soʻzni his qilishini bevosita uning tarjimlaarida ham koʻrishimiz mumkin. Boisi K.S.Stanislavskiyning ”Mening san’atdagi hayotim”, ”Aktyorning oʻz ustida ishlashi” asari bevosita Toshxoʻja Xoʻjayev tarjimasi bilan oʻzbek teatr ijodkorlari uchun qimmatli manbaga aylandi. Hozirda san’at ahli tomonidan koʻp bor ishlatiladigan ”Mizansahna”, ”Hatti-harakat”, ”Uzluksiz harakat”, ”Oliy maqsad” kabi atamalar ham Toshxoʻja Xoʻjayevning ixtirosidir.

1950-1960 yillarda rejissyor, biroz muddatdan keyin bosh rejissyor boʻlib ishlagan Toshxoʻja Xoʻjayev yigirmaga yaqin spektakllarni sahnalashtiradi. Ular: Molerning ”Skapening nayranglari”, Oybekning ”Qutlugʻ qon” romani sahnaviy talqini, Bahrom Rahmonovning ”Yurak sirlari” asari, A.Shteyn qalamiga mansub ”Shahsiy ish”, Komil Yashinning ”Yoʻlchi yulduz”, Uygʻunning ”Xurriyat”i, Odil Yoqubovning ”Yurak yonmogʻi kerak” asari, Hamzaning ”Boy ila xizmatchi”si, Chingiz Aytmatovning ”Sarviquomat dilbarim”, Marimoto Kaoruning ”Oʻgʻirlangan umr” asari, E.Roblesning ”Monsera (Oʻlimdan kuchli)”, Abdulla Qahhorning ”Ayajonlarim”, ”Shohi soʻzana”si, Erkin Vohidovning ”Oltin devor”i va boshqalardir.

”Yurak sirlari”, ”Chin muhabbat”, ”Ayajonlarim” spektakllari esa uning ijodida alohida ajralib turadi. Chunki bu asarlar yangi rejessyorlik topilmalariga boyligi bilan ajralib turadi. Bu spektakllarda zamonaviy rejissuraga xos oʻta aniqlik, har bir detal va xatti-harakatni realistik simvol darajasiga koʻtarish uslubini koʻramiz. Sahnadagi har bir detal oʻz vazifasiga ega boʻlib, tomoshabin payqamagan lahzada undan unumli foydalanilar va hech kutilmaganda favqudotda hayrat hayajonga sabab boʻlardi. Shuning borabarida asar mazmuni yanada tiniqroq anglashilib borardi. Bu asarlarning hes biriga ortiqsa soʻzga, qahramon tiliga ”oʻtirmagan” jumlagacha duch kelmaymiz.

Toshxo‘ja Xo‘jayevning Hamza teatrida sahnalashtirilgan birorta spektaklidan tomoshabin ranjigan emas, aksincha uni hamisha samimiy kutib olgan. Chunki dramatik asarga (agar u yaxshi yozilgan bo‘lsa) sahnada hayot bag‘ishlovchi ham, aktyorlar salohiyatiga mos rollar tanlab, ularni kashf etuvchi ham rejissyor iste’dodidir. Shuningdek, ko‘p aktyorlarni keng jamoatchilikka yaqindan tanitishda ham Too‘xo‘ja Xo‘jayevning xizmatlari beqiyos bo‘lgan. Aynan “Yurak sirlari”, “Chin muhabbat”, “Ayajonlarim”da ko‘p iste’dodlar kashf etildi. Aksariyat aktyorlarning rejissyorni ustozim deya tildan tushirmasliklarining boisi ham shunda. Toshxo‘ja Xo‘jayev faqat Hamza teatridagina emas, balki respublikamizning turli teatrlarida hamda chet el mamlakatlarida bir necha spektakllarni sahnalashtirgan. U Maksim Gorkiy nomidagi Toshkent Davlat rus akademik drama teatrida Nozim Hikmatning «Bayramning birinchi kuni», Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida A.Bobojon qalamiga mansub «G‘azal fojiasi» va boshqa spektakllarni sahnaga qo‘yadi. Rejissyor o‘zi sahnaga qo‘ygan bir necha spektakllarda qator obrazlar ham yaratgan edi. Toshxo‘ja Xo‘jayev rejissyorlik va aktyorlikni pedagogik faoliyat bilan mohirona bog‘lab olib borgan iqtidorli ustozdir. U ko‘p yillar Toshkent teatr va rassomlik san’ati institutida pedagoglik qilib, iste’dodli teatr va kino aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazdi.

Toshxo‘ja Xo‘jayev milliy dramaturgiya rivojiga juda katta hissa qo‘shgan rejissyordir. U Oybek, Sarvar Azimov, Uyg‘un, Izzat Sulton, Maqsud Shayxzoda, Erkin Vohidov, ayniqsa, Abdulla Qahhor kabi zabardast yozuvchilar asarlarini sahna tiliga o‘girdi. Ustozlari yosh rejissyor Toshxo‘ja Xo‘jayevda teatrning kelajagini ko‘rib uning iqtidorini ro‘yobga chiqishi uchun astoydil ko‘maklashadilar.

“Har bir tarixiy davrning o‘z teatri, o‘z aktyorlari, o‘z tomoshabinlari bo‘ladi. Davr o‘tishi bilan uning teatri va artistlarining ijodiy nafasi, talqin usullari, ijro ranglari o‘zgaradi. Shunga yarasha tomoshabinlar didi-yu talablari

ham...”⁵⁰. san’atshunos Toshpo‘lat Tursunovning ushbu fikrlari ham buni tasdiqlaydi. O‘sha davrda esa bu hodisalar To‘la Xo‘jayevning teatrga kelishi bilan boshlandi. Darhaqiqat, uning o‘z ustida ishlashi, aktyorlardan mukammal talabi va dramaturg bilan hamnafaslikda ishlashi o‘sha davr spektakllari saviyasini, tomoshabin didini ham o‘stira boshladi. Uning birinchi spektakllari teatr ihlosmandlari tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilingach, uning rejissyorligi ostida birin-ketin turli yillarda Bahrom Raxmonovning “Yurak sirlari”, Odil Yohubovning “Chin muhabbat”, Abdulla Qahhorning “Ayajonlarim” asarlari sahna yuzini ko‘rdi.

Bu sahna asarlari Toshxo‘ja Xo‘jayev rejissyor sifatida dramaturg tanlashda chin ma’nodagi nozik did sohibi ekanligini ham ko‘rsatdi. Bahrom Rahmonov (“Yurak sirlari”), Odil Yoqubov (“Chin muhabbat”), Abdulla Qahhor (“Ayajonlarim”) kabi o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalari shular jumlasidandir.

O‘zbek teatr dramaturgiyasi tarixida, xususan komediya janrida barkamol ijod qilgan va asarlari katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan san’atkorlardan biri Abdulla Qahhordir (1907-1968). U bor yo‘g‘i beshta sahna asari yozgan. Hammasi – “Tashvish”, “Yangi yer”, “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar”, “So‘nggi nusxalar” (“Tobutdan tovush”), “Ayajonlarim” komediya bo‘lib, o‘zbek va jahon teatrlari sahnasida ko‘p bora namoyish etilgan. Bu dramalar garchand sobiq mustabid tuzum davrida yozilgan va ma’lum qadar davr voqeligini aks ettirgan bo‘lsa-da, ulardagi asos jihat milliy an’analar qobig‘ida, milliy urf-odatlar va milliy xarakterni berish asnosida yaratilgan. Dramaturgning badiiy mahorati tufayli XX asr 50-60 yillaridagi xalqimizning milliy hayot tarzi komediyalarida aks etgan.

Abdulla Qahhorni dramaturg-komediyanavis sifatida tanitgan asari “Shohi so‘zana”dir. Yengil yumor bilan sug‘orilgan asarda o‘z davrining mehnatkash dehqonlari hayoti tasvirlangan. U 1950 yilda, ya’ni A.Qahhor 43 yoshdaligida yozilgan. Keyingi asarlarning yaratilish sanasiga e’tibor qilaylik: “Og‘riq tishlar” –

⁵⁰ T. Tursunov. “O‘zbek teatr tarixi monografiyasi”, -“Yangi asar avlodi” 2011- B 15

1954 yil, “So‘nggi nusxalar”, “Tobutdan tovush” – 1962 yil, “Ayajonlarim” – 1967 yil. Demakki, dramaturg har bir sahna asarini yozish uchun 4-8 yil vaqt sarflagan. Mazkur dramalari ichida “Ayajonlarim” muallifning teatr dramaturgiyasidagi kamoloti mahsulidir.

“Ayajonlarim” mukki parda, olti ko‘rinishli pesa. Uning A.Qahhor uy-muzeyidagi arxivda 51 qo‘lyozmasi mavjud. Bu esa turli ko‘rinishlarning 1 varaqdan 18 varaqqacha miqdordagi, jami 400 sahifaga yaqin variantdir. Demak, kitob holida 50 sahifaga ham yetmaydigan yumoristik xarakterdagi bu kichik asar, muallif tomonidan deyarli o‘n barobar qisqartirilib taqdim etilgan. Pesa pardalari, ko‘rinishlari har yangi variantda jumlar, qahramonlarning dialoglari, xatti-harakatlariga sayqal berib borilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Abdulla Qahhor badiiy ijodda yetarlicha tajriba orttirib, mahoratli nasr ustasi bo‘lib tanilgachgina drama yozishga qo‘l urgan.

Ta’kidlash joizki, turli davr va turfa makonlarda yashagan san’atkorlar hech qachon janrning umumiy xususiyatidan chetga chiqib ketmaganlar, uni o‘z ijod mahsullarida saqlab qolganlar. Xuddi shunday, Qahhor ham komediya janri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qahramonlariga xoh salbiy, xoh ijobiy bo‘lsin, milliy tus bera olgan. Aytaylik, dunyo komediya ustalari – Moler yoki Gogol asarlarini Qahhor komediyalari bilan qiyoslaganda ham, har birida bo‘lganidek, uning qahramonlarida milliy kolorit bo‘rtmasi va kam so‘zlab ko‘p narsa ayta olish xususiyati yaqqol ko‘rinadi. “Ayajonlarim” nu jihatdari bilan o‘zbek teatrida alohida voqea bo‘ldi.

Ma’lumki, drama badiiy adabiyotning murakkab turi bo‘lib, voqealarni shunday ko‘rsatish zarurki, ular ixcham shaklda namoyish etilishi, qahramonlarning xarakterini so‘zlashuv (dialog) va yumush (harakat) bilan uyg‘un holatda, aniq va lo‘nda ochishi kerak. Ortiqcha tafsilotlardan qocha olish talab etiladi. Qahhor komediyalarida ham qahramon xarakteri aynan ularning so‘zlashuvi va xatti-harakatlari orqali ko‘rsatiladi. Ularda yumorga xos yengil kulgi yoki satiraga oid achchiq zaharxandaga sabab bo‘ladigan ko‘rinishlar juda ko‘p.

Drama o'z tabiatiga ko'ra harakatni talab qiladi. Bu o'rinda ham qahramonlar harakati va dialogi orqali muallif asosiy g'oyani berib boradi. Sahna asaridan ko'zda tutilgan bosh maqsadni ham, pesa muvaffaqiyatini ta'minlovchi dramatik harakatni yuzaga keltirishni ham Qahhor nechog'lik mahorat ila uddalagani bu kabi o'rinlarda yaqqol ko'rinadi. U yozish usuli va sirlarini yaxshi o'zlashtirgani uchun ham qisqa nutqlar orqali dramatism yarata olgan. Lekin so'zamollikni o'rni bilan qo'llaydi, so'zlarni joyida ishlatadi.

“Ayajonlarim” asari xarakter va harakatlarga boy. Adib hayotda uchraydigan salbiy tiplar va qiyofalardan nusxa oladi, mavjud voqeliklardan foydalanadi. “Ayajonlarim” kulgili syujetlar asosidagi yumoristik asardir. Qahhor o'z satirasi orqali hayotda uchraydigan nojoiz voqea-hodisalarni qattiq tanqid qilgan, ularning ishtirokchisi bo'lgan kimsalarni fosh etgan. Uning satirik komediyalari butun mazmun-mohiyati bilan, hatto syujet, konflikt va xarakterlari bilan ham satirik ruhda sug'orilgan. Asarda o'tkir satira ruhi bo'rtib turibdi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor atoqli nasr ustasi bo'lish bilan birga, milliy dramaturgiyamiz tarixida komediya janrining mahoratli ijodkori sifatida qolgan. Uning dramalari ayni kundagi kitobxon va teatr ixlosmandlariga taqdim etishga munosib asarlardir. Buni Toshxo'ja Xo'jayev isbotlab ulgurgan edi.

GLOBALASHUV JARAYONIDA MADANIYATLARARO HAMKORLIK



Narzullayeva Malikabonu

“Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.d., professor A.Mavrulov

Insoniyat – turli irq, millat, elatlardan iborat. Ularning o'z turmush tarzi, tili, tarixi, madaniyati, urf- odatlari bor. Bunday millat va elatlar ikki mingdan ortiq.

Millat va elatlar o'z navbatida, insonlardan iborat. Millatlararo totuvlik shaxslararo munosabatlarda xalqlar nazarida o'z xalqi haqida ijobiy fikrlarni paydo qiladi.

Insoniyatning ma'naviy tarixiga millatlararo totuvlik nuqtai nazaridan qarasak, barcha dinlar odamzodning bir ota-onadan tug'ilgan, og'a-iniligini, tengligini takidlaydi. Milliy qadryatlarni e'zozlash zarurligi uqtiriladi va ushbu suralarda mo'minlarni o'z milliy qadryatlariga sadoqatga chaqiradi. Millatlar orasida ziddiyat uchun hech qanday asos yo'q. Tarix shimoldagi bir xalqning janubdagi yoki sharqdagi bir xalqning g'arbdagi xalq bilan milliy sabab tufayli yoppa yovlashganini ko'rgan emas. Ziddiyatlarga ayrim siyosatchilarning o'z iqtisodiy, siyosiy maqsadlariga erishmoq uchun milliylikni niqob qilib, bir millatni boshqasiga gij-gijlashi, ijtimoiy- iqtisodiy muammolar sabab bo'lgan.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy o'zining "Mahbub- ul qulub" kitobida tavoze-odob saqlash, hokisorlik fazilatlariga alohida o'rin ajratadi.

Tavoze-yaxshilikning tarkibiy qismi va takabburlik manmanlikning aksi. Shu tufayli Alisher Navoiy odamlarni tavozeli bo'lishga chaqirib, bunday kishiga xalq mehrining oshishi, do'sti ko'p bo'lishini alohida takidlaydi. Demak, xush tavoze kishi boshqa millatlar boshqalari bilan ham o'z munosabatlarini mehribonlik asosiga qurishi tufayli samimiy do'st bo'la oladi.

XV asrda buyuk Alisher Navoiy insoniyatga millatlararo totuvlikni formulasini berdi. YA'ni "Hamma ta'limotlarda va hamma millat kishilari qoshida yaxshilikka- yaxshilikdan ziyoda mukofot yo'q", chunki:

Ko'ngilni olsa malohat bila, tafovut yo'q,

Xitoyi o'lsinu, yoar mani va yohindu.⁵¹

Ana shunday buyuk bobolarimiz o'gitlariga sadoqat, xalqimizdagi odamgarchilik, xushfellik, olibborayotgan milliy siyosat nafaqat bir- birimizni, balki biz bilan yashayotgan barcha xalqlar vakillarining ham o'zaro totuvligini taminlamoqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek "Alisher Navoiy

⁵¹ A.Navoiy. "Mahbub- ul qulub".15 jild.T.:1966.

bobomiz bo'ladimi, Rudakiy, Abay, Maxtumdul yoki To'qtag'ul kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas albatta."⁵²

Millat insonlarni katta kurashlarga boshlovchi omil hamdir. Millat buyuk yaratuvchilik omili bo'lishi bilan birga vayronagarchiliklar keltirib chiqarish hususiyatiga ham ega. Masalan, "agar bir millat boshqa bir millatning erkinligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga, izzat-nafsiga, g'ururuga teksta yirik urushlarga, millatlararo va davlatlararo nizolarga sabab bo'lishi mumkin va uning oqibatida tuzatib bo'lmaydigan og'ir musibatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari bugungi kunda yer yuzida mavjud bo'lgan 200 dan ortiq mamlakatlarda 2 mingdan ortiq millat mavjud va 5,5 mingdan ortiq tillarda so'zlashadilar."⁵³ Mana shunday sharoitda faqatgina millatlar yoki elatlarga emas balki eng kichik qabilalar ham o'z mustaqilligiga erishishi va davlatchiligini shakllantirish hamda shu orqali o'zligini saqlab qolish uchun kurash olib bormoqdalar. Bu narsa dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda fuqorolar urushining avj olishiga sabab bo'lmoqda va qanchadan-qancha begunoh odamlar qoni to'kilmoqda hamda bu davlatlar va mintaqalarda iqtisodiy hayot izdan chiqib ocharchiliklar kuzatilmoqda. Bunday voqealar sodir bo'layotgan hududlarda nodamlar bosholib chiqib ketmoqdalar va iqtisodiy bir muncha rivojlangan va osuda hayot hukm surayotgan davlatlarga noqonuniy o'tishga harakat qilmoqdalar va u yerdagi tinch hayotni ham izdan chiqarmoqdalar.

Agar millat, millatlararo munosabatlarning shakllanishi hamda rivojlanish tarixini tahlil qiladigan va millatlarning abadiy ekanligiga urg'u beradigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan bo'lsak, u holda barchamizga ma'lum bo'lganidek dunyoda faqatgina mustaqil o'z davlatiga ega bo'lgan davlatgina o'zligini saqlagan holda rivojlana oladi hamda jahon taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha

⁵² I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat", 2008.

⁵³ O'zbekiston konstitutsiyasi- buyuk kelajagimiz kafolati. Falsafa va huquq institute. T.: 2009.

oladi degan fikr millatlar ongida dogmalashib qolishi va u millatlararo nizolarga sabab bo'lishi mumkin. Millatlar yashayotgan 200 dan ortiq mamlakatlarda mustaqillik harakatlarining avj olib kelishiga va millatlararo munosabatlarda ziddiyatlarning kelib chiqishiga olib kelishi ehtimoldan yiroq emas.

Dunyodagi aksariyat davlatlarning ko'p millatli ekanini inobatga olgan holda hozirda millatni mutloqlashtirishi o'rniga odamlar ongiga fuqarolik tushunchasini olib kirish va shu orqali ko'p millatlilik sharoitida tinch, osuda, o'zaro teng, erkin yashash mumkinligini ular ongiga singdirish lozim. Ko'p millatli davlatlarda fuqaro tushunchasi millat tushunchasidan yuqori ekanligiga amalda erishishi va u yerda istiqomat qiluvchi turli millat vakillari qalbida shu Vatanga nisbatan mehr- muhabbat uyg'otish mamlakat kelajagini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti 2017-yil 24-yanvarda Respublika baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan milliy madaniy markzlarni ng faollari bilan bo'lgan uchrashuvda so'zlagan nutqlarida shunday degan edilar; "Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz yetakchi rol' o'ynamoqda.Ular o'zlarining o'ziga xos madaniyati,tili,xalq xunarmandligini rivojlantirib , turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishiga , xar birimizda ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustaxkamlashga salmoqli xissa qo'shmoqda."⁵⁴ Buning natijasi sifatida BMT buyurtmasiga ko'ra Xalqaro baxt kuniga atab tayyorlanadigan "World Happines Report" (Jahon baxt xisoboti)da qayd etilishicha, O'zbekiston keyingi o'n yillikda farovonlik o'sishi ko'rsatgichida muntazam kuchli o'nlikdan joy olgan.Bu 2017-yilning eng baxtli mamlakatlari ro'yxati ham istisno bo'lmaydi. Yurtimiz o'tgan yildagiga nisbatan ikki pog'ona yuqori ko'tarilib ,155 davlat orasida 47-o'rinni egalladi. Mazkur ko'rsakich bilan O'zbekiston MDX,Boltiqbo'yi

⁵⁴ Xalq so'zi.2017 yil 25 yanvar' ,№ 18(6712)

mamlakatlari, qolaversa, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Gonkong, Xitoy va boshqa rivojlangan davlatlardan ham ilgari ketdi. O'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma binoan hamyurtlarimizning mutloq ko'pchiligi mamlakatdagi millatlararo munosabatlarni juda yaxshi (57,9%) va yaxshi (39,4%) deb baholadilar.⁵⁵

Adabiyotlar:

1. A.Navoiy. "Mahbub- ul qulub".
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. O'zbekiston konstitutsiyasi- buyuk kelajagimiz kafolati. Falsafa va huquq institute. T.: 2009.
4. Xalq so'zi. 2017 yil 25 yanvar, № 18(6712)
5. Xalq so'zi 2017 yil 21 mart, № 56(6750)

KINEMATOGRAFIYA VA DUBLYAJ



Nasriddin Rustambek

"Estrada aktyorligi" mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbr: s.f.n., dotsent G.Xoliqulova

*"Dublyaj o'ziga xos murakkab san'at. Filmda rol o'ynagan aktyor kamera oldiga kelguncha oylab mashq qiladi. Siz besh daqiqa ichida o'sha aktyor holatiga tushishingiz, uni his qila olishingiz kerak bo'ladi. Dublyaj ana shunaqa hozirjavoblikni talab qiladi"*⁵⁶.

Kamoliddin USMONOV

Dublyajning ibtidosi ovozli kinoning kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, u bilan birga rivojlanish kursiga o'tgani ma'lum. Kino rivojlanib, mavjud voqelikni, o'tmish va kelajakni aks ettirishning o'ziga xos shakllari borasida izlanishlar olib

⁵⁵ Xalq so'zi 2017 yil 21 mart, № 56(6750)

⁵⁶ G'.Hojiyev, Xotiralar to'lqini. T.: O'zbekiston, 2017 y. 87 b.

bordi va o'z samarasini berdi, uning har jihatdan omma e'tiboridan munosib joy egallashiga sabab bo'ldi. Kino san'at turlari orasida eng yoshi bo'lishi bilan birga qisqa davr mobaynida dunyo ahli uchun eng xalqchil va nufuzli ijod sohasiga aylandi. Bugun butun dunyo kinofilm ko'radi. Kinoga nisbatan qiziqish va talabning ortishi uning jadal rivojlanishiga, ayni paytda g'oyaviy-badiiy, yo'nalish va janr jihatdan yangilanishiga sabab bo'ldi. Kinoning taraqqiyot davrlari bevosita texnika kashfiyotlari bilan bog'liqlikda rivoj topdi.

Ma'lumki, san'atning rivojlanishi uning turlarining ko'payishiga va shakliy va uslubiy, g'oyaviy jihatdan takomillashib borishiga olib keldi. 19 asr ilmiy texnikaviy kashfiyotlari kino, radio va televideniye san'atining tug'ilishiga asos bo'ldi. Bu san'atlar jadallik bilan rivojlanib, alohida san'atlar sifatida o'z o'rnini egallab bo'ldi. Kino san'ati tezlik bilan rivojlanishi va har jihatdan mukammallashuviga texnik kashfiyotlar jiddiy ta'sir o'tkazgani ma'lum. Bugungi kunda ovozli kino teatr, televideniye, tasviriy san'at, musiqa, radio san'atlarining eng muhim xususiyatlarini o'zida birlashtirgan san'at turi sifatida ommabop va qiziqdir. Uni yanada rivojlantirishning yangidan yangi imkoniyatlari kirib kelmoqda. Dublyaj esa kino, televideniye sohasining eng ajralmas bo'lagiga aylanib ulgurdi. Jahon kinematograflari tayyor tasvirni ovozlashtirish orasida dublyajdan ham chekinib, zamonaviy texnologik yutuqlar natijasida to'g'ridan to'g'ri suratga olish jarayonining o'zida sifatli ovozlashtirish amaliyotini olib bormoqda.

Dublyaj tushunchasi ham ayni mana shu san'atlar bilan bevosita bog'liqlikda dunyoga kelgani ma'lum. Bugun esa dublyaj yondosh san'at turi sifatida jahonda ijodi qiymatga va o'z taraqqiyot yo'liga ega.

Dublyaj – ovozlashtirishning bir turi bo'lib, boshqa tildagi film nutqini mazmunan boshqa tilga o'girib, original ovoz ustidan qayta ovoz yozishdir. Bunda film to'laligicha, har bir obrazning replikasi tarjima qilinadi va aktyorlar artikulyatsiyasiga muvofiq matn dublyaj ustalari tomonidan yagi matn yozib chiqiladi. Bunda matnning obrazlar artikulyatsiyasiga muvofiq tarzda

to'g'rilangishi va ixchamlashtirilishi juda muhim. Bu jarayon ya'ni dublyajgacha bo'lgan tarjima matn ustida ishlash jarayoni Lipsing deb ataladi. kadr ortida ovozlashtirishda filmning original fonogrammasi saqlanib qoladi. Aktyorlarning har bir replikasi tarjimasi ostida musiqa va boshqa holatni ifodalavchi shovqinlar saqlanadi. Bir so'z bilan aytganda, dublyaj kino asarning badiiy g'oyasini ovozli tarjima orqali boshqa tilli tomoshabinlar auditoriyasiga yetkazib berishga xizmat qiladi. Har qanday filmning fonogrammasi 3 asosiy qismdan iborat bo'ladi. 1. *Nutqiy* 2. *Musiqiy* 3. *Shovqinlar*.

Ularning har biri alohida yozilib, keyin umumlashtiriladi. Bu umumiyashtirilgan variant sohada film kompakti deb yuritiladi. Xalqaro kinoeksportda odatda film kompakt holatda sotiladi.

Dublyaj san'atining asosiy qismlarini uning texnik va ijodiy jarayonlari tashkil etadi. Dublyaj jarayonida film fonogrammasining nutqiy qismi to'laligicha o'zgartiriladi, ammo musiqa va shovqinli ovozlar hech qanday almashtirishlarsiz o'z holicha qoldiriladi. Dublyaj jarayonining ayni shu nutqiy qismini o'zgartirishning o'zi bir nechta murakkab kurslardan iborat bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. *Matn tarjimasi.*
2. *Kasting jarayoni.*
3. *ovoz yozish jarayoni*
4. *Yozilgan ovozlarni umumlashtirish.*

Dublyajda ko'pincha teatr va kino aktyorlarining ijro va ovoz mahoratlariga tayaniladi. Chunki teatrdan ishlagan, kinokamera qarshida rol ijro etgan aktyorlarda obraz holatini his etish tajribasi baland bo'ladi. Dublyajda esa boshqa tildan o'girilgan matnni mikrafon qarshisida qayta o'qib berish emas, aynan obraz holatidan, xarakter xususiyati, maqsadi va temporitmidan kelib chiqib, uni his etgan holda ovozda namoyon etilishi muhimdir. Shuning uchun teatr va kino aktyorlarining aksariyatining faoliyatida dublyaj san'ati mavjud. Biz jahonda yaratilayotgan turfa mavzu va janrdagi badiiy filmlar, seriallarni bevosita dublyaj

san'atining xizmatlari orqali bahramand bo'lamiz. Bu murakkab vazifani amalga oshirishda dublyaj rejissyoridan tortib, tarjimon, ovoz rejissyori, texnik xizmatchilargacha har birining alohida funksiyalari mavjud.

San'atlar o'rtasidagi bog'liqlik, integratsiya jarayoni nafaqat aktyorlik, balki barcha san'atlarning yuksalishiga xizmat qiladi. Dublyaj san'ati aktyorlar faoliyatida rang barang obrazlarni talqin qilishda ovoz imkoniyatlarini o'sishiga, nutqiy qirralarini yanada rivojlanishiga katta imkoniyatdir.

70-80 YILLAR O'ZBEK DRAMATURGIYASIDA JANRLAR RIVOJI



Nogmanov Ravshan

“San'at nazariyasi va tarixi”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor M.To'laxo'jayeva

Dramaturgiyamiz mavzusi, janriy-uslubiy rivojlanishlari rang-barangdir. 70-yillar o'zbek dramaturgiyasi zimmasida zamonaviy, ahloqiy, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni bajarish kabi vazifalar mudom saqlanib qolgan. Bu vazifani o'tashda O'lmas Umarbekovning dramalari muhim o'rin tutadi. Uning aksar sahna asarlarida o'sha davr zamondoshlarining orzu-o'ylari, jamiyatdagi kurash va intilishlari ibratli, qiziqarli qismlarda, sahnaviy usullarda, liro-dramatik mayillarda aks ettirilgan. Shu o'rinda adibning “Qiyomat qarz” pesasi xususida bir oz to'xtalib o'tmoq joizdir.

O'lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” pesasidagi bosh xarakter negizida turgan cho'pon Sulaymon otani dramaga, qalb kechinmalariga, ichki tug'yonlariga solayotgan hayotiy asos – kolliziya negizi uning qismatidagi ziddiyatdadir. U halol va vijdonli shaxs. Ammo urush uning qarshisida mushkulliklar, ruhiy iztiroblar keltirib chiqaradi. Cho'pon keksaygan chog'ida vijdon qiynog'ida qoladi. No'monjon qoldirgan ikki qo'zi yillar o'tib to'rt yuzga yetadi. Qo'zilarni o'z

egasiga topshirib, qiyomat qarzdan qutulish Sulaymon ota qalbiga cho‘kkan og‘ir darddir. Pesada harakat qo‘ylarni jamoa xo‘jaligiga o‘tkazish to‘g‘risida fermer mudiri Mamarasul yozgan arizasi muhokamasi bilan boshlanadi. Bundan tashqari, Sulaymon otaning qalbini o‘rtayotgan boshqa jiddiy hayotiy sabablar ham. Bu yakka-yu yagona o‘g‘li Tursunali fin urushida xalok bo‘lgach, uning dardida olamdan o‘tgan xotini qismati.

Klassik ruhda yozilgan pesada Sulaymon ota bilan Nazarov uchrashuvi tipidagi holatlarda syujet keskinligini xarakterlar o‘rtasidagi murossasiz to‘qnashuvlarni ta’minlaydi va navbatdagi ziddiyatlarni boshlaydi. Bu pesada bosh qahramonni yangi–yangi tashvishlar, bir-biriga bog‘lanmagan turli ko‘rinishlar, chunonchi, nomard eri hiyonatidan qiynalgan Anvarga, yaqinlari urushda xalok bo‘lgan yaqinlarining dardi o‘rtaydi. Oxiri, Sulaymon ota halol mehnati evaziga to‘plagan pullarni qurilayotgan maktabga o‘tkazib yuboradi. Uning kelajak urushda halok bo‘lgan turli millat farzandlari timsolida o‘g‘li Tursunalini tasavvur qilib, lirizm to‘la iztiroblarini, aziz tuyg‘ularini, o‘zbekona oqibatini to‘kib, qalb o‘rtanishlariga taskin bergandek bo‘ladi. Shuningdek, Sulaymon ota qiyofasi o‘zining og‘ir tabiati, o‘ta halolligi, milliy rangdorligi, o‘rni kelganda qat’iyatligi, kishilar ko‘nglidagini ilg‘ab oluvchi zukko va donoligi bilan individuallashtgan xarakter egasidir.

Erkin Vohidovning “Oltin devor” komediyasi xalqchil ruhga molik bo‘lib, yumoristik xarakterlar tabiatidan hayotbaxsh kulgiga mo‘l- ko‘lligi bilan tomoshabin falbidan chuqur joy olgan asarlardan hisoblanadi. To‘y bahonasida ikki qo‘shni – ikki qudalar o‘rtasidagi devorni yiqitish chog‘ida topilgan oltindan boshlangan kundalik hodisalarni ijtimoiy mazmunli yumor bilan ta’minlashda muallif mahorat ko‘rsata olgan. Asar muvaffaqiyati dastavval undagi xarakterlarning hayotiy va o‘ziga xosligida, obrazlar mantiqiga molik komik ziddiyatning kulgili holatlarda shakllantirilishidadir. Muallif personajlar ruhiyatidagi o‘zgarishlarni realistik belgilarda izchil ravishda ko‘rsatish orqali kulgili holatlarni yaratadi. Bunda militsiya xodimi boshliq kuchlar va tekin oltin

payidagilar o'rtasidagi komik komik to'qnashuvdan tabiiy ravishda o'sib boruvchi ruhiy holatlarning ichak uzdi kulgilar tug'dirishi alohida ahamiyatga ega.

Mo'min xarakteridagi fuqarolik tuyg'usi sezilarli bo'lishiga qaramay, manfaatparastlik, topilgan oltindan tegadigan ulushga topinish darajasiga borishi, shu ikki o't o'rtasidagi telbalarcha xarakatlanishi hayotiy omildir. Mo'minni oltinni topilishidagi vasvasaga tushishi tomoshabinda kulgu uyg'otadi. Bu kulguda ham achinish, ham uni oqlamaslik tuyg'ulari mujassam. Oxiri unda ijtimoiy burch, halollik tuyg'usi g'oliblik qilib, tekin oltindan voz kechish xayoliga berilgan damlardagi kulgida tomoshabin qalbiga taskin beruvchi, Mo'minni yoqlovchi, hayotbaxsh, xushchaqchaq, samimiy yumor tuyg'usi xukm suradi.

Ushbu asarda komik yo'nalishni ta'minlovchi ziddiyatlar rivojlanishida qo'llanilgan so'z o'yinlar, aldash, chalg'itish, zimdan kuzatish, piching, sir saqlash, anglashilmovchilik, ziddiyatli holat kabi turli-tuman vosita va usullar xarakterlar yumorini, mazmundor kulgini kuchaytirgan. Bularning barchasi xarakterlar ruhiyatini komediya asosda yoritishga bo'ysundirilganini alohida ta'kidlash lozim. Chunki bunday xususiyatlar "Oltin devor"ni ruhiy komediya uslubida yaratilgan "yaxshi namuna" darajasiga yetkazgan.

Adabiyotlar:

1. Tursunov T. "XX asr o'zbek teatr tarixi 1900-2007 yillar" T:2010y
2. Sharafiddinov O., CHO'lpon. T.,1991;
3. Imomov B., Jo'rayev Q., H.Hakimova "O'zbek dramaturgiyasi tarixi" T: "O'qituvchi", 1995;
4. Sh.Rizayev "Jadid dramasi" T:"Sharq" 1997;
5. Abdusamatov H "Tarix va badiiy talqin" T: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1995.

O‘ZBEK DRAMATURGIYASI RIVOJINING DASTLABKI KURSI
NAMOYONDALARI (FITRAT VA CHO‘LPON DRAMATURGIYASIDA
TARIXIY VA ZAMONAVIY MAVZULAR)

Nogmanov Ravshan

“San’at nazariyasi va tarixi”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor M.To‘laxo‘jayeva

Ma’lumki, har bir milliy teatrning tashkil topishi, rivojlanish kursi ma’lum bir tarixiy-xronologik kursga ega. Shuningdek har bir xalqning teatr madaniyati o’zi bosib o’tgan tarixiy sharoitlarda orttirgan o’ziga hos va boy tajribalari vujudga kelgan badiiy an’analar zahiriga asoslanib tarkib topib boradi. “O‘zbek dramasi tug‘ilishi jadalning o‘zbek milliy teatr san’atini yaratish yo‘lidagi faoliyatlari bilan bog‘liq. Ular teatrning milliy madaniyatning yangi shakli sifatida targ‘ib qilish bilan birga uning g‘oyaviy asosini tashkil etuvchi repertuar – drama, tragediya va komediyalarni yaratish, ijrochi truppalarni uyushtirish, ularning iqtisodiy boshqarish muammolarini hal etishni ham o‘z zimmlariga oldilar.”⁵⁷ Darhaqiqat, asrimiz boshlarida tug‘ilgan yozma milliy dramaturgiya o‘zining ibtido, taraqqiyot va tanazzul tarixiga ega. Shu jumladan, jadid adabiyoti, teatri va uning estetik ijtimoiy g‘oya taqozosi va talabi vujudga keldi hamda uning qaror topishi uchun katta xizmat qildi. Shu boisdan ham uning mavzu va g‘oya maqsadlarida, masalalarning qo‘yilishi va yechimida jadid ziyolilarining shu davrdagi maqsad va intilishlari to‘laqonli mujassam bo‘lgan.

Tarixan ma’lumki, Abdurauf Fitrat Buxorolik bo‘lib, jadidchilik harakatining yorqin namoyondalaridan hisoblanadi. Chunki Fitratning dramaturgik faoliyati 1917 yilgacha boshlangani yaxshi ma’lum. Garchi sof dramatik asar sifatida baxolab bo‘lmasa-da, 1909 yilda yozilgan “Munozara”, “Hind sayyohi” (1912) asarlaridayoq Fitratning dramaturgik istedodi namoyon bo‘lgan edi. 1916

⁵⁷ T.Tursunov “XX asr o‘zbek teatr tarixi 1900-2007 yillar” T:2010y 32-bet

yilga kelib, “Begijon”, “Mavludi sharif”, “Abo Muslim” pesalarining yozilishi bejiz bo‘lmay, muayyan teatr truppasi bilan hamkorlik natijasi ekanligi aniq. Qolaversa, o‘zbek dramaturgiyasining shoh namunalarini yaratgan Fitrat 1909-1913 yillarda Turkiyada tahsil olgan kezlari ovrupocha teatr bilan yaqindan tanish bo‘lmasligi va o‘zi ham yurtiga qaytgach, bu yerda kechayotgan teatr jarayonlariga befarq bo‘lmagan.

Fitrat dramaturgiyasning shoh asari, shubhasiz, “Abulfayzxon” fojeasidir. Asarda ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxon davlatining tanazzuli hamda mashhur Eron shohi Nodirshohning yordamida Buxoroda mang‘it amirlarining hokimiyatga kelishi bilan bog‘liq tarixiy voqealar qalamga olinadi. Dramaturg Buxoro tarixining bunday keskin burilish nuqtalaridan birini qalamga olishi bilan o‘zining ilmiy va tarixiy asarlarida aks ettirgan hukmron sulolaning hokimiyat tepasiga kelishi sabablarini, bunday g‘ayriqonuniy yo‘l bilan hokimiyatni egallagan xonlarning xalqqa o‘tkazayotgan jabr-zulmi shu sabablar zahirida yotganini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Fitrat Abulfayzxon fojeasiga yuz burarkan, bunday asarning tug‘ilishi uning Buxorodagi mas’ul ishlardan chetlatilib, Moskvadalik davriga to‘g‘ri kelgani tabiiy bir hol edi. Chunki aynan, 1923 yilning o‘zida Buxoro rahbarligidan Fitrat, Atoxo‘ja, Sattorxo‘ja, Yoqubzoda kabi diyonatli va zukko kishilarning o‘z lavozimlaridan chetlatilib, ularning o‘rniga “xalq vakili” sifatida bunday rahbarlik ishlariga mutlaqo tayyorgarlik bo‘lmagan kishilarning kelib qolishi ma’lum ma’noda 19-asrning o‘rtalarida yuz bergan ashtarxoniylar sulolasining fojeasiga o‘xshab ketar edi. Fitrat bu tarixiy-badiiy asarning ichki talablaridan kelib chiqqan holda, amirlik tarixidagi eng kir va murakkab manzaralarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantira olgan. Ayniqsa, asar so‘ngida xayoliy Siyovush aytgan so‘zlarni Fitratning “qora va kir taxtga” nisbatan aytgan hukmi sifatida qabul qilishi mumkin. Fojea voqealari izchil suratlarda davom ettirilib, nafaqat, ashtarxoniylar, balki hokimiyat tepasiga kelgan yangi kuch-mang‘it amirlari sulolasining ham qo‘li qonli bo‘lib, shuning uchun uning tanazzuli ham aniq ekani ko‘rsatib beriladi. Muallif bu asaridagi har bir

qaxramonlarining xarakterlaridagi ichki dinamika o'z yo'li bilan butun asardagi yagona xarakatni taraqqiy ettirishga xarakat qilgan. Fitrat epos va lirika elementlarni birlashtirib, ularni dramatismni kuchaytirishga yo'naltira olib, umumiylikni individuallik bilan qo'shib olib borib, yaxlit xarakatni ifoda etib bergan.

XX asr o'zbek adabiyoti va dramaturgiyasining eng yirik siymalaridan yana biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir. Bu ulug' insonni taqdir shunday davrda tarix sahnasiga olib chiqqanki, oqibatda uning hayoti va sha'niga, ham fojeaga to'la bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, 20-asrning dastlabki choragi o'zbek xalqi tarixiga erk, istiqlol, ozodlik uchun kurash yillari, millatning o'zligini anglash, uyg'onish sanalari bo'lib kirdi. Ushbu ijodkorning o'zbek dramaturgiyasiga qo'shgan ulkan xissasini "Yorqinoy" pesasini inobatga olishimiz lozim. Chunki tuzum mafkurasi, ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik, xalqni joxillikdan qutqarishga bo'lgan sayi xarkatlarini teatr san'ati orqali targ'ib qilishi bo'yicha aynan "Yorqinoy" asarini o'zbek teatri sahnasiga olib chiqishi juda katta tub islohotlarni va yangliklarni boshlab bergani bilan izohlash mumkin. O.Sharafiddinovning aniqlashicha, o'zbek drama teatri repertuarida eng uzoq, salkam o'n yil saqlangan asarlardan. Asarning markazida Yorqinoy obrazi turadi. U xonning sarkardasi O'lmas botirning yakkayu-yagona qizi. O'lmas botir qizini o'g'ilday tarbiya qilgan, yoshlikdan qilichbozlik xunarini o'rgatgan. Qiz otasining bog'boni Po'latni sevadi. O'lmas botir esa qizini xonning o'g'liga bermoqchi. Bu orada Nishabsoy hokimi ham odam qo'ygan. Muallif asar voqealariga ijtimoiy bo'yoq beradi. Masalaga shu davrda shitob bilan adabiyotga ham kirib kelayotgan faqirparvarlik maslagidan yondashadi. Chunonchi, qizning otasi bilan Po'lat o'rtasida o'tib bo'lmas choh bor. Po'latning barcha qarindoshlari xon va uning sarkardasi O'lmas botir tomonidan o'ldirilib, o'zi xizmatkorlikka olingan. Xonlik saltanati bilan xalq o'rtasidagi nizo avjda. Xalq junbushga kelib, ko'tarilgan. Po'lat xalq ishonchini Yorqinoyga muxabbatidan ustun qo'yib, ular bilan tog'larga chiqib ketadi. "Urush orqasida"gi voqealar ham shiddatli kechadi. Nishabsoy hokimi

vaziyatdan foydalanib, makr-hiyla bilan Po‘latning nomini o‘rtaga qo‘yib qizni qo‘lga tushiradi. Yorqinoy tadbirkolik bilan Nishabsoy hokimi qo‘lidan o‘zini qutqaradi. Bugina emas, xalq bilan xon orasidagi urushni yarashga aylantiradi. Po‘lat xon ko‘tariladi, adolat qaror topadi.⁵⁸ CHO‘lponning “Yorqinoy” asaridagi bosh konflikt drammatizm bilan sug‘orilgan bo‘lib, u syujet oqimida xam personajlar to‘qnashuvida ham dramaturgik konfliktni keltirib chiqaradi va rivojlantiradi. Pesaning asosiy maqsadi dramatik to‘qnashuvni keltirib chiqargan aniq tarixiy zaminlarni ochib berishdan iborat bo‘lgan. Dramatik vaziyatning yetukligi maxsus harakat yordami bilan konfliktni yuzaga keltirgan edi. Konflikt yoki uni ishga soluvchi dramatik harakat asarning har bir ko‘rinishi, epizodlarini dinamik shaklda rivoj toptirib, o‘ziga xos kurslarini namoyon qilib boradi. Bu asardagi asosiy konflikt personajlarning bir-birlari o‘rtasidagi to‘qnashuvigina emas, bu muallifning, uning sevimli ijobiy qahramonlarining tuzum bilan ular yashayotgan hayot bilan kurashi sifatida qabul qilinishi to‘g‘riroq bo‘ladi. Po‘latning o‘ch olishga jazm qilishi, konfliktni kulminatsion nuqtasiga qarab boshlaydi, bu esa bevosita voqealar oqimining keskinligiga olib boradi, personajlarni ikki tomonga uzil-kesil ajratib tashlaydi. Konflikt shunday keskinlik bilan avj olib boradiki, oqibatda faqat asosiy qahramonlargina emas, balki ikkinchi darajali bo‘lib ko‘ringan personajlar ham keskin drammatizm bilan sug‘orilgan. Bu asarning yutug‘i ham shundaki, unda ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarning keskin to‘qnashuvlarini o‘zida ifodalovchi kuchli konfliktni ko‘rish mumkin. Unda qahramonlar hayotlarining nozik qirralari namoyon bo‘ladi. CHO‘lpon drammasidagi bosh mavzu o‘zini keskin ichki dinamikasi bilan diqqatga sazovordir. Bu dinamika butun syujetni qamrab olgan. Konfliktning kuchayib borishi hamda yechimi xarakterlarning qanday ekanligini to‘la namoyon qilishi bilan birga, muallifning asarda qo‘ygan g‘oyaviy niyatni ochib beradi.

⁵⁸ O.Sharafiddinov, CHO‘lpon. T., 1991, 83-84-betlar

THEORETICAL ASPECTS OF FILMMUSIC STUDY



Master of 2-nd course NosirovYodgor

Master's department

Scientific adviser senior teacher

M.I.Sadikova

Sergei Eisenstein film singled out in three stages of development: mute, sound and sound visual. Each of them has been linked to the achievement of a certain level of technological development and, consequently, the formation on its basis of new types of artistic and creative thinking, means of expression systems, as well as the development of original aesthetic views on the nature of the new art form. Peculiar to these stages specific differences have received a peculiar refraction in the music, which is responsible role of emotional control process viewer's perception and conceptual directing spokesman theme idea of the film.

The problem of "music and cinema" has a long history, and owes its existence to the founders of the cinema of the Lumiere brothers. Today difficult to say when one of the brothers, namely Louis Lumiere, had the idea to use music during the film show. Perhaps this happened after repeated demonstration of Lumiere's movie theater in Paris "Olympia".

However, it is known that the 17 February 1896 public display of another program of silent films made by students of Lumière, which was held in London's "Empire", went to the accompaniment of a piano. Sitting at the piano pianist, according to a member of the British Academy and the British Film Society Ernest Lindgren, he regaled the audience hearing improvisations on themes of popular music. An example was contagious, and soon became actively involved in the music to accompany silent films by other manufacturers and distributors. Moreover, experience has shown that its presence in movies subsonic cinema was not at all accidental.

For, in addition to technical reasons (the desire to drown out the noise of the projection movie camera) and psychological (unnatural for the visual

perception of silent movement) have been observed to enhance the ability of music expressive silent motion pictures (aesthetic reason) and merge into a single entity mounting blocks plot development (formative function).

Despite the purely technical causes of the music in silent films and the fact that it exists outside the image area, the music quickly attracted the attention of practitioners and theorists of the new art. Initially, it was mainly focused on the development of specific recommendations for the manufacturing musicianszvukooformiteley and try to create a unified classification in accordance with the "custom table" for the music compilation.

Proposed in 1903, the French company Pathé equipment musical accompaniment of silent films using compilations proved to be very popular, as it allows to correlate the timing of the scene with the length of a piece of music, as well as to achieve emotional and musical-semantic matching "citation" material event-plot and content Movie scene. There are cases when in the selection of the musical material itself actively participated picture director, as happened with the debut tape Spaniard Luis Buñuel "Un ChienAndalou" (1929). The musical accompaniment novice director has chosen the theme of the two Argentine tango and the leitmotif of love of Tristan and Isolde in Wagner's opera of the same name, with their help, he gave the audience a clue to solving the design surreal story of his kinolenty.

But the first step to the realization of new prospects in terms of the impact of music on the viewer, as well as its ability to establish emotionally-shaped contact with the image and the director's intent was to create original music scores. Getting this put Camila music of Saint-Saens to the silent movie film debut studio French Le Film d'Art directors Charles Le Barge and Andre Calmette "Assassination of the Duke de Guise" (1908). Followed by Saint-Saëns his hand at cinema tried and other composers.

Among the authors of the original musical scores of the Great Silent, have made their mark in the history of world cinema in the first place should be called

Arthur Honegger ("Wheel" 1923, directed by Abel Gance), Erik Satie ("Intermission" 1924, René Clair director) Edmund Meisel (Battleship "Potemkin", 1926 and "October" 1927, directed by Sergei Eisenstein), Shostakovich ("New Babylon", 1929, directed by Leonid Trauberg and Grigory Kozintsev). Despite the absence of any practical experience (and maybe because of that), they were able to demonstrate a variety of copyright music reading and semantic interpretation of visual and plastic action at the level of dramatic cinematographic concept.

The most important fact in the appearance of the original musical scores for film is the fact that in the early stages of formation of film directors was recognized the need to bring to work on the film professional composers. And it showed preference for composers, has a bright personality and a penchant for extreme emotional sensitivity sound visual images and then transfer them to the images of the musical.

Thus, the music is not as yet a full-screen means of expression, I found a desire for meaningful self-semantic interpretation of the game action and the emotional and imaginative pairing with the image and plot development. These are its characteristics were subsequently taken up by the sound cinema, which showed a genuine and permanent interest in music not only by the directors of the pictures, but also the audience, not to mention the theorists of the new art.

Redefining the roles and functions of music in modern cinema leads to the fact that she had a greater degree is aimed not at the emotionally-semantic synchronization with the fable development actions, and on the modeling of certain states in the sensory projection on a genre picture and director's theme idea. The latter has made an unusually attractive resorting to such music styles like minimalism and neo-romanticism.

Of course, a number of important theoretical problems of film music is invariably in the field of research, the problem belongs leytmotivizma. For modern cinema (gaming and television), a musical leitmotif is particularly attractive in view of its ability to release the theme idea of the film and the forming of the

composite structure of the film plot. Empirically in the cinema it has developed quite definite system of semantic use of leitmotifs.

Summarizing the above, we can say that the problems associated with the music of the movie is very diverse, and the cinema in its development is constantly expanding the boundaries of their research. Some of these problems have not yet found its reflection in art-science. First of all, it concerns the problem of authorship, correlating composer and director's interpretation, the refractive index in the film music composer's individual manner of writing, film music influence on the formation of artistic taste mass viewing a movie audience. But the setting and the study of these problems - in the nearest future.

Литература:

1. Евгений Гусятинский. Роттердам-2007: Максимум реальности, минимум кино. Искусство кино (№5, Май 2007). Проверено 7 марта 2012. Архивировано из первоисточника 31 мая 2012.
2. Звук в кино (рус.). Журнал «625» (11 июня 2010). Проверено 5 января 2015.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АВТОРСКОЙ ПЕСНИ В ФИЛЬМАХ

Носиров Ёдгор

Магистр 2-го курса

«Режиссура кино, радио и телевидения»

Научный руководитель: Заслуженный деятель культуры

Касымов Д.М.

Основной проблемой режиссеров при выборе саундтрека к собственному фильму, в первую очередь, является легальность ее приобретения у той или иной компании. Вопрос авторских прав касается юридической стороны кинопроизводства, соблюдения законов и уверенности в том, что к вашему кинопроекту не будет никаких претензий.

Наверняка вам знакомы случаи блокирования видео на Youtube, где использовалась нелегальная аудиозапись. Корпорация Google, владеющая

этим видеопорталом, использует свою поисковую систему для выявления нелегальной музыки. Закрываются сайты, нарушающие авторские права, появляются новые законы, - все это заставляет нас более внимательно относиться к выбору звукового сопровождения фильма.

У любой музыки есть свой автор, который вправе решать, где и когда использовать свое произведение. При этом самые популярные исполнители требуют баснословные гонорары, которые под силу выплатить лишь самым крупным кинокомпаниям. Недавно в Евросоюзе сменили правила перехода музыкальных произведений в публичную собственность. Евросоюз согласился продлить срок действия авторских прав с 50 до 70 лет. Инициаторами были представители The Beatles и других рок-групп 60-х, которые еще при жизни авторов могли потерять права на свою музыку.

В США авторы музыкальных произведений имеют право получать отчисления за них в течение всей жизни, а наследники – в течение 70 лет после их кончины. Для компаний звукозаписи срок действия авторских прав составляет 125 лет с момента создания произведения или 95 лет после его публикации, в зависимости от того, какой срок истекает ранее.

Более того, даже если вы захотите использовать классическую музыку Баха, Моцарта или Чайковского, которые жили многие годы назад и не подпадают под закон о копирайте, то у вас возникает другая сложность: это произведение исполняют музыканты, с которыми также нужно решить пару правовых вопросов. Т.е. вам нужен кто-то, кто исполнит классику и откажется от своих исключительных прав на запись. Тем не менее, есть сайт Musopen, который на пожертвования участников работал над этим вопросом, и сейчас предоставляет всем желающим качественную классическую музыку.

Creative Commons - это организация по лицензированию, благодаря которой авторы и правообладатели могут распространять свои произведения более широко и свободно, а потребители контента более просто и легко пользоваться этими произведениями. Так как по закону об авторских правах

в большинстве стран мира все права принадлежат авторам автоматически, то Creative Commons делают возможным передать некоторые права общественности посредством семейства готовых лицензий, признанных юридическими законодательствами многих стран. Кстати, по лицензированному контенту осуществляет расширенный поиск Google.

Существует несколько лицензий Creative Commons, но самые популярные - это CC Attribution-ShareAlike и CC Attribution Non-commercial Share Alike.

Благодаря Creative Commons для начинающих кинематографистов появились большие возможности использования разнообразной музыки в учебных и некоммерческих целях. Довольно популярен специализированный сайт Jamendo (jamendo.com), на котором все желающие могут разместить композиции собственного производства и указать нужный тип лицензии, а все остальные вправе использовать эту музыку в соответствии с лицензией по своим нуждам. На сайте есть раздел Pro, где предлагается заплатить внушительную сумму, если вам нужен трек для коммерческого использования или по другим причинам.

Еще один сайт бесплатной музыки - Freesound. Присутствует коллекция звуковых эффектов и сэмплов. В отличие от Jamendo, Freesound не предлагает платной лицензии. Об использовании их лицензий написано здесь.

Некоторые известные музыканты идут навстречу киношникам. Например, Moby на своем сайте mobygratis.com предлагает бесплатно использовать некоторую свою музыку для независимых фильмейкеров и кинолюбителей в некоммерческих или непрофессиональных фильмах. Для коммерческого использования существует «легкая» лицензия, а прибыль уходит на благотворительность.

Музыка в фильме может быть оригинальной (специально приглашенный композитор, удобно для более точного сочетания с

изображением), компилятивной (на основе различных семплов, ранее записанных разными исполнителями) либо подобранной из продакшн-библиотек.

Продакшн-библиотеки - это ресурсы с музыкальными произведениями, которые создаются специально для кино - и медиапродукции. Для создания оригинального музыкального звучания не приходится привлекать каждый раз необходимых специалистов: продакшн-музыка сочинена и записана ранее для применения в типичных по характеру произведениях. Как правило, звучание произведений библиотек унифицировано, то есть имеет коммерчески проверенную форму и стиль подачи для использования в конкретном производстве (как пример: напряженные моменты в триллере, романтическая мелодия в мелодраме, агрессивный трек в боевике, пафосные темы для эпических жанров). Кроме того, изначально компании-производителю продакшн-библиотек принадлежат авторские и смежные права на произведения, что значительно упрощает процесс законного использования произведений продакшн-библиотеки в конечном продукте.

Качество данной музыки не уступает, и в ряде случаев выше даже высокобюджетных проектов, так как производители продакшн-библиотек не стеснены рамками времени и в определенной степени финансовыми рамками, а также могут привлекать практически любые средства (композиторов, исполнителей, оркестры и т. д.) для построения выверенного музыкального образа. Более того, режиссёр, изначально имеющий характерные примеры продакшн-музыки, выстраивает процесс съемки и последующий монтажный процесс в русле заранее определенного темпоритма, что позволяет достичь гармоничной связки видео и звуковой составляющей.

Продакшн-библиотеки содержат музыку, которая имеет как общую тематику использования, стиль, исполнение, так и вариации аранжировки,

исполнения, сведения, а также «коммерческий» хронометраж (60, 30, 15 секунд).

Существует огромное количество продакшн-библиотек, предлагающих музыкальные произведения на любой вкус. Имеется даже Ассоциация Музыкальных библиотек.

Если вам нужна более тонкая и серьезная работа над саундтреком или фоновым сопровождением, то обращайтесь к профессионалам напрямую. Наверняка в вашем городе есть профессиональные студии, с которыми вы сможете найти общий язык.

Список литературы:

1. Авторская песня. Антология. Составитель Д. А. Сухарев. Екатеринбург: У-Фактория, 2003. ISBN 5-94799-234-5.
2. Джагалов Росен. Авторская песня как жанровая лаборатория «социализма с человеческим лицом» / Авторизованный перевод с англ. А. Скидана // Новое литературное обозрение. № 100. 2009. С.204-215.

O'ZBEK DUBLYAJ SAN'ATIDA ILK QADAMLAR: TAHLIL VA IZLANISH



Nuraliyev Dostonbek

*“Ovozrejssorligi (kino, televideniye va radio
ovoz rejissorligi)” mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: s.f.n., dotsent F.Fayziyeva*

*"Dublyaj mahorati professional darajadagi
zargarona ishda"*

*O'zbekiston xalq artisti **Hamza Umarov***

O'zbek dublyaj san'ati ustalari sobiq Ittifoq davrida Ittifoq miqyosidagi o'tkaziladigan ijodiy ko'riklarda hamisha yetakchi o'rinlarni egallab kelgan. O'zbekiston xalq artisti, dublyaj ustasi Obid Yunusov bu sohadagi yutuqlarni quyidagicha izohlaydi – “Ana shunday ko'riklardan birida Yevgenniy Leonov ishtirok etgan “Omad so'qmoqlari” filmi namoyish etildi. Film tugagach, talay

mutaxassislar dublyaj saviyasining bag'oyat yuksak darajada ekanligini ta'kidlab, Vohid Qodirov ovoz bergan obraz hususida alohida to'xtalishdi. "O'zbeklarning o'z Leonovi bor ekan. U o'z mahorati bilan bizni juda mamnun etdi", deya Vohid Qodirov izlanishlariga yuqori baho berishdi. Chindan ham biz hamkasbimiz Vohid Qodirovni "bizning Leonov deb faxrlanib yurardik".⁵⁹

Dublyaj, ovozlashtirish filmning bezagi hisoblanadi. Bu jarayonda suratga olish paytidagi ayrim kamchiliklar, aktyorlar ijrosidagi xatolar, maromiga yetmagan holatlar to'g'irlanadi. Professional darajadagi ovozlashtirish va dublyaj ko'p asarlarning ekrandagi muvoffaqiyatini ta'minlaydi.

Darhaqiqat bizning milliy dublyaj san'atimiz o'z davrida jahon kinofilmlar durdonalarini jahondagi dublyaj qilingan kinofilmlar durdonlariga aylantirgan.

Bir paytlar dunyoni titratgan bizning dublyaj san'atimiz ayni damda qay ahvolda degan savol tug'iladi albatta. Texnogen asri hisoblangan hozirgi davrda barcha sohalar kabi dublyaj san'atida ham keng imkoniyatlar ochilgan. Bizning dublyaj ustalarimiz bugunga kelib bunday zamonaviy texnikalardan foydalangan holda qay darajadagi asarlarni bizga taqdim etishmoqda?

"Jannat Makon" jurnalida dublyaj san'atining yirik nomoyondasi O'zbekiston xalq artisti Obid Yunusov yurtimizda dublyaj san'atining bugungi holati haqida quyidagi fikrlari bilan o'rtoqlashgan – "Bugun biror film so'ngida "dublyaj qilindi" deyilsa, g'ashim keladi. "O'zbek tiliga o'girildi" degan iboraga qarshiligim yo'q. Bular ikki xil tushuncha. Hozirgi kartinalar shunchaki o'girilmoqda. Dublyaj "dubl" so'zidan olingan, yani originalga aynan o'xshash bo'lishi kerak. Agar biror joyga obrazga ovoz tembri, aktyorning xarakteri yoki lab harakati mos tushmay qolsa, dublyaj qoidalariga zid keladi."⁶⁰

Hozirda dublyaj qilinib ekranlarda namoyish etilayotgan chet el filmlarini ko'rib biror ijobiy fikr aytishga ham ikkilanib qolasan kishi. Avvalo, bugun turli studiyalarda asosan seriallarning o'zbek tiliga o'girish yo'lidagi ishlari eski

⁵⁹ Hojimatoba M. So'z san'ati va ijrochilik mahorati / O'zDSI San'at ta'limi yilnoma-IV jild. Toshkent. 2009. B. 237.

⁶⁰ Soatova Sh. O'zbek dublyaji: maktab va matlab// Jannat Makon, aprel №4 2012. B. 12.

professional dublyaj san'atimizning obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu seriallardagi personajlarga berilgan ovozlarda na harakter na intonatsiya va na hissiyot bor. Ularda faqat kadr ortidan turib matn oddiygina o'qilyapti holos. Aftidan, dublyaj san'atining ma'suliyati chuqur his etilmayapti. Bunday yo'l tutish o'rtameyonadan ham pastroq dublyaj san'atining rivojlanishiga olib kelishi aniq.

“Dublyaj rejissyori ham, ovoz rejissyori ham, ovoz va undagi ohangdorlik, tasvir va matnning ham ifodaviyligini topa olishi, uning aktyor yoki suhandon tiliga ko'chira bilish mahoratiga erishish vazifalarini yuklaydi. Aks holda, mashaqqatlarda yaratilgan filmning badiiy to'laqonli qimmati, ilmiyligi va g'oyaviyligi yo'qolishi mumkin.”⁶¹

Zamonaviy o'zbek dublyajining eng katta yutug'i shuki, zamonaviy texnikalardan foydalangan holda tezkorlik bilan kechagina Gollivud yoki Bollivud kinoprokatida xit bo'lgan filmlarni bugun o'zbek tiliga dublyaj qilinib tomoshabinlarga taqdim qilinyapti. Bu albatta ijobiy holat, ammo faqat son deya sifatga zarar yetib qolmasligini istardik.

Biz o'z izlanishlarimiz, bir nechta adabiyotlar va maqolalar to'plamlaridan o'rganib chiqib, zamonaviy dublyaj jarayonlarida ishtirok etib, hozirgi dublyaj san'atimiz va dublyaj san'atimizning “oltin davri” hisoblangan, yani bir necha yillar avval dublyaj qilingan filmlarni tomosha qilib, ularni tahlil qilib ovoz rejissyori sifatida quyidagi fikrlarga keldik. Zamonaviy kompyuterlardan va hozirgi keng imkoniyatli texnologiyalardan foydalangan holda dublyaj san'atining professional ustozlaridan dublyaj san'atini chuqur o'zlashtirib, O'zbekistonni dublyaj sohasida dunyo taniydigan, mukammal bilimlarga va tajribalarga ega bo'lgan maktab sifatida jahonga tanitish biz yosh kadrlarning burchimizdir.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmaskuch. – Toshkent., Ma'naviyat, 2008.
2. Aliyev M. Kino asoslari. – Toshkent. O'qituvchi, 1993.
3. O'zDSI San'at ta'limi yilnoma-IV jild. Toshkent. 2009.

⁶¹ Hodjimatova M. Kino san'ati va televideniada ovozlashtirish: an'ana va rivojlanish bosqichlari /Yangidavrsan'ati: an'anaviylikvatransformatsionjarayonlar” ilmiy-nazariiy va amaliy konfransiya materiallari to'plami. Toshkent 2013. B. 95-96.

4. Soatova Sh. O'zbek dublyaji: maktab va matlab // Jannat Makon Aprel №04. 2012. B. 11-18.

5. Yangi davr san'ati: an'anaviylik va transformatsion jarayonlar. O'zDSMI Ilmiy-nazariy va amaliy konfrensiyalari to'plami. –Toshkent, 2013.

6. Strelkov C. Dublyaj. V poiskax pravdi, Ozon. –Moskva. 2017.

ҚАЗАҚСТАНДАҒЫ АВТОРЛЫҚ КИНЕМАТОГРАФТЫҢ ӨЗЕКТІ МӘСЕЛЕЛЕРІ

Наурызбаев Сабит

*«Мәдениеттану» мамандығы бойынша гуманитарлық
ғылымдар магистрі дайындаған ғылыми мақала
Ғылыми жетекшісі: п.ғ.д. профессор Сихымбай И. Б.*

Елбасы Н. Ә. Назарбаев *«Қазақ киносы отан сүйгіштікті дәріптеп, елімшіл, жершіл ұрпақты тәрбиелеуге атсалысуы керектігін, яғни ұлттық кинодан ұлттық идея мен ұлт мұраты сезіліп тұруы тиістігін»* айтқан болатын.[1]Нақтырақ айтқанда, авторлық кинематограф. Енді авторлық кинематограф деген не екеніне тоқтала кетейік.

Авторлық кино(режиссер киносы) - режиссер өзіне фильмге қатысты бар істі толықтай мойнына алып, жауапты адам ретінде мойындалатын тұсы. Режиссер бар жауапкершілікті түсірілім барысында да мойнына алады. Кей автор-режиссерлар бірнеше қызметті бір мезетте атқарып кете береді. Мысалы, әрі сценарий, әрі режиссерлық қызмет, әрі продюсерлікке де кірісіп, барлығын бақылауда ұстайды. Бұл үшін режиссерге жан-жақтылық қажет. Сондай-ақ қызметкерлермен тіл табысып, олардың әрқайсысының жұмысына жіті бақылау жасауға тиісті. Түсірілім басталған алғашқы күннен бастап , монтаж жасалып біткенге дейінгі аралықта режиссер қызмет етеді. Осындай жұмыстардың нәтижесінде көрермен арасында немесе осы саладағы мамандар арасында режиссерлардың қолтаңбасын тану үрдісі қалыптасқан. Мысалы, "Дәрежан Өмірбаевтың фильмі", "Шинарбаевтың фирмалық стилі" деген сынды фразалар таралған. Басқа да авторлық кинематографтар арасында "Арт-синема" деген халықаралық термин бар. Ресей кино сыншылары

арасында танымал болған " Арт-хаус" және "Авторлық зияткер европа кинемаографы" сынды ғылыми анықтама бар. Бұл терминдер түрлі типтегі кинолардың тарихи және әдістемелік маңызын анықтап береді. Бірақ кез келген авторлық кино туралы сөз қозғағанда режиссерлік топ пен маңызды фильмдер жинағы ескеріледі.

Қазақстандық кинематографтарға тән авторлық киноның элементтері. Біздегі зияткерлік киноның даму тарихын 3 кезеңге бөліп қарастыруға болады.

1-кезең: 60-70-жылдар аралығы. Бұл кезеңде Шәкен Айманов[13], Абдулла Қарсақбаев[9], Сұлтан Қожықов[12], Мажит Бегалин[14] сынды режиссерлардың есімдері танылды. "Қыз-Жібек", "Атаманның ақыры", "Біздің сүйікті дәрігер" фильмдері халыққа ұсынылған кезең еді.

2-кезең: бұл жаңа толқынның жарыққа шығу кезеңі деп танылды. Бұл кезеңде Сергей Соловьевтың шеберханасынан жетілген әрі ВГИК-те білім алған жас буындар әйгілі режиссерлар қатарына енді. Олардың арасында: Ардақ Әмірқұлов, Дәрежан Өмірбаев, Рашид Нұғманов[13], Серік Апрымовтар[13] бар. Бұл кезеңнің танымал туындылары: "Отырардың күйреуі", "Қайрат[5]", "Кардиограмма[10]", "Игла[8]", "Ақсуат"[6].

3-кезең: бұл қазіргі уақыттағы жаңа буынның кезеңі. Өз ойларын алға тартып, өзіндік қолтаңба қалдыруға ұмтылған, айтар ойын өз туындысы арқылы жеткізуді көздеген жаңа толқынның кезеңі осы. Олар авторлық кинематография деген түсінікпен таныс және осы жолда еңбек етіп өз аттарын тарихта қалдыруды көздейді. Олардың қатарында: Эмир Байғазин, Әділхан Ержанов, Нариман Туребаев, Жасұлан Пошановтар бар. "Гармония сабақтары", "Құрылысшылар", "Шуақты күндер" сынды авторлық кинолардың тұсауы кесілді.

Қазіргі уақытта қазақ киносында тоқырау кезеңі жүріп жатыр. Бұған себеп: қаржыландырудың жетіспеушілігі және техника материалдарының батыс еуропалық сапаға сәйкес келмеуі. Сондықтан жоғары сападағы

фильмдермен теңесу мүмкіндігі болмай жатыр. жаңағы атап өткен санаулы фильмдер біздің мақтанышымыз. Егер мүмкіндік көбейсе сапалы туындылар да көбейер еді.

Қазақстандық киноөндіріске ескере жүретін кемшіл тұстары да бар. Мысалы, арнайы жасалған тематикалық жоспар жоқ, көзделген нақты мақсат жоқ, яғни көрерменнің көңілінен шығу немесе фестивалден жүлде алу деген сынды. Түрлі жанрға бару батылдығы байқалмайды. Санаулы-ақ жанрда түсіріп ұсынуды әдетке айналдырған.

Тағы да бір маңызды мәселе: қазақстандық авторлық кинолар көрерменге дұрыс жетпей қалып жатады. Көрермен саналы түрде қабылдайын десе көңілінен шықпайды. Басым авторлық кинолар басшылыққа есеп беру мақсатында түсіріледі. Іліп аларлық жақсылары фестивальдерде ұсынылады. Себебі киноны үкімет қаржыландырады, ал прокаты жеке меншік иесінде болады. Бұл екі бөлек дүние ешбір үйлесім таппағандықтан, кинода сапа жоқ, авторда ынта жоқ.

Дәл қазіргі уақытта қазақ киносы Орта Азия бойынша үздіктердің қатарында және халықаралық аренада өзін көрсетіп те жүр. Дегенмен, аса маңызды мәселелердің шешімін табу өте маңызды. Бұл деңгейде тоқтап қалуға болмайды.

Осыған орай қазақ киносы мен авторлық киноның кемшіліктері мен өзекті мәселелерін атап өтейік:

- *Авторлық киноны көрсетілімге және прокатқа ұсынуға Үкімет тарапынан толықтай қаржыландырудың жетіспеушілігі;*
- *Техника материалдарының дұрыс сақталмауы және соңғы үлгіге сай жаңартылмауы;*
- *Талантты жас режиссерларды дайындап шығаратын әрі шеберліктерін одан әрі шыңдайтын негізгі мектептің жоқтығы;*
- *Авторлық фильмдерді көрсетілімге ұсыну және прокатқа шығаруға жағдайдың жасалмауы;*

- Кинофестивальдер мен сайыстардың төмен деңгейде өтуі;
- Халықаралық кинофестивальдер мен сайыстарға қатысуға мүмкіндіктің жасалмауы.

Осы кедергілердің салдарынан авторлық және изиәткерлік фильмдердің дамуы мен прокатқа шығуы әлсіреп жатыр. Бұдан бөлек киноның таралуына кедергі келтіретін пираттық өнімдердің пайда болуы тағы бар. Осындай кемшіліктерді ескере отырып оны түзету жолдарын қарастырдық:

- Авторлық киноның таралуы мен көрсетілімге шығуына басшылық тарапынан қолдау көрсету;
- Отандық кино туындылардың шетелге таралуына жағдай жасау;
- Авторлық кино жайындағы ақпаратты көбірек таратып, көпшіліктің осы салаға қатысты сауатын ашу.

Кино саласына мемлекеттік саясат тарапынан жасалуға тиісті қағидалар:

-Өнер және мәдениет ортасында кинематографияның маңыздылығын арттыру;

-Кинематографияның сақталуы мен дамуына мемлекет жауапкершілікпен қарауы тиіс;

-Кинематографтар өз туындыларын жасауға қолайлы жағдайлар жасалынса;

Және де мынадай мақсаттар бойынша жұмыс жасайтын Ресейдегідей мемлекеттік кино фонд құру керек:

- *Отандық кинематографияны қолдау;
- *Бәсекелестікті күшейту;
- *Авторлық киноның барлық талаптарын қамтитын жағдай жасау;
- *Қазақстанда және шетелде ұлттық және авторлық киноның маңызын арттыру, таныту.

Осы тұста фильмдердің сапасы туралы сұрақ туындайды. Түсірілген фильмдер авторлық деңгейге сәйкес келе ме немесе көпшілікке ұсынылып елеусіз қала ма? Рухани құндылықты арттыра ала ма әлде сапасыздар

қатарына қосыла ма деген мәселелер де бар. Сол үшін арнайы комитет құрып кино түсірілер алдында жанрын, бағытын, авторлық киноның талаптарына жауап бере ала ма соның бәрін алдын ала тексеру керек. Сонымен қатар жас режиссерларға мүмкіндіктер сыйлайтын жеке кинокомпанияларды да қолдау керек. Кино саласындағы жас мамандардың кәсіби деңгейін арттыратын арнайы бағдарламалар құру керек.

Кино индустрияның талаптарын қорғау мақсатында құжаттарын заңды тұрғыдан дайындауды қарастыру керек. 2009 жылы "Мәдениет" Заңына 20 шақты түзетулер енгізілді және осының барлығы кино индустриясына қатысты болды. Алғаш рет "копродукция", "продюсерлік ету" , "ұлттық фильм", "авторлық фильм", "прокат төлқұжаты" деген ұғымдар заңды түрде ене бастады. Заң шығарушы базаның дамуын одан әрі қолдау керек. Авторлық кинематографқа қатысты арнайы заң қабылданса тіпті керемет болар еді. Кинокомиссияның ықпалын азайтып, киноға салынатын салықты азайтып немесе белгілі бір уақыт аралығында тоқтата тұруға да болады. Прокат нарығының да қолдауы маңызды. Бізде ұлттық киноабонементтің арнайы жобасы да бар. Тек оған аздап қолдау жетпей тұр. Мәселен, кинотеатралды инфраструктураны дамытып, авторлық фильмдерді халықтың белгілі бір тобына жыл сайын немесе ай сайын деген сынды белгіленген уақыт аралығында тұрақты түрде көрсетіп тұруды үрдіске айналдыру керек. Бұл киноның дамуына үлес қосатын әдіс болар еді. Көптеген елдерде кинокомиссия өте белсенді жұмыс жасайды. Мысалы АҚШ-та кино түсіруге жұмсалатын қаржы бөлінер кезде шығын санын есептеп кино түсірушіге біршама жеңілдіктер жасалады. Міне осындай жеңілдіктер жасауды елімізде де қолға алса дұрыс болар еді.

Алдымен авторлық киноларды отандық арналардан жиі көрсетуді қолға алған жөн. " Ақпарат саясатын БАҚ құралдары арқылы жүргізу" деген сынды бағдарлама аясында жұмыстар жасалса , фильмдер таралымы артады. Әрі үкімет тарапынан түсірілім жұмыстарына бөлінген қаражатты ақтайды.

Арнайы мемлекет тапсырысымен түсірілетін авторлық фильмдерді әлеуметтік роликтер сынды жиі көрсетіп, көрерменге жіті таныстырса қызығушылық арта түсетіндей.

Білім Министрліні арқылы кино саласына аяқ басқысы келетін жас буындарды, жаңа кадрларды дайындайтын білім орталықтарын ашу қажет. Сондай-ақ кинематографтарды қолдауды қамтамасыз ететін заң жобасын жасауды қолға алу арқылы киноөндірушілердің, кинематографтардың және кино таратушылардың жұмысының сапасын арттыра алар едік. Бұл дегеніміз кино саласының деңгейін арттыруға көмектеседі. Салықтан және шекара қызметінен жеңілдіктер қарастыруды ұмытпау керек. Сонда ғана шығармашылыққа деген ынта артып, кәсіби деңгей жоғарылайды.

Әрине болашақ алда. Кино өндірістің қалай дамитыны немесе төмендейтіні уақыттың еншісінде. Дегенмен жат ойдан аулақпыз. Жақсылықтан үміт күтетін кеңпейіл халықпыз ғой. Кино өнердің келешегі көркем, деңгейі биік болад деп сенеміз. Тағы да айтудан жалықпаймыз, ол үшін аянбай еңбек ету керек. Кино өндірісте арнайы саясат арқылы жұмыс жасап, өндірушілер мен таратушылардың жұмысын біріктіріп бір бағытқа бағыттау керек. Қазақстандық картиналардың еркін көрсетілуі үшін квота енгізсе де дұрыс шешім болар еді. Кинематографистер тек мемлекет тапсырысын өтеп міндетінен құтылу үшін ғана емес, кәдімгі бизнес көзі ретінде кинодан табыс тауып, белсене жұмыс жасар еді. Әрине енді ғана шеберлігін шыңдап жатқан жас талантты кинематографистерді көзге ілуді ұмытпаған жөн. Сонда ғана жаңа ой, жаңа жетістіктер бой көтереді. Себебі, болашақ- жастардың қолында

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі:

1. http://www.inform.kz/kz/kazak-kinosy-arkyly-ult-muraty-men-eldik-ideyany-nasihattau-turaly-elbasy-tapsyrmasy-sorakylyk-korinisternen-zhuzege-aspak-pa_a2218865
2. Левин Е. С. И вновь о методологии // Киноведческие записки. - 1990.
3. Арнольдов А. И. Введение в культурологию. -М., 1993.

4. Абикеева Г. Национальное строительство в Казахстане и других странах Центральной Азии, и как этот процесс отражается в кинематографе.
5. Айнагулова К., Алимбаева К. Тенденции развития киноискусства Казахстана. - Алма-Ата, 1990. - 158 с.
6. Беркович М.И. Кадры нескончаемой киноленты. - Алма-Ата, 1984. - 150 с.
7. Ибраимов Т. Статья "Белые горы" // "Кинофорум", 2003. №1.
8. Каирбаев А.К. Встречи на экране: рассказы о казахском кино. - Алма-Ата,, 1979. - 69 с.
9. Киноискусство советского Казахстана. - Алматы, 1994. - 106 с.
10. Киноискусство Казахстана. - Алма-Ата, 1992. - 323 с.
11. Кино Казахстана: Киносправочник. - Алматы, 2000. - 392 с.
12. Марголит С. Кинематограф оттепели. CD-диск. -М., 1992.
13. Назаров А.С. Первенец казахского кино. - Алма-Ата, 1980. - 72 с.
14. Ногербек Б. "Кино Казахстана". -Алматы: НППЦ, 1998.

MADANIYAT VA AHOLI DAM OLIISH MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI



O'rinov Shamshod

“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.n. A.Haydarov

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch” asarlarida shunday ta'rif bor: “Jamiyat taraqqiyotini qushga o'xshatsak, bitta qanoti iqtisod bo'lsa, bitta qanoti, ya'ni o'ng qanoti ma'naviyat” deyilgan. Albatta ma'naviy kamolot shaxsni yuksaklik sari olib chiqadi. Yuksak ma'naviyatga ega, kuchli, bilimli insonlari, yoshlari bor yurtning kelajagi ham qudratli bo'ladi. Ana shu ma'naviyatni yigit - qizlar qalbiga singdirishda ming yillik ildizga ega an'analarimiz, qadriyatlarimiz muhim poydevoridir. Zotan, bugungi globallashuv jarayonida yoshlar qalbi va ongini turli mafkuraviy, ma'naviy, axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish davrning talabi hisoblanadi.

Aytish o‘rinliki, mustaqillik davrida biz tanlagan “o‘zbek modeli” deb nom olgan taraqqiyot strategiyasi xalqimiz farovon turmushiga, manfaatiga to‘liq javob berib kelmoqda. Bugun odamlarimiz erkin fikrlaydigan, huquqiy va ma’naviy saviyasi tobora o‘sib borayotgan, o‘z kelajagini, kim uchun va nima uchun mehnat qilayotganini to‘liq tasavvur etmoqda. Ishonch bilan yuksak marralarni zabt etyapti. Birgina misol sifatida aytadigan bo‘lsak, aynan san’at sohasida 1991 yilda xalqaro musiqa tanlovlarida atigi 3 tagina o‘zbekistonlik o‘quvchi qatnashgan bo‘lsa, 2015 yilda ular soni qariyb 200 nafarni tashkil etmoqda. Buning zahirida san’atga, madaniyatga, yoshlar kamolotiga qaratilgan e’tibor yotadi.

Bu o‘z navbatida insoniyat yaratgan an’anaviy ilmiy boyliklarga, insonning o‘ziga yangicha munosabat yondashuvini yuzaga keltirdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek “Fuqarolar endi ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi bajaruvchisi emas balki bunyodkori va tashkilotchisidir”⁶². Ma’lumki, yurtimiz aholisining 50 foizdan ko‘proq qismini yoshlar tashkil etadi. Demografik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga asosimiz bor.

Hozirgi kunda madaniyat va aholi dam olish markazlari Madaniyat vazirligi tasarrufida bo‘lib, Respublikamizning markaziy hudularidan tortib, chekka-chekka qishloqlarigacha kirib borib, ushbu muassasalar yurtimiz aholisining turmush tarzini yaxshilash, madaniylashuvni ta’minlash, qolaversa insonparvarlik, poklik, mehru muruvvat, xayri-sahovat, dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni milliy ma’naviyatimiz, urf-odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilari ko‘z o‘ngida tinch va osuda hayotga intilish va uning qadriga yetish, jaxolatga qarshi ma’naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ong shuurida yot g‘oyalar paydo bo‘lishi, mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan ezgu ishlarni amalga oshiradi.

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma’rifiy muassasalarning yoshlar tarbiyasiga ta’siri katta albatta.

⁶² Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T: O‘zbekiston, 1997. 112-130 betlar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlar ekani, eng asosiysi esa tashkilotchilar tarkibida yoshlarning mavjudligi bu tadbirning maqsadi yoshlar masalalarini ham qamrab olishini beixtiyor ta'minlaydi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish fuqarolarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, imon-e'tiqodiga, g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining **2013-yil 25-iyundagi** "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **178-sonli** qarori⁶³ga muvofiq qayta tashkil etilgan Madaniyat va aholi dam olish markaz (MADOM)lari soni bugungi kunda 894 tani tashkil qiladi. 2016 yil holatida esa qayta rekonstruksiya qilingan MADOMlar soni bor yo'gi 189 tani tashkil etgan. Ushbu ishlarga 106,0 mlrd.dan ziyod mahalliy byudjet mablag'i sarflangan. Bu esa qarorning 50%i ham emasligi kunday ravshan. Qarorga muvofiq 2013-2018 yillarda Madaniyat va aholi dam olish markazlari to'liq rekonstruksiya qilinishi keltirib o'tilgan. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, Madaniyat vazirligi matbuot xizmatining xabar berishicha⁶⁴ 2013-2015 yillarda ta'mirlash va jihozlash belgilangan 247ta madaniyat va aholi dam olish markazlaridan 58tasi (24 foiz) foydalanishga topshirilmagan. Ko'rib turganingizdek, vazifalar to'liq bajarilmagan. demak, hududlarda qaror ijrosi bo'yicha jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati bilan bog'liq bir nechta munozaraga sabab bo'luvchi savollar tug'ilishi tabiiy hol, albatta.

Birinchidan, MADOMlarda faoliyat olib borayotgan xodimlar ish haqi ularning turmush tarzini yaxshilashga yetarlimi. Zero hammamizga ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning 5 tamoyilidan biri **“Iqtisodning siyosatdan ustunligi”** ekanligidir.

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyundagi 178-sonli qarori

⁶⁴ Madaniyat vazirligi matbuot xizmati

Ikkinchidan, MADOMlarga bugungi kunda tashrif buyurayotgan aholi kontingenti qay holatda.

Uchinchidan, MADOMlar moddiy texnik bazasi yangilangandan keyin ham ular o'zlarini o'zlari moliyaviy ta'minlay olayaptimi.

Ushbu muammolar yuzasidan mulohaza yuritish va yangilik kiritish kerak deb oylaymiz. Xususan:

1. MADOMlar (Madaniyat va aholi dam olish markazi) ushbu nom bugungi kun nazarida eskirgan deb oylaymiz va ushbu nomni yangicha nomda nomlash kerak. Misol tariqasida biz aytishimiz mumkinki, Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati tasarrufida tashkil etilgan hududiy "Yoshlar markazlari" bu markazlarga tashrif buyurayotganlar soni MADOMlarga tashrif buyurayotganlar sonidan ancha muncha ko'pchilikni tashkil etadi. Binobarin, nomning nomlanishi, uning zamonga mos ravishda, aholini jalb eta bilishi hisobga olinishi zarur.

✓ Demak muassasaning nomlanishi ham o'z ahamiyatiga ega.

2. MADOMlarga bugungi kunda faqatgina Madaniyat vazirligi, boshqarmalar hisobida ish haqi hisoblanadi. Yangilik sifatida, Otaliqqa berish ya'niki, mamlakatimizda bugungi kunda pul aylanishi katta korxona tashkilotlar yetarlicha. Boshqaruv organlari tomonidan tegishli normativ hujjatlar asosida otaliqqa berishni tashkil qilish. Misol tariqasida, Navoiy viloyatida joylashgan "Farhod" madaniyat saroyi. Bu yerda faoliyat olib borayotgan xodimlar o'zlarining ish maoshidan qoniqishadi. Ushbu "Farhod" madaniyat saroyi Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati tarkibida ekanligini mutasaddi tashkilotlar yaxshi bilishadi. Bundan tashqari otaliqqa olgan korxonaga, madaniyat saroyi xodimlari tekin xizmatlarni ta'minlab beradi. Yuqoridagi taklif bilan MADOMlarni vazirlik tasarrufidan chiqarish kerak demoqchi emasmiz. Faqatgina, Otaliqqa berilgan korxona va MADOM ustidan nazorat qiladigan hududiy boshqarmalar bilan korporativ boshqaruvni tashkil qilish kerak.

✓ Demak, otaliqqa berish bunda korporativ boshqaruvni tashkil etish.

3. Tashkil qilingan MADOMlar maktab, MTM, kollej-litseylar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlarda uyushtirish o'tkazib berilgan madaniy-hordiqalari uchun o'tkazilish sifati hamda katta-kichikligiga qarab oldindan shartnoma orqali haqlarini olishlarini tashkil qilish. Faqatgina Respublikamizning siyosiy hamda an'anaviy bayramlarimizni tashkil etish bundan mustasno holda. Misol tariqasida Buxoro shahrida kamida 100 tadan ziyod maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari, kollej-litseylar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar faoliyat olib boradi. Demak o'tkaziladigan tadbirlarning ko'lamini jihatidan o'rtacha 700 (yetti yuz) ming so'mlik shartnoma qilinsa, aytib o'tilgan korxona-muassasalarda bir yilda har birida bittadan tadbir o'tkazilsa, buning qiymati 70 (yetmish) million so'mni tashkil qiladi. Qilingan shartnomalardagi mablag'lar MADOMning o'zining hisob raqamiga kelib tushsa va bu mablag' har oyda xodimlar ish haqiga qo'shimcha mukofot puli va har bayramlarda mukofot puli sifatida berilishi lozim. Bunda MADOM tashkil qilib bergan tadbirdan tushgan mablag' uch tomonga taqsimlanishi har taraflama manfaatdorlokni yuzaga keltiradi. Aytish mumkin, bitta viloyat (shahar yoki tuman)da bir nechta MADOMlar faoliyat olib boradiku, bu masalani ham o'z yechimi keyingi bandlarda aytib o'tiladi.

✓ Demak, har bir madom o'zining hisob raqamiga ega bo'lishi.

4. Hozirgi kunda 894 ta MADOM faoliyat olib bormoqda. Ushbu MADOMlarning texnik, ijtimoiy holati o'rganilib chiqib, o'zini o'zi qoplay olmaydigan MADOMlarni tugatish va yangi olatliqqa berilayotgan MADOMlarga ularning ish o'rinlarini o'tkazish. Misol tariqasida bitta tumanda 4 ta MADOM faoliyat olib borayotgan bo'lsa, ularning moddiy holati, xizmat ko'rsatish sifati o'rganilib, ulardan yaxshi xizmat ko'rsatayotgan MADOM tanlab olinib, qolgan 3ta MADOM tugatilsa, tugatilgan markaz ish o'rinlari yangi otaliqqa olingan MADOMga ish o'rinlarini ko'chirib (albatta bu MADOMning ijtimoiy-geografik joylashuvini hisobga olib) tashkil qilish. Muassasaga faqat o'z ishining yosh mutaxassisi (no mutaxassis bo'lmasligi kerak albatta. Bunda yetarli tajribaga ega

o'rta-maxsus xodimlar va no mutaxassis xodimlar faoliyati o'rganilib ish faoliyatida qoldirilsa) qabul qilinsa masala yechimini topishi mumkin.

- ✓ Demak, o'z faoliyatini mukammal darajada olib borolmayotgan markazlar tugatilishi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytib o'tsh joizki, tanqidiy tahlil bor joyda rivojlanish bo'ladi. Ushbu takliflar o'z navbatida mutasaddi tashkilotlar bilan kelishib, amalga oshirilsa, kelajakda madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati yanada rivojlanib, jamiyatning madaniy ehtiyojlarini qondirishda o'z o'rniga kerak bo'lsa birlamchi o'ringa ega bo'lardi.

QORAQALPOQ MILLIY BAYRAMLARINING XUSUSIYATLARI



Otepbergenov Ajiniyaz
“Estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi”
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent J.A.Mamatqosimov

Annotatsiya: Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqining ayrim milliy bayramlari tasnifi, ularning o'tkazilishi va ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: Bayram, sayl, an'ana, odat, xalq o'yinlari.

Xalqning milliy an'ana va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylash, targ'ib qilish va qayta tiklashda bayram va tomoshalar birlamchi omil hisoblanib, bu jarayon mustaqillik davrida yanada takomillashdi hamda insonlar ma'naviy qiyofasini milliy o'ziga xoslik asosida shakllantirilishidagi asosiy badiiy vositadir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek “... Mustaqillik va Navro'z bayramlari, «Sharq taronalari» musiqa festivaliga bag'ishlangan asosiy tomosha va tantanalarni tayyorlash bo'yicha teatr va televideniye rejissyorligi, badiiy-publististik ssenaristlik borasida ulkan tajriba

to'plandi. Ana shu boy tajribalarni har tomonlama chuqur o'rganish, umumlashtirish va shu asosda yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo'yicha zarur nazariy va o'quv-uslubiy bazani shakllantirish, bugungi talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo'lga qo'yish bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhasiz".⁶⁵

Bayram – turkcha so'z bo'lib, xursandchiliklar yig'indisi, degan ma'noni bildiradi.⁶⁶ Har bir xalqning o'z urf-odati, dini, yashash shart-sharoitiga qarab, bayramlari ham o'ziga hos bo'lib nishonlanadi va qadrlanadi. Bir millatning milliy bayrami o'ziga xoslik ifodasi bo'lsada, o'zga millat uchun bir oz tushunarsiz va ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Masalan, Ispaniyada o'tkaziladigan "Pomidor jangi"da xalq aholisi ko'chaga chiqib, bir-biriga pomidor otishib bayram qilishsa, qadimiy hind xalqida "Holly" bayrami bo'lib, bu bayramning o'ziga xosligi kishilarning bir-birlariga turli rangdagi boyoqlar otishib, xursandchilik qilishidadir.

Shu bilan birgalikda o'zbek xalqining bir necha ming yillik ajralmas, qadrdon, do'st qoraqalpoq millatining ham ko'p asrlik tarixiga ega bo'lgan, o'ziga hos milliy bayramlari, urf-odatlari mavjud. Jumladan, "Navro'z", "Qovun sayli", "Zuraa't", "Birinchi nov qadov" kabi bayramlarning o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishi va hususiyatlari bor.

Navruz bayrami – o'zbek xalqi an'alariga xos va mos ravishda nishonlanib, bu kunda kun va tun tengligi tabiiy hodisa sanalsada, musulmon ahlining yangi yil, yangi kuni sifatida keng nishonlanadi.

Dehqonlarning urug' qadash va mo'l hosil olish uchun xudoga shukronalik qilinadigan bayram bo'lib, milliy urf-odat, an'ana va marosimlarning bardavomligini ta'minlaydi. Navro'z bayramida xalq tomonidan sayllar uyishtiriladi, milliy xalq oyinlari bolalar va o'smirlar tomonidan sevib oynaladi. Jumladan, "Qo'chqor urushtirish", "Arqon tortish", "Kurash", "Iloq oyin", "Shullik oyini", "Oq terakmi, ko'k terak", "Asiq oyini" va shunga o'xshash oyinlar

⁶⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.

⁶⁶ Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.

ko'p bo'lib, bolalarning nafaqat jismoniy chiniqqanligini, balki ma'naviy kamoloti va hozirjavoblik, xushmuomilalik xislatlarini ham tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Sobiq sho'rolar davrida Navro'z bayramiga diniy sarqit sifatida qaralib, bayramni nishonlash batomam to'xtatildi. Shu bilan birgalikda, Navro'z bilan bog'liq urf-odatlar, an'ana va marosimlar qoralandi. Jumladan, Sumalak, Navro'z go'ja va boshqa milliy taomlar, Kelin salom, Boychechak, Ko'pkari kabi milliy marosimlar nishonlanishiga chek qo'yildi.

Mustaqillik bayrami tufayli mazkur bayram va bayram bilan bog'liq milliy marosimlar qayta jonlandi. Yana xalqimiz Navro'z bayramini shodiyona va xursandchilik kayfiyatida nishonlamoqda. Bu borada milliylik, xalqchilik keng tus oldi.

Lekin, shu bilan birgalikda milliy an'ana va urf-odatlar zamonaviy hayot bilan hamnafas bo'lib, zamonaviylashib bormoqda. Bu jarayon o'ziga xos davr talabi bo'lishi bilan birgalikda, bir oz milliyligimizga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Masalan, Bugingi kunda yo'qorida aytib o'tilgan oyinlar yo'qolib ketayotganligi va milliy bayram ruhi iforining sayozlashib borayotganini sezamiz. Bayram dasturxonlarida milliy taomlar turishi lozim ammo bugingi kunda chet eldan kirib kelgan turli taomlarnig aralashishi milliy koloritning buzilishiga olib kelmoqda.

Yana bir masala, aytib o'tilgan yoqaridagi milliy oyinlar ham hozirgi kunga kelib ba'zi-ba'zi yerlardagina ko'zga tashlanadi. Milliy oyinlarga bo'lgan yoshlarning qiziqishi qolmaganligimi yoki hozirgi kunimizga kirib kelgan, yoshlar ongiga ta'sir o'tkazayotgan kundalik hayotimizning bir qismiga aylanib qolgan uyali olaqa vositalari va kompyuter oyinlarimi? Bu oyinlar bilan bant bo'layotganligi, va qiziqishi ortib milliy oyinlarimizga qiziqishi sovib borayotgani so'zimizga misol bo'la oladi.

Qoraqalpoq milliy bayramlaridan yani biri bu Zura'at bayrami bo'lib bu bayramni ham o'ziga hos xususyatlari bo'lib, xalq sevgan bayramlardan biri

bo'lgan. Dehqonlar bahor faslidan boshlagan mehnatining samarasini kuzda o'tkaziladigan Zura'at bayramida nishonlagan.

Zura'at bayramining Navruz bayramiga bog'liqlik tomonlari bo'lib, ya'ni, bahorda qadalgan birinchi urug' Navro'z bayrami bilan bog'liq bo'lsa, kuzga kelib hosilini berayotgan mahsulot Zura'at bayrami bilan chambarchas nishonlangan.

Qoraqalpoqlarning yoz fasli bilan ham bog'liq bir qancha bayramlari bo'lib, bu bayramlar qoraqalpoq xalqining mintelitetini belgilovchi omillardir. Masalan, "Qovun sayli" qoraqalpoq millatining milliy bayramlaridan biri bo'lib, bunda qoraqalpoq dehqoni dastlabki pishgan qovunlarni xalqni yig'ib mehnat natijasini odamlarga namoyish etishgan, xalqning duosini olib, xalqdan hosilning barakasini so'ragan. Albatta ushbu kuni xohlagan odam xohlagan qovunlarini iste'mol qilib, bayram kayfiyatiga hamohang bo'lgan.

Qishloqdagi hamma dehqonlar kelishuv asosida yoki oqsoqol ko'rsatmasiga binoan yohud an'anaviy muhim bir joyda o'zining qovunlari bilan bayramda ishtirok etishgan. Tajribali dehqonlar o'ziga hos qovunlari bilan ajralib turishgan. Masalan, "Gurbek", "Sari qovun", "Aleкке" qovunlari xalqning har yilgi sevib iste'mol qiladigan qovun navlaridir. "Qovun sayli"ning asosiy maqsadi birgina xalq duosini olish emas, balki dehqonlarning o'zaro tajriba almashish usullaridan biridir.

Bu bayramlar mustaqilligimizdan keyingi yillarda yana tiklanib hozirgi kunimizning eng ajoyib milliy sayllaridan biridir. Xalq sayillari nafaqat insonning ma'naviy olamini boyitgan, balki insonlarni o'zaro totuvlikka, hamjihatlikka chorlagan va mehr-oqibatli etib tarbiyalagan.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, xalq bayramlari va sayllarini chuqur ilmiy-tahlil etish, ular yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borish kunning dolzarb vazifasi sanalib, bu jarayonni Respublikamizning turli hududlarida qiyosiy tahlil asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.
2. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.

HE ARTISTIC IS THE MOST COMPREHENSIVE FACTOR FOR ENTERING THE HEART OF PEOPLE



Master of 2-nd course A.M. Oxundi
Master's department
Scientific adviser senior teacher
M.I. Sadikova

After gaining independence, in our country reforms and developments were implemented in all areas. The love of country, the complicity to peace and calm of motherland were increased in the heart of all of our citizens. Certainly, in the like these changes there are contributions of representatives of art and culture.

The first President of Republic of Uzbekistan Islam Karimov characterized remarkable things of creative people in the implementation of tasks in the following way: “Arts and culture is the most powerful force in human hearts, we are all aware that every genius has a great own world, for this people of art can not be taught creativity, and the most important, there is no need to attempt to control over them. But there are sacred concepts which combine them, inspired new achievements that they are depends on the interests of the homeland and the people, the principles of kindness and humanity in life. If all of creativities make the main purpose of the immortal ideas, express them with artistic skills, no doubt, the literature, the culture and arts will serve improvement and achieve to fulfilled its social function”⁶⁷.

⁶⁷ Karimov I.A. High spirituality is an invincible force. Tashkent-2008 y. 158 pg..

The theatre art is the sector which making communication between the stage, the audience and the emotional impact to people. That is the people watching the performance or artistic acting material by actors feel the feelings of the author characterized in his works. The flooding from feelings of other people and “contamination” their sense is important and suitable for this kind of art.

Taking into consideration everything mentioned above a lot of roundtable discussions, conferences, meetings and different projects are held with the participation of the creative people who propagate spirituality and culture across the country. Among like these projects “Who were we? Who have we been?”, “We are generations of great country” were spread across the republic.

Certainly, it is not accidental that there are creative people in these meetings. The artistic is the most comprehensive factor in entering hearts of people. Poets and writers with their poems and performances, singers with their songs and musics, actors of theatre and cinema with their roles influence to the sense of people. It is not difficult to see that importance of the participation of artistic. The importance of artistic in poems and performances of poets and writers, artistic content in songs of singers, artistic expression in playing of actor has a great power. So the artistic has an effective power, the representatives of the artistic sphere have to creative as exemplary level. But are these matters in the quality as we want? What is the quality of creations serving to enter the hearts of the people and upbringing their spirituality?

We can see the answers for these questions in singing examples which attain the main attention and time among wide public. Because there is concentration of creativity of a poet, melody of a composer and acting skills in using of the words on the singing art. It is true, in each epoch there are leading figures and their immortal works in our singing art. And nowadays also we have creatives and their creations like these. The words which included in the works of “singers” in brackets do not meet the literary and poetic requirements, different sad and promoting “mass culture” in clips, views and clothes alien for national mentality, banal monologues

of singers between songs impact negatively to the spiritual level of our people and it is seen in growing unquality works like these. We can see like these circumstances in other artistic directions.

In conclusion it is interesting to say, that creativities as we, moreover, all of youth must operate to put function of eliminating such defects and to promote our nationality. We can fulfill our duty before our homeland and people by such actions. The ideas of national pride and love of the country will soak through our artistic power.

ESTRADA SAN'ATIDA OBRAZ VA ROL



Pirnazarov Saubet

“Estrada aktyorligi san’ati” Mutaxassisligi

1- kurs magistranti

ilmiy rahbar: p.f.n J.A.Mamatqosimov

Estradada rol tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, o‘ziga aktyor faoliyatining to‘rt uslubini qamraydi.

Filormonik konsertda qatnashayotgan ijrochi adabiyot yoki musiqadagi epik, liro-epik turdagi asarlarda, muallifga yaqin bo‘lgan, tamoshabin bilan o‘z his-tuyg‘ulari va kayfiyatini baham ko‘ruvchi hikoyachi-ijrochi sifatida namoyon bo‘ladi.

Lirik poeziya va prozada, musiqa, raqsdagi ijrochi auditoriyaning oldida o‘z dunyosini, o‘y va xayollarini ochiqdan ochiq bayon qiluvchi lirik-qahramon roliga namoyon bo‘ladi.

Siyosiy, fuqarolik mavzusidagi satirik, yumoristik yo‘nalishlardagi estrada asarlari ijro etuvchi-hikoyachi bo‘lishi talab etiladi.

Va, nihoyat, estrada miniatyura teatrida, aktyor pesadagi portnyorlari bilan sharoitdan kelib chiqqan holda muloqat qilib, har doim zalga murojaat qilishga tayyor bo‘ladi. Bunday rolni estrada personaji roli deyish mumkin.

Ijrochi-hikoyachi yoki lirik-qahramon rolini ijro etayotgan aktyor ijro jarayonida bir daqiqaga ham obrazdan chiqmaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek estradadagi aktyor doimo obrazda bo'lib, shu rolga kirishishga xalaqit beradigan uning shaxsiy sifatlari vaqtincha to'xtatilgan bo'ladi.

Estradada ijtimoiy va badiiy rollarning maksimal yaqinlashuvi yuzaga kelib, artistning hikoyachi yoki lirik qahramon obrazi to'liq ishlab chiqiladi.

Filormonik asarlarda (boshqacha aytganda epik-konsertlarda) janrlarda rol ijro etayotgan estrada aktyorining chiqishi, hikoyachi tomonidan monolog-hikoya tarzida ijro etiladi. Hikoyachining monologdagi so'zi N.Efrosning fikricha, "Birinchidan bu hikoyachining shaxsiy so'zi bo'lib, obraz tomonidan emas balki, muallifga yanada yaqinlashib, o'z nomidan gapiradi".⁶⁸ Bunday qo'shilib ketish yozuvchining tasviriy shaxsiylashishi, u tasavvur qilgan xarakterlar chizgilaridir. Ayniqsa mashhur aktyorlar Ergash Karimov va Roza Karimova, Xojiboy Tojiboyev ijrolaridagi nomerlarni misol keltirishimiz mumkin.

Aktyor tomonidan lirik asarlarni ijro qilishdagi ahvoli, albatta aktyorning spektakldagi ahvoliga hamohang bo'ladi. Muallifning ichki ko'rishi, fikri, g'oyasi aktyor tomonidan qabul qilinib, natijada estradada lirik qahramon obrazi tug'iladi.

Har qanday turdagi lirik monolog-prozaik bo'ladimi, poetik bo'ladimi, vokal bo'ladimi, emotsional boyligi bilan, shaklning qisqaligi bilan, tuzilish strukturasining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Lirik monologga differensial yondashsak, har bir monolog tipining aniq manzilga qaratilgan va muloqatga yo'naltirilgani bilan xarakterlanishini ko'ramiz.

Muloqat uchun ishlatiladigan ijroning lirik uslublari quyidagilardan iborat:

- monolog-hikoya yoki monolog iqror bo'lish (zaldagi tomoshabinlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqat);
- monolog-"dialog" tasavvurdagi qayerdadur turgan indamas partnyor bilan;
- monolog-fikr qilish, monolog-esdalik yoki ichki monolog (o'zining ikkinchi "meni" bilan suxbat);

⁶⁸ Efros N. Zapiski chtetsa M., 1980, 34 b.

-teatr o‘yin monologi (jismoniy harakat davomidagi monolog, xuddi to‘rt devor orasida “Shu yerda, bugun, hozir” yolg‘izlik sharoitida).

Estradada obraz yaratishning yana bir o‘ziga xos uslubi bor. Aktyor barcha joyda, barcha nomerlarda o‘tkir obrazlilikda rol ijro etadi. Avval bunday uslubni estrada aktyori “niqobini yaratish” deb atalgan.

Estradada anchadan beri ishlatiladigan aktyor “niqobi” tushunchasi, estradaga sirk san’atining masxarabozlar janridan kirib kelgan.

Sirk masxarabozligi azaldan karnaval niqoblariga yaqin bo‘lgan: janglyorlar, hayvon o‘rgatuvchilar, akrobatlar hazil bilan epchillikni birlashtirganlar. Lekin, ularga eng oddiy, qotib qolgan nigohli niqob hamrox bo‘lgan. Estradaning so‘zlashuv komediyasi, ana shu karnaval shanbasidan vujudga kelib, o‘zini sirk masxarabozligida sinab ko‘rib, so‘ng o‘z yo‘lini topgan.

Estradadagi niqoblilik ayniqsa sirkda hozirgi kunimizgacha saqlanib qolgan. Estradada aktyor shaxsining o‘ssishi natijasida materiallar intellektuallashib estradani teatrga yaqinlashishi, estrada xarakterini yaratishda qotib qolgan “niqobidan” chetlashildi. Mashhur aktyor Arkadiy Raykin yoshligida Chaplin niqobida izlanishlar olib bordi, lekin zudlik bilan yillar davomida o‘zgarib, donolashadigan zamondoshi obrazini yaratdi. Olim Lev Mirov bu haqida quyidagicha yozadi. “Niqob”ning estradada tez-tez paydo bo‘lishi juda ham xavflidir. Shunday vaqt keldiki ijrochilar o‘zlari bilmagan holda shtamplarga duch kelib, bitta ijro uslubini mexanik ravishda qo‘llab, matinga talab darajasida, ezozlagan xolda qaramayabdilar. Eng asosiysi yillar davomida nomerning zamonaviyligi, originalligi yo‘qolib bormoqda”⁶⁹.

Lekin shunday fikrlar bildirilishiga qaramay turli mamlakatlarda “Niqob” estrada teatrlari muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar.

Hozirgi kunda tamoshabinning estetik jihatdan tayyorligi estradada tor “niqoblilikdan” voz kechib, uni estrada xakteri bilan almashtirish mumkin. Boshqa tomondan “niqoblilikning” ilk an’alarini estrada va sirkda saqlab qolib,

⁶⁹ Mirov L. Ne sostavlyat a stavit-Sov. Estrada i sirk, 1982 y. N11, 10 b.

xalq ichidan chiqqan oddiy, qo‘pol masxarabozlik janrini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ba‘zan monologli plandagi estrada rolini yaratishda aktyorlar pariklar yuzni qoplaydigan butaforik detallar (burun, peshona, quloq) ishlatadilar. Ularning kiyim almashtirishlari ham turlicha: tamoshabin ko‘z oldida darhol kiyinish yoki bir zumga aktyor kulislarning orqasiga o‘tganda.

Shuni aytib o‘tish kerakki estrada komediyasida –yumor, satira maishiy haqiqatni ilgari surmay, balki badiiy bo‘rtirishning imkoniyatlarini, kostyum, grim, rekvizitning absurdligini taminlaydi.

Xozirgi kunda o‘zbek estradasida Obid Asomov, Mirzabek Xolmedov, Valijon Shamsiyev, “Handalak” guruhi a‘zolari turli zamonaviy obrazlarni yaratishga harakat qilmoqdalar. Ayniqsa “Quvnoqlar va zukkolar” klubidan chiqqan “Millioner” va “Dizayner” guruxlarining chiqishlari tamoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Lekin, estrada aktyorlarini badiiy jixatdan mukammal asarlar bilan ta‘minlay oladigan mualliflarning yo‘qligi estrada dramaturgiyasining shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Agar madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan respublikamiz yoshlari orasida “Xajivchi shoir va yozuvchilar” ko‘rik tanlovi uyushtirilib, yangi talantli mualliflar kashf etilsa, o‘zbek estradasi rivojiga katta yordam bo‘lar edi.

XALQ SAYILLARINI O‘TKAZISHDA OVOZ REJISSORINING O‘RNI (NAVRO‘Z BAYRAMI MISOLIDA)



Qayumov Shoxrux
*“Ovozrejssorligi (kino, televideniye va radio
ovoz rejissorligi)” mutaxassisligi 1-kurs magistranti*
*Ilmiy rahbar: O‘zbekiston san‘at arbobi,
professor M.Maxamedov*

Mustaqillik xalqimizning zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochdi. Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga yanada keng targ'ib qilish jarayonini boshlab berdi. Xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi – Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot kurslari, uning tarkibidagi folklor asarlarining badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazish bilan bog'liq lokal belgilar ro'yobga chiqdi. Sho'ro tuzumi davrida asossiz ravishda Navro'z diniy bayram va marosimlar qatorida man qilindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, boshqa kadriyatlar katorida Navro'z bayrami yana tiklandi, yangicha mazmun va mohiyat kashf etdi.

Navro'z bayrami – yangi kun, ulusning ulug' kuni, bayram, shamsiya (quyosh) yil hisobida yilning birinchi kuni. Markaziy Osiyo, Kavkaz va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning eng qadimiy an'anaviy bayramidir. Bahorgi teng kunlikka ya'ni quyoshning Hamal burjiga kirishiga to'g'ri keladi. Navro'z kelishi bilan butun tabiat uyg'ona boshlaydi, yer bag'ridagi barcha maxluqot va mavjudotlarning, qurt-qumursqalar, o'simlik va o't-o'lanlarning jonlanishi ruy beradi. Navro'z dehqonchilik ishlarini boshlash bayrami ham hisoblanadi.

Bunyodkorlik va yaratuvchanlik, mehr-muruvvat va hamjihatlikni, bir so'z bilan aytganda butun borliq, zaminni uyg'atuvchi suyuqli ayyom – Navro'zni manna necha asrdiki xalqimiz orziqib kutadi. Turli nizo va adovatlarni unittirguvchi, qalblarda mehr-oqibat, shafqat va muruvvat, xamjixatlik, sahovat kabi insoniy tuyg'ularni jo'sh urdiruvchi ushbu ayyom ayni kunlarda yurtimizning har bir gushasida, xatto cheka ovulu qishloqlarigacha keng nishonlanadi.

Joriy yilda ham Prezidentimizning 28-fevraldagi «2017-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq Navro'z bayrami mamlakatimizda umumxalq sayli sifatida nishonlandi.

Umumxalq Navro‘z bayramining yurtimiz ma‘naviy hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e‘tiborga olib hamda aholining dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 20 mart dam olish kuni deb e‘lon qilindi. Shu munosabat bilan yurtimizda 20-21 mart kunlari Navro‘z sayllari bo‘lib o‘tdi.

Toshkent shahrining 23 ta madaniyat va istirohat bog‘larida «Navro‘z umumxalq bayrami»ga bag‘ishlangan Navro‘z sayllari tashkil etildi. Jumladan, Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ida tashkil etilgan bayram sayli erta tongdan yurtdoshlarimizga quvonch va ko‘tarinkilik bahsh etdi. Bu yerda Navro‘z ko‘rki, tarovati har galgidan boshqacha tus oldi. O‘zgacha shukux, o‘zgacha kayfiyat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shaxsan bayramga tashrif buyurib barcha yurtdoshlarimizni bayram bilan qutladi. Xalq saylida tabiat uyg‘onishini madh etuvchi navolar, kuy-qo‘shiqlar taraldi. Folklor etnografik ansambllarining chiqishlari, xalq o‘yinlari bayramni yanada qizitdi.

Ommaviy tadbirlarda ovoz rejissyorligi san‘ati alohida ahamiyatga ega. Navro‘z umumxalq bayrami ommaviy tomoshalari, musiqiy dramaturgiyasi tomosha badiiy yaxlitligida obrazli musiqa vositalaridagi yangi imkoniyatlarni ocha bilgan maydon spektakli sifatida alohida ajralib turadi. Bu haqida san‘atshunos B.Shodiyev shunday yozadi, «Navro‘z bayrami katta tomoshalari xalq san‘ati, an‘naviy mumtoz san‘at, yangi shakldagi malakali san‘at va zamonaviy estrada yo‘nalishlarida ijod qilayotgan bolalardan tortib professional san‘atkorlar va havaskorlargacha bir joyga to‘planib, mahoratda o‘zaro tortishadigan va o‘zaro ta’sirlanadigan maydonga, san‘at maktabi, laboratoriyasiga aylandi».⁷⁰ An‘naviy teatr tomoshalariga muvofiq keluvchi folklor, urf-odat va marosim ko‘rinishlarida xalq ijodkorligi, badiiy tafakkuri o‘z aksini topadi. Ammo mazkur ko‘rinishlarni sayqallab, sahnaga moslab, maydon tomoshasining badiiy kompozitsiyasiga singdirish va badiiy yaxlitlik sari yo‘naltirish nihoyatda murakkab mehnatdir.

⁷⁰ Shodiyev B. Eng ulug‘ va eng aziz bayram tomoshalari. –T.: O‘zbekiston NMIU, 2005. B 43.

Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida tashkil etilgan bayram sayli tomoshasi ochiq maydon hamda amfiteatrda tashkil etildi. Bunda ovoz kuchaytirgichlar yani analog ovoz miksher pulti, asosiy minbarga qarama-qarshi ovoz kuchaytirgich 2000kv aktiv karnaylar, rang-barang texnik yoritgichlar, maydon o'rtasida ekran monitor bayram tomoshasini sifatli o'tishini ta'minladi. Mazkur badiiy elementlar ommaviy tomosha tizimini yangilab, tomoshaning uyushtirish, boshqarish va ijro borasidagi innovatsiyalarni olib kirdi. Tomoshani tashkillashtirish va boshqarish borasidagi tasavvurlar o'zgardi.

Har bir ko'rinish xalq ijodkorligi namunasi bo'lib qolishi bilan birga, boshqa san'atlarga muvofiqlashishi, mutannosiblik kasb etishi hamda uyg'unlikka xizmat qilishi muhim bo'ladi. Navro'z tamoshalarini tayyorlashda jamoalar bilan ishlash nihoyatda murakkablashadi. Ko'plab repititsiyalar, muhokamalardan so'ng bir qarorga kelinadi, ish tasdiqlanadi. Navro'zda alohida ovoz bezagiga effekt sifatida qo'llaniladigan ifoda vositalari ko'p. Zero, tabiatning uyg'onishi, borliqdagi jamiki mavjudot ko'z ochishidek tarovatli bahor fasli o'zining betakror badiiy ovozigaga. Shulardan biri zilol suvlarning shildirashi, bahor qushlarining sayrashidir. Mazkur ovozlarni tabiiy muhitda yozib olinishi, sun'iy sayqallar kiritilmagani holda qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Navro'z tantanalari nafaqat ko'pmingyillik musiqiy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi, shuningdek, azaliy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyatini belgilashga va milliy ma'naviyat olamini boyitishga ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. «2017-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Prezident Qarori. (rasmiy internet portali www.lex.uz)
2. Sayfullayev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2014, 152 bet.
3. Tumanov I. Rejissura massovogo prazdnika i teatralnogo konserta. –M.: 1981, 257 S.
4. Umar Hayyom. Navro'znoma. –T.: 1990, 230 bet.
5. Leshinskaya V, Malishev A. Bolshaya kniga prazdnikov. -M.: 2017, 210 S.

ZAMONAVIY O‘ZBEK KINO SAN’ATIDA PROFESSIONALIZMNI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR



Qodirov Ulug‘bek

“Drama teatri va kino aktyorligi san’ati”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s. f. n., dotsent O.Rizayev

O‘zbekiston XXI asrga yangi kursga ko‘tarilgan ma’naviyat bilan kirib keldi. Uni yanada takomillashtirish borasida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov “Biz bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san’atigacha, bir so‘z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi kursga ko‘tarishimiz zarur”⁷¹ deb ta’kidlaydi.

Bugungi kunda o‘zbek kino san’ati ham rivojlanib bormoqda. Uning rivojiga juda ko‘p ijodkorlar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Haqiqiy, tom ma’nodagi ijodkorda esa jahon ilmi, ma’naviy olamida qadr topgan Imom Buxoriy, At-Termiziy, Al-Farg‘oniy, Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, buyuk sarkardalardan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur hamda millat istiqloli yo‘lida qurbon bo‘lgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa ko‘plab alloma siymolar yashagan Vatanda yashash burchi, ijodkor bo‘lish sharafi, mas’uliyatini qalb va aql zakovati bilan his etish, munosib san’atkor bo‘lish tuyg‘usi shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

⁷¹ Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. 29-b.

Shunday ekan, kino san'atida har bir ijodkor, u ssenariy muallifi bo'ladimi, rejissor, operator, rassom va aktyor bo'ladimi, o'z ishini professional darajada mahorat bilan amalga oshirishi lozim. Biz tadqiq etayotgan professionalizm har sohada muhim bo'lganidek, kino san'atida ham o'ta muhim ahamiyatga ega. Sababi, hech qanday vosita kinochalik inson ongi va qalbiga kuchli ta'sir eta olmaydi.

Har qanday kinoijodkor ham o'z-o'zidan professional bo'lib qolmaydi. Buning uchun yillar davomida tinimsiz mehnat qilish lozim bo'ladi.

Aktyor professionalizmini qanday omillar rivojlantiradi? Aktyor mahoratli ijrochi, professional bo'lishi uchun undan nimalar talab qilinadi?

Kuzatuvchanlik, tasavvur mahorati va o'tkir xotira ijodiy jarayon va iste'dodni boyituvchi manbalardan biridir. Ta'lim va tarbiyaning boshlang'ich davridan ijodiy faoliyatning shakllanish va yetuklik davrlarida ham kuzatuvchanlik, zehn-tasavvur, so'z mahoratining ta'sirchanlik qudratini ta'minlaydi. Insoniyatni hayratlarga solgan daho yozuvchilar tasviriy san'at namoyandalari, rejissorlar, aktyorlar, so'z ustalari ijodiy faoliyatining mukammallik mezonlariga erishishidan dunyoning bor sehri, jozibasi rang-barangligi, betakrorligini ko'ra olish, his qila olish salohiyatini ahamiyati katta bo'lgan. Yosh ijodkorlarda professionalizmni rivojlantirish uchun uning tasavvur olami, idrok qila olishi, kuzatuvchanligi, diqqati va bularni ifodalash mahorati ustida ishlash muhimdir. Bu yo'nalishda vazifalar, shart-sharoitlar, xatti-harakatlar asosiga qurilgan mashqlar ijodkorning mukammal fikrlay olishiga, ichki hatti-xarakat va so'z san'atiga o'zining ijobiy-ijodiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mustaqillik sharofati bilan kinorejissorlarning turli mavzulardagi izlanishlari, tomoshabinlar ko'ngliga yo'l topish maqsadida taqdim etayotgan filmlar soni ko'paygani quvonarli hol. Ammo kino olamida professionalizm masalasiga bo'lgan beparvolik, e'tiborsizlikka kinoshunoslar va tanqidchilar nimaga bu jarayonni jim kuzatishmoqda, degan savolni yuzaga keltiradi. Agar yosh kinorejissorlarning ishlariga tahliliy-tanqidiy yondashmas ekanmiz, ertaga

bu sohada maxsus tahsil olmaganlar saviyasiz filmlar yaratib, ularni tomoshabinlarga namoyish etaveradilar. Buning oqibatida tomoshabin ma'naviyati va madaniyatining qashshoqlashishiga "katta hissa" qo'shadigan filmlar soni yanada ortadi.

Shunday ekan, bu kabi filmlarni tomoshabinga havola etish bugungi kun uchun qanday ahamiyatli ekanini, ularning yoshlar ongiga ta'siri borasidagi fikrlar, ayniqsa, tahlil jarayoni dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Biroq nima yaxshi, nima yomonligini tomoshabinning o'zi hal qiladi, degan fikr ham bor. Inson immuniteti har doim ham kasallikka qarshi kurashaverishi natijasida zaiflashib, virusga taslim bo'lishi tibbiyotda kuzatilgan. Yosh tomoshabinlar saviyasini, ma'naviyatini va madaniyatini rivojlantirishga kinoshunoslar, san'atshunoslar, shuningdek, tajribali kinorejissorlar, dramaturglar o'z hissasini qo'shmasa, saviya jihatidan past filmlar tomoshabin immunitetini, ma'naviyatini zaiflashtiradi. Bu jarayonga qarshi kurash esa kichik bir e'tibordan, ya'ni har bir filmning ilmiy o'rganilishidan boshlanadi. Demak, kino tahlilini yo'lga qo'yish kino san'atining eng dolzarb ilmiy masalasi bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda yuz berayotgan demokratik yangilanishlar inson omiliga yangicha munosabatni shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan "Barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezoni"⁷²ni ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilishi davr talablariga hamohang bo'ldi. Uning ong tafakkurini milliy g'oya bilan sug'orish zarur. Chunki I.A.Karimov ta'kidlaganidek, bugungi kunda bizni o'rab turgan dunyo qanchalik tez o'zgarib borayotgani, yaqin va uzoq atrofimizda turli mojaro va qon to'kishlar davom etayotgani, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik xavfi ortib, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari yanada chuqurlashib borayotgani haqida ortiqcha gapirishning xojati

⁷² Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. 32-b.

³ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015. 15-b.

yo‘q, deb o‘ylayman. Albatta, bularning barchasi har birimizni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi va bizdan jahonda yuzaga kelayotgan vaziyatni sergaklik bilan baholashni talab qiladi⁷³.

Bu kabi xushyorlik va ogohlikni jamiyatimiz a‘zolarining kundalik turmush tarziga aylantirishda teatr va kino san‘atining, xususan, uning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi aktyorlar professionalizmining ham munosib hissasi bor.

Ikkinchidan, bayram, tantana va turli shodiyona kechalari, tomoshalarni tashkil etish o‘zbek xalqining tabiatiga xosdir. Jumladan, mashhur tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Temuriylar davrida o‘tkazilgan bayramlar haqida to‘xtalib, “Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g‘azal-u naqsh aytur erdilar. Va turku mo‘g‘ul, xitoy-u arab va ajamdin har kim o‘z rasmi bilan nag‘ma aytur erdi”⁷⁴, degan ma’lumotlarni bergan. Bu an’analar bugungi dorilomon kunlarda ham jamiyat a‘zolariga milliy g‘urur va iftixor bag‘ishlamog‘i zarur.

Uchinchidan, global axborotlashuv sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilishda axborot omili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’kidlash joizki, loballashuv yangi muammolarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda “jahonda demokratiyani olg‘a siljitish”ga urinishlar, ayrim kuchlar tomonidan inson dunyoqarashini boshqarish, kishilarda “zamonaviy” fe’l-atvor va qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan harakatlar, dunyo xalqlarini o‘ziga xos tarzda g‘arblashtirishga intilish kuzatilmoqda. Ayni shu jarayonda xalqni, xususan, yoshlarni milliy ma’naviyat bilan qurollantirish, ularni ommaviy madaniyat ta’siridan himoyalash vazifasini ado etishda kino san‘atining alohida o‘rni bor. Chunki u o‘z tomoshabinlarini milliy g‘oyamiz, milliy mentalitetimiz va turmush tarzimizni turli diniy ekstremistik qarashlardan ustunligi, insonparvarligini sahna asarlari va ulardagi qahramonlar talqinida tushuntirib bermoqda. Bu esa bugungi islohotlar davrida o‘zbek kino san‘atida aktyorlar professionalizmini sifat jihatidan

⁷⁴ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. 56-b.

yangi kursga ko'tarishda ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan samarali vosita va texnologiyalardan keng foydalanishni taqozo etmoqda.

Aktyor tarbiyalash jarayonida guruhlariga bo'lib ishlash juda yaxshi natija beradi. Guruhlar bir xil vazifani bajarsalar-da, dunyoqarashi, tasavvuri o'ziga xosligi bois, yondashuv boshqacha bo'ladi, qiziqarli bo'ladi. Bu ijodiy yondashuvdir. Yana shunisi muhimki, bir guruhni ikkinchi guruh kuzatib o'tirsa, kamchiliklar yaqqol ko'rinadi va bu kamchilikni ular takrorlamasligi uchun o'z ustida puxta ishlashadi. Vazifalarni bajarish jarayonida yangiliklar topadilar.

Sahnada qahramon xarakterini yaratishning asosiy vositalari so'z, jest, harakat, grim va libosdir. Bu vositalar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa, aktyor ijrosida so'z va harakat uyg'unligi chuqur o'rganiladigan masaladir. Bugungi kunda aktyorlik san'ati ko'pchilikning nazarida *“eng oson kasb”* sanalib, sahna maydoniga qobiliyati bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar o'ta mas'uliyatsizlik bilan kirib kelmoqda. Bunday holatni ko'proq kinoda kuzatish mumkin. Ammo teatr sahnalarida havaskorlarning ko'payib borayotgani professional teatrlarning saviyasiga putur yetkazishga sabab bo'lmoqda. Sahnada aktyor tomonidan so'zning buzilishi, notabiiy, ishonchsiz harakatlar qilinishi ham aktyorning aktyorlik san'atidan yiroqligidan yoki kasbni yaxshi o'zlashtirmaganidan darak beradi.

Aslida san'at aktyordan tinimsiz mehnatni talab qiladigan soha. U mehnat, aql va bilim orqali amalga oshiriladi. Undan tashqari artistlik tabiati o'zining kuchli, asoslangan qonunlariga ega. Buyuk artistlar rol ustida ishlaganda oddiy qiziqish va taxminlarga emas, aynan ijrochilikda sinalgan va o'zgarimas qonunlarga amal qilgan holda izlanganlar va o'z yo'llarini topib, muvaffaqiyatlarga erishganlar. Turli xarakterlar yaratish bilan tomoshabin qalbida o'chmas iz qoldirgan Abror Hidoyatov, Olim Xo'jayev, Obid Jalilov, Shukur Burxonov, Razzoq Hamroyev, Sora Eshonto'rayeva, Zamira Hidoyatova, Zaynab Sadriyeva, G'ani A'zamov, Yoqub Ahmedov, To'lqin Tojiyev, Obid Yunusov, Erkin Komilov kabi ko'plab aktyorlar shular jumlasidandir. Bu aktyorlar talantli bo'lish bilan birga, xarakter

yaratishda eng muhim ifoda vositalari bo'lgan so'z va harakatni yuzaga kelish qonunlarini yaxshi o'zlashtirganlar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Sharq, 1997.

“DIYDOR” TEATR-STUDIYASI TARIXIGA QISQACHA NAZAR



Qodirov Fazliddin
“Drama teatr va kino
Aktyorligi san'ati” mutaxassisligi 1-kurs magistranti
ilmiy rahbar: professor v.b. X.Sadiyev

Yurtimizning turli hududlaridagi teatrlarda ijodiy faoliyat boshlab, teatr sahnasida o'z o'rnini topishga intilib, ustozlar va tomoshabin ishonchiga erishishga intilayotgan yosh rejissyorlar borki, ularning aksariyati “Diydor” teatr-studiyasida tahsil ko'rgan. Bu studiyaning faoliyati, undagi ijodiy muhit haqida ko'pchiligimiz bilamizki, u malakatimizda mavjud 36 ta davlat teatrlari safida turuvchi professional maqomga ega bo'lgan 37- teatr -studiya hisoblanadi.

“Diydor” teatr studiyasi deyilganda, bugun soha yoshlarining ko'z oldiga saxna san'atida katta ijodiy muhit yarata olgan salohiyatli rejissyor Bahodir Yo'ldoshev va uning teran saboqlari ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bu bejiz emas albatta. Uning badiiy rahbarligida teatr-studiya ham o'quv, ham ijodiy jarayonlarda o'z samarasini berib kelmoqda.

Ushbu teatr-studiya 28 yildan beri ijodiy faoliyatda bo'lib, yosh rejissyorlar va aktyorlarning mahoratini, turli teatrlarda va kinoda ijod qilayotgan aktyorlarning malaka oshirishi uchun o'ziga xos maskan vazifasini o'tab

kelmoqda. Studiya faoliyatining boshlanishi atoqli teatr rejissyori Ergash Masofayev bilan bevosita bog‘liq. 1989 yilda Xukumat qarori bilan tashkil etilgan ushbu teatr- studiyaning ilk badiiy rahbari va rejissyori sifatida Ergash Masofayev uning ijodiy qiyofasini yaratishga erishdi.

Darvoqe, studiyaning nomi bevosita spektakl nomi bilan bog‘liqlikdan dunyoga kelgan bo‘lib, Ergash Masofayev bu studiyada sahnalashtirgan birinchi spektakl *“Diydor”* (Maksim Karimov asari) deb nomlangan. Shu spektaklning muvaffaqiyati nafaqat teatr-studiyaning nomi, balki, uning kelgusi ijodiy qiyofasining yaralishiga ham mustahkam poydevor bo‘lgan. Tabiiyki, teatrmi yoki studiya bo‘ladimi, har qanday ijod maskanining kelajagi undagi ijodiy rahnamoning salohiyati muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev 2009 yildan buyon unga rahbarlik qilib, teatr san’atimiz ertasiga xizmat qiluvchi, asl “teatr odamlari”ni tarbiyalash, sahna san’atining eng nozik sirlari borasida bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish, eng asosiysi chinakam ijodkorlarni tarbiyalab, to‘g‘ri yo‘nalishga solishdek murakkab va mas’uliyatli vazifani amalga oshirib kelmoqda.

Bu studiyada tahsil olayotgan yigit qizlar boshqa yoshlardan farq qiladi. Ularning sahna san’atiga qarashlarida teran tushunchalar ildiz otib borayotgani, badiiy didi o‘tkirlashib, teatr degan katta olamga muhabbatlari ortib borayotganligini payqash mumkin. Studiyada bugungi kunda aktyorlik, rejissyorlikdan tortib, ssenografiya, rekvizit tayyorlashgacha bo‘lgan barcha ishlar amaliy o‘rgatiladi. Yoshlarni o‘qitishda studiyaga tajribali teatrshunoslar, ssenograf, yozuvchi va boshqa ko‘plab mutaxassislar muntazam jalb etilishi, uning o‘quvchilarini soha va o‘zlari tanlagan kasblarini yanada chuqurroq o‘rganishiga katta imkoniyat borligini anglatadi.

“Diydor” studiyasida mahorat saboqlarini o‘rgangan ko‘plab yosh rejissyorlar hozirda respublikamizning turli viloyatlaridagi teatrlarda ijod qilib kelmoqda. Masalan, Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri sahnalashtiruvchi rejissyori- Akbar Berdiyev, Jizzax viloyat musiqali drama teatri sahnalashtiruvchi

rejissyori- Shoxruh Yo‘ldoshev, Samarqand viloyat musiqali drama teatri sahnalashtiruvchi rejissyori- Shuhrat Sanaqulov, Qo‘qon shahar musiqali drama teatri sahnalashtiruvchi rejissyori- Obidjon Abdullayev va boshqa ko‘plab ijodkorlar ushbu studiya talabalaridir. Ular teatr san‘ati institutida olgan bilimlarini yanada mustahkamlab, turli sahnalar sahnalashtirayotgan spektakllari, rejissyorlik izlanishlari bilan e‘tiborga tushmoqda. Bu studiyada o‘qib ketgan ko‘plab yosh ijodkorlar, o‘z muvaffaqiyatlarida “Diydor” studiyasida olgan amaliy va nazariy bilimlarining ta’siri katta ekanligini faxr bilan aytib yurishadi. Demak bu teatr-studiyada ijodkor tayyorlashdek mashaqqatli vazifaga sarflanayotgan kuchlar besamar ketmayapti. Haqiqiy san’atkorlik, chinakam teatr san’ati haqida mustahkam ruhiy kuch ola bilishning o‘zi- istiqbolda bu sohaga turgak bo‘luvchi yangi bir iste’dod bo‘y ko‘rsatishiga umid beradi. Bu ayniqsa, bizning davrda, globallashuv, “ommaviy madaniyat” oqimlari orasida asl san’at va antimadaniy tushunchalar orasidagi muvozanat yo‘qolib borayotgan pallada juda muhim o‘rin tutadi.

“Diydor” studiyasining ijodiy faoliyatiga qisqacha nazar solar ekanmiz, uning repertuaridagi son jihatdan oz, ammo, badiiyati jihatidan soz spektakllar yaratilib kelinayotganiga guvox bo‘lamiz. Bunday ijodiy jarayon kasb talablari bilan hamohanglikda olib borilishining natijasi sifatida ahamiyatlidir.

"Diydor" teatr-studiyasi ko‘plab yosh iste’dodlarni kashf qilishga ko‘maklashib, qator spektakllar orqali professional teatr san’ati rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. Yosh ijodkorlar bilan "Diydor" teatr-studiyasida har yili eksperimental spektakllar sahnalashtirilishi fikrimizga asos bo‘ladi. Ular-"Oydin kechalar", "Nodirabegim", "Kulgu akademiyasi", "Xalima", "Hayrat Ul Abror", "Yodim siniqlari" (Zulfiya), “Maysarining ishi”, “Yulduzli tunlar” kabi spektakllardan iborat. Yuqoridagi tomoshalar studiya o‘quvchilari ishtirokida dunyoga kelgan o‘ziga xos spektakllardir. Ularda yosh aktyorlar mashxur rejissyor qo‘lida sahna olami sirlarlarini chuqur o‘rganganishga

intilayotganini va studiyaning uzoq yillik mahorat mashg'ulotlari samarasini yorqin namoish qilayotganini ko'rish mumkin.

Albatta hech bir tahsil mashaqqatsiz bo'lmaydi. Ayniqsa, u ijodkorlik, iste'dod tarbiyasiga qaratilgan bo'lsa. "Diydor" teatr- studiyasi mana 28 yildirki ana shunday mashaqqatli ham huzurli jarayonni kursma-kurs davom ettirib kelyapti. Bu vaqt mobaynida bu ijod maskanida qanchadan- qancha yoshlar sahna san'ati saboqlarini olib kelyapti. Xulosa qilib aytganda bu studiya ostonasiga kelgan o'quvchi o'qish jarayonida chekkan zaxmatlari evaziga o'z kelajagi uchun mustahkam badiiy asosga ega bo'ladi. Mamlakatimizda sahna san'atining yanada rivojlanishiga hissa qo'shayotgan "Diydor" teatr-studiyasi o'z oldiga qo'ygan badiiy vazifalarini bajarib kelmoqda. Bu yo'lda erishilayotgan har bir yutuq, har bir ijodiy natija esa o'zbek teatr san'atining ertasiga yo'l ochmoqda.

Adabiyotlar:

1. I.J.Maxmudov. Ergash Masafoyev iste'dotlarni kashf qilib– T.: 2014.
2. Tursunov T. Sahna va zamon – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
3. Ikromov H. Davr va teatr – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2009.

QIZIQLAR SAN'ATI



Rajabova Shaxnoza

"Estrada aktyorlik sanati "

mutaxassisligi 2 - kurs magistranti

ilmiy rahbar ; fal.f.n, dotsent M.Umarov

Har bir xalqning aktyorlik san'ati negizida yakka ijrochilik orqali obraz yaratishning turli uslub va ijodiy namunalari mavjud. Bunday namunalar tarixiy davr, milliy xususiyatlar, tomosha janrlari, ijodiy uslublarining xilma-xilligi hamda

ijodkor tafakkuri bilan bog‘liq izlanishlar natijasidir. Shuning uchun xalqimizning boy va rang-barang yakka ijro bilan bog‘liq ijodiyoti o‘z tarixiga, an‘anasiga va o‘zgalarida takrorlanmas xususiyatlariga ega. Ular orasida so‘z sanati ustalari, qiziqclar ijodi alohida e‘tiborga molik.

O‘tmishda Turkistonning turli shaharlarida o‘z ijodi va mahorati bilan nom qozongan Bidiyorshum, Zokir Eshon, Rizo qiziq, Sa‘di Maxsum, Normat qiziq, Yusufjon qiziq kabi ijodkorlar so‘z san‘ati bilan bog‘liq yo‘nalishda faoliyat olib bordilar, hamda o‘z ijodlarini elga manzur qila oldilar.

“Masxarabozlik va qiziqchilik –o‘tkir komediya, muqallid, serzavq hikoya, hajviy qo‘shiq, kulgili o‘yin demakdir. Bu yomonlarga nisbatan gurzi, yaxshilarga ko‘tarinki kayfiyat, kulgu, g‘ayrat, rohat baxsh etuvchi xalq san‘atidir. Bu teatr artistining - masxaraboz (masxara), qiziqchi (qiziq), taqlidchi (muqallid) deb nom olgani ham bejiz emas. Masxaraboz, qiziqchi va muqallid – hajv va tanqid, hazil va taqlid, qahqaha va xanda ustasi demak. Zotan ularning san‘ati komedik – hajviy yo‘nalishga ega, asosiy quroli satira va yumordir”⁷⁵- deydi Muhsin Qodirov. Taniqli olim ko‘p yillik izlanishlari va ilmiy tadqiqotlari natijasida o‘zbek an‘anaviy teatrida uch asosiy guruh, Buxoro va Xorazm masxarabozlari, hamda Farg‘ona qiziqclar teatri faoliyat yuritganligini ta’kidlaydi.

Buxoro masxarabozlari teatri ijodkorlari qishloq va shahar masxarabozlaridan tarkib topgan bo‘lib, ular 4-5 kishi qatnashadigan tomoshalarida kichik hajm va maishiy mavzudagi masxarabozlikni ijro etganlar. Ular o‘z ijrosida so‘zdan ko‘ra, ko‘proq harakatga hamda mimikaga e‘tibor berganlar.

Xorazm masxarabozlari teatri tomoshalari katta yig‘inlarga mo‘ljallangan bo‘lib, ular repertuarida hayvonot olami, xalq turmushini aks ettiruvchi pantomimalar yetakchi o‘rin tutgan. Xorazm masxarabozlarining barcha tomoshalarida so‘z bilan bir qatorda kuy, qo‘shiq, raqs, muallaq, pantomima juda katta rol o‘ynagan.

⁷⁵ M.Qodirov. O‘zbek xalq tomosha san‘ati. -T.:O‘qituvchi, 1981. 36-bet

Fargʻona qiziqchilari ham oʻzbek anʻanaviy teatrining paydo boʻlishi va rivojlanishiga oʻziga xos hissa qoʻshgan. Qoʻqonda XX asr boshlarida Zokir eshon boshliq anʻanaviy teatr truppasi mahalliy va Margʻilon atrofidagi qishloqlardan yigʻilgan zamonasining eng isteʼdodli qiziqchilaridan iborat boʻlgan edi. Qiziqchilar truppasi xon saroyida xizmat qilgan vaqtlarida ham xalqdan hech uzilmasdan uning manfaatlarini qoʻriqlab kelgan. Qoʻqon va Margʻilon kiziqchilari oʻz qobiliyati va mahorati bilan soʻz sanʼatini yuqori saviyaga koʻtargan yirik ijodkorlar edi. Truppaning muvaffaqiyatli faoliyati koʻp jihatdan Zokir qiziqning tashkilotchiligi, bilarmonligi va ustaligiga bogʻliq boʻlgan.

Zokir qiziq ijodi haqida akademik Mamajon Raxmonov, professorlar Toshpoʻlat Tursunov va Muxsin Qodirovlar oʻz fikrlarini bildirgan. Oʻzbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy esa “Mehrobdan chayon” asarida Zokir qiziqning tashqi qiyofasini shunday tasvirlaydi: “Bordon ichidan uzun boʻyli, qora saqolli ustida malla toʻn, simobi boʻz, sallasining peshini bir qarich osiltirgan bir kishi chiqdi, tamkin, viqor bilan bitta-bitta yurib kelib zina yoniga, xonga qarshi toʻxtadi. Xondan tortib hammaga tabassum tusi kirgan edi. Kishi xonga qarshi turgan xolda, oldini oʻradi, soʻngra xotirjam rukuʻga bordi. Birdan xon va raiyat kulib yubordilar. Bu kishi Xudoyorxonning eng yaxshi koʻrgan qizigʻi Zokir gov edi”⁷⁶.

Zokir eshonni XIX asr oʻzbek anʻanaviy teatrining eng yirik va qobiliyatli korfarmoni, yaʼni ish yurituvchi - rejissyori edi, deb taʼkidlaydi yuqoridagi olimlar. U Oʻzbekistonda eng yirik teatr truppasini tashkil qilgan, maʼmuriy va badiiy rahbar sifatida muvaffaqiyatli faoliyat olib borgan mashhur – qiziq edi.

Maʼlumotlarda keltirilishicha, Zokir eshon oʻz truppasiga mos keladigan asarlar tanlash, tomoshabinlar guruhiga qarab dastur tuzish, anʻanaviy spektakllarni sahnalashtirishda aktyorlarning imkoniyat darajasidan, tashqi qiyofasidan kelib chiqib, rollar taqsimotini oʻtkazar ekan. Soʻz sanʼati bilan bogʻliq tomoshalarda aktyorlarning ijodiy uygʻunlikdagi ijrosiga erishib - tomoshalarning

⁷⁶ A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. -T.: Oʻzadabiynashr, 1959.141-bet

muvaffaqiyatli chiqishiga olib kelar ekan. Zokir eshon truppasidagi barcha aktyorlar usta ko'rgan – ya'ni ustozidan duo olgan bo'lib, ularning har biri keyinchalik o'z ijodiy qiyofasiga ega yirik san'atkorlarga aylangan. “Chunonchi, Zokir qiziq mudarris, qozi, eshon, rais kabi diniy amaldorlar obrazini qoyilmaqom qilib bajargan bo'lsa, shogirdi Rizo kuyik muqallidga usta bo'lgan⁷⁷”, deb ta'kidlaydi Muxsin Qodirov. Darhaqiqat, qiziqlar guruhining har bir a'zosi o'z davrining turmush tarzini, xalqning orzu - umidlarini, intilishlarini, ijtimoiy va siyosiy ahvolini yaxshi bilganlari uchun ham ijrosi tabiiy hamda xalqchil bo'lgan. Umuman olganda, truppa repertuaridagi aksariyat spektakllar mavzusi – muhitni, amaladorlarni, xasis boylarni, chalasavod ulamolarni masxara qiluvchi satirik komediyalardan iborat bo'lib oddiy xalq turmush tarzida uchrab turadigan ayrim nuqsonlarni yengil kulgi ostiga olgan.

So'z san'ati bilan bog'liq an'anaviy teatr aktyorlarining ijrosi o'z rivojida bir qancha kurslarni o'tagan. Alisher Navoiyni “Majolisun-nafois” asarida nadimlar va hazzol kishilar haqida shunday ma'lumotlar beradi. “Chunonchi nadimlar - mohir qiziq, so'z ustasi, suhbat shirin kishilar, hazzol - qiziq kishilardan mavlono Burunduqni, mavlono Bilolni, mavlono Muzaxxirni, mavlono Jununini tilga olib - “Nadimvash va hazzol kishi erishlar... ul zamon shuorosalarning tilidan qo'rqub, alarning jonibini ko'p rivoyat qilur erishlar”deb, ularning hajviyasiga eldagi ehtirom va ehtiyoj to'g'risida to'htalib, - “haloyiq ul hajvini yod tutdilar... va ul hajv chun mashhur erdi...”⁷⁸ deb, so'zga chechanlik, badihago'ylik, ya'ni hozirjavoblik bilan shuhrat topgan san'atkorlar tahsinga sazovar bo'lganini izohlaydi.

Shuningdek, Hirotda so'zda baxslashuvchi, hozirjavob, o'tkir so'z, xushta'b, shirinsuxan suhbatdoshlar, ya'ni askiyabozlar keng tarkalganini, o'z baxslarini she'r va lutf bilan olib borgan mavlono Muhammad Olimni tilgan olib, u - “Bag'oyat dilbar va sho'x ta'b va xiyr kishi erdi, bahsda ko'p gustohona so'zlar va javoblar aytur edi”-deb ta'kidlaydi. Navoiy badiiy nutq san'atining ravnaqiga

⁷⁷M.Qodirov. O'zbek xalq tomosha san'ati. -T.:O'qituvchi, 1981.41-bet

⁷⁸M.Rahmonov. O'zbek teatri:qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. -T.: Fan, 1975. 236-bet

katta e'tibor berib, "...dard ahlining nafasi bir o'tdirkim, qattiq ko'ngilni yumshatur va qurug' ko'zni yig'latur"⁷⁹ deb, badiiy so'z ijrochilarining mahorat qudratiga yuqori baho beradi. Akademik Mamajon Rahmonov izohlarini Muxsin Qodirov ham "O'zbek xalq tomosha san'ati" kitobida ta'kidlab, Xirotda askiya san'at darajasiga ko'tarilganligiga misollar keltiradi.

So'z bilan bog'liq ijroni kamol topishida askiya san'ati tayanch bo'ldi. Askiya ijrochilari kishilarni bir-bir bilan yuzlashganda – badiiy so'z to'qishga, so'zni bir necha ma'noda aytishga payrov o'yinida, adabiy bahs olib borishga, topqirlik musobaqasiga ko'pchilik o'rtasida halol tortishishga o'rgatdi. Chunki, askiyaning asosida harakatchan, sho'x va purma'no dialog hamda xilma-xil mazmunni ifoda etuvchi payrov ya'ni mavzu mohiyatiga mos kulgili so'zlar yotadi. "Askiyada shaxslar bilan moddiy olamdagi buyumlarning xolati mahorat bilan bayon qilinadi"⁸⁰ - deydi. G'.G'ulom Yusufjon qiziq to'g'risidagi maqolasida.

Xulosa qilganda an'anaviy qiziqlar san'ati qadim o'tmishga va yuksak kelajakka egadir. Bu san'atning asoschilari hamda hozirgi kundagi davomchilari o'ziga xos ijodiy na'munalari bilan tarix va bugunni kulgu ko'prigi bilan uzviy bog'lab kelmoqdalar.

⁷⁹ O'sha asar. 237 – bet.

⁸⁰ G'.G'ulom. Yusufjon qiziq./ O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1988. 4 – bet. 12 – son.

O‘ZBEK XALQ URMA ZARBLI CHOLG‘ULARI



Rasulov Shuxrat

“Cholg‘u ijrochiligi” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: dotsent M.G‘ofurov

Doira

Xalq cholg‘ularinnng paydo bo‘lish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Musiqachilikda dastlab **urma zarbli** cholg‘ular paydo bo‘lgan. Bular nog‘ora, chindovul, childirma, dovul va doiralardir. Qadim zamonlardan to hozirgi davrimizgacha bizga yetib kelgan doira cholg‘usi o‘zgarmagan holda saqlanib kelmoqda.

Musiqqa sohasida, O‘rta Osiyo va Sharq xalqlari qatori, o‘zbek usullari, ya’ni ritmik yo‘llari va ularning rivojlanish usullari alohida o‘rin egallaydi. Usullar qoida bo‘yicha urib chalinadigan musiqqa cholg‘ulari ijrosida qo‘llaniladi. Eng ko‘p tarqalgan urma zarbli musiqqa cholg‘ularidan, O‘zbekistonda, Tojikistonda va Uyg‘ur xalqlari, shu bilan bir qatorda, Sharqda o‘zining shirali ovozigga ega bo‘lgan, musiqqa cholg‘usi doira hisoblanadi.

Doira iborasi ba’zan «Dapp», «Childirma», «Chirmanda» deb yuritiladi. Xorazmda dapp, childirma ijrochisini esa “dappchi” – childirmachi deb aytadilar, Buxoroda doiradast, Farg‘onada chirmandachi, Samarqanda esa doirachi deb yuritiladi.

O‘zbek xalqi qadimdan doira cholg‘usini juda ardoqlab kelgan. O‘tmishda bu cholg‘u sadolari ostida xalqni maydonlarga, to‘y-tomoshalarga, musobaqa kurashlarga va har-xil sayillarga chaqirganlar. Jumladan, “Hosil bayrami”, “Uzum sayli”, “Qovun sayli” kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.

Bayramlarda, madaniy marosimlarda, ayniqsa, karnay-surnay va nog‘ora, doira kabi urma zarbli musiqqa cholg‘ulari keng qo‘llanilgan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi, xalq cholg'ularini o'rganish ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari "Musika haqida katta kitob" ("Kitob al-musika, al-kabir") ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobdan ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi.

Darvish Ali o'z davri (XVII asp)da mavjud bo'lgan cholg'u ansambllari va ularning ijrochilari haqida ma'lumot bergan. Saroyda 60 cholg'uchidan iborat ansambl bo'lgan. "Nog'ora xona" deb atalgan 60 kishilik cholg'uchilar ansamblini nog'orachi boshqargan. Darvish Ali misol tariqasida shunday dalilni keltiradi: "Sulton Husayin saroyida ansamblning rahbar-mehtar vazifasini nog'orachi Sayid Ahmadbin mehtariy Miroqiy bajargan. "Nog'ora xona" nog'ora va damli musiqa cholg'ularida kuy chalayotgan paytda ijrochilar joylashgan xona ko'zda tutiladi".

Bizning vatanimizda doira ritmik usullarini dunyoga mashhur qilishda o'z hissasini qo'shgan Usta Olim Komilovning boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini o'tamoqda. Mashhur doirachilar G'ofur Azimov, G'ofur Inog'omov, Rahim Isaxo'jayev, Evner Barayev, Qahramon Dadayev, Ravshan Akbarbekov, Odil Kamolxo'jayev, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, To'ychi Inog'omovlar ustaning an'analarini davom ettirdilar.

Nog'ora

Nog'ora urib chalinadigan o'zbek xalq musiqa cholg'usi hisoblanadi. Xalq cholg'ularining paydo bo'lish tarixi esa eramizdan avvalgi II ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, shuningdek, ovga chiqishlar ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Nog'oraga o'xshash cholg'ular bilan shovqinli cholg'ular ham o'sha paytda paydo bo'lgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari, tasviriy san'atda va adabiy merosimizda ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ularining asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy manba berilgan. Ikki guruhga bo'lingan cholg'u

ansambli mavjudligi ko'rsatilgan. Birinchi, doira va nay jo'rligida ansambl (xonaki tipdan), ikkinchi, damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, surnay, bo'laman, doira, nog'ora) ansambli.

Nog'oraning tuzilishi

O'zbekistonda ijro etiladigan nog'ora asosan sopoldan yasalgan bo'lib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Nog'orani ko'pincha ikkitasi chalinadi, bayramlarda, sayillarda, to'y-hashamlarda chalinadigan nog'oralar biroz kichikroq bo'ladi. Ikkalasi bir-biridan kvarta soziga farq qilishi kerak. Nog'ora o'zi aniq ma'lum bir sozga ega emas. Shunga ko'ra, tovushi ham aniq bir balandlikka ega emas. Nog'oralardan birini (kichigi) bak, ya'ni baland tovush, ikkinchisi bum, ya'ni past tovush beradi.

Nog'ora olov yoki oftobda qizdirilib, tovushi balandlashtiriladi. Turli bayram, xalq sayillarida katta nog'ora ishlatiladi. Buni qo'sh nog'ora deb ham yuritiladi. Nog'ora asosan ikkita ingichka uzun kaltakcha (cho'p) bilan urib chalinadi. Nog'orada asosan ikkita tovush (bak va bum) bo'lganligi uchun uning notalari bir chiziqda quyidagicha yoziladi.

Chiziq tagidagi notalar bum, ustidagi notalar esa bak tovushini bildiradi. Nog'ora O'zbekistondan tashqari Tojikiston, Qirg'iziston va boshqa xalqlarda ham qo'llaniladi.

Surnay chalganda usulni nog'ora bilan saqlaydilar. Nog'ora usullaridan biri "Shodyona" usulidir.

Ikkinchi usuli "Bululcha" yoki "Bulujiy" usulidir.

Uchinchi usuli "Ufor" usulidir.

To'rtinchisi, "Ducho'ba" deb ataladiki, ufor usulining juda tez chalinishidan iborat.

Qayroq

Qayroq O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan urma zarbli musiqa cholg'usi hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, qadimda saroy marosimlarida

boʻladigan bazmlarda qayroq ijrosi koʻp ishlatilgan. Asosan bu cholgʻuni ayollar ijro etishgan.

Oʻzbekistonda, jumladan, Xorazm va Buxoroda qayroq cholgʻusini koʻp ishlatadilar. Raqslarda ijro etiladigan qayroq cholgʻusi, yapaloq, tekis qilib silliqlangan toʻrtta toshdan iborat boʻladi. Ijrochi har bir qoʻliga bir juftidan ushlab, qayroqlarni silkitib yoki titratib har xil kerakli usullarni beradi. Qayroqda biror kuy, raqs yoki ashula usulini (ritmini) ijro etish paytida, ijrochi har xil melizm, yaʼni milliy bezaklardan foydalanadi.

Odatda qayroqni raqs tushuvchi oʻzi chaladi. Raqqos yoki raqqosa qayroqni bir-biriga urilishidan chiqqan ritmik tovushni oʻz raqsiga joʻr qiladi. Qayroq cholgʻusida ijro etiladigan kuylardan: “Qayroq oʻyini”, “Norin-norin”, “Xorazm lazgisi” va shunga oʻxshash raqsona kuy qoʻshiqlardir.

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lugʻati. – T.: Sanʼat, 1990.
2. Vizgo T. Oʻrta Osiyo musiqa asboblari. – Moskva, 1980.
3. Karomatov F. Oʻzbek cholgʻuchilik musiqasi. – Moskva: Muzika, 1980.
4. Odilov A. Oʻzbek xalq cholgʻu asboblari ijrochilik tarixi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1995.
5. Fitrat A. Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
6. Petrosyants A.I. Cholgʻushunoslik. – T.: Sanʼat, 1990.

OʻZBEKISTON TELEVIDENIYESIDA OVOZ REJISSURASI (KASB MAXORATI)



Raxmonova Dilafruz

*“Ovozrejssorligi (kino, televideniye va radio
ovoz rejissorligi)”
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: p.f.n., professor B. Sayfullayev*

XX asr moʻjizasi “oynai jahon”ning inson hayotiga kirib kelishi jamiyatda katta oʻzgarishlarga sabab boʻldi. Uning bugungidek qudratli kuchga ega boʻlishi va turmushimizning ajralmas qismiga aylanishi uchun sal kam yarim asr talab qilindi. Biroq, bugungidek muvaffaqiyatga erishishda faqat televizion

texnika imkoniyatlarigina emas, balki adabiyot va san'atning ham hissasi ulkan. Sababi, texnika yordamida yaratilgan asar adabiyot va san'atning badiyatisiz jonsiz tasvirlarni ifodalaydi, xolos. Adabiyot va san'at esa unga ko'tarinki kayfiyat, joziba va sexr ulashadi. Shu ma'noda adabiyot televideniyege jon kiritdi desak, xato bo'lmaydi.

Bilamizki, televideniyeining asosi – teleko'rsatuv, uni ijodkorlar jamoasi, hususan, ssenariynavis, jurnalist, teleoperator, telerejissyor, montaj ustasi hamda ovoz rejissyori yaratadi. Birgina ko'rsatuvning dunyoga kelishida mana shunday bir qator ijodkorlarning mehnat va vaqti sarf bo'ladi. Demak, tomoshabin oldiga "oynai jahon" orqali taqdim etiluvchi tandirdan yangi uzilgan ko'rsatuvning efir yuzini ko'rishi mashaqqatli mehnatni talab etadi.

Ma'lumki, ko'rsatuvning asosini ovoz tashkil qiladi. Shunday ekan, ovoz rejissyori tomonidan to'g'ri tanlangan ovoz, shovqin yoki musiqa tayyorlanayotgan yangi san'at namunasining omadli yakuniga sabab bo'ladi.

Ovoz rejissyoriga qo'yiladigan yagona talab muayyan san'at namunasining ovozlashtirishda did, fantaziya va bilimga tayangan holda eng munosib ohanglar, shovqin, musiqa va xarakterli nutq bilan boyitish hisoblanadi. Ovoz rejissyorida musiqiy did, nozik eshitish qobiliyati bo'lishi shart.

Ovoz rejissyorligi – bu san'at. Uning qo'lida sayqal topgan har bir yangi yaratilayotgan san'at namunasi o'zgacha jilo va tarovat kasb etadi. Shunday ekan, ovoz rejissyori mohir zargar misol usta san'atkor hisoblanadi. Televideniyeida faoliyat yurituvchi ovoz rejissyorlari real voqelikka asoslanadi. Ovoz rejissurasi ko'p funksiyali tarmoq hisoblanadi. Uning musiqiy bilimi, har qanday shovqinni o'tkir seza olish qobiliyati televideniyeida faoliyat olib borishida qo'l keladi. Shu ma'noda ovoz rejissyorining professionallik darajasi ochilib boradi.

Ma'lumki, o'tgan asrning boshlarida kashf etilgan televideniye va uning ijodiy komponentlari sifatida ilmiy asosda dunyoga kelgan ovoz rejissyorligi

sohasi tadqiq etilar ekan, uning tarixiy-nazariy aspektini o'rganib chiqish talab etiladi.

Televideniya ovoz rejissyori professional soha mutaxassisi sifatida ko'p jihatdan ko'rsatuvning yarim muvaffaqiyatini ta'min etadi. Bir qarashda, ovoz rejissyorligi san'ati texnik sohadek tuyuladi. Lekin, uning asl mohiyatini tushungach esa, bunday fikrdan yiroqlashiladi. Sababi, ovoz imitatsiyasini tushunish, tasvirlarga mos ovozlarni tanlash, obraz xarakterini ocha oluvchi temblarni saralash mahsus did, bilim va tajribani talab etadi. Tayyorlanayotgan biror ko'rsatuvning mavzusiga mos ravishda ovozlashtirilishi ortida ovoz rejissyorining xizmati beqiyos.

Ko'rsatuvni ovozlashtirish jarayonida ovoz va tasvirni sinxronlashtirish, ovoz montajini boshqarish talab etiladi. Suratga olingan dasturning barcha ovoz qatorlari tayyor bo'lgach, yangi asar efir yuzini ko'rishi mumkin bo'ladi. Bu bilan esa yagona ovoz qatorlari elementlari yozib olinganligi ma'lum bo'ladi. Dasturni ovozlashtirish tayyor ko'rsatuvning yagona ovoz foni tanlanganligidan dalolat beradi. Ko'rsatuv mavzusi, janri, uning tomoshabin doirasi to'g'ri aniqlangan taqdirdagina, ovoz rejissyori unga mos tarzda shovqin va leytmotiv musiqalar bilan bezashi mumkin. Aks holda tayyorlangan ko'rsatuv janri va mavzusiga mos tushmagan ovozlashtirish jarayoni yaxlit syujetni tashkil qilmay asar muvaffaqiyatiga putur yetkazadi.

Bunda ovozlarni montaj qilish ishi ham ahamiyatlidir. Masalan, "O'zbekiston" telekanali orqali efir yuzini ko'ruvchi "Axborot" informatsion dasturi uchun tanlanuvchi shovqin va turli fonogramma ovozlar qatori ko'rsatuv janriga mos tarzda amalga oshirilishi kerak. Informatsion dasturlarning musiqasi ham ma'lumot yetkazishga mos bo'lishi shart.

San'atda ovoz rejissyori lavha ta'sirchanligini oshiradi. Bu yo'lda esa u turli uslub va tajribalarni qo'llaydi. Tezkor, ehtirosli, tabiatda olingan shovqinlarni kiritib borilishi tasvir qatorlariga mos ovozlashtirish yaratilayotgan yangi asarning tomoshaviyligini oshiradi. Ovoz rejissyorlarining o'zlarini tan

olishlaricha, bu sohani tanlagan inson atrof olamda duch kelishingiz mumkin bo'lgan barcha ovoz, shovqin, sasga quloq solishga, har bir "TIQ" etgan elementni tinglashga o'rganib qoladi. Ovoz rejissyori qulog'i bilan non topib yeyuvchi soha mutaxassisidir. Demak, uni qulog'i boqadi. Xotirada saqlanib qolgan har bir ovoz ertaga biror ko'rsatuv orqali efir yuzini ko'rishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda ovoz rejissyori chaqaloq qanday yig'lashini, uning qanday holatda qanday ovoz chiqarishini kuzatadi. Hursand bo'lib yig'laganda, qorni ochgan holda, biror joyi og'riganda, o'rtog'i bilan urishib qolganda turli vaziyatlarda turlicha shovqin kuzatiladi. Demak, xarakter, vaziyat va tushib qolgan holatga ko'ra mos ovozni tanlay olish san'ati ham muhim sanaladi.

Televideniyeda ovoz rejissyori ovozlashtirish, uni bezash, anonslar tayyorlash, zastavkalar ustida ishlash bo'yicha faoliyat olib boradi. Shuningdek, ovoz rejissyori turli translyatsiya jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. tok-shou, informatsion va boshqa dasturlarni tayyorlashda ovoz rejissyorining xizmati beqiyos. Sababi, to'laligicha axborotdan iborat bo'lgan dasturlarning tomoshaviyligini oshirishda ovoz rejissyorining xissasini nechog'lik ekanligini ta'kidlab o'tish kerak. Televideniyeda bu jarayon jamoaviy ish bo'lib, ovoz rejissyori dastur rejissyoriga buyruq bera oluvchi, dasturi rakursini istagan tomonga burib yubora oluvchi soha mutaxassisi hisoblanadi. Ovoz rejissyori dastur rejasini o'zgartirishi, teleoperator, muharrir, montaj ustasi ishi bilan bevosita hamkorlikda faoliyat olib boruvchi soha mutahassisi sanaladi. Televideniyeda ayniqsa, telespektakllar yaratishda, televizion filmlarni suratga olish ishida kerakli soha vakilidir.

Shuningdek, ovoz rejissyori ovoz yozishda, uni qayta ishlashda texnika bilan yaxshi til topishgan holda ishlay olishi zarur. Uning bu qobiliyati raqamli va analog vositalar bilan ishlashda qo'l keladi. Mikrofonlardan to'g'ri foydalana olish bilimi ham ovoz rejissyori uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Biror ko'rsatuvni suratga olishda ovoz rejissyorining mikrofonlardan to'g'ri foydalana

olish bilimi tufayli efir omadli yakuniga yetishi yoki aksincha muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin.

Bugungi kunda televideniye millionlar san'atiga aylanib bormoqda. Sababi, televideniyeining imkoniyatlari sabab, aholi tez va xolis axborotga ega bo'lishi, shuningdek, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishdek saodatga erishmoqda. Bunda albatta teleamaliyotchilarning, xususan. ovoz rejissyorlarining xizmatlari ulkan.

Kadr-epizodlarni yaratishda qatnashgan san'atkorlardan aktyorlargina bevosita obraz yaratishlari sababli ekranda paydo bo'ladi. Operator, montajchi, ovoz rejissyori, bastakor va rassom ijod etgan hamda kadrda yoki uning ortida yangrab kishini to'ldiradigan musiqa ohanglari, ekranda gavdalanadigan obrazli ovoz tomoshabinga estetik zavq beradi, unda teran fikr uyg'otadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ovoz rejissyorligi ham san'at asarining vujudga kelishida asosiy figura bo'lib xizmat qiladi. Lekin pirovardida kadr ortida qolib ketadi.

Ovoz rejissyorining vazifasi, fikr-zikri, hayajoni, estetik dunyoqarashi, madaniyati ovoz rostlagich va mikrofonlar orqali qahramonning xarakterini, tasvirlanayotgan voqea yoki hodisani, go'zallikni o'z vaqtida ilg'agan holatda ochib berishdan iborat.

Ovoz rejissyorining malakasi qanchalik yuksak bo'lsa, uning qahramon ovozi, shoqvin xarakteri, umuman olganda, ovozdagı obrazlar bilan fikrlay olish qobiliyati va tabiatga, borliqqa bo'lgan estetik didi qanchalik o'tkir bo'lsa, u yaratgan ijod namunasi ham g'oyaviy-badiiy jihatdan shuncha baquvvat, serzavq bo'ladi. Ovoz rejissyori shunday ijodkorki, u hayot bilan mikrofon o'rtasida turadi. Uning qulog'i eshitgan hayot, voqea shovqini ekran orqali tomoshabinga yetib boradi. Demak, ovoz rejissyorining qulog'i bilan dunyoni eshitish muxlislarga o'zgacha kayfiyat va surur baxsh etishi aniq. Bundan ko'rinib turibdiki, ovoz rejissurasi san'atisiz kinematografiya, televideniye, radio san'atining mavjud bo'lishi haqiqatdan yiroqda.

Ovoz rejissyorligi mahorati haqida fikr yuritilar ekan, soha mutahassisligini tanlagan ijodkor, eng avvalo, texnik imkoniyatlarni, televizion qonuniyatlarni bilishi hamda musiqiy qobiliyatga ega bo'lishini talab etiladi. Eshitish imkoniyatlari musiqiy ijodkordan talab qilinadigan darajada mukammal bo'lishi shart. Ovoz rejissyori kino, televideniye, radio, ommaviy maydon tomoshalari, kotsert dasturlar, xattoki, honandalarga ovoz yozish jarayonida ham birdek faoliyat olib boradi. Ovoz rejissyorining asosiy quroli – texnika, mikrofon, ovoz rostlagichlar va hokazo...

Ovoz rejissyorligi sohasining mamlakatimizga kirib kelishi XX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Mamlakat aholisi o'rtasida teletomoshabinlarning aksariyat qismi uy bekalari va katta yoshli insonlar bo'lganligi sababli ular o'rtasida sotsiologik so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomada ko'rsatilgan "Ovoz rejissyori kasbini bilasizmi?", "Soha mutaxassisining vazifasi nimalarda iborat?" savoliga katta yoshli tomoshabinlarning 75% "Yo'q" javobini tanladi. Uy bekalarining 62% esa "Ha" javobini ma'qul ko'rdi.

Istiqlol yillarida o'zbek televideniyesida kanallarning sonini ko'paytirish, ularni har tomonlama rivojlantirish, keng imkoniyatlar yaratib berish borasida chora-tadbirlar ko'rildi. Lekin shuni xolisona ta'kidlab o'tish kerakki, bugun yosh avlodning tarbiyasida ayrim kanallar targ'ib qilayotgan shou-biznes namunalariining salbiy ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda.

Milliy qadriyatlar, urf-odat, o'zbekona qarashlarni yoshlar ongiga singdirishda televideniye imkoniyatlaridan foydalanish samarali natija beradi. Demak, telekanallar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlari zarur. So'nggi yillarda tele ijodkor samarali ijod qilib, yangi yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Bu esa sohaga ko'plab yosh kadrlarning kirib kelayotganligi bilan baholanadi. Sohada ko'zga tashlanayotgan qator yutuqlarni keltirib o'tish mumkin. Bu esa telekanallarning maqsad va vazifalari, mazmun va sifatiga alohida-alohida to'xtalib o'tishni taqazo etadi.

Ovoz rejissyori axborotni tarqatuvchi subekt hisoblanadi. Axborot asrning taqdiri ko'p jihatdan ovoz rejissyorlarining zimmasiga yuklatilgan. Bu ulkan kuch qo'lidagi har qanday axborot, xoh u san'at yoki madaniyatga, xoh iqtisod, siyosatga aloqador bo'lsin barchaning diqqat e'tiboriga tushadi. Bugungi kun o'zbek ovoz rejissyorlari milliy telekanallarda uzatiluvchi voqelikni turli vosita va yo'nalishlarda xalqqa taqdim etmoqda. Ovoz rejissyorligi mutaxassisi – kino, televideniye, estrada va shou-biznes sohalarida faoliyat olib boruvchi asosiy soha vakillaridan biri hisoblanadi. Ba'zi hollarda ovoz rejissyorini ovoz operatori bilan almashtirib tushuniladi. Ovoz operatorligi sohasi ovoz rejissyoridan mutlaqo farq qiladi. Ovoz operatori ham ovoz rejissyori singari ovoz bilan faoliyat olib borganligi sabab, chalkashlik ko'zga tashlanadi. Biroq, ovoz operatori faqatgina ovozning sifati va uning bir meyorda ushlab turish ishi bilangina shug'ullanadi. Ayni kunda ovoz operatori aynan texnika bilan emas, balki musiqa bilan shug'ullanganligi sababli, ovoz rejissyori kasbi dunyoga keldi. Unda ovoz rejissyorining faoliyati esa anchayin keng bo'lib, mazkur soha mutaxassisi faqat ovoz qatori sifatiga emas, balki uning dramaturgiyasi, ovoz obrazi ustida ham faoliyat olib boradi. Ovoz qatori (fonogramma) ssenariylashtirilgan va rejissyorning mulohazaviy fikrlari asosida tartibga keltiriladi.

Bugungi kunda ovoz rejissyorlarining bir necha sohalarda faoliyat yuritayotganliklari tufayli ularni bir qpncha turlarga ajratish mumkin.

- a. Konsert dasturlarining ovoz rejissyori
- b. Arxiv ovoz rejissyori
- c. Saund-dizayner
- d. Teatr ovoz rejissyori
- e. Televideniye va radio ovoz rejissyori
- f. Kino ovoz rejissyori

Dunyo ommaviy axborot voitalari tipologiyasiga ko'ra, ommaviy axborot vositalarining 5 ta asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular matbuot,

televideniye, radio, internet, axborot agentliklaridir. Ovoz rejissyorligi kasbi esa bugungi kunda ushbu axborot vositalari tipologiyasining deyarli barcha sohalarida faol ishlab kelmoqda. Xatto, matbuotning elektron xizmatlari portalida ovoz rejissyori mutaxassisleri tomonidan ovozli axborotlar tayyorlash xizmatlari ham joriy etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda ovoz rejissyorlarining sohadagi faoliyatlari tahsinga sazovor.

OVOZ REJISSURASI SAN'AT SIFATIDA (KINO MISOLIDA)

Raxmonova Dilafruz

*“Ovozrejssorligi (kino, televideniye va radio
ovoz rejissorligi)”*

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: p.f.n., professor B. Sayfullayev

Ovoz rejissori kasbi Angliyada - audio (sound) producer, Germaniyada – tonmeister, Rossiyada - zvukorejissyordeb yuritiladi. Bir kasb, umuman olgan bitta mutaxassislikni turli davlatlarda turfa nomlar bilan atalishiga qaramay ovoz rejissyorining bajaruvchi ishi bir xil. U televideniye, kino, teatr, radio umuman ovozlashtirish yo‘nalishlarining barida san’at asari yaratuvchisi, ovozlashtirishning mohirona ijodkori hisoblanadi. Ovoz rejissyori tanlangan, tinglangan ovozdan foydalangan holda xarakter yaratishi kerak. U hayotda mavjud shovqin, musiqa va ohangdan foydalangan holda muayyan san’at namunasini yaratadi.

Ovoz bilan ishlash jarayoni nihoyatda muhim texnologik qonuniyatni talab etadi. Uning an’anaviy ko‘rinishi quyidagilarda ko‘rinadi:

- ✓ Suratga olish maydonida olingan toza ovoz namunasi
- ✓ Qoralama ovoz fonogrammasini oqilona montaj qilish
- ✓ Nutq va shovqin ustida olib boriluvchi montaj jarayoni
- ✓ Fonotik shovqin va musiqaning montaji jarayoni
- ✓ Qayta ovozlashtirish jarayoni

Aynan mana shunday bir necha kursdan iborat ovozlashtirish jarayonini bosib o'tishi lozim bo'lgan ovoz rejissyorlarining sohadagi fidokorona mehnatlari sabab sifatli ko'rsatuvlar, badiiy kinolar tomoshabinlar e'tiboriga havola etilib kelinmoqda.

Ovoz rejissyorligi san'ati kino san'atining negizida vujudga keldi va juda tez suratlarda rivojlanib bordi. Kino tarkidan o'sib chiqqan va taraqqiy etgan ovoz rejissyorligi sohaning ilm sifatida shakllanishida mazkur ijodkorlarning tinimsiz mehnatlari katta. Ovoz rejissyorligi san'ati ana shu qator san'atlardan biri bo'ldi. Demak, sohaning ilmiy asosini kino san'ati negizadan qidirish lozim. Keyinchalik, taxminan yarim asrlardan so'ng, televideniye san'ati paydo bo'ldi. Va shu tariqa mustaqil tele ovoz rejissyorligi sohasiga asos solindi. Televideniye va ovoz rejissyorligi san'atlariga ovozsiz va ovozli filmlarning xizmatini ta'kidlab o'tish kerak. O'zbekistonda birinchi ovozli kino hisoblangan "Qasam" filmi ham xuddi shu tariqa kinoda ovozning ahamiyatini kuchaytirdi.

Kino san'atida vizual faktor ustunvor hioblanadi. Kinoda ovoz rejissyori tomonidan tanlangan musiqa mutlaqo syujetning mohiyatiga bo'ysungan holda tanlanishi shart. Albatta dialektik omildan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar tomoshabop kadr mustaqil va aniq yo'naltirilgan maqsadli bo'lmay, musiqa mohiyatni umumlashtirmasa ovoz rejissyorining tanlovi noto'g'ri bo'lganligi seziladi. Ovoz rejissyori sodir bo'layotgan voqeani to'g'ri ko'ra olishi va aynan mana shu jarayonda qanday shovqin yoki musiqa yangrashi mumkinligini to'g'ri baholay olishi shart. Shundagina uning bajargan ishi muvofaqqiyat olib keladi.

Tomoshabop kadr aniq ifodaviy bo'lishi – musiqa xarakterlarni umumlashtirishi, tasvirni yanada boyitgan holda ko'rsatishi zarur. 1970 yilda rejissyor A.Kabulov tomonidan suratgan olingan "Yoz yomg'iri" filmiga ishlangan ovoz rejissyorining ijodiy fantaziyasi fikrimizning yorqin isboti bo'ladi. Ovoz rejissyori qahramonning ichki holatini ochishda ko'z yoshlarni o'rniga yoz yomg'iridan foydalangan. Qahramon qiz Munis-Gulchehra Jamilovaning ichki iztiroblari, tushib qolgan holatini badiiy boyitishda yomg'ir elementlaridan

foydalangan. Ovoz rejissyori tomonidan qahramon iztiroblarini aks ettirish uchun tanlangan shovqin, yozning kayfiyatiga mos faktorlar, yomg'irning shitirlashi va sokin musiqa sadolari tomoshabinning qalbidan uzoq vaqt chuqur joy egalladi. Mana ovoz rejissyorining to'g'ri tanlovi komponentlarni maqsadli yo'naltiruvchi televideniyadagi filmga qanchalar muvofaqiyat olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham ovoz rejissyorligi san'atini sintetik san'at turi sifatida qayd etilishining sababi ham shunda.

1887 yil Edison kinoda tasvir elementlarini ixtiro qilar ekan kinokadrlar takomiliga xissa qo'shdi. Olim kadrlar almashinuvida ovozning ham o'zgarib borishini inobatga oldi. Bunda ovoz va tasvirning mos ravishda o'zgarib borishi inobatga olindi. Harakatlanayotgan rasmlarda ovozning ham o'zgarib borishi ovozli kinoning yaratilishi bilan harakterlanadi. Birinchi ovozli kinoning dunyoga kelishi "harakatlanayotgan fotografiya" o'rtasida anchayin farq qilar edi. Tarixiy filmlarda aktyorlar filmdagi harakatlarga ovoz bermagan, aksincha ovoz rejissyorining o'zi sodir bo'layotgan voqelikka nisbatan mos shovqin va kerakli musiqani tanlagan holda yozib qo'ygan. Bu bilan esa ovoz rejissyorining ishi jiddiylashgan.

San'atga ovoz rejissyorligi kino san'ati orqali kirib kelganligini yuqorida ta'kidlab o'tildi. Ovoz rejissyorlarining mehnatlarini munosib baholab kelayotgan dunyo san'ati namoyondalari "Matritsa" filmi uchun 2000 yilda "Eng yaxshi ovoz rejissyori" nominatsiyasida taqdirlandi. Mazkur film birvarakayiga ikki mukofotni qo'lga kiritdi. "Oskar", "Eng yaxshi ovoz rejissyori" va "Eng yaxshi ovoz" nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Ovoz rejissyori kinoda, teatrda, televideniyeda, radio, madaniyat saroylarida, konsert zallari va ovoz yozish studiyalarida faoliyat olib boradi. Soha mutaxassisining eng muhim jihatlaridan biri shundaki, ovoz rejissyorlari musiqiy bilimga, badiiy saviya, did, yaxshi eshita olish qobiliyatiga, ovozni eslab qolishda kuchli xotiraga ega bo'lishi zarur. Unda bu qobiliyat ovoz yozishda texnika bilan ishlashda, ovozlarni saralashda, obrazga xarakter berishda ijodiy materialning

sifatini oshirishda asqotadi. Shunday ekan o‘zbek kinosi olamining rivojlanishida ovoz rejissyorlik san’ati bir muncha tarixga ega. Va bundan keyin x,am ovoz rejissyorlik kasbi, san’at darajasiga ko‘tarilishiga ishonchimiz komil.

TEATR RIVOJIDA ZAMONAVIY TARG‘IBOTNING AHAMIYATI



Raxmonova Kamolaxon

«Teatr san’ati» mutaxassisligi

2 kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent M.Umarov

Taraqqiyot shiddat bilan odimlab bormoqda ekan, hech bir narsa bir joyda qotib-to‘xtab turolmaydi. Jumladan, inson ehtiyoji ham. Fan, texnika rivojlanib bormoqda, inson axborot asrida, internet, televizor, kino va klip olamida yashamoqda. Ularning orasida teatr ham o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lmog‘i uchun kurashish zamon talabiga aylandi. Qay yo‘sinda? Albatta, zamonaviy targ‘ibot va tashviqot orqali.

Shu o‘rinda teatr targ‘iboti nima, degan savol tug‘iladi, uning reklamadan qanday farqi bor? Teatr targ‘ibotining bugungi kundagi ahamiyati va vazifasi qay darajada? Zamonning tezkorlik talab etuvchi yozilmagan qonun-qoidalari har bir sohaning u bilan hisoblashishini taqozo etmoqda. Jumladan, teatr sohasi ham bundan mustasno emas. U ham boshqa sohalardek iqtisodiyot-moliya va targ‘ibot bilan chambarchas bog‘liqdir. Teatr targ‘ibotini chuqur o‘rganish turli davrlarda insonlarning sahna san’atiga bo‘lgan munosabati qanday bo‘lganligini bilishga yordam beradi.

Shuning uchun teatr targ‘iboti tarixiga nazar tashlasak, har bir davr o‘ziga xos teatr targ‘ibotiga ega bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi.

An'anaviy teatrda qiziqchilar va masxarabozlar tomosha ko'rsatish uchun ishni, avvalo, targ'ibotdan boshlagan. Masxaraboz yoki qiziqchi mahallama-mahalla yurib o'z tomoshasiga odamlarni baralla chaqirib, ularga ko'rsatmoqchi bo'lgan tomoshasi yoki repertuar mavzusini e'lon qilib odamlarni chorlagan. Bu vazifani asosan ularning yonidagi korfarmoni yo jarchi amalga oshirgan. Jarchi yoki korfarmon masxara va qiziqchining tomoshalari haqida ma'lumot berish bilan birga, uning o'zgalardan ajralib turuvchi xususiyatlari haqida ham xabar bergan. Natijada tomoshabinlar tomoshaga ijrochini ko'rish hamda xabardor bo'lgan syujetini masxara yoki qiziqchi, qo'g'irchoqboz qanday ijro etishini tomosha qilgani kelgan.

Zamonaviy teatr targ'iboti tarixi XIX asr oxiri va XX asr boshlari – jadidlar davriga borib taqaladi. “Yangi teatr” havaskor drama to'garaklaridagi jadidlar dramaturgiyasi asosida yuzaga keldi. Unga qiziqish juda kuchli edi. Aynan yangi adabiy drama va yevropacha teatrning vujudga kelishi XX asr 10-yillarida jadidlar madaniy dasturining eng yorqin salmoqli natijasi bo'ldi. Teatr o'shanda yangicha hayot targ'ibot-tashviqotchisi vazifasini bajardi. Bu esa yevropacha teatrning ravnaq topishiga keng imkon berdi⁸¹.

Texnika taraqqiyotiga qadar teatr targ'iboti jarchilar, matbuot, afisha va plakatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, bugun targ'ibotning imkoniyatlari keng. Turli tomoshalar, festivallar dasturlarini radio, matbuot va televideniyeining barcha telekanallariyu internet hamda shaxsiy uyali aloqa vositalari orqali targ'ibot qilish omili paydo bo'ldi. Ularda soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan targ'ibot ishlarining shakllari va uslublari tahlil talabligi bilan ajralib turadi. Teatr targ'ibotida televideniye va internetning o'rni beqiyos bo'lib bormoqda. Demak, bugunga kelib, teatr o'z reklamasini zamonaviy talablar asosida yo'lga qo'yishi muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining zamonaviy talablari darajasidagi reklama alohida o'rganilishi zaruratga aylanmoqda.

⁸¹ Muxtorov E. Ko'hna san'at zamonaviy sahnada // “San'at” jurnali, 2008 y., 3-4-son. 40-b.

Aytish mumkinki, teatr targ'iboti turli davrlarda, o'sha davr siyosati va shart-sharoiti, mafkurasi hamda imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli shakllarga ega bo'lgan. Bu shakllar vaqt o'tgan sayin o'zgarib, kengayib borgan. Targ'ibot haqidagi tushunchalar ham o'z ma'no-mazmunini yangilab kelyapti. Ha, zamonaviy teatr targ'ibotini bugun reklamasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Endi, teatr targ'iboti nima uchun amalga oshiriladi, teatr targ'ibotga muhtojmi? degan savollarga javob izlab ko'rsak.

Mustaqillik davrida bunday ishlar ancha kuchaydi, yetakchi teatrlar – Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri, O'zbekiston Yoshlari teatri, Respublika yosh tomoshabinlar teatri, O'zbekiston akademik rus drama teatri, O'zbek Milliy akademik drama teatri, "Eski machit", "Ilhom" teatr-studiyalari o'z faoliyatlarida homiylar, nodavlat tashkilotlari ko'magidan ham foydalandilar.

Ammo ayrim teatrlar eski iqtisodiy tartiblardan voz kecha olmay, menejment va marketing qonun-qoidalarini o'z faoliyatlarida to'la singdira olganlari yo'q. Chunki maxsus oliy o'quv yurtlarida san'at menejerlari va prodyuserlari tayyorlash hamon yo'lga qo'yilmagan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'quv dasturlariga kiritilgan, ammo ajratilgan soatlar oz miqdorda bo'lganligi sababli, bu ishlar ko'ngildagiday emas. Har qaysi teatrda bittadan menejer yoki prodyuser ishlab, san'at asarlarini tomoshabinga sotishda, dramaturglar, kompozitorlar, baletmeysterlar, zarur joylarda, hatto rejissyorlar va aktyorlar bilan maxsus shartnomalar va loyihalar tuzishda jonbozlik ko'rsatsa, teatr san'atida ijobiy o'zgarishlar rivojiga xizmat qilgan bo'lur edi⁸².

Teatrlarimiz bozor iqtisodistiga tayyormi? Teatr ijodkorlarining ko'pchiligi "dotatsiya"siz ishlashni xayollariga ham keltirmaydilar. Hozir teatrlarga, xususan, viloyat teatrlariga yangicha fikrlaydigan, teatrni faqat ijod dargohi emas, balki daromad keltiruvchi san'at dargohi sifatida ham tushunadigan, shunga intiladigan badiiy rahbarlar, san'atkorlar suv va havodek zarur.

⁸² Sayfullayev N. // "Teatr" jurnali, 2001 y., 3-son.

Xulosa qilib aytganda, bugungi tezkor zamonda teatr ham bir joyda to‘xtab turmay, o‘z targ‘ibotida erishilayotgan yutuqlardan o‘z muxlislarini xabardor qilib turishi uchun, izlanishda va harakatda davom etishi zarur. Teatr undagi yangiliklardan, erishilgan yutuqlardan voqif bo‘lgan tomoshabinlar bilan hamnafas faoliyat olib borishni istaydi. Agar uning shu xohishi amalga oshmasa, u o‘ziga e’tibor qaratgan targ‘ibotchiga ergashadi. Bu hayot qonuni.

TELEOPERATORLIK SAN’ATI VA SSENARIY



Said Turg‘utxonov Said Dalilxon

“Teleoperator” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s. f. n., professor v.b A. Ubaydullayev

Teatr, kino, tomosha san’atlari qatori teleoperatorlik san’ati ham albatta ssenariyga tayanadi. Teatrlar, kino hamda TV xususiyatiga oid izlanishlarning natijalari shuni ko‘rsatdiki, ulardagi bir necha avlod vakillari ssenariy asosida ish ko‘rganlar. Negaki zukko mutaxassislar ssenariydan o‘zlari bajarishlari lozim bo‘lgan vazifalarni ajratib oladi. Ssenariy ham adabiy janrlarning bir turi ekan, yuqorida ko‘rsatilgan barcha janrlarning asosini so‘z san’ati bo‘lgan adabiyot tashkil etishi haqidagi fikrni bimalol ta’kidlash mumkin.

Publitsistik va hujjatli faktlar, jamiyat muammolari senariyda aks etadi va bular TV va kinoekranga shakli o‘zgargan xolda kirib keladi. Qahramonlari ijtimoiy hayotning turli sohalar vakillari bosib o‘tgan yo‘llardan e’tiborli lavhalarni TV shakliga ko‘chirishda ocherk dramaturgiyasi yuzaga keladi. Bir shaxs yoki qahramon taqdiri orqali butun bir avlod hayotini namoyish etishda TV qoshida kashf etilgan turkum ko‘rsatuvlar ekranda puxta o‘rin oldi. Shaxs-avlod-jamiyat. O‘zaro bog‘liq nuqtalari hikoya etib boriladi. Ssenariyning publitsistika bilan

bogʻlanib borishida asosiy urgʻu fikrni shaklga solishda ijodkorlar oʻz mahoratlarini namoyish etadilar.

Portret janridagi ssenariyda asosiy urgʻu shaxsning tarjimai holi orqali ijtimoiy hayotdagi oʻrni, jamiyat oldidagi xizmatlari, shaxsiy hayoti, yutuqlari, qiziqishlari, ilm-maʼrifatga qoʻshgan xissalari, shaxsning ruxiyati jamiyat-avlod-shaxs tasvirida ochilib borishida koʻpchilik insonlarning tarjimai holi bilan tomoshabinlar tanishib bordilar. Teleoperator bunda portret qilinuvchi shaxsning tashqi koʻrinishidagi eng muhim xususiyatlarini ilgʻab olishi va tasvirga olishi zarur.

Televideniye sanʼati rivojlanishida “illyuzion” tomoshaviylikka intilishida, ovozsizlik davridan oʻtishda adabiyotdan foydalanishi, apparat oldida aktyor ijro sanʼatini ilk kursini oʻzlashtirishda yangi kasb – aktyorlar kashf etilishi, soʻngra rejissyorlar ijodkor sifatida filmning badiiy mohiyatini ochishda xizmatlari, natijada ijodiy jamoani boshqaruvchisiga aylanishi keyinchalik yangi yoʻnalishlar kashf etilishida yangi ufqlar paydo boʻladi.

Teleoperator uchun reportaj ssenariysi muhim ahamiyatga ega. Reportaj muallif oʻzi koʻrgan va kuzatgan xodisa yoki voqeani yetkazib berilishida, jamoatchilik manfaatlari ochilishida aniqlik, reportaj-plan ssenariy asosini yaratadi. Material sharxida aniqlik, oʻzaro hamkorlik, maʼsuliyat, haqqoniylik, voqeani boriday uzatishi yoki koʻrsatishi ssenariyda voqea guvohlari yoki qatnashchilardan intervyular rejalaniishi zarur. Syujet tarixi, syujet rejasida qilinadigan ish oldidan maʼlum boʻlishi va taxminlanishi kerak. Syujetdagi, yuz bergan voqeani taxminiy koʻz oldiga keltirish, munosabatni bildirish, jarayonga tayyor boʻlish kabilarini oʻz ichiga oladi. Savodli, har tomonlama izoh bera bilish, sifat va miqdorni, voqea, shaxsni tushunish kalitini topish, bu maxoratga kiradi.

Koʻrsatuv kompozitsiyasini aniqlash, tempo-ritmini belgilash, hamda syujetni televideniye ga tayyorlashda mavzuning maqsadi va vazifasini aniqlash va qolaversa qoʻshimcha maʼlumotlarni yigʻish, (zarur boʻlsa) video arxivdan materiallarni tayyorlab qoʻyish teleoperatorning ijodiy jarayoniga kiradi.

Teleoperator ssenariy asosida tasvirga tushirish rejasini tuzish kabi ishlarni amalga oshirish zarur. Har qanday tasvirning dolzarbligi uning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Musiqiy klip janri ssenariysi tinimsiz harakat qilish asosida yuzaga kelgan musiqiy mazmun tasviri hisoblanadi. Ssenariy asosi musiqiy usulning syujet yaratishda shariyatdagi – lirika, kechinma, extiros, tuyg'u, xolat, tashqi ko'rinishlar yig'indisini hosil etishi bilan o'zga janrlarga o'xshamaydi. Musiqali klipning o'zida psixologik, lirik, dramatik, yumoristik va hokazo janrlarning elementlari qo'llanishi, qo'shiq chegarasini birmuncha kengaytirib tomoshabinni o'ziga jalb etadi.

Rang–tasvir klipning hal etuvchi elementi, ranglar jilolari, kompozitsiyada, fabula va syujet rivojida tasviriy yechimga mo'ljallangan ssenariy asosini tayyorlash muammolari ko'pchilik teleoperatorlar ishlarida hali to'laligicha xal etilmagan muammodir. Bu muammoni operatorlar tayyorlashda doim yodda tutish lozim bo'ladi.

Umuman ssenariyning adabiy ko'rinishi amalda har bir teleoperatorning tarixiy va zamonaviy ekran asarlari va ularni zamonaviy operatorlik talqini haqidagi bilimni boyitadi, ssenariyda yozilgan mavzu va syujet, ijro, tasvir va boshqa manbalar yuzasidan dunyoqarashini kengaytiradi. Ssenariy muallifi va teleoperator fantaziyasida berilgan shart-sharoitlar teleekran shakli va mazmunda o'z aksini topadi. Bulardan tashqari har bir teleoperator o'zi mavzu qidirib, topilgan mavzulardan kichik shakldagi teleetyudlar suratga olishi, ularni mavzu jihatdan kengaytirib borishi uning mahoratini ortib borishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Abulqosimova X. Kinoteleradio tarixi va nazariyasi. –T.: TDSI, 2008.
2. Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. –T.: TDSI, 2009.
3. Akbarov X. Kinoteledramaturgiya: nazariya va amaliyot. –T.: Ilm-ziyo, 2009.
4. Rahmatullayeva I. Televideniye va yoshlar: kecha va bugun. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.

SAVING AND TRANSMISSION OF CULTURAL HERITAGE BY MEANS OF INFORMATION TECHNOLOGIES



Master of 2-nd course

Shakhnoza Saribaeva

Master's department

Scientific adviser senior teacher

M.I.Sadikova

Annotation: The article is devoted to modern information technologies in the preservation and transmission of cultural heritage. It revealed the experience of Uzbekistan in this matter.

Key words: culture, history, information technology, multimedia.

The problem of preservation of cultural heritage has always been acute, and remains such until now and it is not surprising. A promising and dynamic development can be only in the country, whose people carefully preserves its cultural heritage. President of Uzbekistan Islam Karimov has repeatedly said from the podium that "without historical memory has no future."

The task of saving and the development of cultural heritage is always a priority for Uzbekistan. To solve it, favorable conditions are created in our Republic, the best minds of the country, paying tribute to traditional values, participate in the creation of new ones. In article 49 of our Constitution states that "Citizens must protect the historical, spiritual and cultural heritage of the people of Uzbekistan." This ensures respect for the priceless spiritual heritage of the people. In article 4 guarantees "respect for the languages, customs and traditions of the nations and nationalities living on its territory and to create conditions for their development" [1.p.14].

The Cultural Space of the XXI century is undergoing a fundamental change, which primarily related to the new information situation. Scientific and technical progress has led to the rapid spread of new technologies, changes in the system of culture in the preservation and transmission of cultural heritage to changing

worldviews, in a society begin to dominate technocratic tendencies. Multimedia technologies, as a variety of information technology, have a great impact on the quality of culture and cultural space and stimulate qualitative changes in information society [2.p.439].

It should be noted that in the higher educational institutions of Uzbekistan, considerable attention is focused on the development of the cultural heritage and passing it to a new generation, the youth of the XXI century. The State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan great place is given to the education of future experts in the field of arts and culture on the basis of careful use of national customs and traditions.

This process is accompanied by the active use of innovative technologies. Therefore, we can speak of the emergence and development of a new kind of culture - e. In this regard, before the cultural institutions that are traditionally tasked with collecting and preserving cultural heritage, the question has become extremely pressing as to which of these materials should be kept for future generations, and how they should be selected and saved? This problem - the overriding as culture, today, is facing many threats.

The emergence of innovative technologies, the international community observes the mosaic of unique, distinctive, unique cultures. Thus, the preservation of the cultural heritage of Uzbekistan is impossible without an efficient and proper use of modern information technologies. In this connection it is necessary convergence of cultural and information policy in the country, development of unified methodological, technological, organizational approaches.

Bibliography:

1. The Constitution of the Republic of Uzbekistan. New edition. - TA 2014.
2. A.J Dushaev Spiritual soul and society // Young scientist. - 2014. - №11.

UMRBOQIY SPEKTAKL ("Karvonsaroy" spektakli misolida)



Supiyev Bobosher

"Drama teatri va kino aktyorligi san'ati"

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor T. Bayandiyev

Qo'g'irchoq teatr san'ati bolalarning kichik yoshdan boshlab qalbiga, ongiga ezgulik, mehr oqibat insoniylik tuyg'ularini singdirib boradi. Spektakllar jonli ijroda bo'lgani uchun bola ongiga yanada chuqurroq ta'sir ko'rsatadi, estetik didini shakllartiradi. Sahnadagi qo'g'irchoq personajlari bilan tomoshabin o'rtasida har doim jonli muloqot, shu bilan birga kichkintoy tomoshabinlar spektakl qahramonlariga o'zlarining munosabatlarini oshkor bildirishadi, ularning munosabatlari samimiy, qing'ir qiyshiqlarga qo'l urayotgan yovuz niyatli qahramonlardan pok niyatli, yaxshi rejalarni amalga oshirishga intilayotgan asar qahramonlarini asrashga harakat qiladi. Qo'g'irchoq teatrining xalq ertaklari asosida sahnalashtirilgan spektakllarining asosiy maqsadi, tarbiyaviy ahamiyati, bolalarimizni har doim yaxshilikka yetaklaydi. Serzavq, serjilva, xalqchil, haqiqiy san'at darajasiga aylantirish uchun rejissyorlar "Chodir Jamol" va "Chodir Xayol" qo'g'irchoq teatrlarining ifoda vositalari, qahramonlari va qo'g'irchoqlaridan o'z o'rnida unumli foydalanganlar. Respublika qo'g'irchoq teatri salkam sakson yildan buyon jajji tomoshabinlarni o'z tomoshalari bilan xursand qilib kelmoqda. Respublika qo'g'irchoq teatri ijodiy izlanishlar, yangi-yangi dramaturglar, rejissyor va aktyorni kashf qilishda salohiyatga ega. Teatr jamoasi o'z tarixi davomida kichkintoy san'at sevarlarni xursand qiladigan milliy va jaxon xalqlari ertaklari asosida serzavq, sermazmun spektakllar yaratgan. Bu borada ushbu teatr rejissurasida an'anaviylik izlanishlari keng ravishda amalga oshiriladi. 1989 yil Muallif – I.Lukyanova, Rejissyor – I.Yakubov, Rossom – Ruslan Kamolliddinov tomonidan sahnalashtirilgan "Karvonsaroy" spektakli an'anaviy qo'g'irchoq

tomoshalariga uyg'unligi hamda bugungi zamonaviy teatr san'atiga mosligi bilan ajralib turadi. Bu g'oya birinchi bo'lib Teatrning bosh rejissyori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi I.Yakubov tomonidan o'rtaga tashlanadi va bir nechta hamfikir aktyorlari bilan maslahat qilinadi. Bu g'oya shu davrda ijod qilayotgan yosh aktyor hozirda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Fatxulla Xo'jayevga ham ma'qul bo'lib, bu taklifni amalga oshirish yangi g'oya, yangi reja ustida izlanishlar jarayonida qadimgi "An'anaviy teatr", "Chodir jamol", "Chodir xayol", "Fonus xayol" kabi qo'g'irchoq teatrlariga murojat qilinadi va ushbu qo'g'irchoq teatri turlarining vositalari, talablaridan keraklarini omuhtalashtirib, davr talabiga monand "Karvonsaroy" sepektakli sahna yuzini ko'radi. "Karvonsaroy"dagi qahramonlar undagi ayrim intermediyalar "Chodir jamol", "Chodir xayol" spektaklidan olingan. Bu serzavq tomoshada Ali rolida I. Yakubov, Vali rolida F.Xo'jayev o'zlarini bor mahoratlarini teatrga kelgan tomoshabinlarga namoyon etgan. Bu ikki boshlovchi karvonsaroyning mezbonlari bo'lgan aka-ukaning quvnoqligi, samimiyligi, ularning katta mahorat bilan tomoshalarni ko'rsatishi tomoshabinni e'tiboriga sazovor bo'ldi. Spektakl bir nechta intermediyadan iborat. Intermediyalar bir-biridan qiziqarli, serzavq, ta'sirchan bo'lib, rang-barang tomoshalarni ustida ijodiy izlanishlar olib borishadi. Tomosha an'anaviy ravishda Ali bilan Valini tomoshaga chorlashdan boshlanadi. Aktyorlar daslab Buyuk Ipak yo'li bilan tashrif buyurgan G'arb va Sharqlik sovdagarlarga, mehmonlarga yurtimizni Buyuk Ipak yo'li bizlarni ikki tomon bilan bog'lab turganligi haqida gapirib o'tadi. Shundan so'ng intermediyalar boshlanadi. Birinchi intermediyada an'anaviy qo'g'irchoq teatr qahramonlari Karfarmon, Kachal Polvon, Avliyo Iso, Abdurahmonboy va Eshshak tomoshasi nomoyish etiladi. Bu sahnada spektakl rejissyorlari turli xil qo'g'irchoqlardan foydalangan. Misol uchun tomoshaning avvalida qo'lqopli qo'g'irchoqda Kachal Polvon chiqib keladi. U o'zbek an'anaviy qahramoni sifatida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Bu qahramon qornini to'yg'azish

maqsadida o'z eshagini Isoga sotadi. Yana bir tomosha Abdurahimning Kachaldan soliq talab qilish sahnasi, yana bir tomosha Iso niqobini kiyib olgan kimsalar insonlarni kamsitish, yerga urish va yana turli illatlarni fosh etsa, yana biri hokimning arzimagan narsalari uchun soliq to'lashni talab qilish, bechora xalqni umuman o'ylamasligi, xalqqa azob berishlari tomoshabinni ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Ikkinchi intermediyada Kachal Palvon, Bichaxon va Karfarmon tomoshasi. Bu tomosha uchta o'yindan tashkil topgan. Birinchisi Xo'rozlar jangi, Ikkinchisi Polvonlar kurashi, Uchinchisi Oftobxon bilan bo'lgan tomosha. Bu tomoshaning birinchi qismida o'zbek xalq o'yinlaridan bo'lgan xo'rozlar jangi nomoyish etiladi. Bu yerda teatrning qo'g'irchoq yasovchi ustalari xo'roz qo'g'irchoqlarni yasashda simdan foydalanadi va xo'rozlar musiqa sadosi ostida o'ziga xos raqslar ijro etadi. Tomoshaning eng yuqori nuqtasida Vali katta bir sandiqni sahnaga olib chiqib Xayol Bozi deb nomlangan tomoshasini boshlaydi. Bunda Vali iplar bilan boshqariladigan marionetka qo'g'irchog'i, ya'ni turli xil raqsga tushadigan raqqosani tanishtirib, uni buhorocha qo'shiqqa turli harakatlar bilan raqsga tushiradi. Raqsga harakat qilayotgan raqqosa haqiqiy raqqosalardek jonli tarzda ijro etadi. Nazarimizda I.Yakubov va F.Xo'jayevlar talqinida "Karvonsaroy" spektaklining oliy maqsadi unutilib ketilayotgan an'anaviy teatrlari "Chodir Xayol", "Chodir Jomol" va "Fonus Xayol"lar kabi turlarini kelajak avlodga yetkazib berish va bugungi kunda Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan viloyat "Qo'g'irchoq teatr"lari jamoalarining faoliyatlarida boy merosimizdan unumli foydalanib, "Karvonsaroy" darajasidagi spektakllarning soni ko'payishini orzu qilishidadir. O'zbek ruhida o'zbekkino milliylik barq urib turgan ushbu ertakda bir-biridan qoyilmaqom tomoshalar nafaqat o'zbek tomoshabini, dunyo xalqlarini ham qiziqtirib qo'ydi. Teatr jamoasi "Karvonsaroy" spektakli bilan dunyo bo'ylab festivallarda qatnashib kelishgan, jumladan 1990 yil Germaniyada, huddi shu yili yana bir davlat Hindistonda, 1992 yil Amerikada, 1993 yil Turkiyada, 2011 yil Rossiya va boshqa

davlatlarda gastrol safarlarida ham ishtirok etishga musharraf bo'lgan. "Karvonsaroy" asari an'anaviy teatr dramaturgiyasi uslubi vositalari va qahramonlaridan foydalangan holda sahnalashtirilib yaxshi natijalarga erishildi. Garchi Buyuk ipak yo'lida va karvon saroyda ro'y bergan rang barang voqealarni ham jonli qiyofada ko'rinuvchi, ham chodir ortiga o'tib qo'g'irchoqlarni harakatga keltiruvchi bu ikki aktyor har tomonlama qiziqarli, badiiy yaxlit, nafaqat bolalarni, balki katta yoshdagi tomoshabinlarning ham e'tiborini qozondi. "Karvonsaroy" spektaklining sahnaviy hayotining umrbboqiyligini azal-azaldan ustoz-shogird an'analari davom etib kelayotganligiga yana bir bora guvohi bo'lamiz. Tajribali rejissyor mahoratli aktyor I.Yakubov 1992 yilda teatrdan ketganidan so'ng, uning o'rniga (Ali) obrazida teatrning yosh aktyorlari bo'lgan Alisher Mirg'iyosov hamda Shermat Jabborovlar bu rolni ijro qilishdi. Spektakl milliy madaniyat bilan bog'liq sahnaviy jihozlar yordamida boyitildi. Bu o'rinda rassomning mehnati juda katta bo'lganligini inkor qilib bo'lmaydi. Bu spektakl albatta o'zining serzavqligi, kichkintoy tomoshabinlar didiga mosligi, quvnoqligi, yorqinligi bilan teatr jamoasining ulkan yutug'iga aylandi. Rejissyor va aktyorlarni bu boradagi izlanishlari va erishgan yutuqlari tahsinga sazovor, desak yanglishmagan bo'lamiz. Yangi topilmalarga boy bu spektakl qarib 25 yildan beri teatr repertuaridan joy egallabgina qolmasdan tomoshabinga bir dunyo zavqu shavq ulashib kelmoqda. Kelajakda biz tajribali rejissyorlarimizdan, teatrning yetakchi aktyorlaridan bundanda qiziqarli va ajoyibotlarga boy spektakllarni kutib qolamiz.

ISTIQLOL YILLARIDA RESPUBLIKA QO'G'IRCHOQ TEATRIDAGI IZLANISHLAR

Supiyev Bobosher

*“Drama teatri va kino aktyorligi san’ati”
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: s.f.d., professor T. Bayandiyev*

Ma’naviyat haqida har qancha da’vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o‘ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko‘zlangan maqsadga erisholmaymiz, ya’ni, inson qalbiga yo‘l topolmaymiz⁸³.

I. A. Karimov

Madaniyat, san’at sohalarini rivojlantirish yurtimiz taraqqiyotida ustuvor vazifalardandir. Albatta bu sohalarni ajdodlarimizning ma’naviy - ijodiy merosiga tayangan holda yangi davr, yangicha dunyoqarash nuqtai nazaridan taraqqiy toptirish va chuqur islohotlarni amalga oshirish katta ahamiyatga ega.

San’at kishilarni ma’naviy, madaniy va ahloqiy tarbiyalashda kuchli vositadir. Buyuk mutafakkir bobomiz Al-Forobiy aytganlaridek: “Farzandlaringizni kelajak uchun tarbiyalangiz”⁸⁴. Zero har bir davr ilg‘or fikrlar bilan tarbiyalanayotgan yoshlarga muhtoj.

Har bir mamlakat jahon ayvonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishida uning san’ati katta rol o‘ynaydi. Yangi jamiyat barpo etilayotgan bir davrda yurtdoshlarimizni ma’naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularni ezgulik yo‘lida xizmat qildirish qat’iy vazifa qilib belgilab qo‘yildi. ”Bola boshidan” deganlaridek, ayniqsa bugungi kunda farzandlarni yuqori madaniyatli,

⁸³ Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” 128-bet., 2008 y. “Ma’naviyat” nashr.

⁸⁴ Forobiy “Fozil odamlar shahri” asari

yuksak salohiyatli qilib tarbiyalash muhimdir. Bu borada teatr san'atining, ayniqsa qo'g'irchoq teatrining o'rni katta.

Istiqlol davri Respublika qo'g'irchoq teatri uchun ham izlanish yillari bo'ldi. Garchi davlat Respublika Madaniyat ishlari vazirligi va mahalliy byudjet orqali qo'g'irchoq teatrlarini moliyaviy jihatdan ta'minlab turgan bo'lsada, teatrlar ma'muriyati bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitiga homiylar topish va ijodiy ishlarni yangi tartibda olib borishga harakat qilib kelmoqda.

1990 yillarda Respublika qo'g'irchoq teatri faoliyat ko'rsatgan rejissyor Toxir Maxramovning favqulodda hayotdan ko'z yumushi shu teatr qoshida faoliyat ko'rsatgan Buxoro yaxudiylari Mixail Bobojonov I.Yoqubovlarni teatrdan ketishi Respublika qo'g'irchoq teatri repertuarini inqirozga olib kelishi mumkin edi. Tajribali rejissyor I.Yoqubov 1992 yilda teatrdan ketib teatr faoliyati yosh rejissyorlar B.Yodgorxo'jayev, M.Bobojonov, T.Qobilov, S.Seduxinlarga qolgan bo'lsada, ijodiy ishlar davom etdi. S.Seduxin V.Orlovning "Oltin jo'ja" asarini, Qobulov Smexovning "Ali bobo va qirq qaroqchi" ertagini sahnalashtirib ma'lum darajada teatrning an'analarini davom ettirdi. Ammo bir tajriba sifatida qo'yilgan ushbu spektakllardan aynan "Ali bobo va qirq qaroqchi" spektaklini Moskvalik aktyorlar ovozlari yozilgan plastinkaga tayangani ijrochilarning qo'g'irchoqlarni mexanik tarzda harakatga keltirish bilangina band bo'lganlari sababli ishonarli chiqmadi. Hatto V.Akudinning ifodali dekoratsiyasi va xarakterli qo'g'irchoqlari ham spektaklni mag'lubiyatdan asrab qololmadi.

Respublika qo'g'irchoq teatri rahbariyati Buxoro qo'g'irchoq teatrida faoliyat olib borayotgan teatrning bosh rejissyori SH.Yusupovni Respublika qo'g'irchoq teatriga taklif qiladi. 1993 yili teatrga Shomurod Yusupov bosh rejissyor etib tayinlandi. Sh.Yusupov Buxoro qo'g'irchoq teatrida tajriba orttirgan, bir qator antiqa spektakllari bilan jamoatchilik e'tiborini qozongan edi. Shu boisdan Toshkent teatrida ishlash unga qiyin kechmadi. Bunga Buxorodan unga ergashib kelgan Alisher Mirzag'iyasov, Fatxulla Xo'jayev, Munisa Parpiyeva, Sherhat Jabborov, Karima Jabborovalar ham sababchi bo'lishdi. U sahnalashtirgan

birinchi spektakl YE.Speranskiyning “Baxt axtargan Xasan” asari (U.Saidov tarjimasi) bilanoq jamoatchilik e’tiboriga tushdi. Spektaklga kompozitor A.Ikromov maxsus musiqa bastaladi. Rassom V.Akudin rejissyor yechimidan kelib chiqib, voqealarni butun sahna bo‘ylab joylashtirdi. Tomoshani yarqiroq sharqona liboslarda ikki boshlovchi boshlaydi. So‘ng xarakatlanuvchi sahnada dekoratsiya qismlari paydo bo‘ladi. Xullas, rejissyorning ifodali talqini, kompozitorning ta’sirini musiqasi, rassomning rang barang bezaklari va qo‘g‘irchoqlari, aktyorlarning maftunkor ijrolari bir – birini to‘ldirib, Xasanning unga juda juda o‘xshab ketuvchi qaroqchi Alining xiyla – nayranglariga qaramay, sof tuyg‘ularini saqlab qolishi va pirovardida sevgilisi Shoxsanam visoliga yetishishi voqealarni rivojlanishi. Ushbu sharqona milliy spektakl barcha katta-yu kichik qiziqtirib undagi sharqona liboslar unda ko‘rsatilgan mehr-muruvvat, yaxshilik, to‘g‘ri so‘zlik, oq ko‘ngillik barcha – barchasi undagi milliy musiqalar tomoshabinlarga qay darajada tarbiyaviy jihatdan ularni ongiga ta’sir qilishi uchun rejissyorni mehnati katta bo‘lgan. Ushbu spektakl bilan rejissyor ezgulikni, yaxshilikni bolalarga qay darajada tarbiyaviy ahamiyati borligini ochib bergan. Yaxshilikni yovuzlik yengolmasligini insonni bir – biriga bo‘lgan muhabbatini qanchalik sof tuyg‘u ekanligini insonni bir – biriga yetishish uchun yovuzlikni yengish barcha yovuzliklar yaxshilikni oldida ojiz ekanligini yana bir bor isbotlab bergan. Bu spektakl Andijonda bo‘lib o‘tgan viloyat “Qo‘g‘irchoq teatrlari” o‘rtasida Gran-pri sohibi bo‘ladi.

Yangi asarlarni sahnalashtirish ishiga ba’zi iqtidorli aktyorlar ham jalb qilindi. Masalan, Fatxulla Xo‘jayev Valeriy Borisovning “Sho‘x shaytonchalar” asari (M.Abduqayumov tarjimasi) yosh rassom S.Jiboyidov bilan hamkorlikda sahnalashtirdi. Teatrning yangi bir davri boshlanishga yana bir spektakl sababchi bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz. Bu spektakl teatrning qiyofasini ochib berdi. Bu spektakl rejissyor Shomurod Yusupovning sahnalashtirgan asari sharqona milliy ruhda “Ming bir kecha” asosida yozilgan “Oloviddinning sehrli chirog‘i” spektakli (H.Imonberdiyev) asari. Bu spektakl bilan SH.Yusupov teatr jamoasini

bor imkoniyatlarini namoyish etdi. Unda butun teatr sahnasining hamma tomonlari ishga solindi. Effektlarga jonli chiqishlarga aktyorlarning mahoratli ijrolariga katta e'tibor berildi. Bu o'rinda rassom V.Akudinning xizmatini alohida ta'kidlash kerak. Rassom spektaklni rejissyor xohlaganidek ya'ni tasavvur qilganidek tasvirlab bergan. Kompozitor A.Ikromov esa bor imkoniyatini ishga solib asar uchun romantik ko'tarinkilik ruhida musiqa yaratdi. Ushbu spektaklni qanchalik jonli bo'lishida hamda muvaffaqiyatli chiqishida mahoratli aktyorlarni o'rni ham taxsinga loyiq. Bu aktyorlar Sh.Komilova (Sulton), F.Xo'jayev (jin), A.Mirg'iyosov (Jafar), A.Otaboyev (Oloviddin), A.Mahkamova (Jasmin), G'.Nazarova (To'ti), K.Jabborova (Maymun Abu), Sh.Jabborov (Folbin) kabi aktyorlar ehtiros bilan o'ynab, har biri o'z qahramonining eng muhim jihatlarini ochib bera olgan. Xuddi shu spektakl 1995 yil Respublika an'aviy "Qo'girchoq teatrlari" festivalida Gran-prini qo'lga kiritganligini alohida e'tiborga olsak bo'ladi. Ushbu spektaklda ajoyib roli uchun mahoratli aktyor ya'ni, jin roli uchun Fatxulla Xo'jayev festivalning eng yaxshi erkak roli nominatsiyasiga sazovor bo'ladi. Ushbu milliy ruhda qo'yilgan spektakl yosh avlodni ma'naviy va madaniy ongini salohiyatini, xaqgo'ylikni orzu umid qilib hayotga faqat yaxshilik bilan qarash kerakligini barcha orzularga yaxshilik bilan erishish mumkinligini ochiq oydin ko'rsatib beradi.

Rejissyor Sh.Yusupovning an'anaviy teatr turlarini zamonaviy sahnada tiklash borasidagi urinishlari bir muncha samarali bo'ldi. Bu spektakllar xalq ertaklari bolalar uchun juda katta yangilik bo'ldi. Bu ertaklarni kitoblardan o'qib ota – onalaridan eshitib yurgan bolalar endi spektakllar orqali jonli ko'rishga muvaffaq bo'lishdi. O'z qahramonlarini jonli ravishda ko'rgan bolalar juda katta taassurotlar bilan boyidi. Bu bilan teatr jamoasi o'z maqsadlariga erishdilar desak, yanglishmagan bo'lamiz. Respublika "Qo'g'irchoq teatr"larida Gran-priga sazovor bo'ladigan spektakllarni kutib qolamiz.

MUSIQALI TEATR AKTYORI IJROSIDA KUY, XATTI-HARAKAT VA TUYG‘ULAR UYG‘UNLIGI



Sovutova Surayyo

“Drama teatri va kino aktyorligi san’ati”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: p. f. n., dotsent Z. Qosimova

Teatr, xususan, musiqali teatr haqida so‘z borar ekan, drama va musiqali drama teatrlarida aktyor ijodining tabiatidagi umumiylik nimalardan iborat ekanligini tadqiq etish asosiy masaladir. Avvalambor, aktyorlik san’ati turli xatti-harakatlar san’atidir. Dramatik teatrda bu faqat ruhiy-jismoniy xatti-harakat bo‘lsa, musiqali teatrda unga yana musiqali-xonandalik xatti-harakati qo‘shiladi.

Bu teatrlarning ildizi bir, ya’ni xalq ijodidir. Borliqni haqqoniy ifodalash tamoyili ham bir. Shu tamoyilni amalga oshiruvchi subekt, ya’ni aktyor ham bir.

Bu teatrlarda aktyorning sahnada yashash uslubi ham bir bo‘lib, uning asosida ma’lum maqsadga qaratilgan yagona ruhiy-jismoniy jarayon bo‘lmish xatti-harakat mavjud. Shuningdek, insonning ichki dunyosini ochish yo‘li ham bir bo‘lib, bu xatti-harakatlar tahlilidan iborat.

Demak, aktyor ijodining qonunlari hamma realistik sahna san’atlari uchun bir va o‘ziga xos bo‘ladi. Bu qonunlar Stanislavskiyning dramatik va musiqali teatrga bag‘ishlangan to‘plamlarida bayon qilingan. Ammo umumiy qonunlardan tashqari musiqali drama aktyorlarini tarbiyalashning o‘ziga xos farqli tomonlari ham bor. Musiqali spektakldagi xatti-harakat musiqali xonandalik sahna xatti-harakatidir. Musiqali spektaklda aktyor “ijodining ko‘p holatlari musiqa bilan oldindan belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Musiqachilar, xonandalar, raqqosalar – baxtli odamlar, chunki ularda tempo-ritm muammosi oldindan hal qilingan. Musiqa bizga tuyg‘ularni bildiradi, lekin aktyor shu tuyg‘ularni xatti-harakatlarga ko‘chira bilishi kerak... Musiqa bizga tuyg‘ular mantig‘ini ochib beradi, uning yordamida

xatti-harakat mantig'i topiladi va mana shu xatti-harakatlarni bajara borib, biz ijod paytida musiqa bergan tuyg'ularga qaytamiz".⁸⁵

Musiqani tinglash va unga singdirilgan tuyg'ular mantig'ini o'zining sahna xatti-harakatiga aylantira bilish qobiliyati musiqali teatr aktyori ijodidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri,⁸⁶ deb ta'kidlagan edi Stanislavskiy.

Musiqa belgilab bergan xatti-harakatning vaqt qonunlariga bo'ysundirilganligi musiqali teatr aktyori ijodidagi ikkinchi muhim o'ziga xos xususiyatdir. Musiqa bilan bog'lanmagan drama teatrining aktyori pesa jarayonida u yoki bu vazifani bajarar ekan, turli xil moslanishlardan foydalangan holda xilma-xil xatti-harakatlarni mantiqan, ketma-ket va maqsadga muvofiq amalga oshirishi mumkin. Bunda aktyorga shu xatti-harakatlarni tanlash va ularni qay muddatda bajarishni meyor tuyg'usidan boshqa hech narsa chegaralab qo'ymaydi.

Xuddi shu vazifani bajarayotgan musiqali teatr aktyori oldida, birinchidan, bastakor belgilagan vaqt davomida nafaqat o'z xatti-harakatlarini bajarish, balki ularni baholash va qaror qabul qilish jarayonlari turadi. Musiqali teatrning qonuni aktyorning o'z xatti-harakatlarini musiqa usuliga bo'ysundirishi bilan birga, har bir musiqiy fikrga yangi xatti-harakatlarni topishi bilan ifodalanadi. Ko'pincha musiqa o'zining o'lgangan vaqti bilan aktyorga ma'lum miqdordagi xatti-harakatlarni bajarish va ularni aynan shu musiqa tempo-ritmiga joylashtirishga imkon berayotganday, lekin musiqaning hissiy-ma'noli mazmunga egaligi aktyorni faqat chegaralangan miqdorda xatti-harakatlarni bajarishga majbur qiladi. Bu musiqali teatr aktyorini spektakl voqealari davomida kerakli xatti-harakatlarni va ayniqsa, moslashuvlarni chertib-chertib tanlashga, ular orasidan eng zarurlarini qoldirishga majbur qiladi. Bu qisman sahna xatti-harakatlarini detallashtirishdan qo'rqmaydigan dramatik teatr obrazlariga nisbatan, vokal-sahna obrazlarning ancha ixcham va umumlashganligi bilan izohlanadi. Musiqali-xonandalik xatti-harakatining ikkinchi asosiy o'ziga xos xususiyati mana shundan iborat.

⁸⁵ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: Sharq, 2011.

⁸⁶ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: Sharq, 2011.

Musiqali spektakl voqealarini ochishda sahna shakli ham alohida ahamiyatga ega. Har qanday musiqali spektaklni plastikasiz ifodalash, tasavvur qilish qiyin. Uning vaqt davomida mavjudligi musiqali shakl qonuniyatlariga asoslangan: raqs bilan musiqa tempo-ritmik qurilmasini kuy va plastik rivojlanish yo‘llarini birlashtiradi.

Balet va musiqali dramatik spektakldagi raqs har xil vazifani bajaradi va xatti-harakatlar tabiatini turlicha ochib beradi. Mumtoz raqsning muhim vazifasi inson tuyg‘ulari, kechinmalari va kayfiyatlarini harakat orqali ifodalab berishdan iborat bo‘lsa, musiqali dramatik spektaklda raqsning vazifasi, avvalambor, xatti-harakat orqali raqs matnini psixologik nuqtai nazardan isbotlashdir. Raqs turli xil sakrashlarni namoyish qilishdangina iborat bo‘lib qolmasligi kerak. U xatti-harakatlarning ichki mazmunini ifodalashi zarur. Xatti-harakatlardan kelib chiqmagan, obrazning emotsional va psixologik holatini ifoda qila olmagan raqs spektakl g‘oyasini ochib berishga qodir emas. “Raqs va ichki tuyg‘ular ajralmasdir. Uning tashqi ko‘rinishini va plastik shaklini qisman aktyorning so‘zlariga o‘xshatish mumkin. Ichki xatti-harakatdagi kechinma tuyg‘ularini aktyor o‘zi yaratishi va shu orqali o‘zining tashqi harakatlarini asoslashi zarur. Aktyor raqsning tug‘ilishiga asos bo‘lgan oliy maqsad va berilgan shart-sharoitdan zavqlanishi, raqsning ichki monologi va ko‘rinishlarini ifodalashi va uning tub ma’nosini ochib berishi kerak”.⁸⁷

Bunda aktyor o‘zi ijro etayotgan obraz hayotining ichki ma’nosi, uning emotsional-harakatlari negizini musiqadan olishi kerak. Albatta, raqs san’atining texnikasi va shakllarini egallamay turib, uning xatti-harakatli yo‘llari haqida gapirish befoyda. Hayotiy haqiqatning tug‘ilishi uchun aktyor texnika va gavda plastikasini chuqur egallashi lozim, chunki bu aktyorning diqqatini eng asosiy narsa – musiqaning ichki mazmuni bilan texnikani birlashtirishga qaratish imkonini beradi.

⁸⁷ Kristi. Rabota Stanislavskogo v opernom teatre. – Moskva: Iskusstvo, 1969. S.208.

K.S.Stanislavskiy ta'limoti aktyor va rejissor ijodining qonunlari haqidagi ta'limotdir. Uning hamma qoidalari – hayotiy haqiqat prinsipi, xatti-harakatning tabiiyligi, ijrodan ko'zlangan oliy maqsad va obrazda gavdalantirish shunchaki muallif o'ylab chiqargan narsalar emas. Ular hayotning o'zidan, tabiatning obyektiv qonunlaridan olingan.

Ta'limotning eng muhim jihati tabiiy xatti-harakat, aktyorning maqsadi va eng oliy maqsadi haqidagi fikrdir. Stanislavskiy ijodiy jarayonda birinchi o'ringa ongli va xatti-xarakatli oliy maqsadni chiqarib, asosiy diqqatni sahna san'atining yuksak g'oyasiga yo'naltirish kerakligini aytib o'tdi.

Ta'limotning asosiy talablari – mantiqiy va izchil fikrlash, intilish, xohish va xatti-harakatdir. Ta'limotning maqsadi – rol ijro etish jarayonida haqqoniy sahna holati yaratishdir. “Haqqoniy sahna holati aktyorga pesa davomida kerakli xatti-harakatlarni bajarishga imkon beradi... Haqqoniy, tabiiy xatti-harakat, albatta, haqqoniy, samimiy tuyg'uni yaratadi”.⁸⁸

Kuylovchi aktyorni tarbiyalash jarayonida Stanislavskiy ta'limotini amalga oshirish musiqali teatr arboblari uchun qandaydir noaniq narsa emas. Aktyorlik mahoratining hamma elementlari musiqali teatr tabiatida mujassam. Lekin Stanislavskiyning operadagi ko'p yillik mehnati hali yetarli darajada o'rganilmagan. Ba'zan Stanislavskiyning ishini dramatik aktyorning texnik usullarini musiqali teatrga mexanik ravishda o'tkazish deb tushunishadi. Aslida Stanislavskiy musiqali dramaturgiyaning tuzilishini, ijodiy ijrochilik qonunlarini o'rgandi va tavsiya qilgan metodini o'zining amaliy ishi bilan isbotladi.⁸⁹

Stanislavskiy ta'limoti aktyorlar texnikasining nazariy xulosalari emas. Bu mashhur aktyorlar ijodini, o'z ijodini, insonning xulq-atvorini kuzatish natijasidir. “Men o'z ta'limotimni to'qib chiqarganim yo'q, – degan edi Stanislavskiy, – men uni hayotdan, tabiatdan oldim”.⁹⁰

⁸⁸ Usnatov R. Musiqali teatr aktyorlarining obraz ustida ishlash xususiyatlari. – Toshkent, 2005.

⁸⁹ O'sha manbadan

⁹⁰ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: Sharq, 2011.

Musiqali teatr aktyorining shakllanishida Stanislavskiy ta'limoti katta ahamiyatga ega. Agar kuylovchi aktyor shu ta'limot asosida tarbiyalangan bo'lsa, unda qo'shiqdagi yutuqlari, avvalambor, aktyorlik mahoratining yutuqlari hisoblanadi: u sahnada tabiiy yashaydi, uni hech narsa ijodiy jarayondan chalg'itmaydi, vujudi ortiqcha siqqlikdan ozod bo'ladi.

O'quv jarayonida faqat xonandaga va aktyorlikka tegishli vazifalar tug'iladi. Masalan, aktyorning texnik mashqlari, aktyorlik mahoratining boshlang'ich elementlari, nafasni to'g'ri yo'lga qo'yish va h.k. Aktyor va xonandaning vazifalarini sun'iy ravishda ajratish faqat ziyon keltiradi. Ta'limotning aktyorlik mahorati mashqlari xonanda bilan aktyorni tabiiy birlashtirishga yordam beradi. Agar talaba yomon xonanda bo'lsa, u yomon aktyor ham. Agar u yomon aktyor bo'lsa, bugungi kunda xonandalarga qo'yilgan talablarga javob bera olmaydi.

Tabiiy hayot kuyda, plastikada, so'zda, sahna xatti-harakati birligida namoyon bo'lishi musiqiy teatr aktyorlari uchun muhim shartdir. Shunday qilib, talaba tafakkuridan xonandalik va aktyorlik mahorati ikkita har xil, bir-biri bilan qo'shilmaydigan o'quv fanlari ekan, degan fikrlar batamom olib tashlanishi lozim.

Ushbu fanlarni uyg'un tarzda o'qitish jarayonida qilingan mehnatning samarasi spektakl sahnalashtirilganda, rolning muvaffaqiyatli ijrosida, zaldagi tomoshabinlar bilan ijodiy muloqotga kirishganda hamda tomoshabinning ongi va qalbiga ta'sir qilgan onlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Teatr chuqur g'oyaviy mazmunga ega murakkab mavzular orqali tomoshabinning ma'naviy shakllanishiga xizmat qiladigan ulug' dargohdir.

Adabiyotlar:

1. Kristi. Rabota Stanislavskogo v opernom teatre. – Moskva: Iskustvo, 1969. S.208.
2. Muhammedova G. Kuylovchi aktyorning shakllanishi. – Toshkent, 2008.
3. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: Sharq, 2011.
4. Usnatov R. Musiqali teatr aktyorlarining obraz ustida ishlash xususiyatlari. – Toshkent, 2005.

MA'NAVIY TAHDIDLARNI OLDINI OLISHDA INSTITUTIONAL TIZIM VOSITALARI



Sultonova Dilobar

“Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent Q.Nishonboyeva

XXI asr tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, u yoki bu davlatning, millatning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti, uning kelajagi mazkur millatga xavf solayotgan tahdidni anglab yetish salohiyati va qobiliyati darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

“Tahdid” deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “kirib kelishi” tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim.”⁹¹

Tarix saboqlaridan ma'lumki, o'zga hududlarni zabt etish yoki himoyalaniish maqsadida urush qurollari uzluksiz takomillashtirilib borilgan. Bugungi kunda o'zga hududlarni zabt etish uchun ularning xalqlarini qirib tashlash yoki jismonan asr qilib olish shart emas. Chunki tajovuzkor mafkura bilan qalbi va ongi zabt etilgan xalq shusiz ham yovga taslim bo'ladi. Biror mamlakatga nisbatan harbiy tahdid yoki iqtisodiy zarar yetkazishni osongina ko'rish va sezish mumkin. Ammo mafkuraviy ta'sir unday emas, uning ta'siri ommaviy axborot vositalari, internet va

⁹¹ Paxrutdinov.SH.«Tahdid» tushunchasi: nazariya va amaliyot. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1998. 7-8 b

boshqa manbalar orqali kirib kelaveradi. Ular odamlarga uyda ham, ko‘chada ham, ishda ham ta’sir etadi. Sirtidan bezarar bo‘lib tuyuladigan turli axborotlar, filmlar, urf-odatlarining salbiy ta’sirini oilaviy munosabatlarda, kishilararo muomala madaniyati va dunyoqarashida ko‘rish mumkin.

Bunday toifaga kiruvchi tahdidlar keng qamrovliligi va uzoqni ko‘zlovchi xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mafkuraviy tahdidlar bugungi kunda quyidagi ko‘rinishlarda ko‘zga tashlanyapti:

- milliy qadriyatlarni kamsitish;
- milliy axloq qoidalarini inkor qilish;
- mo‘tadil qarashlarni nazar-pisand qilmaslik va bularning o‘rniga muayyan davlatlar irodasiga itoat qilish;
- o‘zga jamiyatlar manfaatlariga mos dunyoqarashni mutlaq haqiqat sifatida targ‘ib qilish.

Xulosa aniq: ijtimoiy ongda noto‘g‘ri maqsad-muddaolarni, tuyg‘ularni va fikr-mulohazalarni hosil qilish.

Biz “ommaviy madaniyat” deganda negadir G‘arbdan kirib kelayotgan ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarni nazarda tutamiz. Aslida shundaymi? Albatta “ommaviy madaniyat”ning eng kuchli, ta’siri oqimi xorijdan, asosan, G‘arb davlatlaridan kirib kelmoqda. Ammo o‘zbeklarda “Qovun qovundan rang oladi”, degan maqol bor. Shunga asosan, nazarimizda o‘zimizning ichimizda ham “ommaviy madaniyat”ning yangi-yangi shakllari kuchayib borayotgani achinarli holdir.

Masalan, ayni kunlarda yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan, bir qarashda “beozor” ko‘ringan turli onlayn o‘yinlarni o‘ynash, ovro‘pacha urf va odatlar, ularning ham ma’naviy, ham madaniy yashash tarziga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish, so‘zlashuv usul va vositalarini sintezlamagan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish hollari uchramoqda. Bugungi kunda smartfon va internet olamiga begona bo‘lmaganlar lug‘atidan “selfi” so‘zi o‘rin olgan. O‘zini turli holatlarda suratga tushirib ijtimoiy tarmoqqa joylashgan ishqibozlarning fikri

zikri bir narsada – imkon boricha ko‘proq foydalanuvchilarning e‘tiborini jalb qilib, suratlari bilan internetdagi yetti yot begonalarni qoyil qoldirish. Selfiga tushish vaqtida halok bo‘lgan shaxs haqidagi ilk xabar OAVda 2014 yil martida paydo bo‘lgan. O‘shandan buyon selfiga tushish chog‘ida halok bo‘lganlar soni muttasil oshib bormoqda: 2014 yilda 15 kishi, 2015 yilda 39 kishi 2016 yilda esa 80 kishidan halok bo‘lgan.⁹² Ushbu son keyingi yillarda yana ham ko‘payib ketmasligiga kim kafolat beradi?

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimov so‘zi bilan aytganda, “Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qat’iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o‘z girdobiga tortib ketishi, oqibatida ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyatini o‘ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Mana shu achchiq haqiqatni yurtimizdagi har bir inson, har qaysi ota-ona, eng muhimi, har qaysi yigit-qiz chuqur anglab olishini istardim”.

93

Yoshlar turli psixologik va yosh hususiyatlarini o‘tashi bilan murakkab ijtimoiy toifa hisoblanadi. Shu sababli bu borada quyidagicha yo‘l tutish maqsadga muvofiqdir:

- O‘sib kelayotgan yosh avlod ongida kurrai zamin, inson, hayot abadiy emasligi haqidagi tushunchalarni shakllantirish jarayonida bugungi murakkab va tahlikali hayot, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida to‘g‘ri va mukammal tushunchalarni, lo‘nda qilib aytganda, g‘oyaviy immunitetni shakllantirish;
- Ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirib, bu sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlar samaradorligini oshirish, milliy manfaatlarimizga zid bo‘lgan zararli g‘oya va mafkuraviy hurujlarning mohiyatini ochib berishga

⁹² “Ko‘ngil ko‘chalari” gazetasi, 2017 yil 23 mart soni.

⁹³ “Jamiyat” gazetasi, 2007 yil 28 dekabr soni.

qaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ommabop adabiyotlarni ko'paytirishga e'tibor berish lozim;

- Eng asosiysi, o'tmishi buyuk yurtimiz tarixi ilmiy qadryatlarimiz hamda ulug' ajdodlarimiz qoldirgan bebaho ilmiy va ma'naviy merosni yoshlarimiz ongiga, qalbiga singdirishimiz lozim.

Mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda institusional asosda faoliyatni takomillashtirish fuqarolarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirishda eng samarali vazifalardan biri hisoblanadi. Har birimizning asosiy vaqtimiz oila, mahalla va ta'lim-tarbiya muassasalarida ko'proq sarf etilishini hisobga oladigan bo'lsak, mafkuraviy tarbiyaga tizimli yondashish orqali, ma'naviy tahdidni bartaraf etishga erishish mumkinligiga yana bir bor ishonchimiz komil bo'ladi. Uzluksizlik fuqarolarimiz ongida ma'naviy bo'shliqni sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Shunday ekan, oila, mahalla, ta'lim – tarbiya tizimidagi uzluksizlik bu jarayonda ayniqsa yuqori natijaga erishish imkonini tug'diradi. Bugungi o'smir ertaga xalq bo'ladi. O'sib kelayotgan avlod bugungi ezgulik yo'lidagi bunyodkorlik ishlarining davomchisidir. Milliy ma'naviyatimiz qirralarini kelajak avlodimiz shuurida mukammal shakllantirish va yuksaltirish uchun barchamiz mas'ulmiz.

O'ZBEK MAROSIM QO'SHIQLARIDAN O'LANNING ETNIK VA G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI



Sunnatillayev Asatilla

“Folklor va etnografiya” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: filo. f. n., dotsent O. Ahmedova

Jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan O'zbekistonda xilma-xil janrlardan iborat boy folklor an'analari yuzaga kelgan. Ular necha ming yillar oldin teran qalb sohiblari bo'lmish ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan, iste'molda qo'llangan va tub aholining bebaho mulkiga aylangan. Ma'naviy xazinaning asosi bo'lgan so'z san'ati orqali qadriyat beshiklari tebratilgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yukasak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida "Ajdodlarimiz tafakkuri va daxosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi... bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir" - deb ta'kidlaydi. Albatta, xalq og'zaki ijodi namunalari ajdodlarimiz badiiy salohiyatining asrlar mobaynidagi taraqqiyoti davomida shakllangan qudratli ma'naviyat xazinasini va xalqimizni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi ma'naviyat sarchashmasidir.

Xalqning donishmandligi, teran salohiyati tufayli yaralgan folklor janrlaridan biri bo'lmish qo'shiqlar esa xalq og'zaki ijodining eng ommaviy namunasi hisoblanadi. Qo'shiqlar xalq ma'naviyatining, ijodkorining buyuk qudratini, mehnatkash omma irodasining bukilmasligini ifodalaydi. Kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka, do'stlikka va vafodorlikka chorlaydi. Qo'shiqlar qanday mavzu va mazmunda bo'lmasin so'z, ohang hamda ijro mukammalligida inson qalbiga singib boradi.

Qo'shiqlar ijro o'rni, holati, musiqaga munosabati va badiiyatidan kelib chiqib: ijro o'rni, poetik strukturasi, musiqiyligi va raqsga munosabatiga qarab tasnif etiladi. Ijro o'rniga qarab tasnif etilganda, qo'shiqlar: marosim va nomarosim

qo'shiqlarga ajraladi. O'z navbatida, marosim qo'shiqlari ham ikki: mavsum-marosim va oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlariga bo'linadi. Marosim folklori va uning ikki qismi – mavsumiy marosim va oilaviy marosimlar folklori har bir xalqning o'zligini namayon etuvchi tayanch manba hisoblanadi. O'zbek xalqining mavsumiy va oilaviy marosimlari tizimi hamda folklorida uning olamni anglash, unda insonning o'rni va vazifasini belgilash bilan bog'liq dunyoqarashlari aks etgan. Xalqning barcha hayotiy tajribalari, bilim va xulosalari avvalo ana shu mavsumiy, oilaviy marosimlar tizimi va unda kuylanuvchi folklor namunalarida mujassam topgan.

Marosim folklori namunalari folklorning eng qadimiy janrlari sirasiga kiradi. Marosim folklori bo'lmish oilaviy-maishiy marosimlar o'zida milliy qadiriya va urf-odatlarini mujassamlashtirgani bilan ahamiyatlidir. Oilaviy-maishiy marosimlarning eng katta qismi bu to'y marosimi hisoblanadi. «To'y» atamasi «to'ymoq», «el-yurtga ziyofat bermoq» ma'nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim burilish nuqtasini anglatadi. Binobarin, to'y ham moddiy, ham ma'naviy oziqlanish marosimidir. Bu marosim turli munosabatlar bilan o'tkazilganligi tufayli ularda ijro etiladigan folklor janrlari ham xilma-xillik kasb etadi. O'zbek to'y marosimlari sirasida nikoh to'ylari rasm-rusmlarga, irim-sirimlarga boyligi, folklor materialining rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Bunday rang-baranglik hamda ko'tarinki rux marosimning maqsad va vazifasi bilan inson hayotining yangi davriga qadam qo'yishini alohida quvonch orqali nishonlashi bilan bog'liqdir.

O'zbek nikoh to'ylarida kuylanadigan xalq qo'shiqlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ularning qamrovi kengligi sababali, asosan, to'yning birinchi kursida kuylanadigan o'lan janriga to'xtalib uning tahlil qilishni lozim topdik.

O'lan asosan o'tmishda ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik tarzida hayot kechirgan o'zbek urug'lari o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, u qiz uzatar oqshomidan bir yoki bir necha kun ilgari qizning uyida o'tkaziladigan “qiz oqshomi”, “qizlar majlisi” kabi turli nomlar bilan nishonlanadigan tantanada ijro

etilgan. O‘lan shahar hamda qadimdan o‘troq tarzda hayot kechiruvchi aholi o‘rtasida uchramaydi. Ayrim hollarda qiz uzatar kechasi kuyovning uyida o‘tkaziladigan bazmlarda ham o‘lan ijro etilishi mumkin. Bunda o‘lan to‘yni qizitish, mehmonlarning kayfiyatini ko‘tarish maqsadida aytilgan. Janrning paydo bo‘lishi masalasida ham o‘zbek folklorshunosligida aniq bir fikr yo‘q. O‘zbek qo‘shiqlari bilan ishlagan olim M.Alaviya bu masala xususida to‘xtalib, “o‘lan janri qadimda yor-yor, lapar janrlari bilan bir bo‘lib, keyinchalik ular turli joylardagi traditsiya, turmush tarzi bilan bog‘liq holda differentsiatsiyalashib, mustaqil janr holiga kelib qolgan”⁹⁴, deb yozadi.

Farg‘ona vodiysining ayrim joylarida o‘lan misralari oxiriga «yor-yor» so‘zini radif qilib ishlatish hollari bu ikki janrning o‘tmishda bir bo‘lganligini bildirmaydi. Chunki yor-yor va o‘lan janrlari ijro usuli jihatidan keskin farqlanadilar. Umuman, o‘lan, lapar, yor-yor janrlarining paydo bo‘lishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘zgachaliklar masalasi alohida tadqiqot talab qiladi. O‘lan ijrosida yigit va qizlar yuzma-yuz turishi, ularning so‘z vositasida mulohaza yuritishlari ushbu janrning tarixan islom ta’siri u qadar kuchli bo‘lmagan ko‘chmanchi turkiy xalqlar, jumladan, ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari orasida vujudga kelganligidan dalolat beradi. O‘lanning tematik doirasi keng bo‘lib, unda ishqda vafodorlik, yor visoliga mushtoqlik motivlari yetakchilik qiladi. O‘lan aytishni, odatda, yigitlar boshlab berishadi.

Yigit:

Qarg‘a deyman, ko‘zingdan, qarg‘a deyman,

Qarg‘a uya soladi jarga, deyman.

Ko‘rmaganga ko‘p vaqt, oylar o‘tdi,

O‘lan bilan so‘rashay — «horma» deyman.

Qiz:

O‘lanlarim, ko‘zingdan, o‘lanlarim,

Sen bo‘lding shu dunyoda gumondorim.

⁹⁴ Turdimov. "O‘zbek folklorshunosligining rivojlanish tamoyillari"(O‘quv-uslubiy majmua 52-bet)

Sen bo‘lsang shu dunyoda gumondorim,
Kuya-kuya kul bo‘ldi suyaklarim.⁹⁵

O‘lan poetik jihatdan ham qator o‘zgachaliklarga ega bo‘lib, ulardan biri tekstning izchil to‘rtlik shaklidagi band tuzilishiga ega ekanligidir. Har bir band esa “aa”, “ba” tarzida qofiyalanadi. O‘lanlar faqat to‘ylarda emas, turli yig‘in marosimlarida ham aytilgan. O‘lan aytish ko‘proq ko‘chmanchi chorvadorlar orasida kengroq tarqalgan bo‘lib, ular tarafma – taraf aytishuv sifatida kuylangan. Masalan:

Qiz:

Olti yigit ichida oting Tursun,
Ko‘zaga suv qo‘ydim, tinib tursin.
Chindan suyib o‘ynasang, men borayin,
Yolg‘on bilan chaqirsang, beting qursin.

Yigit:

Olti qizning ichida oting Anor,
Anordayin betlaringdan qonlar tomar.
Nurlar tomgan betingdan bir o‘ptirsang,
Ona sutin emgandayin mehrim qonar.⁹⁶

Yor – yorlarda asosiy maqsad kelin – kuyov ta‘rifi, ularga tilak bildirish bo‘lsa, o‘lanlardagi bosh maqsad aytishuvda g‘olib chiqishdir. O‘zbek xalqining mashhur “Alpomish” dostonidagi Alpomish va Bodom bikach aytishuvlarini nazarda tutsak, o‘lanlarning vujudga kelishi juda qadimiy ekanligiga amin bo‘lamiz.

Farg‘ona viloyatida yashovchi aholi odatiga ko‘ra, nikoh to‘yining «Qiz oshi», «Lapar kechasi» deb ataladigan bazmlarida lapar, bayt bilan bir qatorda ko‘p hollarda o‘lan aytiladi. Qizlar bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona misra-

⁹⁵ T.Mirzayev, O.Safarov, D.O‘rayeva “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi” 72-B

⁹⁶ T.Mirzayev, O.Safarov, D.O‘rayeva “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi” 74-B

baytlarga boy o‘lanlarni aytishganda, xuddi so‘z bilan tortishmachoq o‘ynaganday bo‘ladi. Bu bazmda qizlar va yigitlar tomonidan ikki kishi sal oldinga chiqib o‘lan aytishadi. Odatda, to‘yga atab qizning otasi ikki-uch juft olma olib qo‘yadi. O‘lan aytuvchi yigit shulardan bittasini ushlab turib qo‘shiq boshlaydi va qizlar to‘dasidagi chechan qizga otadi. Ular ham o‘z navbatida o‘lan bilan javob berib, haligi olmani ro‘paradagi yigitga otadi. Shu tariqa yangidan-yangi o‘lanchilar o‘rtaga tushaveradi.

“O‘lan” aslida “ulang” so‘zining “O‘lang va ulan” shakllaridagi fonetik o‘zgarishi tufayli yuzaga kelgan bo‘lib, kelin (qiz) va kuyov (yigit) ni bir – biriga ma’naviy jihatdan bog‘lash, ulash maqsadini ifodalovchi ma’noga ega.

O‘lanlarning tematik doirasi kengdir. Ularda ishqda vafodorlik, yor visoliga mushtoqlik motivlari yetakchilik qiladi. Kuyov taraf – kuyovni, kelin taraf – kelinni ta’riflash musobaqasiga kirishadi. Taraflar aytishuvi sho‘x – shodon qiyqiriqlar oqimida quvnoq hazilkashlikka aylanadi. Ayrim hollarda quyushqondan chiqib ketishganini sezmay qolishadi. Masalan:

Yigit:

Olma – o‘rik deganda, olma – o‘rik,
Mahallaning ichida qilding ko‘rik.
Mahallaning ichida qilsang ko‘rik,
Sendan bo‘lgan bolaga men ham sherik.

Qiz:

Uning o‘chsin deganda, uning o‘chsin,
Qora qaychi tilingning uchin kessin.
Yana qaytib uyatli o‘lan aytsang,
It yaloqda osh ichib kuning o‘tsin.⁹⁷

O‘lanlar odatda, yakkaxon o‘lanchining oddiy ovoz solishi asosida kuylanib, u to‘rtlikni aytib bo‘lgach, tarafdorlarining jo‘rovoz qiyqiriqlari

⁹⁷ T.Mirzayev, O.Safarov, D.O‘rayeva “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi” 73-B

asosida yo to'rtlik, yo uning so'nggi satri hayqirib takrorlanadi. O'lanlar hozirjavoblikni, hazil – mutoyibani talab etadi.

Farg'ona viloyati o'lanlari ham, asosan to'rtliklardan tashkil topib, voqeabandligi, dialog shaklida ikki tomon bo'lib ijro etilishi bilan xarakterlanadi. Bu jihadan ular laparga o'xshasa-da, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, tasvir obektlari, unda kuylangan hayot tarzi, obrazli fikr yuritish darajasi bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan:

O'yna turib deganda, o'yna turib,
O'rtanaman-kuyaman seni ko'rib.
O'rtanganda-kuyganda seni ko'rib,
Ermaklaysan, kulasan labing burib.

O'lanlarda bu tartib hamisha saqlanmaydi. Quyidagi qiz o'lanida muhabbatni insonning eng nodir fazilati, muqaddas xislati deb qadrlagani ifodalanadi:

Qo'limda bir uzugim g'umdonga bos,
Oshiq bo'lsang oyog'ing mardona bos!
Oshqlik qiz-yigitning ishi ekan,
Oshqlikka teng kelmas zaru olmos.⁹⁸

Farg'ona viloyatida qo'shni Toshkent viloyatining Qurama tog'lari atroflarida aytiladigan o'lan ijrochiligining ta'siri ham sezilib turadi. Bunga ko'ra o'lanning birinchi satri bir yoki ikki so'zdan tashkil topgan bo'ladi. Bunday o'lanlarda ham shu ikki so'zga ikkinchi va to'rtinchi satrlar qofiyalanadi. Birinchi satr cho'zib aytiladi. O'lanlarda yigit-qizning bir-birini sinash maqsadida, hazil-mutoyibaga yo'l qo'yiladi. Bu yoshlik sho'xliklari, teng-tengi bilan topishganidan ko'ngli bir olam sevinch bilan to'lganlarning taronalaridir.

Xullas, yigitlar va qizlar o'rtasida hozirjavoblik bilan aytishuv shaklida aytilgan, fikrga fikrini she'riy yo'sinda ulab ketish o'lan janrining yetakchi xususiyati sanaladi. O'lanlar yoshlarni badiiy-estetik didli, xush hulqli, kamtarin,

⁹⁸ T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayeva "O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi" 73-B

ochiq ko'ngilli, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ayniqsa, katta ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T-2008
2. B.Sarimsoqov "O'zbek marosim folklori". Fan-1986
- 3.SH.Turdimov. "O'zbek folklorshunosligining yangilanish tamoyillari" (O'quv-uslubiy majmua) T-2016
4. "O'zbek xalq og'zaki ijodi" BNQDU. Tuzuvchi: M.Qurbaniyazov Nukus-2008
6. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. T-2008.

MADANIYAT VA SAN'AT MENEJMENTINING ZAMONAVIY KONTEKSDAGI O'RNI



Tadjibayeva Nigora

"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: sot.f.d. professor M. Bekturodov

Yoshlarni tarbiyalashda ko'plab madaniyat muassasalari, ya'ni madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat saroylari, muzeylar, kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog'larining o'ziga xos imkoniyatlari mavjud. Madaniyat muassasalarining imkoniyatlaridan foydalanmasdan joylarda insonlarni tarbiyalab bo'lmaydi, chunki bu muassasalar xalq orasida ma'naviy, ijodiy faoliyat olib boruvchi o'ziga xos markaz hisoblanadi.

Yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi muammolar: ma'naviy qashshoqlik, fikr torligi, hudbinlik, insofsizlik, adolatsizlik, imon-e'tiqodsizlik, nopoklik, mehr – oqibatsizlik kabi illatlarni rad qilish insonlarni yuksak madaniyat va milliy ma'naviy qadriyatlarga tayangan siyosatni qaror toptirish yo'li bilan bartaraf etish, madaniyat muassasalarining ham bosh vazifasiga aylanishi kerak.

Istiqlolga erishganimizdan so'ng mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etish uchun juda katta va muhim ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy asos yaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimiz hukumati, jamiyat a'zolari tomonidan

mustaqillikni madaniy-ma'rifiy jabhalarsiz mustahkamlash mumkin emasligi to'g'risida xulosaga kelinishi istiqlolni real haqiqatga, bajarilishi kafolatlangan muayyan ijtimoiy hodisaga aylantirdi. Jamiyatda ro'y berayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, axloqiy-mafkuraviy islohotlar o'z takomiliga faqat madaniy yo'llar tufayligina yetish mumkinligi barchaga ayon bo'lmoqda.

Madaniyat va san'at muassasalarining faoliyatiga alohida e'tibor berilishining bosh sabablaridan biri O'zbekiston hukumatining mazkur masalaga o'ziga xos tarzda munosabatda bo'lishidir. Zero, Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan yaratilgan yangi ijtimoiy-falsafiy tizim, eng avvalo, ma'naviyatga va ma'rifatga asoslanadi. "Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot – jamiyatimiz tanasi bo'lsa, ma'naviyat, ma'rifat va siyosiy ong yetuklik uning ruhi, aqli va jonidir"⁹⁹. Ushbu madaniyat muassasalarini boshqarishda menejmentning tutgan o'rni va roli muhim hisoblanadi. Chunki, bozor iqtisodiyotining talablari asosida Respublikaning barcha tarmoqlarida menejmentning ta'siri katta bo'lmoqda.

So'nggi yillarda adabiyotlarda "boshqaruv" tushunchasi bilan bir qatorda "menejment" (management) atamasi ham keng qo'llanilmoqda. Menejment – bu boshqaruv, turli tashkilotlarda odamlarni boshqarish bo'yicha professional faoliyat turi.

Menejment ingl. "management" so'zidan olingan bo'lib, "boshqaruv, rahbarlik, ma'muriyat, direksiya, boshqarish, egalik qilish va tasarruf etish qobiliyati"ni anglatadi. Menejment hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni ishlab chiqish va yaratish, tashkillashtirish, rejalashtirish, samarali foydalanish yoki boshqarish va nazorat qilish tizimi sifatida ta'riflanadi.

Menejment atamasi ostida dastlab tijorat faoliyati, ya'ni tijoratchi, daromad keltiruvchi tashkilotlar ustidan malakali boshqaruv faoliyati tushunilgan. Menejment faoliyati menejer shaxsi – tegishli malaka diplomiga ega bo'lgan, rahbar lavozimiga maxsus yollangan, o'z mansab yo'riqnomasiga ko'ra aniq

⁹⁹Karimov I.A. Ilm-u fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi umumiy yig'ilishida so'zlangan nutq. 1994 yil 7 iyul: Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent: 1996. 2-tom. – B. 261.

boshqaruv funksiyalarini amalga oshiruvchi va o'z bo'ysunuvchilariga ega bo'lgan professional boshqaruvchi bilan uzviy bog'liq.

Madaniyat muassasalarini boshqarish ham menejment bilan uzviy bog'liq. Menejment nazariyasi boshqaruv nazariyasidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: boshqaruvning intensiv psixologizatsiyalashuvi; boshqaruv faoliyatini o'zaro hurmat, xodimlarga ishonch, ularning professional imkoniyatlarini hisobga olish, ular uchun muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratishga asoslangan tarzda yo'naltirilganligi, vertikal ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan gorizontal va vertikal boshqaruv tizimini uyg'unlashtirish tizimiga o'tish; ta'lim muassasasi ichida madaniyatni oshirish, ta'lim standartlari, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zlashtirish uchun shaxsiy javobgarlik, boshqaruv faoliyatiga marketingni joriy etish (ta'lim muassasasi xizmatlariga bo'lgan talab va aholi ehtiyojlarini o'rganish), muassasa faoliyatini ana shu talabga yo'naltirish, manzilli faoliyatni yo'lga qo'yish, ushbu madaniyat muassasasi xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish uchun aholiga faol ta'sir ko'rsatish va b.q.

Madaniyat menejmenti deganda – madaniyat sohasida davlat siyosatini shakllantirish; uning qonuniy asoslarini yaratish; ta'lim jarayonini standartlashtirish; moliyaviy rejalashtirish va ta'minlash; madaniyat muassasalarini samarali boshqarish va nazorat qilish; ta'lim sifatini baholash tizimi tushuniladi.

Menejmentga konkret boshqaruvchilik say-harakatlari majmui sifatida qaralsa, uning mazmuni quyidagicha talqin etilishi mumkin. Menejment formal tashkilotlar faoliyatini uyushtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga molik ijtimoiy faoliyat turidir. Ushbu faoliyat sohasida erishilgan yuksak malaka va mahorat, hech shubhasiz, san'at darajasidagi yutuq sifatida e'tirof etilishi mumkin. Menejment san'at turi sifatida talqin etilsada, bu sohada yuksak mahoratga ega bo'lmoqlik uchun mazkur faoliyat turiga asos bo'lib xizmat qiluvchi konseptual g'oyalar, nazariy prinsiplarni puxta o'zlashtirish va ish uslubiyaatini amaliy jihatdan doimiy ravishda takomillashtirmoqlik zarur.

Konseptual malakalar tashkilotni bir butun deb va ayni paytda uning qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniq ajratgan holda tasavvur etadigan insonning kognitiv (bilim orttirish) qobiliyatidir. Shunday malakalar qatoriga menejerning fikrlashi, uning kelib tushayotgan axborotlarni idrok eta olishi va rejalashtirish qobiliyati kiradi. Menejer madaniyat va san'at muassasalaridagi har bir bo'limning jamiyatdagi rolini, madaniyat va san'at sohalaridagi o'rnini va uning jamiyatdagi hamda ancha keng amaliyot va ijtimoiy doiradagi rolini aniq tasavvur qilishi kerak¹⁰⁰. Bu boshqa xil narsalardan tashqari strategik fikr yuritishni, ya'ni madaniyat muassasasining uzoq muddatga mo'ljallangan kelajagini chamalash qobiliyatini ham nazarda tutadi. Konseptual malakalar hamma menejerlarga zarur, ammo ular madaniyat va san'at muassasasining oliy darajadagi rahbarlari uchun alohida ahamiyatga ega. Ular paydo bo'ladigan har bir holatning mazmunini tez ilg'ab, muhim omillarni ajratib, voqeaning keyingi rivojini oldindan ko'ra bilishlari lozim.

Menejer muassasa iyerarxiyasining yuqori pog'onasiga tomon ko'tarilishiga qarab, u o'zining konseptual malakalarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor berishi kerak. Aks holda uning "Piramida" cho'qqisi tomon yo'li cho'qqining quyi ostonasida tugab qolishi mumkin. Masalan, rahbar muassasaning rivojlanish strategiyasi to'g'risida o'ylamay, texnik muammolarga boshi bilan sho'ng'ib ketgan bo'lsa, unga rahbarlik qilish vazifasi topshirilganda uddasidan chiqa olmasligi mumkin. Chunki, oliy darajadagi menejerlarning qaror qabul qilish, resurslarni taqsimlash va o'zgartirishlarni amalga oshirish kabi vazifalari keng nuqtai nazarni, fikr-mulohazlarni talab qiladi.

Menejmentning ilm sohasi deb e'tirof etilishi behuda emas. Bunday qarashning paydo bo'lishiga boshqaruvchilik amaliyoti jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Menejment sohasida to'plangan boy tajriba umumlashtirilib, alohida predmet uchun asos qilib olinadi. Bu sohaning o'ziga xos muammolari va ularning yechimini izlash metodologiyasi mavjud. Menejment fanining nazariy asosini bir

¹⁰⁰Nazmutdinov V.Y., Yarullin I.F. Upravlencheskaya deyatelnost i menedjment v sisteme kultura lichnosti. – Kazan., 2013. – 360 s

necha yuz yillar davomida to'plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab, turli xil konsepsiyalar, nazariy g'oyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladi.

Vazifalari:

- Boshqaruvchilik faoliyatining mazmuni va tabiatini izohlab berish;
- Boshqaruvchilik sohasida ro'y beradigan voqealar, holatlar, aloqa va munosabatlar o'rtasida sabab-oqibat munosabatlarining o'rnatilishini izohlab berish;
- Tashkilotga kiruvchi insonlarning umumiy mehnat faoliyati ham foydali, ham samarali bo'lmog'i uchun muhim sanalgan omillar va shart-sharoitlarni aniqlash;
- Joriy faoliyatni o'z vaqtida va o'rinli boshqarishga erishish;
- Voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish va shunga ko'ra tashkilot faoliyatining strategiyasi hamda siyosatini ishlab chiqish¹⁰¹.

Xullas, madaniyat va san'at menejeri birinchi navbatda madaniyat va san'at janrlarini professional darajada bilishi lozim. Menejer bu sohada tadbirkor bo'lishi bilan birga, madaniyat va san'at sohasidagi xo'jalikning shunday mexanizmini yaratishi kerakki, uning har bir madaniyat xodimi manfaatdorlik bilan mehnat qilsin, ishlab chiqarilgan "ijodiy mahsulot"ga mustaqil egalikni barqaror qilsin. Sarmoyalarini banklarga qo'yish yoki aksiya, veksel, sertifikat sotib, daromadga qarab buromad qabilida ish tutish, mablag'ga yarasha xo'jalik yuritish ko'nikmalarini rivojlantirsin. O'z navbatida, davlat ham ishbilarmon va tadbirkorlarga xorijlik hamkasblari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish maqsadida imtiyozli kredit berishi. Respublikadagi kichik va o'rta biznesni rivojlantirish jamg'armasi, tijorat banki bilan madaniyat sohasi iqtisodiyotni rivojlantirishda yelkadosh bo'lishlari kerakdir. Biroq tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, madaniyat sohasidagi menejerlar iqtisodiy bilimlardan, huquqiy normalardan

¹⁰¹Ro'zmetov A. Bozor sharoitida madaniyat // Iqtisodiyot va hayot jurnali. №2. 1998. – B. 62.

yaxshi xabardor bo'lmagani uchun biznes faoliyatini boshlashdan cho'chib turganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bunday holatlar bo'lmasligi uchun tijorat bilan shug'ullanuvchilarga mazkur faoliyatiga aloqador bilimlarni o'rgatish talab qilinadi. Ularga birinchi galda hisob-kitob ishlari, marketing, bank, mehnat huquqlari kabi fanlardan maxsus o'qishlar tashkil qilish, huquqshunoslik xizmatini yo'lga qo'yishi kerakdir.

O'ZBEK MILLIY MUSIQASINING SHAXS TARBIYASIDAGI MA'NAVIY VA ESTETIK AHAMIYATI

Talipov Anvar

“Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ilmiy rahbar: dotsent F.Ahmedov



Musiqqa, ohang, tarona olamdagi tili, dini va urf-odati turlicha bo'lgan barcha millat va elatlarni birlashtiradigan qudratli vositadir. Ayni paytda musiqa millatning o'ziga xos qiyofasini belgilovchi muhim omillardandir.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida o'zligimizni anglash, boy tariximizni, serqirra madaniy merosimizni, milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelayotgan betakror san'atimizni, milliy musiqamizni chuqur o'rganish va yanada rivojlantirish, bu borada erishgan yutuqlarimizni jahon uzra keng targ'ib va tashviq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Musiqqa jamiyat ma'naviy taraqqiyotida san'atning boshqa turlariga nisbatan global ta'sir etish xususiyatiga ega. Buni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentid I.A.Karimov alohida ta'kidlab, “Musiqqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi... Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning

yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda" – degan fikrni bildirgan edilar.¹⁰²

Yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, boqiy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi yuksak musiqiy asarlar yaratish, yosh ijodkorlarni kamol toptirish borasida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sharq mamlakatlari xalqlari milliy musiqa va qo'shiqchilik san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'analarni asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida san'atga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini kamol toptirish, go'zallikni, chin insoniy qadriyatlarni tarannum etish, shuningdek, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 132-sonli qarori "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalini o'tkazishning huquqiy asoslari sanalib, Qarorda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Madaniyat ishlari vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi va YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi bilan birgalikda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalini YUNESKOning xalqaro madaniyat tadbirlari rejasiga kiritish, festival ishtirokchilari munosib kutib olish, ularga barcha shart-sharoitlarni yaratish, g'oliblarni taqdirlash bilan bog'liq sarf-xarajatlar va boshqa tashkiliy masalalar belgilangan.¹⁰³

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalini o'tkazish tartibi haqidagi Nizomda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali Sharq mamlakatlari milliy musiqa san'atining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish, sharqona nafosatli, milliy musiqiy an'analarni asrab-avaylash va rivojlantirish, yoshlarda san'atga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini kamol toptirish, ijodiy aloqalar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish, tinchlik, do'stlik, hamjihatlik g'oyalarini ulug'lash, o'zaro

¹⁰² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.

¹⁰³ O'sha manbadan

madaniy-ma'naviy hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida ta'sis etilganligi qayd etilgan.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizda musiqa ta'limi va tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, milliy musiqiy qadriyatlarning barcha imkoniyatlaridan to'la va samarali foydalanishni taqozo etadi. Jahon musiqa madaniyatining milliy ma'naviyatimizga ijobiy ta'sir qilishini inkor qilib bo'lmaydi. Biroq, musiqa ta'limi jarayonida boshqa xalqlar musiqiy-pedagogik merosining ijobiy namunalaridan qanchalik foydalanmaylik, baribir, o'zbek milliy musiqiy qadriyatlari ma'naviy kamolotimizning asosi bo'lib qolaveradi.

Yosh avlodda imon, vijdon, halolik, poklik, mehnatsevarlik, singari xislatlarni shakllantirishda umuminsoniy hamda milliy an'ana va qadriyatlardan foydalanish yoshlarning ma'naviy yuksalishida muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa, jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan, tasavvufiy va diniy ohanglarda o'z davri ruhini musiqiy-she'riy shakllar bilan o'lmas asarlarida aks ettirgan, musulmon olami tarixi va ilm –madaniyati, axloqiy rivojiga kuchli ta'sir qilgan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Jaloliddin Rumiy, Abu Hamid G'azzoliy va boshqa buyuk mutafakkirlar o'z asarlarida musiqa ilmining nazariy va amaliy masalalarini tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan yoritib berishdi.

Musiqa san'ati jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining hamma kurslarida ham insonni tarbiyalash va ma'naviy boyitishning bir vositasi sifatida xizmat qilib keladi. Hozirgi zamon sharoitida, ya'ni fan va texnika taraqqiyot etgan davrda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati yanada ortdi.

O'zbek milliy musiqasining shaxs tarbiyasidagi ma'naviy va estetik ahamiyati yuzasidan quyidagi tavsiyalar beriladi:

– Yoshlarning e'tiborini faqat zamonaviy estradaga emas, shu bilan birga milliy va an'anaviy mumtoz qo'shiqlarni kuylash va tinglashga ham qaratish lozim. Buning uchun ixtisoslashmagan Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida estetika, nafosat falsafasi darslarida yoshlar tinglashi taklif etilayotgan kuy-

qo‘shiqlar jamlangan disklardan, ustoz san‘atkor va bastakorlar ijodi bilan bog‘liq adabiyotlardan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yish zarur;

– Musiqa sohasida faoliyat olib borayotgan va ilmiy izlanishlar qilayotgan yosh ijodkorlar va san‘atkorlarning mahorati hamda ularning musiqaning ma‘naviy-estetik mohiyatiga doir yondashuvlarini o‘z ichiga olgan uslubiy ko‘rsatmalarni tayyorlash ishlarini yanada jonlantirish zarur. Chunki, “ommaviy madaniyat” tahdidlariga qarshi kurashning o‘quv-uslubiy asoslarini mustahkamlash orqali yoshlarda estetik did va estetik madaniyat mezonlarini takomillashtirish muhim nazariy asoslar yaratilishini taqozo etadi;

– Jamiyat ma‘naviy yangilanishi jarayonlarida shaxs estetik dunyoqarashini shakllantirishga doir amaliy yo‘riqnomalar majmuasini yaratish bunda o‘zbek musiqa san‘atining estetik xususiyatlarini inobatga olgan holda musiqiy estetik faoliyatda ijtimoiy-ma‘naviy omillarning o‘rniga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq;

– Madaniy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda musiqiy ohangning yoshlar ongi va dunyoqarashiga ta‘sirini ilmiy tahlil etish orqali estetik tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Bu borada musiqa estetikasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqish bilan sohaning mustahkam ilmiy-nazariy asosini yaratishga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini o‘tkazish to‘g‘rsida”gi 132-sonli qarori. www.lex.uz

2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. 176 b.

JAMIYAT MA'NAVIY TARAQQIYOTIDA MUSIQA FESTIVALLARINING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Talipov Anvar

*“Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi”
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
ilmiy rahbar: dotsent F.Ahmedov*

Istiqlool yillarida milliy musiqamizni chuqur o'rganish va rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Boysun folklori, Shashmaqom, Katta ashula, Navro'z, Askiya insoniyatning eng durdona kashfiyotlari sifatida YUNESKOning Butunjahon nomoddiy merosi ro'yxatiga kiritildi. O'zbekiston davlat konservatoriyasi, o'nlab teatr va madaniyat saroylari, san'at yo'nalishidagi kollej va litseylar barpo etildi.

«Yagonasan, muqaddas Vatan!», «Nihol», «Kelajak ovozi», «Yangi avlod», «Mardu maydon» kabi ko'rik-tanlovlar mamlakatimiz yoshlarining iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilayotir. «Asrlar sadosi» xalqaro festivali xalqimiz ma'naviy merosi va zamonaviy san'at uyg'unligini jahon uzra namoyish etmoqda.

Musiqqa, ohang, tarona tili, dini va urf-odati turlicha bo'lgan barcha millat va elatlarni birlashtiradigan qudratli vositadir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bu festival har bir odamni mehru shafqatli, mehru oqibatli bo'lishga da'vat etadi, yer yuzida barqarorlik va ahillik tabiatini uyg'otadi.

Mashhur tarixchi, olim Sharafiddin Ali Yazdiy bu so'zimizning isboti sifatida “Zafarnoma” asarida Temuriylar davrida o'tkazilgan bayramlar haqida to'xtalib, “Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g'azalu naqsh aytur erdilar. Va turku mo'g'ul, xitoyu arab va ajamdin har kim o'z rasmi bilan nahma aytur erdi”, degan ma'lumotlarni bergan [1, 48]. Bu esa Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan o'tkazilib kelinayotgan “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalining tarixiy kursidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 132-sonli qaroriga muvofiq 1997-yildan boshlab “Sharq taronalari” Xalqaro

musiqa festivalining har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahrining Registon maydonida o‘tkazilib kelinmoqda.

Mazkur xalqaro festivalning Samarqand shahrida o‘tkazilishi ham bejiz emas. Chunki Samarqand ne-ne olimu-fuzalolar beshigini tebratgan qadimiy ilmfan va ma’rifat shahri. Kezi kelganda aytish joizki Samarqand musiqa san’atining azaliy o‘chog‘i va musiqa navqironligi peshvosidir. Xususan, Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan musiqa asbobi – nay topilgani, ko‘hna Afrosiyob devoriy suratlaridagi mashshoq va mug‘anniylar tasviri, xalq orasidan yetishib chiqqan musiqachilar, qo‘shiqchilar, hofizlar va baxshilar ijrosidagi maqomlar, o‘lan va laparlar, doston va ashulalar, qarsak va xalq raqslari nafaqat jonajon diyorimiz, balki jahon madaniyati sivilizatsiyasida munosib o‘rin tutadi.

“Sharq taronalari” musiqiy festivalining O‘zbekistonda, aynan Samarqandda o‘tkazilishiga asos bor, - deyiladi Prezident Islom Karimovning tabrigida, - chunki Samarqand jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblanadi. Turli davrlarda Amir Temur, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Xoja Ahror Vali, Qozizoda Rumi, Sharofiddin Ali Yazdiy, Davlatshoh Samarqandiy, Klaviho, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa o‘nlab, yuzlab ulug‘ insonlar bu yerda yashaganlar, bo‘lganlar, davlatni boshqarganlar va ijod qilganlar. Samarqand asrlar osha turli xalq va madaniyat vakillarini tutashtiruvchi qo‘rg‘on vazifasini o‘tagan.

Mazkur festivalni o‘tkazishdan asosiy maqsad esa, Sharq xalqlarining milliy kuy-qo‘shiqlarini keng ommaga yetkazish, yosh avlodni sant’atga, ayniqsa musiqa mehri qo‘yib tarbiyalashdek ezgu-an’analarni asrash, do‘stlikni va xalqlar o‘rtasida ijodiy hamkorlikni mustahkamlash, ularni madaniy aloqalar doirasida kengaytirishdir. Festival doirasida o‘tkazilayotgan ilmiy anjumanlar esa, turli davlatlardan kelgan musiqashunoslar uchun boy va samarali muloqatga aylanib bormoqda. Qolaversa bu festival turli davrlarda bir vaqtda bo‘lib o‘tayotgan musiqiy jarayonlarni muvofiqlashtirish imkonini ham berdi. Jahonning ellikdan

ziyod mamlakatlari, jumladan AQSH, Yevropa, Osiyo va Afrika davlatlari musiqashunoslari va qo‘shiqchilarining ishtiroki festivalning samarali ahamiyatini yanada oshirishga o‘z hissasini qo‘shib bormoqda.

Bu borada “Sharq taronalari” VII xalqaro musiqa festivali hay’at raisi Mun Yung Sun shunday deydi: “Azaldan Samarqand Sharq va G‘arb mamlakatlari madaniyati, ilm fanini bir-biri bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajargan. Bugun ham ushbu ko‘hna zamin “Sharq taronalari” festivali doirasida turli millat va elat sa‘natlarini bog‘lovchi sifatida o‘z an‘anasiga sodiq qolib kelayapti. Festivalning dastlabki yillarida kamroq mamlakatlar sa‘natkorlari ishtirok etgan bo‘lsa, yildan-yilga mazkur musiqiy anjumanning jug‘rofiyasi kengayib, unda dunyoning barcha qit‘alaridan vakillar qatnashmoqda. Festival nufuzining bu tarzda oshayotgani unda tarannum etilayotgan chiqishlar mazmuni, musiqalar jozibasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatayapti”.¹⁰⁴

Milliy an‘analar va zamon ruhini o‘zida mujassam etgan bu san‘at bayrami yer yuzidagi turli xalqlarning ma‘naviy olami, orzu-intilishlarini ifoda etib, insonlarni do‘stlik va hamkorlikka chorlovchi ezgulik minbariga aylandi. Ayni chog‘da milliy musiqa san‘atimizga butun jahonda qiziqish tobora ortib borayotganida ham ushbu nafosat va san‘at bayramining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali qisqa muddatda jahondagi nufuzli musiqa anjumanlari qatoridan munosib o‘rin egalladi. Ko‘plab mamlakatlar, xalqaro madaniyat tashkilotlari, mashhur san‘at namoyandalarining bu festivalga qiziqishi va e‘tibori ortib, ishtirokchi mamlakatlar safi kengayib borayotgani buning yaqqol dalilidir.

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali bebaho qo‘shiqlar yangraydigan, jahonning taniqli san‘atkorlarini chorlaydigan nufuzli shodiyonadir. Ahamiyatli tomoni shundaki, bundagi xonishlar qaysi tilda yangrashidan qat‘i nazar, ularda ona-Vatan, insoniylik, muhabbat, tinchlik tarannum etiladi.

¹⁰⁴ www.uza.uz

2015 yilda “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o‘ninchi bor o‘tkazildi. Shu munosabat bilan ushbu san’at bayramiga Samarqand shahrida qizg‘in tayyorgarlik ko‘rildi. Shaharni festival ruhiga mos bezatish, Registon maydonida asosiy sahna va tomoshabinlar uchun o‘rindiqlar o‘rnatish, “So‘g‘diyona”, “Yoshlik” istirohat bog‘lari, “Mo‘jiza” amfiteatrda ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari jadal olib borildi.

Xususan, 1997 yilda ilk bora o‘tkazilgan san’at bayramida 31 davlatdan vakillar qatnashgan bo‘lsa, 2013 yilda 60 ga yaqin mamlakatlardan san’atkorlar ishtirok etdi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki milliy an’analar va zamon ruhini o‘zida mujassam etgan mazkur nufuzli tadbir Yer yuzidagi turli xalqlarning ma’naviy olami, orzu-intilishlarini ifoda etib, insonlarni do‘stlik va hamkorlikka chorlovchi ezgulik minbariga aylandi.

Adabiyotlar:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T. Sharq. 1997 y.
2. www.uza.uz

RADIOTEATR ELEMENTLARI



Teshabayeva Mahliyo

“Teatr san’ati” mutaxassisligi

2-kurs magistranti,

Ilmiy rahbar: s.f.n., dotsent A.Z.Rizayev.

Badiiy ijodning har bir turi shakli va janridan qat’iy nazar kishilarga madaniy xardiq chiqarish hamda ma’naviy ozuqa olish manbai sifatida xizmat qiladi. Ko‘p sonli kishilik jamiyatining ehtiyojlari turfaligi nuqtai nazaridan qaralganda esa tanlov har kimning o‘z ixtiyoridadir.

“Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur

tahlil qilib, ularning bu borada o‘rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi”.¹⁰⁵ Maqolada nazarda tutilayotgan obyekt ham aynan mana shunday omillardan biri hisoblanadi. Ham san’at turi ham OAVsining janri sifatida e’tirof etilayotgan radioteatr tinglovchining sezgi a’zolaridan bo‘lmish quloq orqali ko‘ngilga va onga yetib borib, ruhiy poklanish sari yetaklashi muqarrardir. Uning ta’sir doirasi so‘z atalmish atomdanda kuchliroq vosita negizida ma’lum elementlardan tashkillanadi. Va bu quyidagicha asoslanadi: “Radiopostanovkalar 3 elementdan tashkil topadi. Birinchi – ovoz, effekt. Ikkinchi – musiqa. Uchinchi – inson ovozidan. Bu elementlardan har biri bir vaqtning o‘zida alohida ham chiqishi mumkin, ham bir-birini to‘ldirgan holda namoyon bo‘ladi. Odatda matn radioda asosiy o‘rin tutadi. Turli xil shovqin va musiqa esa matnni to‘ldirib turuvchi vositalardir. Ayrim paytlarda esa ular hal qiluvchi bosh o‘ringa chiqib qoladi va hikoyaning alohida bir elementi, detali bo‘lib qoladi”.¹⁰⁶ Mazkur elementlar yordamida muallif va rejissor nazarda tutayotgan g‘oyaning mohiyatini ochish anchagina murakkab jarayondir. Zero, radioasarning sahna asari va telespektakldan farqli tomoni uning faqat ovoz vositasi orqaligina tinglovchi ongiga, shuuriga, tasavvuriga ta’sir ko‘rsatishidadir. «Aynan mikrofon oldida tomoshabin ko‘z o‘ngidan yiroqda aktyor ijro etayotgan obrazini har tomonlama ochib berishga intiladi. So‘z boyligidan foydalanib his - tuyg‘ularini, ichki holatini ko‘rsatishga harakat qiladi». ¹⁰⁷ Ijrochining ovoz imkoniyatlari, shirali tovushi tinglovchi e’tiborini jalb eta olishi birinchi o‘rinda turgan vazifalardan biridir. Toza nutq barobarida emotsiyalardan o‘z o‘rnida foydalana olish qahramon xarakteri, asar xususiyati haqida kishida kerakli tasavvurni uyg‘otishga yordam beradi.

“Musiqa – radiopostanovkalar tayyorlashda kerak bo‘ladigan uch elementdan eng kerakli bo‘lgan vositadir. Musiqa turli xil shovqin, effektlar bilan yangi bir kayfiyatni bir necha soniyada uyg‘otib yuborishi, bir paytning o‘zida u kayfiyatni yo‘q qilib yuborishi ham mumkin. Musiqa shunday xususiyatga, qudratga egaki, u

¹⁰⁵ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008;

¹⁰⁶ Barnou E. Как писать для радио. – М.: Искусство, 1967;

¹⁰⁷ Marchenko T. Театр в каждом доме. – М.: Искусство, 2001;

inson ongida hikoya qilinayotgan voqeani hosil qiladi, tasavvurini boyitadi. Shu boisdan ham musiqa radioda juda qadrlanadi, u voqealarni bog‘lab turuvchi ustundir”.¹⁰⁸ Radio to‘lqinlari eshittirilayotgan pastanovkada mavjud harakat, voqealar sodir bo‘layotgan joy, yuz berayotgan hodisalarning tasavvurda jonlanishida badiiy shovqin ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Zero, Radiopostanovka – “ko‘rinmas spektakl” bo‘lib, u eshituvchi tafakkuri uchun cheksiz kengliklardan iborat. Uni tinglab inson ongi juda katta tasavvurlar bilan boyiydi. Chunki har bir eshituvchi o‘zicha farazlar qiladi, voqealarni o‘zining mushohadasi orqali qabul qiladi. Shu boisdan ham radiopostanovkada obrazning ovoz-ohang tavsifiga, voqealarning ovoz – shovqinlardagi ifodasiga katta urg‘u beriladi (shamol, dengiz shovqini, yomg‘ir, qadam tovushlari va h.k.). Asar yetukligini ta‘minlash maqsadida effektlarning barchasi rejissor tomonidan voqea tasvirlarida juda ustalik bilan tanlanishi lozim. Rejissor radio imkoniyatlaridan, kompyuter, mikrofon imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olishi g‘oyatda muhim.

«Bugungi kunimizda radio ijtimoiy - siyosiy, badiiy va axloqiy tarbiyaning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Radio ommaviy targ‘ibotning asosiy qurolidir». ¹⁰⁹ Ammo so‘ngi yillarda radiospektakl yaratishdagi salmoq hamda sifat darajasi bir muncha kamaygani e‘tirozga sababdir. Mazkur taraqqiyot asrida har sohada sodir bo‘layotgan rivojlanishlar barobarida jamiyat orasida turli yod g‘oyalarning tomir yozayotgani ham sir emas. Bunday salbiy ko‘rinishdagi unsurlarga qarshi kurashishda badiiy tarbiya vositalari sirasiga kiruvshi radiospektakllarda milliy hamda umuminsoniy mafkuralarga yo‘g‘rilgan asarlar, zamon kishilari hayotidan hikoya qiluvchi pastanovkalar iste‘molchining ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati beqiyos ekani nazarda tutudilgan holda milliy ruhda ijod qiluvchi radiodramaturg hamda radiorejissorlarni kamol toptirish masalaning muhim jihatlaridandir. Bu toifa ijodkorlar esa bir qator san‘at turlari va unga yaqin turuvchi sohalarni ham mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi darkor. Sababi: “Badiiy radioning shakllanishida adabiyot, muzika, teatr katta rol o‘ynadi,

¹⁰⁸ Barnou E. Как писать для радио. – М.: Искусство, 1967;

¹⁰⁹ Krisin A.P. О языке радиопередач. – М.: Наука, 1997;

uning o‘ziga xos xususiyatlarini ishga solishda, radio estetikasining yaratilishida, uning ma’naviy merosi vujudga kelishida o‘z hissasini qo‘shdi”.¹¹⁰

Maqolada ko‘tarilgan muammolarga yechim topish maqsadida quyidagi takliflar keltiriladi:

- Radiokanal dasturlarida davr ruhiga mos asarlar yaratish vazifasi ijodiy jamoa zimmasiga muhim vazifa sifatida yuklanishi;
- Sohaga yo‘naltirilgan maxsus dramaturglar tayyorlash. O‘zDSMIda ta’lim olayotgan “Sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi” yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ma’lum qismini radiodramaturgiyaga yo‘naltirish.
- “Kino, TV va radio san’ati” yo‘nalishida taxsil olayotgan talabalarga kurs topshiriqlari qatorida radiopastanovkalar tayyorlashni rejaga qo‘shish. Shunda mazkur muammoning yechimini toppish sari ulkan qadamlar qo‘yilan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008;
2. Barnou E. Как писать для радио. – М.: Искусство, 1967;
3. Krisin A.P. О языке радиопередач. – М.: Наука, 1997;
- ⁴ Marchenko T. Театр в каждом доме. – М.: Искусство, 2001;
5. Ubaydullayev A. Badiiy tarbiyaning muhim vositasi. – T.: O‘zbekiston, 1988.

¹¹⁰ Ubaydullayev A. Badiiy tarbiyaning muhim vositasi. – T.: O‘zbekiston, 1988.

MADANIYAT TARAQQIYOTIDA TRANSFORMATSION JARAYONLAR

Tilavova Zulayho

“Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.d., professor A.Mavrulov



Hozirgi globallashuv jarayonida fanda yangicha terminlar kirib keldi. Xususan, madaniyatda transformatsion jarayonlar. Transformatsiya lotincha atama bo‘lib, “qayta o‘zgarish”, “qayta hosil bo‘lish” degan ma’nolarni beradi. Boshqacha aytganda, transformatsiya aslida xujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o‘zgarishini anglatadi. Bu so‘z ko‘proq genetikada ishlatilsa-da, keyingi paytlarda u ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, madaniyatshunoslikda ham foydalanilmoqda. Biz transformatsiyani bir holdan boshqa holga o‘tish yoki bir shakldan boshqa shaklga o‘tish, o‘zgarish deb qabul qilamiz. O‘zbek xalqining madaniyatida transformatsion jarayonlar, ya’ni Yevropada vujudga kelgan madaniy jarayonlarning kirib kelishi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlangan.

Podsho Rossiyasining O‘rta Osiyoni istilo qilishi bilan butun Turkistonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu esa o‘z navbatida, o‘lkaning mahalliy aholisining ma’naviy, madaniy va urf-odatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Ayniqsa bozor munosabatlarining shiddat bilan kirib kelishi moddiy madaniyatda katta o‘zgarishlar yasadi. Bu o‘zgarishlarni kiyinish, oziq-ovqat tarkibi, uy-joy qurilishi va jihozida yoki mahalliy xalqlarning xo‘jalik faoliyatida kuzatish mumkin. Moddiy madaniyatdagi o‘zgarishlarning aksari ijobiy natijaga ega bo‘ldi.

Ammo ma’naviy madaniyatdagi o‘zgarishlar xususida bunday xulosaga kela olmaymiz. XX asr boshlarida Farg‘ona viloyati amaldorlarining axborotida quyidagi ma’lumotni uchratish mumkin: “Shahar yoki bufetlar mavjud temir yo‘l stansiyalari yaqinidagi qishloqlar aholisi orasida ichkilikbozlik paydo bo‘ldi: yoshlar orasida islom, shariat qoidalariga rioya qilmaslik avj olmoqda, mahalliy

aholiga xos bo'lgan kamtarlik va muloyimlik, kattalarni hurmat qilish odatlari o'rnini egallab borayotgan axloqsizlik odatiy holga aylanmoqda". "Oxirgi paytlarda ayniqsa, inqilobiy harakatlar chog'ida shaharlarda yashirin islovotxonalarning mavjudligi kuzatilgan".¹¹¹

Globallashuvning ijobiy tomonlarini ham inkor etmagan holda, uning salbiy jihatlariga e'tibor qaratmoq lozim. Ana shunday salbiy jihatlardan biri yosh avlod ongiga o'zga bir madaniyatni singdirishda ko'rinadi. Jumladan, G'arb turmush tarzini targ'ib qilish va g'arb dunyosiga xos dunyoqarashni singdirishga urinish bunga misoldir.

O'z davrida ulug' ma'rifatparvar Abdulhamid Cho'lpon shunday kuyingan edi: *"Ey, qarindoshlar! Shaharlik bo'lduk! Bo'ldik! Ammo qishloqlilardan katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'pa mudasidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bularga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmog'imiz lozimdur. Ovro'paning mudasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!! Ovro'paning maktab, madrasa, ilm, fan, san'at, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni ozod, ma'mur, olim qilub, johillikdan, asorat qullikdan qutiltiradur. Birodarlar, ko'zlaringizni ochub, yaxshi o'ylanglar!!!"*¹¹²

Madaniyatdagi transformatsiya aslida undagi sifatiy o'zgarishlarni anglatadi va u doimo davom etadigan, hech qachon tugamaydigan jarayon bo'lib, XX asr tugab, XXI asr boshlarida kuchaydi. Transformatsiya – qiyofaning o'zgarishi bo'lib, hozirgi o'zbek xalqining milliy madaniyatiga chetdan kirib kelayotgan turli darajadagi madaniy yangiliklar ko'proq ommaviy axborot vositalari, internet, turli tovarlar yoki zamonaviy san'at namunalari orqali kirib kelmoqda. Ushbu yangi madaniy jarayonlar milliy madaniyatimiz rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, udumlar, marosimlar, urf-odatlarning zamon va jamiyat

¹¹¹ Statisticheskii obzor Ferganskoy oblasti za 1907 god. – Skobelev, 1909.

¹¹² Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar // "Vatan" gazetasi, 1994. 36-son.

talablariga, mahalliy xususiyatlarga moslashuvini shu bilan izohlasa bo‘ladi. Aytaylik, dafn marosimlari va toy marosimlaridagi o‘zgarishlar mahalliy xususiyatlarga bog‘liq bo‘lishi bilan birga, jamiyat talablariga ham moslashib boradi.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan va boshqalardan tubdan farq qiluvchi muomala madaniyati, ayniqsa, salomlashish, ko‘rishish kabi voqeliklar borasida ham o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y berdiki, mazkur jarayon ham o‘zining yutuq va kamchiliklarga ega. Salomlashish odobi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi sifatlar azal-azaldan xalqimizning qon-qoniga singib ketganki, bu kabi xususiyatlar bugunga kelib muhim axloq qoidasiga aylangan. Mazkur o‘zaro muomala madaniyatini yoshlarga singdirishda, turmush tarzining muhim bo‘lagiga aylantirishda ota-ona, oila, tengqurlar jamoasi, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalari birday mas’ulligi minglab yillar davomida o‘ziga xos e’tiqod shakliga aylanib bo‘ldi.

Biroq bugungi kunda turli G‘arbcha ideallar, yangicha usul va uslublar, kino, musiqa va boshqa ma’naviyat shakllarining kirib kelishi natijasida o‘zaro muomala madaniyatiga putur yetayotgan holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, yosh yigit-qizlar orasida keyingi vaqtlarda urfga aylanayotgan boshni boshqa urishtirib ko‘rishish, oyoqni oyoqqa urib ko‘rishish, quchoqlashib ko‘rishish, bir-birini ko‘tarib ko‘rishish, yosh yigit-qizlarning o‘zaro o‘pishib ko‘rishishlari kabi holatlarning ko‘zga tashlanayotganligi albatta milliy madaniyatimizga soya solishi mumkin bo‘lgan jihatlardan biridir. Nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagi erkaklarning ham o‘zaro o‘pishib ko‘rishish holatlarining takrorlanib turishi yoshlarga “o‘rnak” bo‘layotganligi turgan gap.

Transformatsion jarayonlarning milliy marosimlarga ko‘rsatayotgan ta’siri ham har qachongidan yuqoridir. Xususan, to‘y-hashamlardagi xususiyatlar, bola tug‘ilishi, uning tarbiyasi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar, yoki dafn marosimlari bilan bog‘liq an’analarda ham o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Zamonaviylashuv, globallashuv jarayonlarining odamlar turmush-tarziga nechog'lik chuqur kirib borayotganligini mazkur sohalarda ham albatta ko'rish mumkin. Ammo buning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, mazkur sohalardagi o'zgarishlarning ko'pchiligi mahalliy sharoitlarda o'zgarmoqda, tashqi ta'sirlar bu jarayonlarga u darajada katta ta'sir ko'rsatmayapti. Mazkur jarayonlarning ham bugungi kunda ijobiy va salbiy xususiyatlari ko'zga tashlanmoqda. An'anaviy jihatdan o'zbek xalqi to'y-hashamlarda to'ygacha, to'yda va undan keyin bajariladigan an'anaviy qonuniyatga aylangan qadriyatlar asrlardan buyon otabobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan urf-odatlarini kelgusi avlodga ham bekam-u ko'st yetkazish bizning burchimizdir.

Xususan, nikoh to'yi an'analari, milliy kuy-qo'shiqlar, milliy xonanda va sozandalarning milliy musiqa cholg'ulari jo'rligida kuylayotgan qo'shiqlari, o'zbek milliy raqslari o'ziga xos jihatlari, faqat o'zbeklargagina xos bo'lgan jihatlardandir va mazkur tarixiy qadriyat va noyob durdonalarimiz jahon hamjamiyati tomonidan katta qiziqishga sabab bo'lmoqda. Ammo yuqoridagi jarayonlar natijasida marosimlarda turli "yangi an'analarni"ning "kashf etilayotganligi", dastlab mahalliy, keyinchalik esa keng miqyosida "urf"ga aylanayotganligi milliy madaniyatimiz an'alariga yot unsurlar sifatida qoralanishi mumkin. To'y va boshqa marosimlar asosan uylarda emas, maxsus joylarda (to'yxonalarda, restoranlarda) o'tkazilayotganligi-ku, bu transformatsiyaning ijobiy xususiyati va madaniyatning yangi ko'rinishidir. Ammo salbiy jihati "yangicha an'analarni", ortiqcha isrofgarchiliklarga yo'l qo'yish kabi holatlarning takrorlanishi, biri ikkinchisidan kam emasligini ko'rsatib qo'yish qabilidagi ishlarning mavjudligida ko'rinadi.

Transformatsion jarayonlarning yana bir muhim alomatini ommaviy axborot vositalari sohasida ham ko'ramiz. XXI asr – axborot asri, ma'rifat asri bo'lishi barobarida, hozirgi yangi davrga kelib hayot shu qadar jiddiylashib ketdiki, bu jarayonning qudratli oqimida OAVning ahamiyati yanada ortdi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, o'zbek xalqining moddiy madaniyatida bir

qancha ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, uyali aloqa vositalari, kabelli television tarmoqlar, internet, kompyuterlar ijtimoiy hayotga tezlik bilan kirib keldi.

Bugungi kunda yoshlar orasida taqlidchilik, g'arbona ideallarga ko'r-ko'rona ergashish kabi holatlar ham kuzatilmoqda. Bunda xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma'naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini chulg'ab olayotganligini his etish qiyin emas. Oqibatda, yoshlar o'rtasida kitob o'qishdan ko'ra kompyuter o'yinlari oldida vaqtini o'tkazish, mazmunan sayoz bo'lgan turli xil janrdagi filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda. Shubhasiz, mazkur holatda ommaviy axborot vositalari tomonidan ba'zi namoyish etilayotgan film, klip, reklama loyihalari yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etib, intellekt va dunyoqarashini sayozlashtirib, tafakkurini tubanlashtirmoqda.

Yoshlar ma'naviy-ruhiy olamiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan vositalardan yana biri internetdir. 2013-yilning 1-yanvari holatiga ko'ra hozirgi kunda mamlakatimiz aholisining 9,815 millionga yaqini internet tarmog'idan faol foydalanmoqda. Birgina milliy UZ domenida 15,8 ming sayt ro'yhatga olingan va faoliyat ko'rsatmoqda. Bu borada mamlakatimiz Markaziy Osiyo respublikalari orasida yetakchidir.¹¹³ Lekin yoshlarimiz internetdan qaysi ma'noda, qanday holatlarda foydalanmoqdalar. Bizni mana shu masala o'ylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, transformatsion jarayonlarning ma'lum bir aniq hududi va chegarasi yo'q. Eng muhimi, ulardan ijobiy maqsadlarda foydalanishimiz bizga ulkan zafarlar keltiradi, bunyodkorlikka undaydi. Yangidan-yangi kashfiyotlar va ixtirolar bilan tanishtiradi. Lekin ularga ko'r-ko'rona ergashish esa ko'proq salbiy oqibatlarga olib kelishini yoshlarmiz kech tushunib yetmoqdalar. Milliy tariximiz va boy madaniyatimizni o'z holicha saqlagan tarzda unga zamonaviy uyg'unlik

¹¹³ www.aci.uz. O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo'mitasining rasmiy portali.

baxsh etib, yanada serjilolashtirish milliy qiyofamizning rivojlanishiga zamin yaratadi [4.B.169-174].

Adabiyotlar:

1. Statisticheskiy obzor Ferganskoy oblasti za 1907 god. – Skobelev, 1909.
2. Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar // “Vatan” gazetasi, 1994. 36-son.
3. www.aci.uz. O‘zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari qo‘mitasining rasmiy portali.
4. Haqnazarov X. Zamonaviy transformatsion jarayonlar va ularning yoshlar hayotiga ta’siri // O‘zbek xalqining milliy folklor san’ati va etnomadaniy qadriyatlari. – Toshkent: Navro‘z, 2013.

ESTRADA VA OMMAVIY TOMOSHALARDA TEATRLASHTIRISH USULLARI



To‘laganov Elyor

*“Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi”
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent F.Ahmedov*

Ommaviy bayramlar rejissurasida teatrlashtirish uch turga bo‘linadi:

1. «Bir qatorga terish» (uyg‘unlik) turi-bu rejissyor tomonidan san’atning turli janrlaridan tayyor nomerlarni mavzu asosida tanlab, rejissyorlik uslubi orqali bir-biriga birlashtirishdir. Teatrlashtirishning bunday turi ko‘pincha teatrlashtirilgan kontsertlarda qo‘llaniladi.

2. «Original» teatrlashtirish - rejissyor tomonidan rejissyorlik g‘oyasidan kelib chiqqan holda yangi badiiy obrazlarni yaratish. Teatrlashtirishning bu turi, seneriyning hujjatli janrida keng qo‘llaniladi. Uning asosida hujjatlar insseniroykasi yotadi. Teatrlashtirishning bu turi epizodlarda hujjatli va badiiy materiallarning organik birlashishini talab etadi.

3. «Aralash» teatrlashtirish - bu rejissyor tomonidan teatrlashtirishning birinchi va ikkinchi turlarini qo‘llashdir. Bu turda tomoshaning bir qismi tayyor matn va nomerlardan tashkil topsa, ikkinchi qismida esa yangilari barpo qilinadi.¹¹⁴

¹¹⁴ Ahmedov F.E. “Ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va aktyorlik mahorati”. T. Cho‘lpon. 2007.

Professor D.M. Genkin o‘z izlanishlaridan kelib chiqqan holda teatrlashtirish uslubiga, insonlarni tarbiyalashda pedagogik omil sifatida qaraydi. “Teatrlashtirishni tashkil qilish teatr qonunlariga bo‘ysunadi. U yo bu dalilni, hujjatni, spektakl parchalaridagi qo‘shiq, raqs, she‘rlar, kinolavhalarni «tasvirlash (illyustratsiyalash) emas, balki badiiy to‘qima bilan borliqning sintezi bo‘lib, u yangi o‘ziga xos hujjatli-badiiy xatti-harakatni vujudga keltiradiki, uning pedagogik ahamiyati juda ham kattadir. Bu esa tomoshabinni ommaviy harakatga faollashtirib, berilayotgan g‘oyani qabul qilishiga yordam beradi”.¹¹⁵

Teatrlashtirilgan ommaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirayotgan rejissyorning vazifasi, sahnaviy obrazli yechimni, bo‘lg‘usi tadbirning “yo‘li” - rivojlanishini, ya‘ni tadbirning say xatti-harakatini (etakchi xatti-harakatini), shakli, muhitini va uslubini belgilovchi rejissyorcha rejadan boshlanadi. Shunday ekan, rejissyor eng avvalo o‘zi tuzgan reja asosida seneriy yaratadi. Ssenariy yaratishda u mahalliy dramaturglar bilan hamkorlikda ish olib borishi mumkin. Lekin ko‘pchilik hollarda bunday vazifasi rejissyorning o‘zi bajaradi, chunki teatrlashtirilgan ommaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasi uchun O‘zbekistonda maxsus dramaturglar va Oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislik yo‘nalishi yo‘q.

Teatrlashtirilgan ommaviy bayram va tomoshalar rejissyorining bunday, majburan, ikkinchi vazifani bajarishini mantiqan oqlash mumkin. Chunki hali ommaviy teatrlashtirilgan tadbir seneriysining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadigan, professional maxsus dramaturglar juda kam. Shunday qilib rejissyorlik burchining asosiy uch qirrasini ya‘ni sahnalashtiruvchi, tarbiyachi va tashkilotchilikdan tashqari, rejissyor dramaturgga (to‘rtinchi qirra), ya‘ni tadbir yaratuvchisiga, “spektakl muallifi”ga aylanadi.¹¹⁶

¹¹⁵ Genkin D.M. Massoviye prazdniki. Prosvesheniye. M., 1975.

1. ¹¹⁶ Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi T. 2002.

Rejissorcha rejaning paydo bo'lishida quyidagilar asosiy sanaladi: bu tadbirning mavzusi, g'oya va oliy maqsadi, o'tkaziladigan joy, ijodiy kuch va materialli vositalir, hujjat va rivoyatlar, an'ana va urf – odatlar.

“San’at muassasalarida dramaturgik asar (pyesa) qachon yozilganidan qat’iy nazar, lozim topilganida, zamonaviy talablarga javob beradigan bo’lsa, uni sahnalashtirish mumkin. Ommaviy tadbir seneriysi esa belgilangan sanaga asosan yozilib bo’lingandan keyin darhol namoyish qilish uchun yoziladi”.¹¹⁷

Ommaviy tadbir – deb yozadi J.Dushamov, harakatli, tomoshaviy, his - tuyg’uli va ifodali bo’lishi kerak. “Gapiruvchi ” epizod sahnalardan iborat harakatsiz - ifodali o’qishlar (deklamatsiya) unda qat’iy man etiladi. Tadbir ramziy (simvolik) va majoziy (metaforalar), obrazli mizanssenalar, bir - birini eslatadigan o’zaro bog’liq tovushlar va hakazolardan iborat bo’ladi. Bir so’z bilan aytganda, tadbir dialog va monologlarning o’rnini bosuvchi, audio (eshitadigan) - ko’z bilan ko’radigan (vizual) obrazlar sistemasidan iborat bo’lmog’i kerak. Bu, ayniqsa, an’anaviy spektakllar namoyishiga moslashtirilmagan binolarda yoki ochiq maydonlarda tadbir sahnalashtirilganda ko’zga yaqqol tashlanadi, chunki bunday joylarda matn umuman eshitilmaydi. Bunday vaqtlarda tomoshabinlarga faqat namoyish qilish emas, rejissyor nimadir “aytishi” zarur bo’lsa, u jarangdor so’zni yozuvga almashtiradi. Lekin yozilishi zarur bo’lgan so’zlar ba’zi hollarda butun jumlar, faqat shu san’at turiga taaluqli bo’lgan, o’ziga hos vositalar orqali yoziladi, ya’ni o’yingoh maydondagi ishtirokchilarning muayyan holatlari yoki harakatlari, rekvizitlarning bir bo’lagi bilan, badiiy o’ynovchi tribunadagi rangli bayroqchalar bilan, katta ekranlarda namoyish etiladigan maxsus titr (so’zlar) bilan va hakazolar.¹¹⁸

Hozirgi zamonaviy bayramlar rejissurasida, ayniqsa sport maydonlarida sahnalashtirilayotgan ommaviy tadbirlarda sahnaviy xatti-harakatning jismoniy harakatga aylantirilishi ommalashmoqda. Asli mutaxassisligi sport yo’nalishi

¹¹⁷ Qoraboyev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. T.O’qituvchi. 1986.

¹¹⁸ Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi T. 2002.

bo‘lgan shaxslar tomonidan sahnalashtirilgan ommaviy tadbirlarda musiqaviy ritmik saflanish va qayta saflanishlarga, sportcha nomerlarga va hakoazolarga qiziquv oqibatida “teatrlashtirish” yo‘qolib, faqat jismoniy tarbiyaga oid xarakter - ko‘rinishlar paydo bo‘lmoqda.

Ommaviy bayramlar va tomoshalarni sahnalashtirish va sahnalashtiruvchi rejissyorning xususiyatlari haqidagi fikrlarning yakunida shu narsani ta’kidlash kerakki, faqat yaxshi tashkilotchilik, ijodkorlik va pedagogik layoqatlarga ega bo‘lgan madaniyat xodimigina qiyinchilik va muammolarni yengib, samarali ish olib borishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov F.E. “Ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va aktyorlik mahorati”. T. Cho‘lpon. 2007.
2. Genkin D.M. Massoviye prazdniki. Prosvesheniye. M., 1975.
3. Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi T. 2002.
4. Qoraboyev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. T.O‘qituvchi. 1986.

DRAMADA MUALLIF MAHORATI



Ubaydullayeva Mohisadaf

“Teatr san’ati” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s. f. d., professor T. Bayandiyev

Drama bevosita so‘z bilan bog‘liq hodisa ekanligi sabab adabiy turlar safiga kiritilgan. Muallif sahnaga qo‘yilajak asar yozar ekan, butun sahna asarini so‘z yordamida tasvirlaydi. Adabiy asarlardan farqli o‘laroq dramatik asar Hafiz Abdusamatov aytganidek, “...unda personajlarni har tomonlama, batafsil xarakterlash imkoniyati yo‘q. Shu sababli muallif barcha g‘oyaviy niyatlarini personajlarning faoliyati orqali amalga oshiradi.”¹¹⁹ Shu sabab pesada so‘z qo‘llash

¹¹⁹ H. Abdusamatov. Drama nazariyasi. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2000 – 13 b.

adabiy asarga qaraganda birmuncha murakkabliklarga ega. Bu hol nafaqat zamonaviy dramaturgiyada, balki o'zbek yozma dramaturgiyasining ilk shakllanish davridayoq sahna asarining yaratilishidagi muhim masalalardan biri bo'lib kelgan.

Hamza o'sha davrning sermahsul dramaturgi sifatida qayroqi so'zlar va keskin dramatik holatlar tasviriga boy ijodkor sanaladi. "Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi" asari uning o'ziga xos asari hisoblanib, ayollarning zamon zo'rlari ustidan qilgan g'alabasi haqida ekanligi bilan farqlanadi. Ushbu komediya janridagi asar zabardast rejissyorlardan biri hisoblanmish Bahodir Yo'ldoshev tomonidan maydon tomoshasi shaklida sahnaga qo'yilgan. O'z navbatida har qanday rejissyor pesaga o'z topilmasi bilan birgalikda, bir qancha o'zgartirishlar kiritadi. Bahodir Yo'ldoshev ham teatrga yangi tendensiya sifatida unga maydon tomoshasi shaklini berishni olib kirdi. Ommaviy sahnalar bilan uni boyitdi. Shuningdek, dramaturg mahsuli ham anchagina o'zgartirishlarga uchradi. Bu orqali rejissyor spektaklni harakatlarga boy, qiziq sahnalarga limmo-lim qilib tomoshabinlarga havola etdi. Shu sababli, ushbu sahna asarining rejissyor talqinidagi til xususiyatlari xaqida so'z yuritish orqali dramatik asarda muallif mahoratining ayrim qirralariga to'xtalamiz.

Hamza pesani qiziqarli holatlar va harakatlardan iborat remarkalarga boyitishda juda mohirlik ko'rsatgan. Shu sababli rejissyor uni sahnaga olib chiqishda ushbu remarkalarning birortasiga o'zgartirish kiritmaslikka va ularni yanada bo'rttirishga harakat qilgan. Masalan, Mulla Ro'zi personajiga ho'kizning kallasini kiydirgandan so'ng uning ho'kizga o'xshab "mo'-o'"lashi pesada keltiriladi. Sahnada esa bu hodisa anchagina bo'rttirish orqali zavqli kulgini keltirib chiqargan. Lekin pesada ko'rsatilmagan voqealarni sahnada uchratish ham ko'p bora kuzatiladi. Masalan, Hidoyat, Qozi va Mulla Ro'zilarining bir paranjiga kiritilishi va h.k. Shu kabi voqealar tomoshaga yanada quvnoqlik, g'oyaga esa bo'rttirmalik beradi. Ularning har kuyga tushishi ya'ni qayta va qayta jazo topishi, tomoshabinga huzur bag'ishlaydi. Yuqoridagi kabi holatlar ko'pligi tomoshaviylikni oshirish bilan birga, o'z-o'zidan qahramonlar o'rtasidagi

so‘zlashuvni qisqartiradi. Bahodir Yo‘ldoshev Hafiz Abdusamatovning quyidagi: - “So‘z qahramonlar haqidagi taassurotimizni aniqlaydi, boyitadi, kengaytiradi. Shu sababdan ham so‘zlarni ishlatishda xasis bo‘lishlik ta’kidlanadi. So‘z xuddi otilgan o‘qdek, nishonga borib tegishi, tomoshabinning qalbini larzaga solishi lozim. Ana o‘shandagina muallif o‘zining g‘oyaviy-badiiy niyatiga yetgan bo‘ladi. Shu sababdan ham tilda luqmalarni ixcham, diologlarni aniq va tasvirli bo‘lishini talab qilishni dramaning xarakteri taqazo etadi,”¹²⁰ degan fikriga monand holda muallif yo‘l qo‘ygan xato ya’ni personajlar tomonidan qilinadigan ortiqcha bayonchilikni bartaraf qildi. Birgina birinchi sahnadayoq buni guvohi bo‘lish mumkin. Pesada Oyxon va CHO‘ponning xayrlashuvi shunchalar uzoq suhbatga qurilganki, beixtiyor CHO‘pon hech qayerga ketmay asar oxirigacha shu zayl gaplashib o‘tiraveradi, deb o‘ylab qolasiz. Vasiyatnoma haqidagi ta’rif esa, ikki betlik monologga aylanib ketgan. Bahodir Yo‘ldoshev bu bayonchilikni shunchalar mahorat bilan qisqartirganki, ikki qahramon o‘rtasidagi suhbatning mag‘zi aslicha qolgan. Sahnaga ko‘chgan asarda shu kabi qisqartirishlar talaygina. Bundan tashqari, rejissyor ortiqsa so‘zlar bilan birgalikda, ortiqcha qahramonlardan ham voz kecha olgan. Pesada uchraguvchi Tohir va Nodira obrazlari sahnada butunlay yo‘q. Ularning asardagi vazifasini esa ommaviy sahna ishtirokchilariga yuklagan. Asardagi Tohir va Nodira o‘rniga har sahnada qiy-chuv bilan voqeaga bo‘rttirish berib turgan bir guruh olomon fitna uyushtirishda Maysaraga yordam beruvchilar vazifasini ham bajarishadi. Oqibatda esa, rejissyorning say-harakatlari tufayli ham ulkan g‘oyaga boy, ham zavq beruvchi tomosha dunyoga kelgan.

Lekin shu o‘rinda ko‘ngilda bir e’tiroz paydo bo‘ladi. Chunki zamonaviy dramaturgiyada aksariyat mualliflar o‘z asarlarini sahnaga qo‘yilganidan so‘ng taniy olmaganliklaridan norozi bo‘lishadi. Asarga shunchalar katta o‘zgartirishlar kiritilganki, go‘yo u sahnaga chiqqandan so‘ng pesa Hamzanikimasdek. Muallif ham rejissyor ham Bahodir Yo‘ldoshevdek go‘yo. Hamza faqatgina g‘oya muallifigina bo‘lib qolgan nazarimizda. Har qanday dramaturg o‘z asarini

¹²⁰ H. Abdusamalov. Drama nazariyasi. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2000 – 211 b.

yozayotib, uni sahnada jonlanayotganini ko‘z oldidan o‘tkazadi. Qulog‘ida qahramonlarining gaplari jaranglaydi, harakatlarini tasavvur qiladi. Asar rejissyor qo‘liga tushganidan so‘ng, dramaturg uni sahnada butanlay boshqacha, begona holda ko‘rishi spektakl muvaffaqiyatli chiqqanidan qat’iy nazar mualliflar xafsalasiga salbiy ta’sir qilishi tabiiy. Biroq, bu e’tirozlarga rejissyor Bahodir Yo‘ldoshevning quyidagi so‘zlarini javob deb bilsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi: “Qahramonlarning qiziqarli ichki hayotini ochib beruvchi chuqur mazmunli pesalar teatr bilan birgalikda yaratiladi. Ko‘p hollarda dramaturglar bergan materiallardan rejissyor ham, aktyor ham muhim narsa topolmaydi. Mening fikrimcha, pesaning tugallanganligiga emas, undagi sog‘lom mag‘izga, potensial kuchga ko‘proq e’tibor berish kerak. Agar pesada ana shular bo‘lsa, u teatrda, dramaturg bilan kollektiv o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va yuksak talabchanlikka asoslangan hamkorlikda, qayta ishlanish jarayonida nihoyasiga yetadi.”¹²¹

Rejissyorning birgina shu javobi orqali masala o‘z yechimini topadi. Bu esa azaliy qonun – dramaturg shunday asar yozsinki, asarning yuragi bilan teatr sahnasining qon tomirlari o‘zaro tutashgan bo‘lsin. Va bu tomirlarni na rejissyor, va na improvizatsiyaga boy aktyor uza olsin, degan xulosani yana bir bor tasdiqlaydi. Oqibatda, ham muvaffaqiyatli, ham o‘z muallifi qalamiga mansub asar paydo bo‘ladi. Zero, sahnalarimiz hamisha yangi g‘oyalarga boy va tili charxlangan dramaturglarga muhtoj.

Adabiyotlar:

1. H.H.Niyoziy. Mukammal asarlar to‘plami. To‘rtinchi tom. T.: Fan., 1981.
2. H. Abdusamalov. Drama nazariyasi. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2000.
3. M.To‘laxo‘jayeve. Teatr tanqidchiligi. – T.: “San’at” jurnali nashr., 2015.
4. T.Tursunov. Sahnalar va zamon. – T.: Yangi asr avlodi., 2007.

¹²¹ M.To‘laxo‘jayeve. Teatr tanqidchiligi. – T.: “San’at” jurnali nashr., 2015 – 33 b.

ESTRADA SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI VA BADIY VAZIFALARI



Valiyev Soxibjon

“Estrada aktyorligi san’ati” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: dotsent J.A.Mamatqosimov

Estrada bugungi kundagi eng ommabop san’at sohasi sifatida mazmuni, shakli, o’ziga xos jihatlari bilan ajralib turishi hech birimizga sir emas. Estrada aktyorlari, estrada xonandalari esa eng ko’p xalq nazariga tushgan san’atkorlar hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, biz estrada san’atining bugungi va ertangi rivoji haqida so’z yuritar ekanmiz, avvalambor “milliy estrada” degan iboraning ma’no mazmuniga alohida e’tibor berishimiz, uni har qanday begona ta’sirdan, ayniqsa, “ommaviy madaniyat” ruhidagi oqimlar ta’siridan himoya qilishimiz tabiiy.¹²²

Haqiqatda, ommabopligi, ko’ngilochar xususiyati estrada san’atining asosi hisoblanib, xalqchilligi, tez qabul qilinishi bilan boshqa san’at turlaridan farq qiladi. Biroq bu xususiyatlar mazkur san’atning yengilligi, ijodiy murakkablikdan yiroqligini anglatmaydi. Ommani o’z qarshisida to’plagan har qanday estrada ijodkorining zimmasida o’ta jiddiy va mas’uliyatli vazifa turadi. Ayniqsa, bugungi texnik imkoniyatlar kengaygan davrda, xalq uchun tomosha manbayi ko’p. Ana shunday raqobatli jarayonda estrada ijodkorlari taqdim etadigan tomoshalarning badiiy saviyasiga, estrada aktyori yoki xonandalarning kasbiy mahorat darajasiga nisbatan talab yuqori bo’ladi.

Estrada san’ati ijodkorlari deyilganda, juda keng ijodkorlar auditoriyasini tushunish mumkin. Ma’lumki, asli XIX asrda G’arbda paydo bo’lgan va butun jahonga ommalashgan ushbu san’at turining rang-barang janrlari bor. Estrada san’ati umumiy mazmunda ommaviy tomoshalarning bir shakli hisoblansa-da, o’z

¹²² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

o‘rnida keng qamrovli ijodiy yo‘nalish sifatida o‘zining ijodiy, uslubiy va shakliy jihatdan turlariga ega. Bunda orkestr jamoalari, so‘z ustalari, qiziqchilar, xonandalar, aktyorlar ijodiy uslubiga ko‘ra estrada ijodkorlari sanaladi.

“Estrada keng ma’noda ko‘ngilochar, ommabop, badiiy janr va shakllarning umumiy ifodasi, tor ma’noda esa sahnaviy professional san’at turi”.¹²³ hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib umumiy fikr yuritilsa, sahnaga chiqib xalq oldida shou tomoshalar orqali o‘z mahoratini namoyon etadigan eksentrik ijodkor umumiylikda estrada aktyori deb ataladi.

Estrada aktyorlariga eksentrik degan sifatni ta’kidlab qo‘shishimizning boisi shuki, bunday aktyor avvalo san’atning barcha turlaridan xabardor, universal mahoratga ega bo‘lishi talab etiladi. Estrada aktyori musiqa, xoreografiyaning barcha unsurlari, plastika, ovoz imkoniyatlari, hozirjavoblik, so‘zamollik xususiyatlarini o‘zida shakllantiradi. Va bularning har birini ayni paytda estradaga xos, qolaversa, aynan o‘z ijodiy yo‘nalishiga muvofiq tarzda qo‘llashi zarur.

O‘zbekistonda va jahonda estrada san’atining asosan ikki xil ijro shakli keng tarqalgan. Bular yakka va jamoaviy shakldagi ijro usullaridir. Yakka ijrochilikda sahnada, ekranda estrada ijodkori yakka o‘zi tomoshalar taqdim etadi.

Biz “yakkaxon konsert” deb ataydigan tomosha uslubida aynan yakka ijrochi o‘z ijodini tomoshabinga namoyish etadi. Bunday yakka ijrochilar sifatida faqat estrada xonandalari emas, balki so‘z ustalari, estrada aktyorlari, sozanda va raqqosalarni tushunish mumkin. Bu ular tanlagan ijod shakli bilan bevosita bog‘liq. Chunki, yuqorida ta’kidlanganidek, estrada san’atining janr va shakllari juda keng. Yakka ijrochilar o‘z nomerlarini sahnada, televideniyeda ijro etishi mumkin. Birgina misol, taniqli san’atkor, O‘zbekiston xalq artisti Ergash Karimovning “Televizion miniatyuralar teatri” dasturi orqali taqdim etilgan xalq ichida mashhur “Paxtakor” yutganda va yutqizganda”, “Lampashisha”, “Janetta” singari televizion

¹²³ Madaniyat va san’at atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2015

miniatyuralar ham estrada san'atining bir ko'rinishi bo'lib, unda artist E.Karimovning ijrochiligi asosiy planda turadi.

Estrada sohasida jamoaviy ijrochilik shakli ham keng tarqalgan o'ziga xos yo'nalish sanaladi. Bunga oddiy misol sifatida bugungi kunda faoliyat yuritayotgan qiziqchilar guruhlarini keltirish mumkin. Masalan, "Mirzo teatri", "Handalak", "Qalpoq", "Sho'rdanak" kabi havjiy guruhlar, "Yalla", "Setora", "Benom", "Via Sharq", "Oybek va Nigora", "Farhod va Shirin" va boshqa ko'plab duet va xonandalik guruhlari, "Toshket zebolari", "Ofarin" singari raqs dastalari, shuningdek, estrada orkestrlari jamoaviy ijro guruhlari hisoblanadi.

Estrada san'atining ijodiy yo'nalishlari, ijro shakllari va imkoniyatlari chindan ham juda keng. Bu san'at sohasi ifoda vositalarining lo'nda va yorqinligi, o'ziga xos erkinligi, tomoshabin bilan bevosita muloqotda bo'lishi bilan ajralib turadi. Biroq shakliy va imkoniyatlar jihatidan qanchalik keng va rang-barang bo'lmasin, barcha san'atlar kabi estrada san'atining ham g'oyaviy badiiy jihatdan asosi bitta hisoblanadi. Ya'ni har qanday san'atning vazifasi insonni komillikka boshlash, ma'naviy ruhiy yuksaltirish hisoblanadi. Bu maqsadga esa xalqning badiiy didini o'stirish, uning estetik kayfiyatiga ta'sir etuvchi omillarni mohirona qo'llay bilish bilan erishiladi.

Xalqqa ijod mahsuli deb har qanday tomoshani taqdim etib bo'lmaydi. Bu sohada ijod qilayotgan har bir ijodkor o'z ishida badiiylik mezonini va g'oyaviy mazmun darajasini his etib turishi zarur.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, xalqqa eng yaqin va uning e'tiborini eng tez o'ziga qarata oluvchi estrada san'ati namoyandalari jamiyatning ma'naviy ilg'or kishilari sifatida, avvalo, ezgu maqsadlarga boshlashi, insonlar ruhiyatini, dunyoqarashini tarbiyalashda fikran va zikran hozirjavob bo'lishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

ZAMON BILAN HAMNAFAS O'ZBEK AKTYORLIK SAN'ATI



Xamidova Charos

“San'at nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f.d., professor T. Bayandiyev

Aktyor o'z sahnaviy obrazlarining salmog'i, ta'sir kuchi bilan tomoshabinning estetik didini o'stirish va ma'naviy ozuqa berish hamda ularni katarsis holatiga keltirish kuchiga ega. “Aktyor ijodi teatr san'atining yuragidir. Aktyor ijodi va mahorati bir paytning o'zida ham tabiiy, ham ijtimoiy, ham amaliydir. Dramaturg fikrini izhor qiladigan ham, rejissor talqiniga jon kiritadigan ham, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lib, unga zavq-shavq bag'ishlaydigan, o'ylashga, fikr yuritishga majbur qiladigan ham aktyordir”¹²⁴, – deb ustozlar bejiz ta'kidlashmagan. Albatta, spektakllarning umrboqiyligi, shubhasiz, undagi aktyorlarning mahoratiga ham bog'liq. Ular hayotiy muammolarni, zamonaning dolzarb g'oyalarini asar qahramonlari orqali bevosita tomoshabinga yetkazadi.

Shu ma'noda aktyorlik san'ati mustaqillik yillarida yangi ufqlarni zabt etdi deyishga asosimiz bor. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida: “O'zbek teatr san'ati yangitdan - yurtimiz va jahon miqyosida shakllangan, davrlar sinovidan o'tib kelayotgan an'ana va tajribalar asosida vujudga kelgani va kamol topganini e'tirof etish zarur. Shu bilan birga, teatr ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan ko'plab milliy ruhdagi sahna asarlari xorijiy mamlakatlarda ham muvaffaqiyat bilan ijro etib kelinadi”, - degan edi.

¹²⁴Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – T.: Fan va texnologiya, 2012. 6-b.

Ushbu fikrlarning tasdig'i sifatida I.A.Karimovning 1998-yil 26-martdagi "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni, birinchi soni 1999-yilda chop etilgan maxsus "Teatr" jurnali, "Seni kuylaymiz, zamondosh!", "Debyut" ko'rik-festivallari, qolaversa, teatr san'ati ijodkorlariga bo'lgan e'tibor, ularning "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" kabi faxriy unvonlar bilan taqdirlanishi bu yo'ldagi say-harakatlardan dalolat beradi.

Xalqimiz azal-azaldan san'atni sevgan, san'atkorlarni esa o'zlaridan bir pog'ona baland qo'yib, chuqur hurmat qilishgan. Albatta, har qanday tomoshabin sahna asarini yoki ekranda badiiy film tomosha qilganda, unda rol ijro etgan san'atkorlarga qiziqishadi. Ularning ijrolaridan hayratga tushib, san'atkorga tasannolar aytishadi. Shundan bo'lsa kerak, aktyorlik san'ati murakkab va noyob kasb bo'lishi bilan birgalikda, sharaflı va mas'uliyatli sohalardan biridir. Zero, san'at – alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi barchamizga ayon.

Milliylik xususiyatlari bilan yo'g'rilgan, ma'naviyatimiz va madaniyati-mizni dunyoga tarannum etuvchi san'at asarlarini yaratish ijodkorlardan, san'atkorlardan to'qson to'qqiz foiz mehnat, atigi bir foiz qobiliyat talab qilinadi va albatta, ustozlardan olgan o'git-u an'analardir.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi aktyorlik san'atida ham an'ana tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'z kasbining mohir ustasi bo'laman degan shaxs, albatta, muayyan bilimlarni egallagan holda ustozlardan qolgan eng yaxshi an'analarni bilishi, o'rganishi va o'z ijodida ulardan andoza olib, san'atimizni boyitishi lozim. Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Teatr nadur?" maqolasida teatr aktyoriga juda katta mas'uliyatli vazifani – "axloq o'qituvchisi" maqomini beradi. "... Teatr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadir. Va anda mushahhis (hodisani ko'rsatuvchi) bo'laturg'onlar "o'yunchi va masxaraboz" bo'lmay, balki mushahhis va muallimi axloqdurlar!"¹²⁵ "O'z qissasi

¹²⁵ Umarov M., Yuldoshev T. Rejissorlik va aktyorlik san'ati asoslari. – Toshkent, 2016. 50-b

na'figa mushahhislik qilmay, balki maktab va o'z millati na'figa mushahhislik qilganlarning qadri... ziyodadir", ya'ni fidoyilik aktyorning faoliyatida asosiy tamoyildir deydi.

Ijodida kuchli dramatik va tragik obrazlarni yaratgan buyuk san'atkor Shukur Burhonovning shogirdi, O'zbekiston xalq artisti Erkin Komilovning "Kelinlar qo'zg'oloni", "Oltin devor" spektakllaridagi yumorga boy obrazlari orqali uni nafaqat drama, balki komediyada ham mahoratli rollar ijro qila olishiga amin bo'lamiz. Bundan bir necha yil avval sahnalashtirilgan Maqsud Shayhzodaning "Mirzo Ulug'bek" spektaklida Shukur Burhonov Mirzo Ulug'bek obrazini yaratgan edi. Yaqinda esa shogirdi Erkin Komilov ijrosida buyuk siymo sahnaga qaytdi. Obrazga ma'nan tayyor bo'lgan Erkin Komilov shoh va olimlik, qolaversa, ota o'rtasida arosatda qolib ketgan Mirzo Ulug'bekning ichki kechinmalarini, qalb tug'yonlarini, dardini ustozidek ba'zida sukut, ba'zida so'z orqali, ko'z orqali ochib berishga harakat qilgan. Spektakl to'g'risida, shuningdek, shogird ijrosi haqida tomoshabinlar, teatr ijodkorlari hali ko'p fikr-mulohazalar bildirishsa ajabmas.

Shubhasiz, bugungi kunda yosh iste'dod egalariga ushbu kasbning sir-asrorlarini egallashda "ustoz-shogird" an'anasi bilan birgalikda, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining o'rni beqiyos. Bundan tashqari, "Yoqub Ahmedov mahorat maktabi", "Diydor" teatr o'quv-studiyalari ham yosh ijodkorlarni shakllantirishda muhim maktab vazifasini o'tamoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek aktyorlik san'ati an'analari zamon bilan hamnafas holda bardavom yashab kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
2. Umarov M., Yuldoshev T. Rejissorlik va aktyorlik san'ti asoslari. – Toshkent, 2016.

O‘ZBEKISTONDA VOKAL SAN’ATI PAYDO BO‘LISHINING IJTIMOIIY-TARIXIY ASOSLARI



Xushvaqtoev Eldor

“Estrada aktyorligi san’ati” mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: p.f. n., professor B.Sayfullayev

Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak¹²⁶. Chunki, san’atkor – tarix va kelajak o‘rtasidagi o‘ziga xosligi san’atning tarbiya vositasi ekanligidan darak beradi.

Hozirgi kunda “estrada” nomi bilan yuritilayotgan musiqa namunalari tobora ko‘plab tinglovchilar e’tiborini o‘ziga jalb etmoqda. Bugungi kunda radio-televideniye va turli bayram tantanalari dasturlaridan keng o‘rin olgan bu turdagi musiqa nafaqat yoshlarni, balki jamiyatimizning turli yoshdagi milionlab vakillari ongi va ma’naviyatiga sezilarli ta’sir o‘tkaza boshladi.

O‘zbek estrada qo‘shiqchiligining shakllanish jarayoniga ham kompozitorlik ijodi sezilarli hissa qo‘shdi. Shu jumladan o‘zbek estrada qo‘shiqchiligining poydevori M.Burxonov, I.Akbarov, M.Leviyev, D.Zokirov, A.Berlin, E.Solihov, G‘.Qodirov, A.Muhammedov kabi kompozitorlarning ommaviy qo‘shiqchilik sohasidagi ijodkorona mehnatlari tufayli barpo etildi. Ularning samimiy, ohanrabodek maftunkor kuy ohanglari ayni paytda estrada qo‘shiqchiligi uchun milliy qiyofaga ega sermazmun lirikadan foydalanish usullarini ham kashf etib bordi. Bundan tashqari kompozitorlarimiz xalq qo‘shiqlarini musiqiy estrada uslubida qayta ishlash amaliyotini hamda badiiy an’analar asosida milliy estrada qo‘shiqlarini etish mumkinligi tajribasini ham ham boshlab berdi. Ushbu ijodiy jarayonlar natijasida ma’lum badiiy ko‘rsatgichlarga ham erishildi.

¹²⁶ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 139-140.

Bu sohaning bosh irmog'ida turgan iste'dodli xonandalar jumladan, B.Zokirov, L.Zokirova, K.Jalilova, B.Mavlonov, N.Zokirov, R.Sharipova, Y.To'rayevlar ijro dasturida o'zbek kompozitorlari yaratgan qo'shiqlar mustahkam o'rin oladi. Ijodiy hamkorlik natijasida yaratilgan qo'shiqlar teleradio dasturlari, kino va sahnaviy asarlar, hamda konsertlar orqali ommalashdi, saralandi va haqiqiy "shlyager" namunalariga aylandi¹²⁷.

1920 – 1940 yillarda o'zbek estrada san'ati xalq an'analari tayangan bo'lsa, 1950 – 1960 yillarga kelib bu sohada zamonaviy yo'nalishda izlanishlar olib borildi. Bu jarayon bevosita Botir Zokirov faoliyati bilan bog'liq bo'ldi.

1950 – yillarning ikkinchi yarmiga kelib, sobiq ittifoqda yuz bergan xalqaro munosabatlar bilan bog'liq siyosiy o'zgarishlar O'zbekistonda estrada musiqasining yangi shakllari rivojlanishiga sabab bo'ldi. Jumladan, 1957 yilda Moskvada o'tkaziladigan VI yoshlar va talabalar jahon festivalida ishtirok etish maqsadida "Yoshlik" estrada ansambli Toshkentda tashkil etiladi. Mazkur jamoa ijro dasturiga A.Ginzburg rejissyorlik qiladi. Repertuardan o'rin olgan qo'shiqlarni esa Botir Zokirov va Luiza Zokirovalar, K.Jalilova, B.Mavlonov hamda R.Qurbonovlar ijro qildilar. 1958 yili Toshkentda o'tkazilgan Osiyo va Afrika mamlakatlarining yozuvchilari xalqaro konferensiyasi ishtirokchilari uchun O'zbekiston davlat estrada orkestrining "Bandung ruhi" nomli ilk konsert dasturi namoyish etiladi.

Ta'kidlash joizki, qayd etilgan yillarda o'zbek estrada musiqasi, asosan, uch yo'nalishda rivojlanadi. Bulardan birinchisi – maxsus ansambl va orkestrlarning kinoteatrlardagi chiqishlari bo'lsa, ikkinchisi raqs uchun tayyorlangan maydonchalarda, uchinchisi esa istirohat bog'laridagi maydonchalarda kechadi. Birinchi vaziyatda ijrochi jamoalar dasturida, asosan, estrada qo'shiqlariga urg'u berilgan bo'lib, ikkinchisida faqat raqsboq cholg'u kuylar va qo'shiqlarga, uchinchisida esa maxsus tinglov uchun mo'ljallangan asarlar tashkil qilgan. Mazkur estrada jamoalari dasturidan o'rin olgan asarlar deyarli rus va yevropa jaz

¹²⁷ Mirzayev Q. Vokal – xor jamoalari bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: 2010. – B. 4.

namunalaridan iborat bo'lgan. Xususan, repertuarda nafaqat sof jaz asarlari, balki o'sha yillari "moda"ga aylanib ulgurgan zamonaviy raqs kuylari, jumladan fokstrot, charlston, vals – boston, bugi – vugilar bilan birga, jaz musiqasining "bi-bop", "kul" va "progressiv" kabi murakkab yo'nalishlariga doir asarlar ham ijro etila boshlaydi.

Bu paytda mualliflik qo'shiqlari bobida yetuk asarlardan biri Botir Zokirov ijrosidagi Mutal Burxonovning "Maftun bo'ldim" asari bo'ladi. Uning o'sha yillari ijro qilgan "Go'zal qiz", "Arab tangosi", "Muhabbat", "Jayron" kabi turli millat qo'shiqlari bugungi kun uchun ham namunaviy bo'lib turgan yangicha ohang tizimi milliy estrada qo'shiqchiligidagi noyob topilmalardan bo'ldi. Hozirda turli uslubiy yondoshish orqali ushbu qo'shiq ijrosiga yosh estrada qo'shiqchilari murojaat etayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Botir Zokirov maktabini o'tagan, estrada san'atining taraqqiy topishiga o'z hissasini qo'shgan o'nlab xonandalar qatori O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov va "Yalla" vokal cholg'u ansamlining ijodi ushbu san'at rivojiga sezilarli va samarali ta'sir ko'rsatdi. Guruh tomonidan ijro etilgan "Omonyor", "Toshkent", "Choyxonachi", "Qilpillama" kabi qo'shiqlar xalq ijodini yangi qirralar bilan boyitdi. Ular o'zbek estradasiga ko'p ovozli uslubda kuylash va jo'r bo'lish san'at va madaniyatini olib kirishdi. Unda estrada cholg'u – asboblari qatorida milliy chog'ulardan foydalanilgani bilan e'tiborli bo'ldi.

Ayni shu jarayonlarda o'zbek estrada san'atiga O'zbekiston xalq artistlari G'ulomon Yoqubov, Mansur Toshmatov, Nasiba Abdullayevalar ham shahdam qadamlar bilan kirib keldi. Nasiba Abdullayevaning "Barigal", "Samarqand", "Yoqasiz jonim", "Tushingizga kirgan malak", "Kelasiz" kabi qo'shiqlari o'ziga xosligi, ma'nodorligi, nafis ichki kechinmalari, milliy koloritga boyligi, so'z va musiqaning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Shu bois ushbu qo'shiqlarni bugungi kunda ham sevib tinglab kelinmoqda.

1980 – 1990 yilga kelib estrada qo'shiqchiligi maydoni yanada kengaydi. Unda vatanparvarlik, lirik mavzudagi asarlar, davrni, muhabbatni, do'stlikni,

ma'naviy qadriyatlarni kuylash, badiiy an'analarga yangicha yondashishlar bilan bir qatorda, ko'p ovozli ijro, ansambllarda raqqosalarning ishtiroki, shou tomoshalari muhim o'rin tuta boshladi. Bundan tashqari estrada qo'shiqchiligida turli cholg'u asboblaridan foydalanishga ixtiyor va ehtiyoj kuchaydi, katta instrumental guruhlar shakllandi. Bu jarayonga yangi avlod vakillari qadam qo'ydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Kumush Razzoqova, K.Qayumov va "Sado" shu bilan birga "Navo", "Qars" guruhlari tashkil etilib, turli yo'nalishdagi ijod namunalarini tinglovchilarga havola etishdi.

Shu davrda estrada olamiga yana bir haqiqiy iste'dod egasi, dardli ovoz sohibasi Yulduz Usmonova ham o'zining diltortar kuylari, shirali ovozi, mazmunan baquvvat qo'shiqlari bilan xalqning ko'nglidan joy oldi. Uning har bir qo'shig'i rang – barangligi va xalqchilligi bilan o'zgacha tarovat kasb etdi. Xonandaning ijodida bir xillikni, shunchaki, yengil – yelpi qo'shiqlarni kuylash alomatlari sezilmaydi. Balki butun borlig'ini, qalb qo'rini ohanglar zamiriga mujassam etishga intiladi. Shu sababli uning qo'shiqlari tezda xalq orasida ommalashib bordi.

Yulduz Usmonova bilan bir qatorda Nuriddin Haydarov, Muhriddin Xoliqov, Oxunjon Madaliyev, Azim Mullaxonov, G'iyos Boytoyev, Ravshan Nomozov, Mavluda Asalxo'jayeva, Salohiddin Azizboyevlar ham samarali ijod qilishdi. Ayniqsa, Nuriddin Haydarov, Muhriddin Xoliqov, Oxunjon Madaliyev va G'iyos Boytoyevlar san'atida milliy kolorit yetakchilik qildi. Ularning betakror ovozlari, chuqur talqini va samimiyligi alohida e'tiborga molik bo'ldi.

Zamonaviy o'zbek musiqasining tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan estrada san'ati tarixan juda qisqa muddat ichida ana shuday butunlikka erishish natijasida shakllandi va ma'lum natijalarga erishdi. Xususan, bugungi kunda estradaga oid qo'shiq janrlari yurtimizda o'tkazilayotgan Mustaqillik, Navro'z va boshqa ommaviy xalq bayram tantanalari, shuningdek, maxsus tanlovlar, qolaversa, ko'cha – kuyda sadolanayotgan musiqaning salmoqli qismini tashkil qilmoqda.

Mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab, san'atning boshqa sohalari kabi estrada qo'shiqchiligi san'atiga davlatimiz va muhtaram Prezidentimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratildi. 1995 yildan boshlab "O'zbekiston – Vatanim manim" mavzusidagi qo'shiqlar ko'rik tanlovini keng miqyosda o'tkazish yo'lga qo'yildi. Buning natijasida bir qancha mustaqillikni madh etuvchi qo'shiqlar yaratildi. Bu tanlovda nafaqat o'zbek san'atkorlari balki, respublikamizdagi barcha millat va elat vakillari, xususan, rus, qozoq, turkman, uyg'ur, koreyslar va boshqa millat vakillari ham o'z tillarida Vatanni madh etuvchi qo'shiqlar kuylashib xalqqa tanildi. Bu tanlovda nafaqat san'atkorlar, balki shoirlar bastakorlar va boshqa ijodkorlarning mehnatlari, xizmatlari xalqimiz hamda davlatimiz tomonidan yuksak baholandi. "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq festivalining tashkil etilishi, Mustaqillikni, Vatanni anglash, uni ulug'lash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Mamlakatimiz va xalqimiz hayotida qo'shiq bayrami odat tusiga kirdi.

Hukumatimiz tomonidan san'at ahli va xonandalarning, estrada qo'shiqchilarining har bir chiqishlari e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. Ular rag'batlantirilib kelinmoqda. "Nihol", "E'tirof" ko'rik tanlovining tashkil etilishi san'atning barcha sohalari kabi o'zbek estrada qo'shiqchiligi rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Chet mamlakatlarda ham dong'i ketgan O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov va "Yalla" vokal-cholg'u ansambli, O'zbekiston xalq artisti Mansur Toshmatov, G'ulomjon Yoqubov va Nasiba Abdullayevalarning estafetasini yangi avlod estrada san'atkorlari davom ettirib kelishmoqda. O'zbekiston xalq artistlari Mahmud Nomozov, Ozodbek Nazarbekov, Zulayho Boyxonova, Gulsanam Mamazoitova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Kozim Qayumov, Kumush Razzoqova, Ravshan Nomozov, G'iyos Boytoyev, Ravshan Komilov, Toshpo'lat Matkarimov, Mavluda Asalxo'jayeva, Salohiddin Azizboyev, Alisher Turdiyev, Abdurashid Yo'ldoshev, Hosila Rahimova va boshqa o'nlab estrada ijrochilari tinglovchilarning sevimli san'atkorlariga aylanishdi.

Qo‘shiqning matni, g‘oyaviy mazmuni yosh avlodni estetik tarbiyalashning kuchli vositasi hisoblanadi. Mana shu vosita faqat hissiyotga emas, balki ongga ham ta’sir ko‘rsatadi, hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otadi, fikrlashga undaydi, ma’naviy va estetik qadriyatlarni shakllantiradi, axloqiy va ma’naviy tarbiyaga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 176 b.
2. Mirzayev Q. Vokal – xor jamoalari bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: 2010. 132 b.

TEATR SAHNASIDA MILLIY XARAKTERDAGI OBRAZLARNI YARATISH MASALASI



Zamatdinov Adilbek

“Drama teatr va kino aktyorligi san’ati”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

Ilmiy rahbar: .p.f.n dotsent Z.Qosimova

Bugungi kunda teatr san’atining navqironligi va ahamiyatini hech bir ong tarozisi bilan o’lchab bo’lmaydi. Teatr san’ati ma’naviyatning eng yorqin, ta’sirchan ko’rinishlaridan biridir. Zero, u tomoshabinlarga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Sahna bilan tomoshabinlar o’rtasida samimiy bog’lanish, muloqot hosil bo’lib, ham sahna ijodkorlarini, ham tomoshabinlarni ma’nan boyitadi, ruhini sozlaydi, ko’nglini ko’taradi.¹²⁸

Ayniqsa, teatr jamiyat uchun xizmat qiladigan yuksak san’at turi sifatida bir qancha vazifalarni qamrab oladi. Spektakl bir tomondan tomoshabinga sahnaviy ijrodagi mahorat va voqeadagi topilmalar evaziga estetik zavq ulashsa, boshqa bir tomondan g’oyaviylik va badiiylik nuqtai nazaridan insoniy hamda tarbiyaviy xulosalar taqdim etadi. Teatrning yana bir muhim vazifasi borki, bu ma’lum millatning o’zligini, mentalitetini, milliy koloritini targ’ib etish, asrab-avaylash va kelgusi avlodga yetkazishdir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov bejizga teatr ijodkorlariga qarata, “Sizlar o’zbek teatr san’atimizning eng yaxshi an’alarini asrab-avaylash, rivojlantirib, kelajak avlodlarga yetkazasiz, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi yetuk asarlaringiz bilan xalqimiz madaniyatini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo’shasiz, deb ishonaman”¹²⁹, – deb ta’kidlamagan edi. Teatrda mana shu ezgu vazifani bajarishga nafaqat dramaturg va rejissyor, balki aktyor ham javobgardir.

Aktyorlarning ma’lum obrazi aslini olganda, rejissyor ko’rsatmalari orqali shakllanadi. Lekin mahoratli sahna artisti bo’lish uchun rejissyor belgilab bergan

¹²⁸ Qodirov M.X. muharrirligi ostida. “Istiqlol va milliy teatr”, T.: “Yangi asr avlodi” 2002. 22-bet.

¹²⁹ “Milliy teatrimiz - iftixorimiz”. O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning Toshkent shahrida Akademik drama teatri yangi binosining ochilishi marosimida so’zlagan nutqidan. 2001 yil 30-avgust.

qoliplarning o'zi kamlik qiladi. Bunda aktyor o'z milliy mentalitetiga xos xarakterni sahnada qanday talqinda gavdalantirishni albatta bilishi lozim. Bu o'z o'rnida yaratilayotgan obrazning hayotiyligi va haqiqatga yaqinligini ta'minlaydi. Obraz ishonchsizligi albatta spektakl yaxlitligiga putur yetkazadi. Tanlangan mavzu mana shu nuqtai nazardan o'zining dolzarbligini ifodalaydi.

Milliy xarakterdagi obrazlarni yaratish tushunchasiga batafsil to'xtalish uchun ayrim tushunchalarni oydinlashtiramiz.

Obraz – ruscha so'z bo'lib, “yuz”, “yonoq”; “tasvir”, “timsol” degan ma'nolarni anglatadi. Badiiy asarlarda yaratilgan tip, xarakter. San'atning o'ziga xos bir kategoriyasi: san'atkorning voqelik haqidagi tasavvurining aniq his etiladigan bir tarzda gavdalanishi.

Xarakter – yunoncha so'z bo'lib, “farqlanuvchi xususiyat”, “o'ziga xoslik” degan ma'nolarni anglatadi. Adabiyot va san'at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o'zida fe'l-atvor (xatti-harakat, kechinma, fikriy va nutqiy faoliyat) ning tarixan aniq tipini mujassamlantirgan, shuningdek, muallifning ma'naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi.¹³⁰

Ko'rinib turganidek, xarakter va obraz tushunchalari bir-birini uzviy to'ldiradi va bu aktyorning mahorati orqali yuzaga chiqadi. Aynan sahnada milliy xarakterdagi obrazlarni yaratish doirasida ma'lum muammolar ko'zga tashlanadi. Bu muammolarni aynan ijodkorlar doirasida tahlil qilish mumkin.

Dramaturg. Milliy ruhdagi asarlar yaratish, milliy xarakterni qamrab olish jarayonlari sust, bu sohadagi izlanishlar qoniqarli emas.

Rejissyor. Millatning umumiy xususiyatlari yuzasidan bilim va tasavvurni oshirishga urinishlar kam. Ko'p hollarda faqatgina pesa ko'rsatmalariga tayaniladi.

Aktyor. Bu soha egalariga qaratilgan ortiqcha e'tibor, ba'zan ularning sohaviy taltayishlarini taqazo qiladi. Aktyor ba'zan qishloqda tug'iladi, lekin shahar havosi va muhlislar qarsaklari uni o'ta noziklashtirib, injiqlashtirib boradi. Natijada, u doim ozoda muhit, kam-ko'stsiz turmush tarziga o'rganadi. Vaholanki,

¹³⁰ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 9-jild, T.; 2005, 391-bet.

har qanday millatning o'ziga xos xarakterlari oddiy turmush tarzidagi qiyinchilik va soddalikda ko'rinadi. Qarabsizki, ayrim hollarda, "aristokrat" maqomdagi aktyor dehqon rolini sun'iy gavdalantirib qo'yadi. Bu bilan aktyor dehqonlik qilish kerak degani emas, balki ular oddiy xalqqa doim yaqin yurishi kerak, faqatgina tomosha vaqtida ulardan yuqoriroq o'rinda, ya'ni sahnada turgani kifoY.

Milliy xarakterdagi obrazni yaratishda aktyorlar qahramonining quyidagi jihatlariga e'tibor qaratadi:

- qahramonning tashqi qiyofasi (tashqi ko'rinish va liboslar xarakterni to'ldiruvchi vositalardir);
- qahramonning so'zlashuv uslubi (so'zlashuvdagi ohang, urg'ular, dialog va manaloglardagi tabiiylik, ma'lum so'z qoliplari, milliy maqol, matal va iboralardan foydalanish darajasi qahramonning milliy nutqini ta'minlaydi);
- qahramonning harakatlanishi (yurish, yugurish, xarakterga mos qo'pollik yoki ehtiyotkorlik, chaqqonlik yoki ezmalik kabi sifatlar harakatning tabiiyligini ta'minlaydi);

Aktyor aytilgan masalalar yuzasidan o'z tajribasini oshirish uchun ikki yo'lni tanlashi mumkin:

1. Doimiy ravishda odamlar orasida ularni kuzatib, xarakterlarini o'rganib, tajribaviy material to'plab boradi;
2. Ma'lum xarakterdagi rol berilganda uning prototiplarini kuzatish orqali o'z tasavvurini oshiradi.

Yuqoridagi muammolarni hal etish, aktyorning milliy xarakter yuzasidan o'z tasavvurlarini oshirish keyingi navbatda zamon qahramonlari, millat qahramonlari qiyofasini gavdalantirilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", T.: "Ma'naviyat" 2008.
2. "Milliy teatrimiz - iftixorimiz". O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning Toshkent shahrida Akademik drama teatri yangi binosining ochilishi marosimida so'zlagan nutqi. 2001 yil 30-avgust.
3. Qodirov M.X. muharrirligi ostida. "Istiqlol va milliy teatr", T.: "Yangi asr avlodi" 2002.

ESTRADA XONANDALARI IJODIDA AKTYORLIK MAHORATI



Shodiyeva Nafosat

“Estrada aktyorligi san’ati” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: s.f. n., dotsent T.M.Rashidov

Boshdanoq estrada xonandasi ishining xususiyatini aks ettiruvchi va artistlar, ularning ustozlari oldida turgan murakkab vazifalarning ikki tomonlama sintetik xususiyatini ochib beruvchi estrada san’atida sahna obrazini yaratish nazariyasi va amaliyotini belgilab olamiz.

Ta’bir joiz bo’lsa, bir hikmatni eslatmoqchimiz. Samolyot uchayotganda uni ikki qanoti osmonda ushlab turadi va harakat qildiradi. Estrada-sahna san’atida ham xuddi shu holatni ko’ramiz, negaki estrada ijrochisi mahorati ham vokal texnikasi va aktyorlik mahorati texnikasi singari ikki qanotda takomilga erishadi.

San’at va madaniyat institutining o’quv pedagogik amaliyotida ham vokal va aktyorlik mahorati (u estrada san’ati kafedrası deyiladi) singari ikki kafedra – ikki qanot mavjud.

Rol yoki qo’shiq ustida ishlash metodi ijodning har ikkala tomonini sifat jihatdan umumlashuvini va to’la uyg’unlashuvini talab etadi. Bizga repetitsiya jarayonining texnologiyasini ko’rsatuvchi bu metodikaning farqlovchi jihatlarini quyidagi qoidalar ko’rinishida belgilaymiz: nafaqat rol ijrochisi, balki sahna obrazi muallifi ham bo’lishi zarur; vokal partiyasini o’rganishning boshida obrazli va sahnaviy planda “rol yozish” (kompozitor va shoirning hammuallifi bo’lib qolish), bunday ishlarni barcha keyingi kurslarda ham davom ettirish; dirijyor bilan o’zaro aloqa usullarini takomillashtirish, uning ijodiy partnyori bo’lib qolish, lekin nigohiy aloqani tomoshabinga sezdirmaslik; o’z roliga rejissyorlik qilish va

maqsadli ravishda mustaqil ta'lim bilan shug'ullanish, ya'ni konkret estrada obrazini talqin qilish va sahna ko'rinishini yaratish uchun zarur bo'lgan o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.

Zamonaviy estrada artistlarining rol, qo'shiq ustida ishlash usullarini tahlil qilib, qiyoslab, chog'ishtirib va solishtirib estrada ijrochisi mahoratini shakllantirish jarayonida aktyorlik maktabi katta rol o'ynagan va yana o'ynashi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, ko'tarilayotgan muammolar na kuylash san'ati, na ovozning chiroyli tembrini izlash, na qo'shiqchi tomonidan vokal partiyasi ohangi va sur'atini egallash mavzusi, xatto talaffuz texnikasi bilan bog'liq bo'lmaydi, bu vokal, dirijyorlik va sahna nutqi bo'yicha o'qituvchilarning imtiyozi hisoblanadi.

O'z davrida taniqli opera artisti F.I.Shalyapin shunday degan edi: "Afsus bilan ta'kidlashim lozimki, haqiqiy vokalchi-artistlarni juda kam ko'rdim. Yaxshi va xatto ajoyib xonandalar bor, ammo vokal san'atkorlar, to'la ma'nodagi artistlar yo'q"¹³¹.

Hozirgi paytda estrada, teatr, konservatoriya, san'at va madaniyat muassasalari, matbuot, maishiy turmush kabilarda biz so'z yuritayotgan mutaxassislik quyidagi sinonimik qatorga ega: qo'shiqchi-aktyor, yakkaxon-vokalchi, artist-vokalchi, aktyor-qo'shiqchi.

Qo'shiqchi aktyor ijodi musiqa (qo'shiq) va drama (sahna mahoratining yuqori darajasi) singari ikki badiiy unurning birlashuvi, ularning ijodiy jarayon chog'ida yaxlit bir butun bo'lib qo'shiluvi bilan belgilanadi.

Keyingi o'rinlarda yuritiladigan fikr opera aktyori tomonidan sahna obrazi yaratish texnologiyasini o'rganish jarayoni, estrada qo'shiqchi aktyorlarni mexanik ijrochilar singari ikki psixologik toifaga ajratish va namunalariga yo'naltirish kabilar haqidagi masalalarni qamrab oladi.

Shunday qilib, mexanik ijrochi va ijodiy talqin etuvchi singari ikki turdagi artistlarni solishtirish zarurati paydo bo'ladi.

¹³¹ Shalyapin F.I. Literaturnoye nasledstvo. T. 1. – M., 1957. S. 349.

Mexanik ijrochilar orasida jahon darajasidagi ajoyib xonandalar nihoyatda ko‘p, lekin ular quyidagilarni o‘zining yo‘nalishi deb hisoblaydi. Ya’ni musiqani butun emotsional xususiyatlari bilan kompozitor yozib qo‘ygan bo‘ladi va vokal partiyasida yozilganlarni batafsil bajarish lozim bo‘ladi, xolos. Qo‘shiq sur‘atiga dirijyor rahbarlik qiladi, bunda xonanda taktdan adashib va orkestr maromidan chiqib ketmasa bo‘ldi. Uning sahna bo‘ylab harakatini rejissor belgilab beradi, u rejissor ko‘rsatmalarini aniq bajarsa bo‘ldi. Biror muammo paydo bo‘lmasligi uchun shularning o‘zi yetarli.

Ijodiy talqin qiluvchi xonandalar boshqacharoq fikr yuritadilar. Har bir inson va har bir estrada artisti betakror ijod namunasi hisoblanadi. Musiqali teatr, butun olam kabi metall prujinali, g‘ildirakli va g‘ildirakchali, pishangli va vintli oddiy mexanizm emas, balki bir aktyor shaxsini chiqarib yuborish va boshqasiga almashtirish darhol dramaturgik jarayonni ma’lum o‘zgarishga va ko‘plab sahnaviy vazifalarni qayta anglashga olib keluvchi qandaydir organizmdir. Dirijyor irodasi va rejissor nuqtai nazariga ergashib, vokal partiyasini bexato ijro etish yetarli bo‘lmaydi. Partiyani yodlash emas, rolga psixologik tayyor bo‘lish, uni mustaqil (dirijyor va rejissorning nuqtai nazarini hisobga olib) yaratish lozim bo‘ladi.

Afsuski, bu jarayonning yomon varianti ko‘p tarqalgan. Pioninochi bilan birga partiya, ya’ni kompozitor mazkur personajga bag‘ishlangan qator yod olinadi. Partiyaning bu qatorida, tabiiyki, jonli inson, uning xarakteri, dramaturgik vazifasi, yashashdan maqsadi kabilarni ko‘rib bo‘lmaydi. Bu faqat notalar, intervallar, ritm va bunga qo‘shimcha ayrim so‘zlar ketma-ketligidir. Bunday metod aktyorlik shtampiga olib keluvchi “rolni mexanik yodlashdir”.

Odatda “rolga sudrab chiqish metodi” tafakkur yurituvchi aktyor, yaratuvchi, muallif, ijodkor aktyorni yo‘q qiladi.

Haqiqat yuzasidan aytish kerakki, hamma ijodkor ham bunday ishlamaydi. Quvonchli, rolini to‘g‘ri anglaydigan va uni aql bilan qo‘shiq qilayotgan zamonaviy qo‘shiqchi-aktyorlar bor.

Tabiiyki, badiiy obraz yaratishgacha dastlab, yurishni o'rganishgagina harakat qilayotgan kishiga o'xshab vokal kurslarining alifbosini egallash bilan bog'liq sof texnik muammolarni hal qilish kerak bo'ladi. Ko'pgina pedagoglarning to'g'ri ta'kidlashicha, vokalchi-talabaning ta'limini ham kuylash texnikasi, ham badiiy obrazni ma'naviy tahlilini o'qitishdan boshlash kerak. Talaba bo'lajak kasbi qanday vosita, maqsad ekanligini yaxshi bilishi, texnik ko'nikmalar mashqlari mohiyatga bo'ysunishi uchun qanday fikrdan boshlash kerakligini yaxshi bilishi lozim.

Har bir ijrochi uchun vokalning texnik muammolari badiiy muammolargacha o'sib borishi individual xususiyat hisoblanadi. Ammo har bir shaxs uchun bu jarayonni o'tashi ham qarz, ham farz hisoblanadi. Shuni tushunish zarurki, tinglovchi-tomoshabin konsertga vokal texnikasidan baxra olish va ekzersislar bilan eshitish a'zosiga orom berish (faqat ayrim vokal oliftalarini hayratga soladigan) uchungina kelmaydi, balki shodlanish, qayg'urish, azoblanish, hamdard bo'lish uchun tashrif buyuradi.

Ammo ko'pincha xonandalarda vokal texnikasi muammosi shunchalik o'sib ketadiki, ularni o'qitish chog'ida yetakchi o'ringa chiqib qoladi va estrada artistini tarbiyalash chog'ida uning vazifasi kengayadi.

Bunga misol qilib shuni aytish mumkinki, vokal bo'yicha pedagog darsini talaba "mutaxassislik" mashg'uloti deb ataydi, qo'shiq aytishgina uning uchun mutaxassislik bo'lib qoladi. U tafakkur yuritishga, badiiy sahna obrazini yaratishga o'rganishi lozim bo'lgan aktyorlik mahorati darsi esa unga ikkilamchi mashg'ulot bo'lib qoladi.

Talabalar va yosh estrada artistlari o'z kasbining nazariyasi bilan kam qiziqadilar va uni yetarli darajada chuqur o'rganmaydilar. Ko'pincha ular o'z sohasiga oid atamalarni tushunmaydi ham. "Dramaturgik harakat" tushunchasini ular faqat jismoniy harakat va sahna bo'ylab oddiy yurishdan iborat deb tushunadi. Psixologik vazifani esa ular aktyorning tashqi moslamalari bilan qorishtirib yuboradi, "voqea" va "tavsiya etilayotgan vaziyat" kategoriyalarini

farqlamaydi. Tabiiyki, nazariy qoidalarni tuzukroq o'zlashtirmay, ularni keyinchalik amaliyotda qo'llay olmaydi va shu bilan o'z ijrosini qashshoqlashtirib qo'yadi.

Estrada – teatr san'atida kasb mahoratidan mahrum bo'lish – hozirgi davrimizdagi bosh badiiylilikni yo'qotish deyish mumkin. Estrada artistligi kasbining mohiyati haqida umumiy gaplar ko'p, lekin bu haqdagi bilimlar nihoyatda kam.

Yosh artistlar “estrada artisti tomonidan sahna obrazi yaratish texnologiyasi” muammolari bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotni deyarli o'qimaydi, “sahna ijodiyoti qonunlari”ni yuzaki o'rganadi. Bu vaziyat ixtisoslikka oid darslikning mavjud emasligi tufayli yanada keskinlashadi.

Estrada xonandalari aktyorlik mahorati bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarsiz ham ijod qilsa bo'ladimi, degan savol tug'iladi. Nazarimizda, xuddi vokal qatorlarini o'rganishda musiqa nazariyasi va solfedji odan bilim bo'lmasa musiqachilar ijod qilganidek, ular ham ijod qila oladi. Solfedji olash mahoratiga ega bo'lmasdan turib ham vokal partiyasini yod olish mumkin, bunda audio-yozuvni eshitish yoki konsertmeyster xizmatidan foydalanib, klavishlarni taqillatib, ohangni yodlab qolish mumkin. Ba'zi xonandalar xuddi shunday ish tutadi. Teatr amaliyotida xatto “partiyani plastinkadan yod oldim” degan gap yuradi.

Bunday ish bilan ko'proq havaskor jamoalari shug'ullanadi, haqiqiy professional ijodda bu haqda gap bo'lishi mumkin emas. Shundan ko'rinadiki, haqiqiy artist havaskordan musiqa nazariyasi, solfedjio, aktyorlik mahorati sohalaridagi bilimlari bilan ajralib turadi.

Albatta, ko'pgina aktyorlarda rol ustida ishlashning o'z usuli va uslubi, obraz yaratishga nisbatan o'z yo'li bor. Hech qanday takomillashgan tizim ham mukammal sahna obrazini yaratilishiga kafolat bermaydi. U faqat rol ustida ishlashga yo'l ochadi, maqsad yo'lida og'ishmay olg'a borishga imkon beradi.

K.S.Stanislavskiyning nazariy asarlarida biz estrada artisti uchun aynan shunday imkoniyatlarni topamiz (bu ko‘pyillik amaliyotdan kelib chiqqan).

Estradada qo‘shiq yaratish davrlarida o‘quv jarayonining xususiyatlaridan gap yuritib, sifatsiz ijroning bosh sabablaridan biri bo‘lgan so‘zga munosabat bilan bog‘liq yana bir muammoga e‘tibor qaratmoqchimiz.

Vokalchi uchun musiqa, ohang bosh masala, so‘z esa ikkilamchi, yordamchi ifodaviy vosita degan aqida tomoshabin-tinglovchi tomonidan matnni yaxshi tushunmasligining asosiy sababi hisoblanadi.

Ko‘pgina vokalchilar kuysiz qo‘shiq matnini hikoya qilib bera olmasligi mazkur fikrni tasdiqlaydi. Ular talaffuz qilinayotgan so‘zning ma’nosini o‘ylab ham ko‘rmay matnni mexanik tarzda, formal yodlab oladi. Ammo so‘z bosh ifoda vositasi hisoblangan dramatik artistlar ham bu kamchilikdan holi bo‘lmaydi.

Bu haqda K.S.Stanislavskiy ham shunday degan edi: “Botinan boyitilmagan va alohida olingan so‘z o‘zicha oddiy tovush, xitob hisoblanadi... Bunday xitoblardan iborat rol matni ma’nosiz tovushlar qatorini tashkil qiladi”¹³².

Tomoshabin “qator ma’nosiz tovushlarni” eshitib nima haqida qo‘shiq aytilayotganini tushunmagan paytda nima uchun bu xitoblar paydo bo‘ladi? Ehtimol aniq bo‘lmagan talaffuz, nutq texnikasi muammosi buning sabablaridan biridir? Darhaqiqat, u sabablardan biri, lekin bosh sabab emas.

K.S.Stanislavskiyning fikriga ko‘ra, “so‘zlarni mexanik valdirash bosh sabab hisoblanadi. Aktyorlar uchun sahnada mexanik nutq odati paydo bo‘ladi, ya’ni ular rol uchun yod olgan so‘zlarini ma’nosiz talaffuz qilaveradi, ularning botiniy ma’nosiga e‘tibor bermaydi”¹³³.

Mana shuning uchun ham aktyorlik mahorati ko‘nikmasini egallagan vokalchi uchun sahna obrazi yaratish muammosi, repetitsiya paytida personajning “ichki mohiyatini” va uni vokal-plastik talqini muammosi bosh sabab hisoblanadi.

¹³² Stanislavskiy K.S. Sobr. Soch.: V 8 t. M., 1954-1961. T.4. - S.121.

¹³³ Stanislavskiy K.S. Sobr. Soch.: V 8 t. M., 1954-1961. T.4. - S.121.

Adabiyotlar:

1. Shalyapin F.I. Literaturnoye nasledstvo. T. 1. – M., 1957.
2. Stanislavskiy K.S. Sobr. Soch.: V 8 t. M., 1954-1961. T.4.

TRAUBERG IJODIGA NAZAR



Shodiyeva Ziyoda

“San’at nazariyasi va tarixi” (Kinoshunos)

mutaxassislik 1-kurs magistri

Ilmiy rahbar: s.f.n., dotsent I. Abdurahmonov

Film yaralishida ssenarist, sahnalashtiruvchi rassom, operatorning o’rni beqiyos. Ana shu satrlar muallifi bo’lgan kamtargina rejissyor Leonid Trauberg ijodi, uning filmografiyasi kino ixlosmandlari nazaridan chetda qolmagan. Zero, kinoning dunyoga kelishini aslida rejissyorsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Bu mashhur va taniqli rejissyor 19-yanvar 1902-yilda Odessaning Xersonskaya guberniyasida tug’ilgan. Sovet davrida yashab ijod qilgan kinorejissyor va ssenarist. Petrograddagi komik opera studiyasida tahsil olib, 1919yil Odessa teatr studiyasiga asos solgan. Ikki yil o’tib Grigoriy Kozintsev bilan birga Neva shahriga qaytib, Ekstsentrik aktyor fabrikasini — FEKSni tashkil qilgan. 1924yilda Kozintsev bilan birga kinoga kirib keldi, ular birgalikda FEKS aktyorlari ishtirokida birinchi “Oktyabrinaning dunyo kezishi” filmini suratga oladi. Trauberg o’zining “Film boshlanmoqda” kitobining “Professiya” bobida ham shu film haqida yozib o’tgan. U yerda yozishicha, film ssenariysi Trauberg va Kozintsev tomonidan yozilgan va “Sevzapkino” ilmiy-badiiy kengashi tomonidan tasdiqlangan. Shunga qaramay, kengash maslahatchilaridan biri, bo’lajak rejissyor Ermler, Traubergga shunday degan edi: *“Ssenariyning tasdiqlanishi– aslida hech narsa emas. Asosiysi, rejissyor nimani yuzaga chiqarib berishida”*¹³⁴. Kinoda ko’p narsa o’zgaradi deyilganiga qaramay, 50yil o’tibdi-ki, Ermlarning aytgan so’zi o’z kuchini yo’qotganicha yo’q.

¹³⁴ Trauberg L. Film nachinayetsya. M., “Iskusstvo”, 1977

Traubergi ijodining namunalariga aylangan “Bir o’zi” filmi 1931-yilda suratga olingan. Drama janrida bo’lib, rejissyor Grigoriy Kozintsev bilan hamkorlikda ishlangan. Ssenariy mualliflari ham rejissyorlarning o’zlaridir. Bosh rollarni Yelena Kuzmina, Pyotr Sobolevskiy, Sergey Gerasimov, Yanino Jeymo talqin etgan. Fimning tasviriy yechimi operator Andrey Moskvina tomonidan bajarilgan. Kompozitor – Dmitriy Shostokovich. “Soyuzkino” kinokompaniyasi mahsuloti, film 80 daqiqa davom etadi. Mazkur badiiy film oq-qorarangda bo’lib, film avvaliga ovossiz bo’lib, keyinchalik ovozlashtirilgan. “Bir o’zi” filmi Trauberg ijodida realizmga o’tish kursi bo’lib xizmat qildi. Kompozitor Shostokovich uchun esa birinchi kino ishi edi. Film syujeti o’qituvchi ayol Yelena Kuzmina hayoti haqida hikoya qiladi. U pedagogik texnikumni tugatib, turmushga chiqishni rejalashtiradi, yaxshi va yengil hayot haqida orzu qiladi, faqatgina shahar markazida ishlashni xohlaydi... lekin uni chekka bir qishloqqa, Altayga yuborishadi. Yelena uchun bu barcha orzularga qo’yilgan nuqta edi. U o’z niyatlari barbod bo’lishidan qo’rqib, yuqoridagilarga ko’p bora yalinadi, sharoitini tushuntirishga harakat qiladi, uni markazda qoldirishlarni so’raydi. Uni iltimosini inobatga olib, markazda ishlagani qolishiga ruxsat berishadi. Lekin keyinchalik Kuzminada uyg’ongan jamoatchilik burchi uni o’z qarorini o’zgartirishiga sabab bo’ladi va qahramon Altayga yo’loladi. Belgilangan manzilga kelib, yosh o’qituvchi noqulay vaziyatga tushadi. Qishloqdagi siyosat juda tang ahvolda bo’lib, rais ham vijdotsiz inson edi. Kuzmina ilk kunlari o’zini maktab va bolalarga bag’ishlashga kirishadi, lekin qishloqda sodir bo’layotgan hodisalar uni hayotini chetlab o’tmaydi. Kuzmina esa bu siyosat va nohaqlikka qarshi aktiv kurashishga kirishadi, kulaklarga qarshi harakatga ketayotganda uni yo’lda yo’boshlovchi sotqin ayol chanadan itarib yuboradi. Ko’p vaqt o’tmay Kuzminani behush holda, muzlagan holatda qor orasidan topishadi. Uning qo’llari muzlagan edi. Bu voqea haqida butun qishloq tez orada xabar topadi. Zug’umga chidolmagan qashshoq xalq oxiri g’alaba qilib, tilyog’lama raisni kursisidan ag’darishadi. Markazga esa Kuzmina uchun tibbiy yordam so’rab xat yozishadi. Qisqa vaqt ichida o’qituvchiga

yordam samolyotini yuborishadi. Kasal Kuzminani kuzatgani butun qishloq ahli yig'iladi. U qaytishga va'da beradi. Altay u uchun jonajon o'lka bo'lib qoladi...

Trauberg va Kozintsev hamkorligida ssenariy yozilgan va rejissyorlik amalga oshirilgan filmlardan biri "Oddiy odamlar" dir¹³⁵. Bosh rollarni Yuriy Tolubeev, Olga Lebzak, Tatyana Peltsa ijro qilgan. Operatorlar: Andrey Moskvina, Anatoliy Nazarov, A.Sisov. Film 74 daqiqa bo'lib, drama janrida yaratilgan. Film oddiy insonlarning urush yillaridagi og'ir va xolisona mehnati haqida hikoya qiladi. Suratga olish ishlari O'zbekistonda ham bo'lib o'tgan. Voqealar ketma-ketligi Fashistlar Leningradga bostirib kelishlari bilan boshlanadi. Aviatsiya zavodini ishchilar bilan birga O'zbekistonga evakuatsiya qilishadi. Ishchilar orasida qariyalar, ayollar, bolalar ham bor edi. Ular frontda xizmat qilishni boshlashadi, shunga qaramay, 2 oydan so'ng zavod yana samolyot ishla chiqishi kerak edi. Kerakli joy topib, odamlar uskunalarini o'rnatib, ochiq osmon ostida ishlashni boshlaydilar. Ishchilarga minglab yangi odamlar qo'shiladilar. Ulardan ko'pchiligi o'z yaqinlarini yoqotgan edi. Zavod direktori Yeryomin boshiga ham kulfat tushadi, uning ayoli evakuatsiya paytida izsiz yoqolgan edi. Lekin u o'zini qo'lga olib, tun-u kun zavod yonidan jilmaydi. Tinim bilmaganiga taqdir tuhfasidek, uning ayoli topiladi, u nemislar qo'lga tushib, azoblanib xotirasini yoqotgan edi. Lekin uni shifokorlar davolashadi. Zavod o'zining O'zbekistondagi birinchi samolyotini ishlab chiqargan kuni Yeryominning ayoli shifoxonadan chiqadi. Ishchilar ularning xursandchiligiga sherik bo'ladilar.

Trauberg filmlarini ko'rgan tomoshabin uning asarlari tahlili va muhokamasiga o'zi ham oshufta bo'lib qoladi. Rejissyorning asosiy g'oyasi —film mavzularining maishiyliги va hayotiy bo'lishi kerakligi edi. Uning aytgan quyidagi gaplari jahon rejissura maktabida o'z o'rnini yoqotmay kelmoqda:

¹³⁵ N. A. agafonova. ekrannoye iskusstvo: xudojestvennaya i kommunikativnaya Spetsifika. U., "Minsk", 2009

“Rejissyorlikdan qoʻrqinchliroq kasb yoʻqdek goʻyo. Haqiqiy ijodkor rejissyor butun umrini suratga olish maydonchasida oʻtkazishga tayyor. U xuddi baliq suvsiz yashay olmagani singari kinosiz umrbod yashay olmaydi”¹³⁶.

OʻZBEKISTONDA REJISSYOR VA PRODYUSER INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI



Shukurov Davronbek

“Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ilmiy rahbar: dotsent F.Ahmedov

Mustaqillik sharofati bilan milliy bayramlarimizga katta eʼtibor berilib, xalqimizning maʼnaviy boyligi boʻlmish urf-odatlar ham tiklanmoqda. Bayramlar bilan birgalikda zamonaviy estrada tomoshalarining ham rivojlanayotganligi rejissyor va prodyuser integratsiyasining ahamiyati beqiyosligi isbotlanmoqda hamda tadbirlarning sifat darajasi oshishiga sabab boʻlmoqda. Shu oʻrinda integratsiya oʻzi qanday tushuncha degan savol tugʻiladi, albatta.

Bugungi globallashuv jarayoniga kelib kishilar integratsiyaning mohiyatini yaxshi anglashi zarur. “«Integratsiya»-lotincha «integration» soʻzidan olingan boʻlib, «integr» toʻliq, yaxlit, bir butun degan maʼnolarni anglatadi”¹³⁷ Integratsiya oʻzaro bogʻlangan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir.

Bu ikkala sohaning integratsiyasi zamonaviy bayram tomoshalarining rivoji uchun sezilarli hissa qoʻshadi.

¹³⁶ Trauberg L. Film nachinayetsya. M., “Iskusstvo”, 1977

¹³⁷ Akbarova N. Oʻzbekistonni jahon sivilizatsiyasiga integratsiyalashuvining gʻoyaviy-mafkuraviy asoslari. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Andijon. 2013, 18-b.

Bu jarayon quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- estrada tomoshalarini g'oyaviy kompozitsion jihatdan shakllantirishda;
- estrada san'atining ahamiyati va ta'sirini oshiruvchi vositalar yaratishda;
- ularning tomoshaviyligini ta'minlash maqsadida rejissyor va prodyuser hamkorligini mustahkamlashga oid masalalarni ilmiy jihatdan ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishda;

- zamonaviy estrada tomoshalarining ta'sirchanligini oshirishda, prodyuser ishining effektivligini rivojlantirishda, shaxsiy yondashuvni yanada mukammallashtirishda;

- ijodiy guruh bilan ishlashda differensial yondashuvning uslublarini ishlab chiqishda;

- ijodiy faoliyatni tashkil etishda prodyuserning iqtisod, huquq, menejment borasidagi faoliyatni shakllantirish uslublarini tadqiq etishda.

Prodyuser, eng avvalo, sarmoya topib tomoshabinlar talabini o'rganib chiqishi va talabdan kelib chiqib mahsulot ishlab chiqarishga kirishishi lozim. Prodyuserlar faoliyatini ikkiga ajratish mumkin:

- mablag' topadi, hujjat ishlari bilan shug'ullanadi, sahnalashtiradi, tayyor mahsulotni sotadi;

- loyiha yaratadi, mablag' bilan ta'minlaydi, hujjat ishlari bilan shug'ullanadi, ijodiy jamoani shakllantiradi, sahnadagi ish jarayoniga rejissyorni ma'sul qiladi va tayyor mahsulotni sotadi.

Shu o'rinda prodyuser so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratamiz: "Prodyuser" so'zi (ingl. producer < lot. producere) "yaratish", "ishlab chiqarish" degan ma'noni anglatadi. Prodyuser san'at borasida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyaviy, ma'muriy, texnologik va yuridik yo'nalishlarda boshqaradi."¹³⁸ Ijodiy jarayonda, loyihani amalga oshirishda u o'z mablag'ini sarf qilishi yoki chetdan homiylar mablag'ini jalb qilib, moliyaviy nazoratni amalga oshiradi.

¹³⁸ «Osnovi prodyuserstva» audivizualnaya sfera. Pod. red. Ogurchikova P. M., 2003. – S. 21.

Prodyuser kasbi vujudga kelgunga qadar san'atda prodyuserning ayrim vazifalarini bajaradigan turli yo'nalishlari mavjud bo'lgan.

Masalan:

- Ma'mur (administrator) loyihani amalga oshirishda, barcha guruhlarining ish faoliyatlarini olib borishlariga javob bergan;
- Antiprenyor – teatr san'ati sohasidagi ishbilarmon bo'lib, u bir marotabalik shaxsiy teatr loyihasi bilan shug'ullangan;
- Impresario – uning vazifasi tayyor mahsulotni sotish bo'lib, ijaraga joy topish, chiptalarni chop etib, ularni tarqatishdan iborat bo'lgan;
- Menejer – yollanma ishchi bo'lib, loyihani amalga oshirishda ishtirok etmay, balki oxirida qo'shilgan.

Prodyuserlik kasbi bir qancha turlarga bo'linib, bir-biridan farqlanadi. Bular quyidagilar:

- teatr prodyuseri;
- musiqiy prodyuser;
- o'yin prodyuseri (kompyuter o'yinlari sanoatida);
- film prodyuseri;
- televidenie prodyuseri;

Respublikamizda prodyuserlik kasbi endigina shakllanib, rivojlanmoqda. Asosan nodavlat televizion kanallarda, shaxsiy kino va teatr studiyalarida prodyuserlar faoliyatini kuzatishimiz mumkin. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida san'at raqobatbardoshligini, o'z-o'zini moliyaviy ta'minlay olishini, yaratilayotgan badiiy asarlarni tomoshabinga ommaviy ravishda yetkazishda prodyuserning xizmati beqiyosdir. Shu bilan birga san'at bozorida tomoshabinni ko'proq qaysi mavzu, muammo, masalalar qiziqtirishini, bu istak va xohishlardan kelib chiqqan holda san'at asari yaratilishi prodyuserning asosiy vazifalaridan biridir.

Qo'shiqchini biror tadbir yoki to'y-hashamlarda olib yurgan ma'murlar o'zlarini prodyuser deb ataydilar. Lekin, bu nom zamirida qanday funksiyalar va

vazifalar yotganini bilmaydilar. Albatta, prodyuserda san'atning qaysi bir yo'nalishi bo'lmasin, unda oliy ma'lumot bo'lishi, o'z sohasini mukammal bilishi lozim. Ma'mur bilan prodyuser o'rtasida katta farq bor. Lekin afsuski, O'zbekiston Oliy o'quv yurtlarida prodyuserlik sohasiga ixtisoslashgan ta'lim yo'nalishlari yoki mutaxassisliklari hozirgacha mavjud emas.

M U N D A R I J A

SO'Z BOSHI.....	3
Abdumannonov S. Teleseriallarda tarixiy shaxslarni aks ettirishning ahamiyati.....	6
Абдуллаев А. Современная экологическая культура узбекского народа...	10
Alijanova N. Badiiy madaniyatning estetik omillari.....	16
Atabayev X. Kinooperator izlanishlari muammolari.....	19
Azimov D. Mana'viy-marifiy faoliyat madaniyat va aholi dam olish markazlari ishining tarkibiy qismi sifatida.....	22
Bekmurotov B. Televizion pavilionlarda yorug'likning ahamiyati.....	26
Elov M. Rahmatjon tursunov ijod yo'li.....	30
Ergasheva S. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda jamoat tashkilotlarining o'рни.....	33
Fayzullayeva X. Bozor iqtisodiyoti sharoitida madaniyat va san'at muassasalari faoliyat yuritishining o'ziga xosliklari.....	36
Isayev K “Alpomish” dostonining o'rganilish masalalari.....	39
Isayev K. “Alpomish” dostoni milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri sifatida.....	43
Ismatullayeva R. “Maysaraning ishi” asarining spektaklga aylanish jarayoni (Bahodir Yo'ldoshev sintezdan qanday foydalandi va bu aktyorlarga nima berdi?).....	47
Ismoyilov N. Mavsumiy marosimlar va navro'z.....	50
Jovliyev J. Jadid dramaturgiyasida ziyolilar obrazi.....	54
Jo'rayeva H. Zamonaviy qo'g'irchoq teatrida dramaturgiya muammolari.....	58
Qalandarov I. Kinoda operatorning ijodiy izlanishlari.....	61
Karayeva F. Teatr aktyorlarini o'qitishda jahon mumtoz asarlarining ahamiyati.....	66
Karimov J. Tarixiy sahna asarlarining inson ma'naviyatiga ta'siri.....	69
Karimov M. Zamonaviy kinoda ifodaviy vositalar masalalari.....	74
Karimov M. Kinoda shaxsiy fikr almashinuvi.....	77
Karimov M. Kinoda falsafa.....	80
Karimov M. Tolerance is necessary condition of the world and socio-economic development of people.....	83
Karimov M. Становление музыкального театра оперетты в узбекистане.....	86
Karimov M. Искусство музыкального театра в контексте 45 летней истории ныне государственного театра музыкальной комедии (оперетты) узбекистана.....	88
Kuchkarov M. Xorazm vohasi musiqa madaniyatining tashkil topish tarixi....	92
Kuchkarov M. Xorazm ashula va raqs jamoalarining an'analari, janrlar, repertuarlar xilma-xilligiga xos tipologik yo'nalishlari.....	94
Madrimov Q. Spektakl yaratilishida rejissyor mahorati.....	96
Mamatqulova M. Zamon qahramoni – davr talabi.....	100

Mamatqulova M. Zamon qahramonini izlab.....	105
Markov S. The importance of english language for sound engineers' educational process.....	110
Muqimov Sh. Tijorat filmlarining badiiy taraqqiyoti masalasi	115
Muqimov Sh. Tijorat filmlarida ijtimoiy va maishiy mavzularning yoritilishi	117
Najmiddinova F. Rejissyorning ijodiy izlanishlari.....	120
Najmiddinova F. Sahna asari yaratishda adabiy manbaning oʻrni (Toshxoʻja Toʻjayevning “Yurak sirlari”, “Chin muhabbat”, “Ayajonlarim” spektakllari misolida)	125
Narzullayeva M. Globallashuv jarayonida madaniyatlararo xamkorlik.....	130
Nasriddinov R. Kinematografiya va dublyaj.....	134
Nogmanov R. 70-80 yillar oʻzbek dramaturgiyasida janrlar rivoji.....	137
Nogmanov R. Oʻzbek dramaturgiyasi rivojining dastlabki kursi namoyondalari. (Fitrat va Choʻlpon dramaturgiyasida tarixiy va zamonaviy mavzular).....	140
NosirovY. Theoretical aspects of filmmusic study.....	144
NosirovY. Использование авторской песни в фильмах.....	147
Nuraliyev D. Oʻzbek dublyaj sanʼatida ilk qadamlar: tahlil va izlanish.....	151
Наурызбаев С. Қазақстандағы авторлық кинематографтың өзекті мәселелері.....	154
Oʻrinov Sh. Madaniyat va aholi dam olish markazlarini rivojlantirish masalalari.....	160
Oʻtepbergenov A. Qoraqalpoq milliy bayramlarining xususiyatlari.....	165
Oxundi A. The artistic is the most comprehensive factor for entering the heart of people.....	169
Pirnazarov S. Estrada sanʼatida rol va obraz.....	171
Qayumov Sh. Xalq sayillarini oʻtkazishda ovoz rejissorining oʻrni (Navroʻz bayrami misolida).....	174
Qodirov U. Zamonaviy oʻzbek kino sanʼatida professionalizmni rivojlantiruvchi omillar.....	178
Qodirov F. “Diydor” teatr-studiyasi tarixiga qisqacha nazar.....	183
Rajabova Sh. Qiziqilar sanʼati.....	186
Rasulov Sh. Oʻzbek xalq urma zarbli cholgʻulari.....	191
Raxmonova D. Oʻzbekiston televideniyesida ovoz rejissurasi (Kasb mahorati).....	194
Raxmonova D. Ovoz rejissurasi sanʼat sifatida (Kino misolida).....	201
Raxmonova K. Teatr rivojida zamonaviy targʻibotning ahamiyati.....	204
Said Turgʻutxonov Said Dalilxon Teleoperatorlik sanʼati va ssenariy	207
Saribaeva Sh. Saving and transmission of cultural heritage by means of information technologies.....	210
Supiyev B. Umrboqiy spektakl (“Karvonsaroy” spektakli misolida).....	212
Supiyev B. Istiqlol yillarida Respublika qoʻgʻirchoq teatridagi izlanishlar	216

Sovutova S. Musiqali teatr aktyori ijrosida kuy, xatti-harakat va tuyg‘ular uyg‘unligi.....	220
Sultonova D. Ma’naviy tahdidlarni oldini olishda institutsional tizim vositalari.....	225
Sunnatillayev A. O‘zbek marosim qo‘shiqlaridan o‘lanning etnik va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	229
Tadjibayeva N. Madaniyat va san’at menejmentining zamonaviy konteksdagi o‘rni.....	235
Talipov A. O‘zbek milliy musiqasining shaxs tarbiyasidagi ma’naviy va estetik ahamiyati.....	240
Talipov A. Jamiyat ma’naviy taraqqiyotida musiqa festivallarining ijtimoiy ahamiyati.....	244
Teshabayeva M. Radioteatr elementlari.....	247
Tilavova Z. Madaniyat taraqqiyotida transformatsion jarayonlar.....	251
To‘laganov E. Madaniyat taraqqiyotida transformatsion jarayonlar.....	256
Ubaydullayeva M. Dramada muallif mahorati.....	259
Valiyev S. Estrada san’atining o‘ziga xosligi va badiiy vazifalari.....	263
Xamidova Ch. Zamon bilan hamnafas o‘zbek aktyorlik san’ati.....	266
Xushvaqtov E. O‘zbekistonda vokal san’ati paydo bo‘lishining ijtimoiy-tarixiy asoslari.....	269
Zamatdinov A. Teatr sahnasida milliy xarakterdagi obrazlarni yaratish masalasi.....	275
Shodiyeva N. Estrada xonandalari ijodida aktyorlik mahorati.....	278
Shodiyeva Z. Trauberg ijodiga nazar.....	284
Shukurov D. O‘zbekistonda rejissyor va prodyuser integratsiyasining ahamiyati.....	287

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

SAN’AT VA MADANIYAT MASALALARI
YOSHLAR NIGOHIDA

Institut magistrantlarining V an’anaviy ilmiy-nazariy
Konferensiyasi

Muharrir: *SH.Kusheraeva*
Musahhih: *B.Atabayeva*
Texnik muharrir: *Z.A.Abdikayumov*

Bosishga ruxsat etildi: 12.05.2017 y.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Shartli bosma tabog‘i: 18.75
Buyurtma raqami № 14
Adadi: 70 nusxa

MCHJ “Fan va ta’lim poligraf” bosmaxonasida chop etildi
100170, Toshkent shahar, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 24-uy.